

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Toshkent Moliya instituti**

**O.T. Yuldashev, Sh.A. Zakirxodjayeva**

# **HAYOT SUG‘URTASI**

**Darslik**

**Toshkent – 2020**

UO‘K: 368.91 (075)

KBK: 65.271ya7

Yuldashev O.T., Zakirxodjayeva Sh.A. Hayot sug‘urtasi. Darslik/ Toshkent Moliya instituti – T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2020. - 381 bet.

Darslik “Hayot sug‘urtasi” fani dasturi asosida yozilgan bo‘lib, unda hayot sug‘urtasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, hayot sug‘urtasining ob‘ekti va predmeti, hayot sug‘urtasini amalga oshirishning huquqiy asoslari, hayot sug‘urtasida yuzaga keladigan risklar, hayot sug‘urtasining turlari, uzoq va qisqa muddatli hayot sug‘urtasi, hayot sug‘urtasida sug‘urta shartnomalarini tuzish, hayot sug‘urtasini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, hayot sug‘urtasida tarif stavkalari, hayot sug‘urtasida aktuar hisoblarni amalga oshirish, hayot sug‘urtasida sug‘urta zahiralarni shakllantirish, tibbiy sug‘urta va sog‘liqni sug‘urtalashga oid masalalar o‘z aksini topgan.

Darslik talabalar, magistrantlar, tadqiqotchilar, iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, mamlakatning sug‘urta sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi mutaxassislar va sug‘urta sohasining muammolari bilan qiziquvchi barcha o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: Vaxabov A.V. – O‘zbekiston Milliy universiteti  
“Makroiqtisodiyot” kafedrasini mudiri,  
i.f.d., prof.

Raxmonov D.A. – O‘zbekiston Respublikasi Bank-  
moliya akademiyasi “Moliya”  
kafedrasini mudiri, i.f.d., prof.

UO‘K: 368.91 (075)

КБК: 65.271ya7

**Hayot sug‘urtasi:** Darslik / O.T.Yuldashev, Sh.A.Zakirxodjayeva; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 381 b.

Darslikda hayot sug‘urtasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, hayot sug‘urtasini amalga oshirishning huquqiy asoslari, hayot sug‘urtasida yuzaga keladigan risklar, hayot sug‘urtasining turlari, uzoq va qisqa muddatli hayot sug‘urtasi, hayot sug‘urtasi shartnomalarini tuzish, hayot sug‘urtasini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, hayot sug‘urtasida tarif stavkalari, hayot sug‘urtasida aktuar hisoblarni amalga oshirish, hayot sug‘urtasida sug‘urta zahiralarni shakllantirish, tibbiy sug‘urta va sog‘liqni sug‘urtalash masalalari ochib berilgan bo‘lib, u 5231200-“Sug‘urta ishi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining “Hayot sug‘urtasi” fanidan darslik sifatida tavsiya etiladi.

В учебники описывается возникновение и развитие страхования жизни, правовые основы осуществления страхования жизни, риски, возникающие при страховании жизни, виды страхования жизни, долгосрочное и краткосрочное страхование жизни, составления договоров страхования жизни, особенности организации страхования жизни, тарифные ставки в страховании жизни, осуществление актуарных расчетов при страховании жизни, формирование страховых резервов в страховании жизни, медицинское страхование и страхование здоровья, и рекомендуется по предмету “Страхование жизни” направлению образования бакалавриата 5231200 - “Страховое дело”, в качестве учебник.

The textbooks describes the emergence and development of life insurance, the legal framework for the implementation of life insurance, the risks arising from life insurance, types of life insurance, long-term and short-term life insurance, drawing up life insurance contracts, features of life insurance, life insurance rates, implementation actuarial calculations for life insurance, the formation of insurance reserves in life insurance, medical insurance and insurance of health, and it is recommended to study the subject of “Life Insurance” in the direction of bachelor’s education 5231200 – “Insurance”, as a textbook.

## KIRISH

Sug'urta sohasidagi dastlabki islohotlar uning qonunchilik bazasini mustahkamlashdan boshlanib, bu boradagi ishlar jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy an'analariga muvofiq ravishda takomillashtirilmoqda. Davlatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng sug'urta tizimida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bozor munosabatlari sharoitida sug'urta tizimi mamlakat hayotining iqtisodiy dastaklaridan biri sifatida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimoli bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida muhim o'rin egallagan. Zero, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kutilmagan turli hodisalar bo'lishi mumkin. Ularni sug'urtalash orqali taraqqiyotdagi muvozanatni saqlab turish mumkin.

Hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urta tarmog'ining asosini tashkil etib, mazkur sug'urta orqali insonning hayoti uning vafot etishidan, ma'lum yoshga etishidan, kasallikdan, baxtsiz hodisadan, inson hayotidagi muhim voqealar hisoblanuvchi farzand tug'ilishi, nikohga kirishish va boshqa holatlar natijasida yuzaga keladigan moddiy manfaatlar tomonlar o'rtasida ixtiyoriylik asosida tuzilgan sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta summasi doirasida sug'urtalovchi tomonidan qoplab berilishidan iborat sug'urta faoliyatidir.

Mamlakatimizda sug'urta bozorini sifat jihatdan modernizatsiyalash natijasida milliy sug'urtalovchilar tomonidan aholiga 200 dan ortiq sug'urta xizmatlari taklif etilayotgani O'zbekiston sug'urta bozorini taraqqiy etib borayotganidan dalolat beradi. Bu o'z navbatida, sug'urta bozorini sog'lom raqobat asosida rivojlanishiga zamin yaratdi.

Hayot sug'urta kompaniyalari faoliyatining olib borilishi hamda hayot sug'urtasidan samarali foydalanish yo'llarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, hozirgi paytda sug'urta kompaniyalari jahondagi har bir davlatning eng muhim moliyaviy institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy o'sishning sifatiga, ijtimoiy

farovonlikning darajasiga, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy iqtisodiyotda investitsion faoliyatni rivojlantirish masalalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shuning uchun ham keyingi yillarda sug'urta sohasiga, jumladan, hayot sug'urta tarmog'iga katta e'tibor bilan qaralayapti.

Qolaversa, hayot sug'urta tarmog'ida faoliyatini tashkil qilayotgan sug'urta kompaniyalari soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Bu esa, sug'urta sohasida etuk mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Bu boradagi ishlarni muvaffaqiyatli hal etish, sohaga oid darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash hamda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarga yetarlicha zamonaviy bilimlar berishni taqozo qilmoqda. Qo'lingizdagi "Hayot sug'urtasi" deb nomlangan darslik ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Darslikda hayot sug'urtasining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi qisqacha tarzda yoritilgan. Hayot sug'urtasida sug'urta shartnomalarini tuzish, tarif stavkalari va aktuar hisoblarni amalga oshirish, sug'urta zahiralarni shakllantirish masalalari o'z ifodasini topgan. Hayot sug'urtasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan.

Darslikning har bir bobidan so'ng unda aks ettirilgan fikrlarning mohiyatini idrok etish, o'quvchining fikrlash qobiliyatini charxlash, uning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun nazorat savollar keltirilgan.

Darslikning sifatini oshirishga (yaxshilashga) xolisona xizmat qiladigan fikrlarning barchasini mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

# **1-BOB. HAYOT SUG‘URTASINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI**

## **1.1. Hayot sug‘urtasining ilk paydo bo‘lish tarixi**

Insonlarning hayot va sog‘ligi bilan bog‘liq risklar bo‘yicha pul fondlarining shakllanishi va zararni taqsimlash haqida antik davrga xos bo‘lgan ko‘plab fikr mulohazalar mavjud. Dalillarga ko‘ra, Rim professional va harbiy jamoalarining kassalarini, shuningdek dafn uchun tashkil etilgan kassalarni ilk o‘zaro kassalar deb hisoblashimiz mumkin. Rim jamoasining nizomida oddiy a‘zolariga umumiy kassa uchun davriy a‘zolik badallarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Bundan maqsad shuki, jamoa a‘zolari o‘lim yoki baxtsiz holat yuz bergan holatda dafn marosimi xarajatlari, nogironlik xarajatlari, halok bo‘lgan fuqaroning oilasiga moddiy yordam ko‘rsatish xarajatlarini ushbu kassadan to‘lab berganlar.

Shuningdek, o‘zaro shaxsiy sug‘urtaning oddiy ko‘rinishi o‘rta asrlarda hunarmand tsexlar va gildiyalar doirasida mavjud bo‘lgan. Hunarmandlarning o‘zaro sug‘urtasi to‘g‘risidagi ilk qarashlar Angliyada -X asrda, Germaniyada-XI asrda, Daniyada-XII asrda paydo bo‘lgan. Tsexlar va gildiyalarning ustavlarida a‘zolar o‘rtasidagi barcha o‘zaro aloqalarni tashkil etish tartibi shuningdek a‘zolik badallarining to‘lanishi va umumiy kassadan xarajatlarni amalga oshirish tartibi keltirib o‘tilgan. Tsex kassasi ko‘p maqsadli xarakterga ega bo‘lib, mulkiy zararlarni qoplash uchun ijtimoiy to‘lov bo‘lib ham xizmat qiladi. Tsex kassasi dafn xarajatlari, halok bo‘lgan shaxsning oilasiga yordam, og‘ir kasal va nogironlarga yordam pullarini to‘lab bergan.

Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi o‘zaro yordam aloqalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi va ularni haqiqiy sug‘urta tamoyillari asosida tashkil etilishiga zamin yaratdi. Qonun bo‘yicha XV-XVII asrlar Evropada sug‘urta munosabatlarining keng tarmog‘i o‘rnatilgan davr deb ataladi. Sug‘urta jamiyati bilan bir vaqtda mulkiy risklar va o‘zarolik tamoyillariga asoslangan hayot sug‘urtasiga doir turli tashkilotlar vujudga kela boshladi. 1653 yil Fransiyada “tontine” deb atalgan umrining qolgan qismi bilan bog‘liq lotoreya vujudga keldi.

XVI asrning oxirlarida Angliyada hayot sug'urtasining faqatgina o'z a'zolarining o'limi holatlarida belgilangan summani to'lab beruvchi jamiyati rivojlandi. Evropada XVII-XVIII asrlar oralig'ida hayot sug'urtasi dengiz sug'urtasiga qo'shilganligi sababli o'z faolyatining asosiy ko'rinishiga ega bo'ldi. Kema va yuklarning sug'urtasi bilan bog'liq naryadlar kema kapitani bilan hayot sug'urtasi shartnomasi tuzishni taqozo etdi. XVII asr o'rtalarida Londonda Flit-Strit klubida tashkil topgan tahliliy tashkilot Lloyd ushbu turdagi sug'urta faoliyati bilan shug'ullandi. Ushbu klub a'zosi bo'lishni hojlagan, lyokin, klubga qabul qilinmagan ingliz tadbirkori Djeyms Dodson 1663 yilda ilmiy statistika bazasi sohasidagi hayot sug'urtasi bo'yicha o'z jamiyatini tuzishga qaror qildi. U Londondagi turli xil qabristonlar bo'yicha barcha ma'lumotlarni to'pladi, vafot etganlarning o'rtacha yoshini, ularning yillar bo'yicha sonini hisobladi va ushbu statistik ma'lumotlardan sug'urta mukofotini hisoblashda foydalandi. Sug'urta tarixida uning ushbu izlanishlari hayot sug'urtasi tashkilotlarida ilmiy yondashuvning tadbiriq etilishida asos vazifasini bajargan deb hisoblanadi.

Rossiyada hayot sug'urtasi biroz keyinroq vujudga keldi. XVIII asr oxirlarida davlat buyrug'i bo'yicha ruscha negizda sug'urta munosabatlarini joriy qilishga urinish boshlandi. 1771 yilda yagona g'azna to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga ko'ra bu tashkilot davlat hayot sug'urtasi bo'yicha ko'rsatmalar berishi zarur bo'lgan, ammo bu amaliyotda o'z tasdig'ini topmagan. Faqatgina 1860 yilga kelib birinchi o'zaro shaxsiy sug'urta tashkiloti paydo bo'ldi. Bu buyurtmachilar, tipografik va hunarmand ishchilarning o'zaro sug'urta jamiyati hisoblangan. Davriy sug'urta to'lovlarini to'lash orqali jamiyat a'zolari kasal bo'lgan, ishsiz, tibbiy yordam olish, kam miqdorda pensiya tayinlangan holatlarda mablag' olish huquqini qo'lga kiritganlar.

Hayot sug'urtasining ilk ildizlari qadimgi Hindistonga borib taqaladi. Hindiston xalqi yordamga muxtoj bo'lganlarga yordam ko'rsatish maqsadida pul fondlari tashkil qilganlar. Ushbu pul fondlaridan yordamga muxtoj bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan aholi qatlamlariga moddiy yordam ko'rsatganlar.

Qadimgi Rimda esa bunday pul fondlari ma'lum bir mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi mehnat jamoalari orasida jamg'arilgan. Ular jamg'arilgan pul fondlari hisobidan mehnat jamoasining biror a'zosi mehnat faoliyati jarayonidagi baxtsiz xodisa natijasida kasallansa yoki vafot etsa ularning yaqinlariga moliyaviy yordam ko'rsatganlar.

O'zining alohida prinsplarini shakllantirgan hayot sug'urtasining dastlabki ko'rinishlari Evropada XVII-XVIII asrlarda dengiz sug'urtasiga qo'shimcha tarzda tashkil etilgan. Kemalarni va yuklarni sug'urtasi bilan birga kema kapitanlarini hayoti sug'urta qilingan, chunki kema kapitanlari kema va yuklarga javobgar shaxs hisoblangan.

Birinchi hayot sug'urtasi jamiyati Angliyada 1706 yilda tashkil etilgan. XIX asr oxirlariga kelib hayot sug'urtasi jamiyatlari butun G'arb davlatlari orasida shakllanib bo'ldi. 1846 yilga kelib Rossiyada hayot sug'urtasini amalga oshiruvchi birinchi "Salamandra" deb atalgan sug'urta jamiyati tashkil topdi. 1918 yilga kelib Rossiya sug'urta jamiyatlari hayot sug'urtasining yagona bosh qism bo'lib qoldi. 1990 yil boshlariga kelib esa hayot sug'urtasi butun sobiq sovet davlatlari orasida yetarli darajada mashhur bo'lgan edi.

1917-1990 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda hayotni sug'urtalash "Gosstrax" tomonidan bajarib kelingan. Mustaqillikdan keyin esa sohaga e'tibor kuchaydi.

O'zbekistonda hayot sug'urtasining paydo bo'lishi va rivojlanishiga quyidagilar sabab bo'lgan deb hisoblash mumkin.

1) oila boquvchisidan ajralish yoki oila boshlig'ining daromad olishining yo'qolishidan oilani himoya qilish zarurati;

2) biznes bo'yicha hamkorning, korxonah rahbarining yoki muhim xodimning vafot etishi natijasida korxonaning faoliyat ko'rsatishining va biznesning davomiyligining yo'qolishidan himoyalaniish zarurati;

3) zayom, ssuda yoki ipoteka krediti olish uchun kafolatga ega bo'lish;

4) jamg'arma tashkil etish;

5) merosni himoya qilish, jumladan:



- hayot sug'urtasi polisi hisobidan meros solig'ini to'lash;
- merosxo'rlardan biriga meros mulkini o'tkazishni engillashtirish;

6) dafn marosimi xarajatlarini to'lash;

7) shaxsiy sug'urtaning sug'urta mukofotlari va sug'urta qoplamalari bo'yicha soliq imtiyozlarining mavjudligi, jumladan:

- to'langan sug'urta mukofotlari to'lanadigan daromad solig'ining kamaytirilishiga olib keladi;

- sug'urta qoplamalari soliqdan ozod qilinadi, mulk meros bo'lib o'tgan holatda meros solig'i to'lashdan ozod qilinadi va boshqa shu kabi soliq imtiyozlari bo'lishi mumkin.

## **1.2. Tijoratga asoslangan hayot sug'urtasining evropa mamlakatlarida paydo bo'lishi va rivojlanishi**

1740 yilda birinchi ixtisoslashtirilgan sug'urta kompaniyasi „Ishonchli hayot jamiyati” tashkil qilindi, 1762 yilda esa aktuar hisob –kitoblardan va to'lov va badallarning qattiq yo'lga qo'yilgan tartibidan foydalanuvchi birinchi tijorat sug'urta kompaniyasi, “Adolatli hayot sug'urta jamiyati” paydo bo'ldi. Aynan shu yerda ijtimoiy risklar sohasidagi sug'urta biznesining uzoq tizimli rivojlanishi uchun asoslar yaratildi.

Hayot sug'urtasi tadbirkorlikning o'ziga xos turi sifatida XVII-XVIII-asrlarda Evropada dengiz sug'urtasiga qo'shimcha sug'urta turi qilib belgilandi. Ya'ni, kemalar va yuklarni sug'urtalash bilan birga kema kapitanlarining hayoti ham sug'urtalana boshlandi. Londonda Lloyds kompaniyasining tashkil etilishi bilan bir vaqtda kema kapitanlarining hayotini sug'urtalash bilan shug'ullanuvchi Flit-strit klubi tashkil etildi. Ushbu klub a'zosi bo'lishni hojlagan, lyokin, klubga qabul qilinmagan ingliz tadbirkori Djeyms Dodson 1663 yilda ilmiy statistik bazaga asoslangan hayot sug'urtasi jamiyatini tashkil etishga qaror qildi. Djeyms Dodson Londondagi har xil qabristonlardan ma'lumotlar yig'ib, bir yilda vafot etganlarning soni va o'rtacha umr ko'rish yoshi statistikasini tayyorladi va ushbu

tayyorlangan statistik ma'lumotlardan sug'urta mukofotlarini hisoblashda foydalangan.

Shuning uchun ham hayot sug'urtasining vatani Angliya hisoblanadi. Hayot sug'urtasining rivojlanishida Angliya sug'urta jamiyatlarining roli juda kattadir. Birinchi sug'urta jamiyati 1698 yil Londonda tashkil etilgan. Birinchi hayot sug'urtasi jamiyati ham 1706 yilda "Emikebl" ("do'stona") nomi bilan Angliyada tashkil etilgan. Lyokin, shaxsiy sug'urta bo'yicha hisob-kitoblar rivojlanmagan edi. Tarif stavkalar tizimi oddiy bo'lib, yosh bo'yicha farqlanmagan edi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, "Refyudj iskendj" va "London inshurens korporeyshn" kabi jamiyatlar tashkil etilgan.

Inglizlar hayot sug'urtasining asoschilari hisoblanadilar, ular ushbu sug'urta turining hozirgi davrda ham foydalanilayotgan asosiy elementlari va hisoblash metodlarini yaratganlar. Angliyada 1830 yildayoq 35 ta yirik va o'nlab kichik hayot sug'urtasi jamiyatlari faoliyat ko'rsatardi. 1762 yilda Angliyada birinchi tijorat sug'urta tashkiloti tashkil etildi. Ushbu tashkilot birinchilardan bo'lib aktuar xisob-kitoblardan foydalandi. Bu esa o'z navbatida hayot sug'urtasi yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. 1765 yilga kelib "Ekvitebl" jamiyati tashkil etildi. Bu jamiyat a'zolari esa mashxur olim R.Prays tomonidan jamlangan va qayta ishlangan aholining vafot etish o'rtacha yoshi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda tarif stavkalarini ishlab chiqdilar. Uni natijasida yangi hayot sug'urtasi jamiyatlari shakllana boshladi.

Ko'p vaqt o'tmasdan hayot sug'urtasi jamiyatlari boshqa davlatlarda ham tashkil topa boshladi. 1829 yilda Fransiyada, 1827 yilda Germaniyada, 1830 yilda AQSHda, 1835 yilda Rossiyada hayot sug'urtasi jamiyatlari tashkil topdi. Evropada hayot sug'urtasining aksiyadorlik shaklidagi jamiyati birinchi bo'lib Fransiyada 1787 yilda Compagnie Royal d' Assurances nomi bilan tashkil topdi. Aksiyadorlik shaklidagi hayot sug'urtasi jamiyatlari keyinchalik Italiyada, Germaniyada shakllanib bordi. XIX asr oxiriga kelib esa bunday jamiyatlar butun Evropa davlatlarini qamrab oldi.

Aslini olganda, hayot sugʻurtasi dengiz sugʻurtasi va olov sugʻurtasidan chamasi 100 yillar keyin shakllangan. Bunga sabab hayot sugʻurtasi dengiz va olov sugʻurtasidan koʻra ancha jiddiy tarzda ilmiy asoslangan boʻlishi lozim edi. Chunki hayot sugʻurtasida tariflarni ishlab chiqish eʼxtimollar nazariyasi va statistika asosidagi aktuar hisob-kitoblar yuritish orqali amalga oshiriladi. XVII-XVIII asrlarda statistika, ehtimollar nazariyasi fanlarining rivojlanishi hayot sugʻurtasining taraqqiy etishiga sabab boʻldi.

Inliz olimi Edmund Galley aktuar hisob-kitoblar nazariyasi bilan shugʻullanish mobaynida Breslavl shahrida 1687-1691 yillar oraligʻida vafot etganlarning roʻyxatini tuzib, vafot etish jadvalini yaratdi. U vafot etish jadvalini asosiy funksiyalariga taʼrif berdi, yashash va vafot etish ehtimollik darajasini hisobladi, oʻrtacha umr koʻrish yoshini hisobladi, vafot etish jadvallari asosida sugʻurta badallari miqdorini aniqlash mumkinligini koʻrsatib berdi. Galley tuzgan jadvaldan hozirgi davrda ham foydalanilmoqda. Keyinroq, ingliz matematigi A.Muavr E.Galley tuzgan vafot etish jadvalini oʻrganib, aktuar hisob-kitoblarni soddalashtirishga erishdi. U Gollandiya, Fransiya mamlakatlari va London shahridagi sugʻurtalanganlardan vafot etganlarining maʼlumotlari asosida uchta alohida jadvallar tuzdi. Shunday qilib, XVII-XVIII asrlarda ehtimollar nazariyasi rivojlandi, aholining vafot etish yoshi toʻgʻrisidagi statistik maʼlumotlar yigʻilib bordi. Buni natijasida esa hayot sugʻurtasi ilmiy asoslangan holda shakllanib bordi. Bu esa oʻz navbatida hayot sugʻurtasini keng miqyosda rivojlanib dunyoning barcha mintaqalarida amaliyotga tadbiq etilishida namoyon boʻldi.

1863 yilda “Hayot” nomi ostida hayot sugʻurtasi boʻyicha birinchi tijorat sugʻurta jamiyati tashkil etildi. 1883 yilda ishchilar toʻlovlari umumdavlat subsidiyalari yoki davlat gʻaznasi hisobidan shakllantiriladigan “Umumdavlat doimiy kassasi” toʻgʻrisidagi qonun qabul qilindi. Nafaqa va pensiyalar mansab va lavozimiga bogʻliq ravishda ish haqiga nisbatan foizlarda toʻlangan. 1913 yilda K.G.Voblogoning baholashiga koʻra bir milliondan ortiq odam doimiy kassa orqali sugʻurta qilingan. XX asrning boshlarida pensiya kassasi deyarli barcha davlat

vedemostlari va ko'plab professional birlashmalarida u yoki bu ko'rinishda amal qilgan.

Sobiq sovet davlatlarida ham hayot sug'urtasi shakllana bordi. 1960-1980-yillarga kelib sobiq sovet tarkibiga kiruvchi davlatlari orasida hayot sug'urtasining yangi turlari keng tarqala boshladi. 1990 yil oxirlarida 85 mln. dona hayot sug'urtasi shartnomasi imzolanganligi hayot sug'urtasining shu davrda yetarlicha mashhur bo'lganligidan dalolat beradi.

Hayot sug'urtasida inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlar sug'urtalanadi. Bunda inson hayotiga zarar etganda, mehnatga layoqatini yo'qotganda, nogironlikka chalinganda belgilangan sug'urta ta'minotlari (sug'urta puli) to'lash orqali ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi. Shunday ekan hayot sug'urtasi insoniylik, ijtimoiylik prinsplarini o'zida aks ettiruvchi, aholini moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi dastak bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'plab xorijiy davlatlarni oladigan bo'lsak yig'ilgan sug'urta mukofotlarining asosiy qismini hayot sug'urtasi tarmog'idagi sug'urta turlaridan tushgan sug'urta mukofotlari tashkil qiladi. Chunki hayot sug'urtasi orqali davlatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari o'z echimini topadi. Bu muammolarga uzoq muddatli investitsiya mablag'lari etishmasligi, fuqarolarning hayotiga kutilmagan baxtsiz xodisalardan etkazilgan moliyaviy zararlarni qoplashga mablag'larning etishmasligi, ularning nafaqaga chiqqanlarida yetarlli darajada yaxshi hayot kechirishlari uchun mablag'larning kamligi va boshqa shu kabi muammolar aynan hayot sug'urtasini keng miqyosli amalga oshirilishi natijasida bartaraf etiladi.

Hayot sug'urtasi o'zida jismoniy shahslarni himoyalash vositasi sifatida qaltislilik, investitsion va jamg'arish funksiyalarini namoyon etadi. Unga muvofiq sug'urtalovchilarni investitsiya jarayonlaridagi faoliyatini kuchaytiradi, sug'urta qildiruvchilar (sug'urtalangan shaxslar)ni mablag'lari jamg'arishlari orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

### **1.3. Hayot sug'urtasining O'zbekistonda paydo bo'lishi va rivojlanishi**

Mamlakatimizda hayot sug'urtasi sovet tuzumi davrida birmuncha rivojlandi. Mamlakat bo'ylab barcha sug'urta xizmatlarini, shu jumladan hayot sug'urtasi xizmatlarini yagona davlat sug'urta tashkiloti (GOSSTRAX) amalga oshirdi va natijada mamlakatda sug'urta bozori va raqobat tushunchalari shakllanmadi. Bu esa o'z-o'zidan hayot sug'urtasining rivoji boshqa Evropa, Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlardan sezilarli darajada orqada qolishiga sabab bo'ldi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin o'tish davri yillarida inflyasiya darajasining birmuncha yuqori bo'lganligi hayot sug'urtasi xizmatlarining ko'lami kamayib ketishiga olib keldi. O'tish davrining yakunlanishi va mamlakatimiz o'rtacha rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi bilan hayot sug'urtasida ham rivojlanish yuz bermoqda. Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi bilan "O'zbyokinvest-hayot", "Agros hayot" ShK, "Alfa life" MChJ, "New life insurance" MChJ sug'urta kompaniyasi shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Sug'urta kompaniyalarining hozirgi paytdagi muhim vazifalaridan biri potentsal sug'urtalanuvchilar orasida sug'urta madaniyatini oshirish, inflyasiyaga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish hisoblanadi. To'lanayotgan sug'urta qoplamalarini ularning real qiymatidan pasayib ketishidan himoya qiluvchi tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash ayniqsa hayot sug'urtasida muhim hisoblanadi. Bunda bizning qo'shnilarimiz bo'lgan Turkiya, Rossiya va Qozog'iston respublikalarining tajribalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Shu bilan birga sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatlarining moliyaviy natijalarini inflyasiyadan himoya qiluvchi turli vositalardan foydalanishlari zarur. Bunday tadbirlar chet el sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'p yillardan beri, 1968 yilda boshlab ishlab chiqilib va qo'llanib kelinmoqda. Milliy sug'urtachilarimiz ham o'z moliyaviy natijalarini himoya qilish texnikalaridan ma'lum darajada foydalanmoqda.

Bugungi kunda hayot sug'urtasi bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlarining o'rtacha 15-16 foizi sug'urta qoplamalariga yo'naltirilmoqda.

Milliy sug'urta bozorini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri ushbu sohani liberallashtirib borish va shu bilan bir vaqtning o'zida uni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirib borishdan iborat. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tartibga solish normalari va nazorat vositalarisiz amalga oshirilgan liberallashtirish, ayniqsa o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun bozorda xaosning yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun respublikada sug'urta faoliyatini huquqiy tartibga solish tizimini rivojlantirish vazifasi aktual bo'lib qolaveradi.

Shuni alohida aytib o'tish kerak, mamlakatimizda barcha mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari uchun bir xil shart-sharoitlar yaratilgan. Boshqa mamlakatlar qonunchiligidan farqli o'laroq, O'zbekistonda chet el kapitali ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari uchun chegaralar belgilanmagan, ya'ni 100 foiz chet el kapitali ishtirokidagi sug'urta kompaniyasini tashkil qilish uchun ham ruxsat berib qo'yilgan. Shundan kelib chiqqan holda milliy bozorimizda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining to'rt dan bir qismining muassislari chet ellik ishtirokchilar hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda o'z tarkibiga umumiy qonunchilik, maxsus sug'urta qonunchiligi va qonunosti hujjatlari, idoraviy me'yoriy hujjatlar kompleksini oluvchi, yetarli darajadagi ishchan tizim yaratilgan. Bunday tizimning mavjudligi sug'urta bozorining tez suratlar bilan rivojlanishiga olib kelmoqda. Ammo shuni unutmaslik kerakki, qonunchilik doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi.

Milliy sug'urta bozorining holatini tahlil qilganimizda, bozordagi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror o'sish suratlarining mavjudligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, aytib o'tish kerak, milliy sug'urta bozorimiz katta hajmdagi potensial sug'urtalanuvchilarga ega va bu ayniqsa shaxsiy sug'urta va javobgarlik sug'urta turlarini o'z ichiga oladi.

Hayot sugʻurtasi boshqa sugʻurta turlari kabi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi, unga koʻra sugʻurtalanuvchi tomonidan toʻlangan sugʻurta mukofoti evaziga shartnomada kelishilgan sugʻurta summasini shartnomaning amal qilish davrida shartnomada koʻzda tutilgan holatlar (vafot etish yoki maʼlum yoshga etish) yuz berganda toʻlab berishni sugʻurtalovchi oʻz zimmasiga oladi. Shu bilan birga mazkur shartnoma sugʻurtalanuvchining huquq va majburiyatlarini ham tartibga soladi.

Hayot sugʻurtasining quyidagi turlari amaliyotda keng qoʻllanib kelinmoqda: vafot etish hodisasidan sugʻurtalash, jamgʻarib boriladigan hayot sugʻurtasi, hayotni aralash sugʻurtalash, jamoa sugʻurtasi. Hayot sugʻurtasi shaxsiy sugʻurtaning bir boʻgʻini sifatida iqtisodiyotning oʻzgaruvchan qismi boʻlgan ishchi kuchi bilan bogʻliq. Ushbu sugʻurta turida sugʻurta himoyasining obʻekti boʻlib fuqarolarning hayoti, sogʻligi va mehnat qobiliyati hisoblanadi. Mulk sugʻurtasidan farqli oʻlaroq, hayot sugʻurtasining obʻektlari maʼlum qiymatga ega emas.

Hayot sugʻurtasi rivojlangan mamlakatlarda koʻp yillik tarixga ega va bu mamlakatlarda ushbu sugʻurta turi boʻyicha yetarlicha tajriba toʻplangan. Gʻarbda sugʻurta insonlar hayotining zarur elementiga aylangan boʻlib, har bir jamiyat aʼzosi sugʻurta polisi olish uchun toʻlov pul mablagʻlarini ishonchsiz joyga joylashtirish emas, balki turli risklardan himoya vositasi ekanligini tushunib etgan. Jahon tajribasida shaxsiy sugʻurta hayot sugʻurtasi, nafaqa yoki renta sugʻurtasi, kasalliklardan sugʻurtalash va baxtsiz hodisalardan sugʻurtalashga boʻlinadi. Hayot sugʻurtasi oʻz oʻrnida vafot etishdan sugʻurtalash va sugʻurta-jamgʻarmadan iborat. Jamgʻarib boriladigan hayot sugʻurtasiga yaqin boʻlgan sugʻurta turi bu sugʻurta-jamgʻarma hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda hayot sugʻurtasini odatda uzoq muddatga tuziladi. Bu muddat kamida 10 yil yoki 15-20 yil va undan oshiqni tashkil etadi. Sugʻurta-jamgʻarma turi qoidaga koʻra vafot etishdan sugʻurtalash va mehnat qobiliyatini yoʻqotishdan sugʻurtalashni oʻz ichiga oladi va sugʻurtalangan shaxsning shartnomada koʻrsatilgan yoshga yetishi sugʻurtalovchining shartnomada koʻrsatilgan summani sugʻurtalanuvchiga toʻlash majburiyatini

yuklaydi. G'arb mamlakatlarida ushbu sug'urta turining yana bir ko'rinishi mavjud bo'lib, bunda sug'urta shartnomasining muddati tugaguncha sug'urtalangan shaxs vafot etgan bo'lsa ham sug'urta summasi beriladi. AQSHda hayot sug'urtasi bo'yicha tuzilgan shartnomalarning har ettinchisi sug'urta-jamg'arma turi bo'lsa, Angliyada hayot sug'urtasi shartnomalarining asosiy qismini sug'urta-jamg'arma turlari tashkil etadi. Hayot sug'urtasida operatsiyalarni amalga oshirish texnologiyasi bo'yicha ularni uch guruhga bo'lish mumkin: oddiy, jamoaviy va industrial sug'urta.

Oddiy sug'urta turida shartnoma sug'urtalanuvchining o'zi bilan shaxsan tuziladi, sug'urtalovchining javobgarligi sug'urtalanuvchining oila-a'zolariga ham qo'llanilishi mumkin. Bunday sug'urta turlarida sug'urta summalari katta miqdorni tashkil etadi. Oddiy sug'urta turlarini asosan o'zaro sug'urtalash jamiyatlari amalga oshiradi va bugungi kunda bunday sug'urta turlari aholining 60 foizga yaqinini qamrab olgan.

Jamoaviy sug'urta turlari asosan yollanma ishchilarga nisbatan amalga oshiriladi, bunda sug'urta mukofotini ish beruvchi tadbirkor yoki kasaba uyushmasi to'laydi. Bunday sug'urta turlari aholining 40 foizga yaqinini qamrab olgan.

Industrial sug'urta turlari aholining 30 foizga yaqinini qamrab olgan bo'lsada, uning hajmi yildan-yilga kamayib bormoqda.

Chet mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda jamoaviy sug'urtaning jamg'arib boriladigan turini rivojlantirish yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz. Bu sug'urta turida sug'urta mukofoti korxonadan tomonidan to'lanishi kerak va shartnoma muddati 5-yildan kam bo'lmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday sug'urta turining keng qo'llanilishi kadrlar qo'nimsizligiga barham beradi va shu bilan birga xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydi. Albatta bunda sug'urta kompaniyasi shartnoma shartlarini ishlab chiqishda inflyasiya jarayonlarini hisobga olishi zarur. Sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchni ta'minlash maqsadida hukumat tashabbusi bilan, sug'urta kompaniyalari ajratmalari hisobidan shakllantiriladigan shaxsiy



sug'urta turlari bo'yicha maxsus fond tashkil etilsa, mamlakatimizda ushbu sug'urta turlarining rivojlanishiga keng sharoit yaratilgan bo'lar edi.

Hayot sug'urtasi boshqa sug'urta turlaridan tubdan farq qiladi. Chunki inson hayoti hech qachon baholanmaydi, u inson uchun berilgan bebaho ne'matdir. U yo'qotilganda dunyoda hech qanday narsa yoki hech qanday pul miqdorini to'lash orqali qayta tiklanmaydi. Shuning uchun ham hayot sug'urtasida boshqa sug'urta turlaridan farqli o'laroq sug'urta puli sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs)ning hoxishiga binoan sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Hayot sug'urtasida sug'urta sub'ektlari bo'lib sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs va naf oluvchilar hisoblanadi. Hayot sug'urtasi shartnomasi faqat sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs)ning foydasiga tuziladi yoki uning yozma roziligi bilan naf oluvchi foydasiga ham tuzilishi mumkin. Hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urta turlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida shaxsiy sug'urta shartnomasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi.

Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

Sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, shartnoma sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Hayot sug'urtasi shartnomasi amal qilish davri mobaynida sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs vafoti tufayli sug'urta puli to'langanda tugatiladi, sug'urta qildiruvchining yoki sug'urtalovchining tashabbusi bilan muddatidan oldin tugatilishi ham mumkin. Shartnoma muddatidan oldin tugatilganda sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs)ga qaytariladigan pul to'lab beriladi.

Hayot sug'urtasining yana bir o'ziga xos xususiyati hayot sug'urtasi shartnomasining amal qilishi mobaynida sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs) o'z moliyaviy ahvolidan kelib chiqqan holda ikkinchi, uchinchi hayot sug'urtasi shartnomasini bitta sug'urtalovchida yoki har xil sug'urtalovchilarda tuzishi ham mumkin. Bunday holatda sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi har bir tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni shartnomalarda belgilangan tartibda to'laligicha bajaradi. Bu ham hayot sug'urtasining o'ziga xos boshqa sug'urta turlaridan farq qiladigan jihatlaridan hisoblanadi. Umuman olganda hayot sug'urtasining ijtimoiyligi, investitsiya jarayonlariga ta'sir etishi sug'urta tizimida muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Hayot sug'urtasining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar.
2. Tijoratga asoslangan hayot sug'urtasi dastlab qaysi davlatlarda paydo bo'lgan?
3. O'zbekistonda hayot sug'urtasi paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy sabablari.

4. “Ekvitebl” sug‘urta jamiyati qachon tashkil etilgan?
5. Hayot sug‘urtasining qanday turlari amaliyotda keng qo‘llanib kelinmoqda?
6. Hayot sug‘urtasida sug‘urta sub’ektlari kimlar?
7. Hayot sug‘urtasining ijtimoiyligi deganda nimani tushunasiz?
8. Hayot sug‘urtasining investitsiya jarayonlariga ta’siri.

## **2-BOB. HAYOT SUG'URTASI FANINING OB'EKTI, PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI**

### **2.1. Hayot sug'urtasi fanining mohiyati, ob'ekti va predmeti**

Hayot sug'urtasi g'arb mamlakatlari sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha etakchi va mustahkam o'rinlarni egallab, har bir mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan fuqaroning hayotiga kirib borgan. Hayot sug'urtasi bizning mamlakatimizda hamdo'stlik mamlakatlarida bo'lgani kabi rivojlanishning qiyin pallasini boshidan kechirmoqda.

Xo'sh, hayot sug'urtasi bu qanday sug'urta turi, uning ob'ekti va predmeti nima va boshqa sug'urta turlaridan qanday jihatlari bilan farq qiladi? Hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urta tarmog'ining asosini tashkil etib, mazkur sug'urta orqali insonning hayoti uning vafot etishidan, ma'lum yoshga yetishidan, kasallikdan, baxtsiz hodisadan, inson hayotidagi muhim voqealar hisoblanuvchi farzand tug'ilishi, nikohga kirishish va boshqa holatlar natijasida yuzaga keladigan moddiy manfaatlar tomonlan o'rtasida ixtiyoriylik asosida tuzilgan sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta summasi doirasida sug'urtalovchi tomonidan qoplab berilishidan iborat sug'urta faoliyatidir.

Hayot sug'urtasi fanining ob'ekti bo'lib insonning hayoti bilan bog'liq mulkiy manfaatlar hisoblanadi. Fanning predmeti sifatida insonning vafot etishi, ma'lum yoshga yetishi, kasallik, baxtsiz hodisa, farzand tug'ilishi, nikohga kirishish va boshqa holatlar hisoblanadi.

Hayot sug'urtasida sug'urta hodisasi sifatida tuzilgan sug'urta shartnomasi muddatining tugashi, ya'ni sug'urtalangan shaxsning shu muddatgacha yashashi, hayotni aralash sug'urtasi turlarida esa sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urtalanuvchining vafot etishi, ishlab chiqarish yoki boshqa sharoitlarda jarohat olishi holatlari sug'urta hodisasi sifatida qabul qilinadi. Bu xalqimizning o'zaro yordam, tayanch va ijtimoiy himoya kabi traditsiyalariga mos keladi.

Mamlakatimizda hayot sug'urtasi hozircha shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Buning qanday sabablari bor? Buning sabalaridan biri, sovet

tuzumida fuqarolarning hayoti va faoliyatining himoyasi uchun javobgarlik to'liq davlatning zimmasida edi. Bu esa mamlakatimizda sug'urta sohasining, hamda xalqimiz sug'urta madaniyatining yetarli darajada rivojlanmay qolishiga sabab bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti sharoiti va davlat qurishning "O'zbek modeli" ga ko'ra davlat o'z funksiyalarini asta-syokinlik bilan jamiyatga berib boradi. Bu esa o'z-o'zidan jamiyatning bir bo'g'ini bo'lgan sug'urta tashkilotlari faoliyatiga mazkur vazifani ma'lum darajada yuklaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida barchamiz ish joyini yo'qotish, oliy o'quv yurtida o'qish uchun to'lov, davolanish va boshqa shu kabi muammolarga duch kelamiz. Natijada kasallik, vafot etish, jarohat olish, mehnat qobiliyatini yo'qotish kabi holatlar bo'yicha sug'urtaning keng ko'rinishdagi xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj hosil bo'ladi. Ammo, tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotning sezilarli inflyasiya davom etayotgan sharoitida, sug'urtaning jamg'arib boriladigan turlariga bo'lgan qiziqish susayadi, chunki uzoq muddatga mo'ljallangan ushbu sug'urta turlarida jamg'arilgan mablag'lar o'z qiymatini tez yo'qotadi.

Milliy sug'urta bozorining holatini tahlil qilganimizda, bozordagi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror o'sish suratlarning majudligini ko'rish mumkin. Ammo shuni ham aytib o'tish kerak, milliy sug'urta bozorimiz katta hajmdagi potensial sug'urtalanuvchilarga ega va bu ayniqsa shaxsiy sug'urta(uning tarkibidagi hayot sug'urtasi) va javobgarlik sug'urta turlarini o'z ichiga oladi.

Hayot sug'urtasi boshqa sug'urta turlari kabi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi, unga ko'ra sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti evaziga shartnomada kelishilgan sug'urta summasini shartnomaning amal qilish davrida shartnomada ko'zda tutilgan holatlar (vafot etish yoki ma'lum yoshga etish va boshqa holatlar) yuz berganda to'lab berishni sug'urtalovchi o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga mazkur shartnoma sug'urtalanuvchining huquq va majburiyatlarini ham tartibga soladi.

Hayot sug'urtasining quyidagi turlari amaliyotda keng qo'llanib kelinmoqda: vafot etish hodisasidan sug'urtalash, jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi,

hayotni aralash sug'urtalash, jamoa sug'urtasi. Hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning bir bo'g'ini sifatida iqtisodiyotning o'zgaruvchan qismi bo'lgan ishchi kuchi bilan bog'liq. Ushbu sug'urta turida sug'urta himoyasining ob'ekti bo'lib fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnat qobiliyati hisoblanadi. Mulk sug'urtasidan farqli o'laroq, hayot sug'urtasining ob'ektlari ma'lum qiymatga ega emas.

Hayot sug'urtasi rivojlangan mamlakatlarda ko'p yillik tarixga ega va bu mamlakatlarda ushbu sug'urta turi bo'yicha yetarlicha tajriba to'plangan. G'arbda sug'urta insonlar hayotining zarur elementiga aylangan bo'lib, har bir jamiyat a'zosi sug'urta polisi olish uchun to'lov pul mablag'larini ishonchsiz joyga joylashtirish emas, balki turli risklardan himoya vositasi ekanligini tushunib etgan. Jahon tajribasida shaxsiy sug'urta hayot sug'urtasi, nafaqa yoki renta sug'urtasi, kasalliklardan sug'urtalash va baxtsiz hodisalardan sug'urtalashga bo'linadi. Hayot sug'urtasi o'z o'rnida vafot etishdan sug'urtalash va sug'urta-jamg'armadan iborat. Jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasiga yaqin bo'lgan sug'urta turi bu sug'urta-jamg'arma hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda hayot sug'urtasini odatda uzoq muddatga tuziladi. Bu muddat kamida 10 yil yoki 15-20 yil va undan oshiqni tashkil etadi. Jamg'arma sug'urta turi qoidaga ko'ra vafot etishdan sug'urtalash va mehnat qobiliyatini yo'qotishdan sug'urtalashni o'z ichiga oladi va sug'urtalangan shaxsning shartnomada ko'rsatilgan yoshga yetishi sug'urtalovchining shartnomada ko'rsatilgan summani sug'urtalanuvchiga to'lash majburiyatini yuklaydi. G'arb mamlakatlarida ushbu sug'urta turining yana bir ko'rinishi mavjud bo'lib, bunda sug'urta shartnomasining muddati tugaguncha sug'urtalangan shaxs vafot etgan bo'lsa ham sug'urta summasi beriladi. AQSHda hayot sug'urtasi bo'yicha tuzilgan shartnomalarning har ettinchisi sug'urta-jamg'arma turi bo'lsa, Angliyada hayot sug'urtasi shartnomalarining asosiy qismini sug'urta-jamg'arma turlari tashkil etadi. Hayot sug'urtasida operatsiyalarni amalga oshirish texnologiyasi bo'yicha ularni uch guruhga bo'lish mumkin: oddiy, jamoaviy va industrial sug'urta.

Oddiy sugʻurta turida shartnoma sugʻurtalanuvchining oʻzi bilan shaxsan tuziladi, sugʻurtalovchining javobgarligi sugʻurtalanuvchining oila-aʼzolariga ham qoʻllanilishi mumkin. Bunday sugʻurta turlarida sugʻurta summalari katta miqdorni tashkil etadi. Oddiy sugʻurta turlarini asosan oʻzaro sugʻurtalash jamiyatlari amalga oshiradi va bugungi kunda bunday sugʻurta turlari aholining 60 foizga yaqinini qamrab olgan.

Jamoaviy sugʻurta turlari asosan yollanma ishchilarga nisbatan amalga oshiriladi, bunda sugʻurta mukofotini ish beruvchi tadbirkor yoki kasaba uyushmasi toʻlaydi. Bunday sugʻurta turlari aholining 40 foizga yaqinini qamrab olgan.

Industrial sugʻurta turlari aholining 30 foizga yaqinini qamrab olgan boʻlsada, uning hajmi yildan-yilga kamayib bormoqda.

Chet mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda jamoaviy sugʻurtaning jamgʻarib boriladigan turini rivojlantirish yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz. Bu sugʻurta turida sugʻurta mukofoti korxonadan tomonidan toʻlanishi kerak va shartnoma muddati 5-yildan kam boʻlmasligi maqsadga muvofiq boʻladi. Shunday sugʻurta turining keng qoʻllanilishi kadrlar qoʻnimsizligiga barham beradi va shu bilan birga xodimlarning ijtimoiy himoyasini taʼminlaydi. Albatta bunda sugʻurta kompaniyasi shartnoma shartlarini ishlab chiqishda inflyasiya jarayonlarini hisobga olishi zarur. Hayot sugʻurtasi sugʻurtalanuvchi toʻlaydigan sugʻurta mukofoti evaziga sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan summani sugʻurtalanuvchi yoki sugʻurtalangan shaxs vafot etganda yoki maʼlum yoshga etganda sugʻurtalovchi tomonidan toʻlab berish kafolatini koʻzda tutadi.

## **2.2. Hayot sugʻurtasi fanining maqsad va vazifalari**

Hayot sugʻurtasida sugʻurtalanayotgan risk – inson hayotining davomiyligi – uchta holatni oʻz ichiga oladi:

- sugʻurtalangan shaxsning yosh paytida yoki oʻrtacha umr koʻrish yoshidan oldin vafot etish ehtimolligi;

- ma'lum vaqt oralig'ida vafot etish yoki yashab qolish ehtimolligi;
- qarilik davrida uzoq umr ko'rish va ushbu davrda mehnat faoliyatisiz doimiy daromad talab qilinishi ehtimolligi.

Hayot sug'urtasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Sug'urta manfaatdorligi. Biror kishining hayotini sug'urtalash uchun sug'urtani amalga oshirayotgan shaxs ushbu sug'urtadan manfaatdorlikka ega bo'lishi kerak, ya'ni sug'urtalangan shaxsning nogironlik olishi yoki vafot etishi natijasidagi moddiy yo'qotishlarning o'rnini qoplash imkoniyati bo'lishi kerak.

2. Hayot sug'urtasi shartnomalari bo'yicha matematik rezervlarni hisoblash uchun diskontlashtirish va vafot etish ehtimolligi jadvalidan foydalanish.

3. Sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi daromadidagi ishtiroki. Sug'urta kompaniyasi hayot sug'urtasining uzoq muddatli sug'urta ekanligini hisobga olgan holda o'z daromadining ma'lum qismini sug'urta shartnomalarining sug'urta summalarini ko'paytirishga yo'naltiradi. Bu qo'shimcha mablag' bonus deb ataladi.

4. Hayot sug'urtasining shaffofligi. Bu mijoz uchun sug'urtachi to'g'risidagi ma'lumotlarning va mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning ma'lumligi va tushunarligi.

Hayot sug'urtasining paydo bo'lishi va rivojlanishiga quyidagilar sabab bo'lgan deb hisoblash mumkin:

1) oilaning boquvchisidan ajralishi yoki oila boshlig'ining daromad olishining yo'qolishidan oilani himoya qilish zarurati;

2) biznes bo'yicha hamkorning, korxonah rahbarining yoki muhim xodimning vafot etishi natijasida korxonaning faoliyat ko'rsatishi va biznes davomiyligining yo'qolishidan himoyalani sh zarurati;

3) zayom, ssuda yoki ipoteka krediti olish uchun kafolatga ega bo'lish;

4) jamg'arma tashkil etish;

5) merosni himoya qilish, jumladan:

- hayot sug'urtasi polisi hisobidan meros solig'ini to'lash;

- merosxo'rlardan biriga meros mulkini o'tkazishni engillashtirish;



6) dafn marosimi xarajatlarini to'lash;

7) shaxsiy sug'urtaning sug'urta mukofotlari va sug'urta qoplamalari bo'yicha soliq imtiyozlarining mavjudligi, jumladan:

- to'langan sug'urta mukofotlari to'lanadigan daromad solig'ining kamaytirilishiga olib keladi;

- sug'urta qoplamalari soliqdan ozod qilinadi, mulk meros bo'lib o'tgan holatda meros solig'i to'lashdan ozod qilinadi va boshqa shu kabi soliq imtiyozlari bo'lishi mumkin.

Hayot sug'urtasi turlari quyidagi belgilari bo'yicha bir-biridan farqlanadi.

Sug'urta predmeti bo'yicha:

- vafot etishdan sug'urtalash:

- ma'lum yoshgacha etish bo'yicha sug'urta;

- hayotni aralash sug'urtasi (vafot etish va ma'lum yoshga etish).

- Sug'urta mukofotlarini to'lash tartiblari bo'yicha:

- sug'urta mukofotini bir martada to'lash belgilangan sug'urta shartnomasi;

- sug'urta mukofotini shartnoma amal qilishi davomida bo'lib to'lab borish belgilangan sug'urta shartnomasi.

Sug'urta qoplamasini to'lashning davriyligi bo'yicha:

- hayotni bir umrga sug'urtalash;

- hayotni ma'lum davrga sug'urtalash.

Sug'urta qoplamasining turi bo'yicha:

- qat'iy belgilangan sug'urta summasiga asoslangan sug'urta;

- kamayuvchi sug'urta summasiga asoslangan sug'urta;

- ko'payuvchi sug'urta summasiga asoslangan sug'urta;

- chakana narxlar indeksining ko'tarilishiga muvofiq ravishda sug'urta summasining ortishiga asoslangan sug'urta;

- sug'urtalovchining daromadida ishtirok etish hisobidan sug'urta summasining ko'payishiga asoslangan sug'urta;

- sugʻurta mukofotini maxsus investitsiya fondlariga toʻgʻridan-toʻgʻri yoʻnaltirish natijalari boʻyicha sugʻurta summasini belgilashga asoslangan sugʻurta.

Sugʻurta qoplamasini toʻlash tartibi boʻyicha:

- sugʻurta summasini bir martada toʻlashga asoslangan sugʻurta;
- renta toʻloviga asoslangan sugʻurta (annuitet);
- nafaqa toʻloviga asoslangan sugʻurta.

Hayot sugʻurtasi insonlarga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning butun kompleksini hal etish imkonini beradigan katta hajmdagi sugʻurta kafolatlari va investitsion xizmatlarning toʻplamini taqdim etadi. Shartli ravishda ushbu xizmatlarni ikki guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy va iqtisodiy. Birinchi guruh vazifalarning amalga oshirilishi davlat ijtimoiy sugʻurtasi va taʼminoti tizimidagi etishmovchiliklarni boshqarish imkonini bersa, ikkinchi vazifalar guruhining bajarilishi esa bir tomondan shaxsiy daromadlarning oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan butun moliya-kredit operatsiyalarini amalga oshirish paytida zarur boʻlgan kafolatni taqdim etadi.

Ijtimoiy xarakterga ega boʻlgan maqsadlar:

- 1) Boquvchisini yoʻqotgan oilaning daromadini yoʻqotgan holatda oilani himoya qilish.
- 2) Sugʻurtalanuvchini vaqtincha yoki butunlay mehnat qobiliyatini yoʻqotgan holatda moddiy taʼminlash.
- 3) Qarilik pensiyasi bilan taʼminlash.
- 4) Bolalar balogʻat yoshiga etganda moddiy yordam koʻrsatish uchun mablagʻ toʻplash, misol uchun ularning talim olishi uchun toʻlovlar.
- 5) Marosim xizmatlari haqlarini toʻlash.

Iqtisodiy xarakterga ega boʻlgan maqsadlar:

- 1) Investitsion daromad olish va kapital qoʻyilmalar bilan bogʻliq jamgʻarmalar tashkil etish.
- 2) Xususiy biznesni himoya qilish, biznes boʻyicha sherik, korxonani boshqaruvchisi, "kalit" shaxs vafot etgan holatda korxonani saqlab qolish.

### 3) Meros qoldirishni himoya qilish:

- merosga soliqning sug'urta polisdagi sug'urta summasi hisobidan to'lanishi;

- benefitsiarning sug'urta summasidagi to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy huquqi sababli meros qoldirilayotgan mol-mulkning merosxo'rlardan biriga osongina o'tishi, kreditorlar va boshqa merosxo'rlarning huquqlaridan mustaqil ravishda;

- sug'urta summasining qonunda belgilangan tartibda meros uchun soliqdan ozod etilishi.

4) Hayot sug'urtasidagi mukofot va to'lovlar bo'yicha soliqdan berilgan imtiyozlar hisobidan shaxsiy daromadning ortishini ta'minlash, bunday imtiyozlar quyidagilar:

- bir qancha davlatlararo sug'urta shartnomalari tuzilsa sug'urta uchun soliqdan ozod etiladi;

- hayot sug'urtasi jismoniy shaxslarga daromad solig'ini kamaytirish huquqini beradi. Bu hayot sug'urtasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofoti summasini soliq hisoblanadigan bazadan chegirib tashlash orqali, yoki soliq kreditlari hisobidan, ya'ni daromad solig'i summasining omonat yoki ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan sug'urta mukofotlari summasiga pasaytirilishi orqali amalga oshiriladi. Hayot sug'urtasining ushbu rag'batlantirish metodi AQSH, Kanada va evropa mamlakatlarida amal qiladi;

- sug'urta polisi orqali berilgan ssudalarga soliqlarning yo'qligi;

- uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta to'lovlarining daromad solig'idan ozod qilinishi;

- kapitalning belgilangan summagacha ortishi va shartnoma amal qilish muddatida soliq solishdagi imtiyozlar.

Qonuniy hujjatlarga muvofiq zimmasiga hayot sug'urtasi bo'yicha belgilangan tartibda shartnoma tuzish majburiyati yuklatilganlar hayot sug'urtasi bo'yicha alohida maqsadlarni belgilashi mumkin, masalan xavfli va zararli mehnat sharoitidagi ishchilarning hayot sug'urtasi, davlat xizmatidagi shaxslar hayot sug'urtasi. Rossiya Fuqarolik Kodeksida "o'z hayoti va sog'lig'ini sug'urta qilish

majburiyati fuqarolarga qonunga muvofiq yuklatilishi mumkin emas”. Lyokin har bir fuqaro kredit olish vaqtida qo‘shimcha moliyaviy kafolat taqdim etmoqchi bo‘lganda hayot sug‘urtasi bo‘yicha shartnoma tuzishga ehtiyoj sezadi.

Shunday qilib fuqaro hayot sug‘urtasi shartnomasini o‘z oilasini barvaqt o‘lim xavfidan saqlash maqsadida, yoki kelgusi moliyaviy ehtiyojini ta‘minlash uchun investitsion maqsadda tuzishi mumkin. Shuning uchun uzoq muddatli hayot sug‘urtasi favqulodda muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishga va bu orqali davlatni qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hayot sug‘urtasi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim bir mexanimi bo‘lib xizmat qiladi.

Rossiyada hayot sug‘urtasining favqulodda rivojlanishi ushun mavjud ko‘plab omillar to‘sqinlik qilmoqda:

- hayot sug‘urtasi uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lgan ya‘ni polislarning amal qilish davri 10-20yil yoki undan ortiq sug‘urta hisoblanadi. Siyosiy va iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida, inflatsiya yuqori bo‘lganda aholining uzoq muddatli qo‘yilma aholida qiziqish uyg‘otmaydi;

- uzoq muddatli hayot sug‘urtasining asosida sug‘urta mukofotlarini kapitalizatsiya qilish yotganligi sababli sug‘urta tashkilotlarining barqarorligi va moliyaviy holatiga jiddiy talablar qo‘yiladi. Umumiy nobarqarorlik va moliyaviy krizis sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatda sug‘urta qiluvchilar uzoq muddatli istiqbolga kafolat bera olmaydilar. Aholining ularga bo‘lgan ishonchi boshqa institutlarda bo‘lgani kabi yetarli emas.

- barcha mamlakatlarda hayot sug‘urtasi asosan aholining o‘rta qatlami uchun xizmat qiladi. Bu yerda aholi xarajatlaridan daromadlari yuqoriligi va ular ushbu mablag‘larni kelajak avlodiga meros qoldirishni yoki investitsiya uchun foydalanib, qo‘shimcha daromad olish maqsadini ko‘zlashi kuzatilgan. Hozirgi kunda Rossiyada hayot sug‘urtasi uchun bunday keng sug‘urta bazasi mavjud emas;

- hayot sug'urtasining jamga'rish va omonat funksiyalarini bajarilishi uchun investitsiyalar bozori rivojlangan bo'lishi zarur. Rossiyada esa ushbu bozorlar endigina tashkil etilmoqda.

- ishlab chiqaruvchilar va aholining sug'urta shartnomasi tuzishini rag'batlantiruvchi (misol uchun, yollanma ishchilarni sug'urta qilish yoki hayot sug'urtasini ssuda va ipoteka kreditlari olish orqal ham amalga oshirish) qonuniy va iqtisodiy richaglarning mavjud emasligi.

Hayot sug'urtasi uchun faqatgina mijozlarga sug'urta summasini to'lash kafolatini berish emas, balki iqtisodiy qiziqish uyg'otish va shartnomalar tuzish hamdir. Sug'urta operatsiyalarida to'g'ri yo'lga qo'yilgan soliq siyosati aholi va yuridik shaxslarning hayot sug'urtasi xuzmatlariga bo'lgan talabni oshirish uchun yaxshi richag bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bizni davlatda imtiyozli soliq solish to'g'risidagi savol allaqachon muhokama qilingan lyokin hozircha hech qanday siljish kuzatilgani yo'q. Soliqdan imtiyoz faqatgina ish beruvchi o'z ishchilarining shaxsiy sug'urtasining jamoa shartnomasini tuzayotgan paytda to'lagan sug'urta to'lovlari uchun amal qiladi, bazi hollarda sug'urta badallari ushun ham o'rnatilishi mumkin. Biroq Rossiya qonunchiligida sug'urta shartnomalari tuzilganda fuqarolar uchun hech qanday soliqdan imtiyozlar va rag'batlantirishlar kuzatilmaydi.

### **2.3. Hayot sug'urtasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va o'ziga xosligi**

Hayot sug'urtasi ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan, qadimgi sug'urta turlaridan biri hisoblanadi. Hayot sug'urtasi o'zining rivojlanish tarixida sug'urta mahsulotining dizaynida, tashkiliy tomonlarida hamda tartibga solish qonunchiligida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib bordi.

Hayot sug'urtasining eng asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning uzoq muddatli sug'urta turi ekanligidadir. Aniqroq qilib aytganda, hayot sug'urtasi turlarining asosiy qismi besh yildan kam bo'lmagan sug'urta turlaridan tashkil topgan.

Ba'zi mamlakatlarda, shu jumladan bizning mamlakatimizda hayot sug'urtasi bir yildan ortiq muddatga amalga oshirilmoqda. Bunday mamlakatlar hayot sug'urtasi hali yetarli darajada rivojlanmagan mamlakatlardir. Shu bilan birga, bir yildan ortiq muddatga sug'urta qilish amal qilayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida uzoq muddatli hayot sug'urtasiga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozlar qo'llanilmaydi.

Uzoq muddatlilik talabining qo'yilishi hayot sug'urtasining bir qancha o'ziga xos xususiyatlarining yuzaga kelishiga olib keladi. Bunday o'ziga xos xususiyatlar sifatida quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

- hayot sug'urtasi maxsulotlari dizaynining o'zgarishi, masalan, sug'urta mukofotini bo'lib to'lash imkoniyatining paydo bo'lishi;

- andarrayting jarayonining murakkablashuvi, bu ko'p yillik prognozni amalga oshirish zaruriyatidan hosil bo'ladi;

- ish yuritishdagi qo'shimcha risk komponentlarining paydo bo'lishi, masalan, uzoq muddatli shartnomaning amal qilishini kutilmaganda to'xtatish riski;

- sug'urta mahsulotlarini boshqarishning yangi instrumentlarining paydo bo'lishi (sug'urta shartnomalarining amal qilishi davomida shartlariga o'zgartirish kiritish imkoniyati).

Hayot sug'urtasining yana bitta muhim xususiyatlaridan biri, zararlarni tartibga solishning o'ziga xosligi bo'lib, bunda sug'urta qoplamasi katta hajmdagi bir martalik ko'rinishda yoki renta shaklida (annuitetlar, pensiya) amalga oshiriladi. Qoplamaning renta ko'rinishida amalga oshirilganda bu jarayon bir necha o'n yillarni o'z ichiga olishi mumkin. Mazkur sug'urta turining uzoq muddatliligi va zararlarni tartibga solishni o'ziga xosligidan kelib chiquvchi muhim jixati shundaki, qoplamaning amalga oshirishning barcha variantlarida jamg'aruvchi komponentlarning mavjudligidir. Shuning uchun hayot sug'urtasi mahsulotlarini tahlili va dizayni uchun investitsion xususiyatlar o'ta muhim xisoblanadi. Bu manoda hayot sug'urtasi mahsulotlari u yoki bu darajada moliyaviy instrumentlar va mablag'larni turli sohalarga investitsiya qilish jarayonlarida raqobatlasha oladi.

Hayot sug'urtasining uzoq muddatlilik xususiyati foydada ishtirok etishni sug'urtalash, ulushdosh sifatidagi ishtirokni sug'urtalash yangi sug'urta mahsulotlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu sug'urta turlari dastlab hayot sug'urtasida paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik va ko'p vaqtlar o'tib sog'liqni sug'urtalash turlariga ham kirib bordi.

Hayot sug'urtasi turli maqsadlarda qo'llaniladi, bular sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- sug'urtalangan shaxs va uning qaramog'idagilarning joriy moliyaviy talablarini taminlash, aniqrog'i sug'urtalangan shaxsning va oila-azolarining o'rtacha hayot darajasini taminlashda moddiy jihatdan qo'llab quvvatlash (malum yoshgacha etishdan sug'urtalashda), etim qolgan bolalar tarbiyasi uchun joriy xarajatlar va boshqalar;

- sug'urtalangan shaxs va uning qaramog'idagilarning maxsus moliyaviy talablarini qondirish, shu bilan birga qarzlarni to'lash, garov va boshqa majburiyatlarni sug'urtalanuvchi vafot etgan holatda to'lash, o'zining yoki farzandlarining talimi uchun to'lov va boshqa ko'zda tutilmagan, sug'urtalanuvchining vafot etishi bilan to'lanmay qolishi ehtimoli mavjud bo'lgan xolatlar;

- sug'urtalangan shaxsning vafot etishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash, bu o'z ichiga dafn marosimi bilan bog'liq xarajatlar, o'limidan oldingi davolash xarajatlari, merosni huquqiy rasmiylashtirish xarajatlari va uning soliq to'lovlari xarajatlari va boshqa xarajatlar;

- hamkorning yoki muhim xodimning vafot etishi tufayli hosil bo'ladigan, biznesni yuritishning qo'shimcha xarajatlarini qoplash.

Yuqorida keltirilgan holatlar sug'urtalanuvchining ma'lum yoshga yetishi va vafot etishi bilan bog'liq barcha mulkiy yo'qotishlarini qoplaydi.

### **Nazorat savollari:**

1. Hayot sug'urtasining ob'ekti va predmeti nimalardan iborat?
2. Hayot sug'urtasi boshqa sug'urta turlaridan qanday jihatlari bilan farq qiladi?
3. Hayot sug'urtasi qaysi mamlakatlarda rivojlangan?
4. Hayot sug'urtasining asosiy printsiplari nimalardan iborat?
5. Hayot sug'urtasining rivojlanishi ushun to'sqinlik qilayotgan omillar.
6. Hayot sug'urtasining muhim xususiyatlarini sanab bering?



### **3-BOB. HAYOT SUG‘URTASINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

#### **3.1. Hayot sug‘urtasini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Sug‘urta xizmatlari va sug‘urta bozori bozor munosabatlariga tayanuvchi har qanday mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hamda moliyaviy tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan bo‘lib hisoblanadi. Sug‘urta tizimining asosi bo‘lmish moliyaviy faoliyat har qanday davlatning kundalik amaliyotida markaziy o‘rin tutadi. Chunki davlat hamda jamiyatning buguni va ertasi, barcha jabhalaridagi taraqqiyoti, xavfsizligi mamlakatda davlat moliyaviy faoliyati hamda moliyaviy amaliyot samaradorligi, moliyaviy tizimlar, xususan sug‘urta tizimi ish faoliyatining mukammalligi, davlat daromadlari va xarajatlari oqimining o‘zaro muvofiqlashtirilganligi, to‘g‘ri tashkil etilganligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti davomida sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish va uning huquqiy asoslarini muntazam takomillashtirib borish davlatimizdagi islohotlarning muhim tarkibiy qismlaridandir.

Milliy sug‘urta bozorini yanada isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlari uni asta-syokin erkinlashtirishdan hamda respublika sug‘urta faoliyatini boshqarish va nazorat qilish asoslarini yaratishdan iboratdir. Jahon tajribasidan ma‘lumki sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi huquqiy normalarsiz uni erkinlashtirish, ayniqsa o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan davlatlar sug‘urta bozorida tartibsizliklar kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham Respublika sug‘urta faoliyatini huquqiy asoslarini yanada shakllantirish eng dolzarb masalalardan sanaladi.

Sug‘urtani huquqiy tartibga solishning ustuvor yo‘nalishlaridan eng muhimi sug‘urta munosabatlarida tomonlarning o‘zaro aloqalari va respublika sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari belgilangan tegishli huquqiy bazani mavjud bo‘lishidir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta sohasini tartibga solishning uch turi mavjud:

1. Sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi umumfuqarolik qonunchiligi;
2. Sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus sug‘urta qonunchiligi;
3. Sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi tegishli vazirlik va idoralarning qarorlari, me‘yoriy xujjatlari.

Umumfuqarolik qonunchiligi: bu pog‘onada birinchi galda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1 va 2-qismlari, hamda bir qator shunga o‘xshash huquqiy-normativ xujjatlar joy olgan.

Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik huquqiy munosabatlari sub’ektlari orasida yuzaga keladigan mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu munosabatlarning sub’ektlari bo‘lib fuqarolar (jismoniy shaxslar), korxonalar va tashkilotlar (yuridik shaxslar), hamda davlat boshqaruv organlari hisoblanadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarining ob’ekti bo‘lib moddiy va nomoddiy boyliklar hisoblanadi. Sug‘urta munosabatlarining ob’ekti bo‘lib esa moddiy va pul ko‘rinishidagi qimmatliklar (mulk, xarajatlar, daromadlar) va insonning shaxsiy nomoddiy boyligi – hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va shu kabi sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida sog‘liqni yo‘qotilishi yoki vafot etish hodisasi bilan oilaviy daromadni yo‘qotilishi bilan bog‘liq bo‘lgan qaltisliklar hisoblanadi. Sub’ekti bo‘lib, sug‘urtalovchilar, sug‘urta qildiruvchilar va uchinchi shaxslar hisoblanadi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, sug‘urta munosabatlari umumfuqarolik huquqlari asosida tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismida sug‘urtaviy huquqiy munosabatlar, ya’ni jismoniy va yuridik shaxslar, tijorat va notijorat faoliyat, tadbirkorlik faoliyatining asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari kabi tushunchalar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining ikkinchi qismida sug‘urtaga bag‘ishlangan maxsus “Sug‘urta” deb atalgan 52-bob qayd etilgan bo‘lib, iqtisodiy munosabatlarning alohida turi sifatida sug‘urta munosabatlarining asosi belgilangan.

Maxsus sug'urta qonunchiligi: bu turga sug'urta masalalarini boshqaruvchi va tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining alohida qonunlari mansubdir. Bunday qonunlarga O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi, "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi, "Transport vositasi egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi, "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonunlari hamda majburiy qonunchilik statusiga ega bo'lgan Prezident farmonlari va hukumat qarorlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni sug'urta bozoridagi barcha sug'urtalovchilar uchun sug'urtani amalga oshirishlari uchun birdek sharoit yaratish, sug'urta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilishni kafolatlash, sug'urtani tashkil etishning yagona metodik qo'llanmasini belgilash va sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy prinsiplarini belgilashda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda 2002 yil 28 mayga qadar 1993 yil 6 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta to'g'risida"gi qonuni amal qilgan.

Sug'urta munosabatlarini va ularning qatnashchilarini huquqiy tartibga solish jarayonida ularning huquq va majburiyatlari belgilangan bo'lib, sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan shartlar va muddatlarda sug'urta himoyasini taqdim etadi, sug'urta qildiruvchi esa sug'urtalovchiga shartnomada shartlashilgan sug'urta mukofotini belgilangan muddatda va xajmda to'lash orqali ularning huquq va majburiyatlari amalga oshiriladi.

Qonun osti xujjatlar: bunga tegishli vazirlik va idoralarning qarorlari, yo'riqnomalari, qoidalari va boshqa shu kabilar taalluqlidir.

Yuqoridagi birinchi va ikkinchi tur qonunchilikda sug'urta munosabatlarining asosiy tushunchalari, majburiy va ixtiyoriy sug'urta shartnomalariga bo'lgan umumiy talab qayd etiladi. Qonun osti xujjatlarida esa sug'urta faoliyatidagi alohida masalalar bo'yicha talablar belgilangan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 920-moddasi shartlariga ko'ra, shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 914-moddasi 2-qismiga asosan shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. Shu munosabat bilan bu turdagi sug'urta shartnomasiga mazkur Kodeksning ommaviy shartnomaga oid shartlari ham tadbiiq etiladi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 358-moddasiga binoan tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va sh.k.) belgilab qo'yadigan shartnoma ommaviy shartnoma deyiladi. Ushbu modda talablaridan kelib chiqqan holda ommaviy shartnomaga xos quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas;

- tovarlar, ishlar va xizmatlarning bahosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi (qonun hujjatlarida iste'molchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno);

- tashkilotning iste'molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko'rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo'la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi;

- shartnoma tuzishi majburiy bo'lgan taraf uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi taraf uni shartnoma tuzishga majbur qilish talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli;

- shartnoma tuzishdan asossiz bo'yin tovlayotgan taraf shu tufayli etkazilgan zararlarni boshqa tarafga to'lashi kerak;

- qonunda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Hukumati ommaviy shartnomalarni tuzish va bajarishda taraflar uchun majburiy bo'lgan qoidalar (namunaviy shartnomalar, qoidalar va h.k.) chiqarishi mumkin.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi. Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

Ta'kidlash lozimki, sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

### **3.2. Hayot sug'urtasi bozorini davlat tomonidan tartibga solinishi**

Mamlakatda hayot sug'urtasi bozorini samarali tashkil etishda davlatning sug'urta jarayonlarini nazorat qilishi va tartibga solishi ko'zda tutiladi. Bunda davlat sug'urta jarayonlarida sug'urta faoliyatini qonunchilik bilan ta'minlash,

majburiy sug'urta turlarini joriy etish, maxsus soliq siyosatlarini o'tkazish, sug'urta faoliyatini nazorat qilish, raqobatlilikni ta'minlash orqali monopoliyadan chiqarish orqali sohani rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Bularning barchasi mamlakat sug'urta bozorini istiqbolli rivojlanishi ta'minlaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy xujatlari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq sug'urta qonunchiligi quyidagicha ko'rinishda aks etgan:

Qonunchilik xujatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi (52-bob "Sug'urta" 914-961-moddalar);

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (130, 132, 150, 151-moddalar);

- O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 22 apreldagi "Transport vositasi egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 16 apreldagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 25 maydagi "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonuni.

Qonun osti xujatlari:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrda qabul qilingan 413-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi PQ-325-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi PQ-872-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 8 sentyabrdagi qarori (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Xalqaro sug‘urta nazorati assotsiatsiyasiga a‘zo bo‘lishi to‘g‘risida);

- Moliya Vazirligining buyruqlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasining normativ xujjatlari.

Hayot sug‘urtasining jamg‘arma turlari bo‘yicha faoliyatni tartibga solish va zamon talablari asosida boshqarish sohani barqarorlashuviga va tez sur‘atlarda rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Sug‘urtaning bu turida Sug‘urtalovchining ijtimoiy jihatdan javobgarligi darajasining yuqoriligi bilan hayot sug‘urtasi faoliyati ustidan davlat nazorati o‘rnatilishini talab etadi. Soha faoliyatda davlat nazoratining zarurligi hayot sug‘urtasining mazmun-mohiyatidan ma’lum. Qoidaga ko‘ra, jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasi shartnomalari 5-10-15-20 va undan yuqori bo‘lgan muddatlarga tuziladi. Hayotni sug‘urtalovchi sug‘urta tashkilotlari sug‘urta qildiruvchilardan olingan sug‘urta mukofotlari evaziga sug‘urta xodisasi yuz berganda, bir necha o‘n yillardan keyin o‘z majburiyatlarini bajarishga qat’iy ishonch bo‘lishi lozim. Hayot sug‘urtasi shartnomasi tuzilishi bilan sug‘urtalovchi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatiladi. Bunda sug‘urta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilishda davlat ko‘magi zarur bo‘ladi.

Hayot sug‘urtasi faoliyati bo‘yicha davlat nazorati sug‘urtalovchilarni moliyaviy holatini va tuzilgan shartnomalar doirasida olingan majburiyatlarini bajara olishini, ya’ni to‘lov qobiliyatlilik darajasini muntazam kuzatib borish va tartibga solishda namoyon bo‘ladi.

Sug‘urtalovchida olingan majburiyatlari bo‘yicha javobgarlikni bajarish uchun yetarli mablag‘ning bo‘lmasligi nafaqat shartnoma bo‘yicha

sugʻurtalovchiga, balki butun sugʻurtaga boʻlgan ishonchni yoʻqolishiga olib keladi. Aholining sugʻurta boʻlgan ishonchi yoʻqolishi natijasida ularning davlat moliya institutlariga boʻlgan shikoyatini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham davlat sugʻurtalovchilarni moliyaviy barqarorligini nazorat qilish bilan birga sugʻurta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilish va shu bilan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ragʻbatlantirishi lozimdir.

Hayot sugʻurtasi faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini shakllantirishning ahamiyatga molik yoʻnalishlari – sugʻurtalovchilarni moliyaviy barqarorligini va toʻlovga qobiliyatlilik darajasini oshirish hisoblanadi. Bularni amalga oshirish yoʻlida mamlakat sugʻurta qonunchiligida quyidagi koʻrsatmalar berilgan: a) litsenziya olish majburiyligi; b) ustav kapitalning shakllantirilganligi; c) sugʻurta zahiralarni shakllantirish va ularni joylashtirish tartibi; d) qayta sugʻurtaga berish.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-sonli “Sugʻurtalovchilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq sugʻurta faoliyatini yanada takomillashtirish, sugʻurtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, shuningdek sugʻurta xizmatlaridan foydalanuvchilarning huquqlari himoya qilinishini taʼminlash maqsadida sugʻurta faoliyati turlariga qarab, sugʻurtalovchilarning ustav kapitali minimal miqdorlarini yillar mobaynida bosqichma-bosqich, tabaqalashtirilgan tarzda oshirib borilmoqda.

#### 1-jadval

#### Sugʻurtachilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlari, mlrd. soʻmda<sup>1</sup>

№	Sugʻurta faoliyati turlari	Ustav kapitalining belgilangan eng kam miqdorlari
1.	Umumiy sugʻurta sohasi	7,5
2.	Hayotni sugʻurtalash sohasida	10
3.	Majburiy sugʻurtalash boʻyicha	15
4.	Faqat qayta sugʻurtalash boʻyicha	30

<sup>1</sup> Jadval mualliflar tomonidan tayyorlangan.



Bugungi kuga kelib sug'urta tashkilotlari ustav kapitalning eng kam miqdorlari milliy valyutada belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra hayotni sug'urtalash sohasida faoliyatni amalga oshirish uchun sug'urta tashkilotlari ustav kapitalining minimal miqdori 10 mlrd. so'mdan kam bo'lmasligi shart.

### **3.3. Hayotni sug'urta qilishdagi asosiy normativ-huquqiy xujjatlar**

Respublikamizda qabul qilingan barcha qonunlar, normativ-xujjatlar sohani barq urib rivojlanishi, ya'ni miqdorga emas sifatga e'tibor qaratish, sohada rivojlangan infratuzilmani shakllantirish, aholini ya'ni sug'urta qildiruvchilarni soliq imtiyozlari bilan rag'batlantirish va ularni huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish maqsadlariga yo'naltirilgandir. Yurtimizda hayot sug'urtasini qonunchilik asosida alohida tarmoqqa ajratilgani ham hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta qildiruvchilarni manfaatlarini huquqiy himoya qilinishidan dalolatdir.

Ma'lumki, hayot sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning eng muhim turlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 914-moddasiga muvofiq shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ommaviy shartnoma haqida tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini belgilab qo'yadigan shartnoma ommaviy shartnoma deyiladi. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasnoligi belgilab qo'yilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki tashkilot tomonidan ommaviy shartnomani tuzishni rad etilishi mumkin emas. Sug'urta tashkiloti tomonidan asossiz ravishda hayot sug'urtasi shartnomasi tuzilishi rad etilsa, iste'molchi shartnoma tuzish talabi bilan sud organlariga murojaat qilishga va etkazilgan zararni olish huquqiga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 921-moddasida shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bir taraf (sug‘urtalovchi) boshqa taraf (sug‘urta qildiruvchi) to‘laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga sug‘urta qildiruvchining o‘zining yoxud shartnomada ko‘rsatilgan boshqa fuqaro (sug‘urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to‘lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug‘urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug‘urta pulini) bir yo‘la yoki vaqti-vaqti bilan to‘lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi kimning foydasini ko‘zlab tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs sug‘urta pulini olish huquqiga ega bo‘ladi.

Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko‘rsatilmagan bo‘lsa, shaxsiy sug‘urta shartnomasi sug‘urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko‘rsatilmagan shartnoma bo‘yicha sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug‘urtalangan shaxsning merosxo‘rlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

Sug‘urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug‘urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug‘urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug‘urta shartnomasi faqat sug‘urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda, shartnoma sug‘urtalangan shaxsning da‘vosi bo‘yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo‘rlari da‘vosi bo‘yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Qonunchilikda ommaviy shartnomalarni tuzish va amalga oshirish uchun Respublika hukumati tomonidan qoidalar (namunaviy shartnomalar, yo‘riqnomalar va boshqalar) ishlab chiqilishi mumkin. Shaxsiy sug‘urta shartnomasi va qoidalarida tomonlarning huquq va majburiyatlari belgilanadi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomalari, xususan hayot sug‘urtasi shartnomalari fuqarolarni, ularni oilalarini moliyaviy tomondan qo‘llab quvvatlash orqali ularni ijtimoiy himoya tizimi bilan ta‘minlaydi. Bu o‘z navbatida fuqarolarning pul mablag‘larini kelajakda sifatli hayot kechirishlari uchun joylashtirish va hayot sug‘urtasining jamg‘arma turlari orqali jamg‘arilgan pul mablag‘laridan yaxshi

maqsadlarda foydalanish imkoniyatini beradi. Shunday ekan, hayot sug'urtasi shartnomasida sug'urta ob'ekti bo'lib jismoniy shaxslarni hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida hayot sug'urtasi turlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlarning yetarli darajada samarali tizimi yaratilgan. Bunda hayot sug'urtasini rivojlantirish va aholini hayot sug'urtasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun qilingan soliq islohotlarini ta'kidlashimiz lozimi. Bunday tizimni yaratilishi Respublika sug'urta bozorini rivojlantirish va mukammallashtirishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

#### **Nazorat savollari:**

1. Milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari.
2. Sug'urtani huquqiy tartibga solishning ustuvor yo'nalishlari.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida sug'urtaviy huquqiy munosabatlar.
4. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining mazmuni.
5. Sug'urta munosabatlarining qatnashchilarini huquqiy tartibga solish jarayoni.
6. Hayot sug'urtasi faoliyati bo'yicha davlat nazorati.
7. Hayot sug'urtasi sohasidagi sug'urtachilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdori.

## **4-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA YUZAGA KELADIGAN RISKLAR VA SUG‘URTALOVCHI RISKLARI**

### **4.1. Risk tushunchasi, uning mohiyati va olimlar tomonidan riskka berilgan ta’riflar**

Riskni ko‘pchilik biror bir aniq holat natijasining noaniqligi deb tushunadi. Noaniqlik so‘zining ma’nosini qanday tushunishimizni bir chekkaga qo‘yib turaylikda, bizning so‘zlashuvimizdagi “risk” termini nima ekanligini yaxshi bilishimizni eslaylik. Agar biror hodisa yuz bersa, biz uchun bu noxush holatni keltirib chiqaradi, biz kutganlar uchun emas. Risk so‘zi har doim ham, bir tomondan yuz berishi mumkin bo‘lgan hodisaga nisbatan qo‘llaniladi, ikkinchi tomondan, ushbu hodisaning natijasi bizning holatimizni yomonlashtirishi mumkin.

Ko‘pgina avtorlar, ayniqsa AQSH davlati avtorlari riskni bir qancha ko‘rinishlarda talqin qilishni taklif qilishgan. Har bir talqin odatda uzoq diskussiyalarga sabab bo‘lgan. Quyida ularning bir nechtasini keltiramiz:

- risk – noxush hodisaning yuz berish ehtimolligi;
- risk – bu xavflar kombinatsiyasi;
- risk – bu oldindan aytib bo‘lmaydigan, bu tendensiyaning natijasi kutilganidan farq qilishi mumkin;
- risk – bu yo‘qotishlarning noaniqligi;
- risk – bu yo‘qotishlik ehtimoli.

Bu berilgan ta’riflarni ko‘rib chiqqan holda, shuni xulosa qilish mumkinki, bu tushunchalarning hammasida o‘zaro bog‘liqlik va o‘xshashlik mavjud. Bu o‘xshashliklar,

Birinchi, bu noaniqlik to‘g‘risidagi g‘oya, biz buni kelajakka ishonchsizlik sifatida baholadik.

Ikkinchi, riskning turli darajalarining mavjudligi.

Uchinchi, bu ma’lum sabablar natijasida hodisaning yuzaga kelish ehtimolligi.

Kelajakda nima bo'lishini bilmaslik oqibatida risk yuzaga keladi. Bizning butun hayotimiz risklar bilan to'la. Bu risklarni umumiy tarzda quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Boquvchining vafot etishi oilani mablag'siz qolishiga olib kelishi mumkin.

2. Mehnat qobiliyatini doimiyga yo'qotish (nogironlik) yanada muhim oqibatlarga olib kelishi mumkin – oilaning daromad manbai yo'qolishidan tashqari, nogironga aylangan boquvchining o'zi yashashi va davolanishi kerak.

3. Korxonada xodimining vafot etishi, agar u korxonada katta mavqega ega xodim bo'lsa, uning oilasiga to'lanadigan to'lovdan tashqari, xodimning o'rnini bosadigan xodim topilgunga qadar bo'lgan davr korxonaning moliyaviy ahvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4. Yong'inning yuz berishi kvartiraga, dala hovliga yoki ishlab chiqarish binosiga jiddiy zarar yetishi yoki umuman yo'q bo'lib ketishiga olib kelishi mumkin.

5. Investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning natijasi zarar bilan yakunlanishi mumkin.

6. Kompaniyaning xarajatlari kutilganidan anchagina katta bo'lib chiqishi va bu kompaniya faoliyatiga jiddiy zarar etkazishi mumkin.

7. Oiladagi farzand nufuzli oliy o'quv yurtiga to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi. Oiladagilar uni qimmat rapetitorida o'qitish evaziga byudjet asosida o'qishga qabul qilinishini kutgan edi.

8. Barcha korxonalarda o'zining tovari yoki xizmatiga bo'lgan talabning tushib ketish riski mavjud. Buning sababi turlicha: raqobatning kuchayishi, xom-ashyoning qimmatlashishi, mijozlar tomonidan boshqa korxonani tanlanishi va hokazolar.

Barcha risklarni ikkita yirik guruhga ajratish mumkin: spekulyativ va sof risklar. Spekulyativ risklarning natijasi foyda yoki zarar bilan tugashi mumkin. Bunday risklarda foyda ham zarar ham bo'lmasligi mumkin. Sof risklardan foyda olish mumkin emas.

Jismoniy shaxslar ham korxonalar va tashkilotlar ham o'zlarining kelajak faoliyatini rejalashtirib oladi. Buning uchun ular moliyaviy rejalashtirish va risklarni boshqarish usullaridan foydalanadi.

Misol tariqasida ikki kishidan iborat bo'lgan yosh oilaning o'z kelajagini moliyaviy rejalashtirishini ko'rib chiqamiz. 22 yoshli Ivan va Mariyalar universitetni tugatib mustaqil hayotga qadam qo'yishdi. Ushbu oilaning daromad manbai ularni oylik maoshlari. Ularning jamg'armalari, kvartiralar, mashinalari va dala hovlilari yo'q. Ivan va Mariyada oddiy oila rejalari: bolali bo'lish, ularni katta qilish, o'qitish, kvartiraga ega bo'lish, dala hovli va mashina olish, qariganda foydalanish uchun ta'minotga ega bo'lish. Bu rejalarni amalga oshirish uchun kelajakdagi daromad va xarajatlarni rejalashtirib olishlari kerak.

Daromadlar kelajakda oylik maoshning oshishi va tug'ish davrida daromadning kamayishi holatlarini hisobga olgan holda rejalashtiriladi. Har oylik joriy to'lovlarni amalga oshirgandan keyin quyidagilar uchun jamg'arma tashkil etish rejalashtiriladi:

- kvartira sotib olish uchun to'lanadigan birinchi to'lovni amalga oshirish;
- avtomashina sotib olish;
- bolalarni maktabda va universitetda o'qitish;
- qarilikda ta'minotni yo'lga qo'yish.

Yuqorida sanab o'tilgan xarajatlar rejadagi xarajatlar. Bundan tashqari oila quyidagi ko'zda tutilmagan zararlarning oldini olish uchun nima qilish kerakligi masavlasini hal qiladi:

- mavjud mulkning yong'in, avariya va boshqa holatlar natijasida yo'qotilishi;
- kasallanish yoki baxtsiz hodisa yuz berishi natijasida davolanish;
- oila boshliqlaridan birining vafot etishi yoki nogiron bo'lib qolishi natijasida daromadning yo'qolishi;
- avtomobil avariya yoki suv toshqini natijasida qo'shnilarga zarar etkazish va boshqa holatlar natijasida uchinchi shaxslarga etkaziladigan zararlarni. Mazkur masalani echish riskni boshqarish yoki risk-menejment deb ataladi. Risk-

menejmentning birinchi bosqichi – mavjud risklarni identifikatsiyalash hisoblanadi. Undan keyin oila riskni boshqarishning quyidagi usullaridan birini yoki ularning kombinatsiyasini qo‘llashi mumkin:

1. Riskdan qochish. Oila shaxsiy avtomobil sotib olmasdan umumiy transportdan foydalanishi mumkin. Bu shaxsiy avtomobil bilan bog‘liq ko‘pgina risklar, ya‘ni avtomobil avriyasi, avtomobilning o‘g‘irlanishi, avariyanatijasida travma olish, avariyanatijasida boshqa shaxslarga zara etkazish kabilardan qochish imknini beradi.

2. Riskni kamaytirish. Oila turli noxush holatlarning yuz berishi yoki ularning oqibatlaridan qochish maqsadida sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishi, turli zararli odatlardan qochishi, xavf darajasi yuqori bo‘lgan chang‘i uchishdan voz kechish, uyga temir eshik o‘rnatish, signalizatsiya o‘rnatish, yong‘inga qarshi uskunalari o‘rnatishi mumkin.

3. Riskni uzatish. Riskni uzatish biror bir hodisaning yuz berishi natijasida ko‘riladigan moliyaviy zarar bo‘yicha javobgarlikni boshqaga – jismoniy yoki yuridik shaxsga berishdir. Bu o‘z-o‘zidan ma‘lumki, bu ishni xarajatsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Riskni uzatishning eng ko‘p qo‘llaniladigan usuli – sug‘urtalashdir. Sug‘urta shartnomasini tuzish va ma‘lum miqdordagi to‘lovni amalga oshirish evaziga (sug‘urta mukofoti) shartnomada ko‘rsatilgan holatlar yuz berganda ko‘rilgan zarar shartnomada ko‘rsatilgan chegara doirasida sug‘urta kompaniyasi tomonidan to‘lab beriladi.

4. Riskni qabul qilish. Oila bir qancha risklarga nisbatan hech qanday chora ko‘rmasligi mumkin. Riskni qabul qilish deganda mazkur risk yoki risklar yuz berishi natijasida ko‘riladigan moliyaviy zararlarni qoplashni o‘z zimmasiga oladi. Bunday risklar kam zarar keltiruvchi kichik risklar yoki katta risklar bo‘lishi ham mumkin. Yirik risklarni qabul qilinishi uning yuz bermasligiga bo‘lgan ilinj yoki yuz berganda ham (masalan oila boshlig‘idan birining vafot etishi yoki nogiron bo‘lib qolishi) bir oila boshlig‘ining oylik maoshi oshishi hisobiga qoplash imkoniyatining yuzaga kelishi ehtimolidan kelib chiqiladi.

Riskning bir qismini o'zida qoldirish qarori qabul qilinishi ham mumkin. Bir oila boshlig'ining daromadi to'xtab qolganda ikkinchisniki yetarli bo'lishi mumkinligini hisobga olgan holda ikki oila boshlig'ining ham daromadi yo'qolishi riskini sug'urtaga uzatish qarori qabul qilinishi mumkin. Ikki kishining hayotini sug'urtalash nisbatan arzon tushishini hisobga olgan holda bunday qaror qabul qilinishi mumkin.

Yuz berishi mumkin bo'lgan barcha risklarni sug'urtaga berish holatini tasavvur qilish qiyin, chunki har qanday holatda ham risklarning bir qismi oila boshliqlarining javobgarligida qoladi. Shunday ekan, yuqorida keltirilgan jamg'armalar sonini yana bittaga, ko'zda tutilmagan xarajatlar jamg'armasini tashkil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Real hayotdan kelib chiqadigan bo'lsak, bunday ko'p sondagi jamg'armalarni shaklantiradigan oilani topish qiyin. Korporativ pensiya loyihalari (agar ular mavjud bo'lsa) oilaning birdan-bir maxsus fondlari rolini o'tashi mumkin.

Umuman, yuqorida keltirilgan riskni boshqarishning to'rt xil turi mavjud bo'lib, ulardan birinchi ikkitasi risklarga qarshi kurashishga yo'naltirilgan va keyingi ikkitasi riskni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Riskni uzatish zarurati oiladagi holatdan kelib chiqadi. Oilada qanchalik qaram kishilar soni ko'p bo'lsa va jamg'armalar hajmi yoki boshqa mulklar kam bo'lsa, shunchalik riskni uzatishga bo'lgan zarurat ortadi. Agar Ivan va Mariya 30 yoshlarga borganda topish-tutishi yaxshi bo'lsa, kvartirasi, dala hovlisi va meros uchun yana bitta kvartirasi bo'lsa, bolalar uchun xarajatlar hali kelajakka rejalashtirilgan bo'lsa, o'z-o'zidan sug'urtaga ehtiyoj kamayadi, ammo erishilgan mulklarni saqlash zarurati sug'urtaga bo'lgan ehtiyojni tug'diradi. Agar Mariya ishlamasdan uy ishlari bilan mashg'ul bo'lsa va bolalar soni ko'proq bo'lsa sug'urtaga bo'lgan ehtiyoj yana yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, sug'urta biznesida sug'urta kompaniyasi belgilangan to'lov (sug'urta mukofoti) evaziga o'z mijozining risklarini qabul qiladi. Sug'urta kompaniyasi mijoz o'zida saqlab tara olmaydigan risklarni sug'urtaga qabul qiladi, chunki u risklarni umumlashtirish prinsipidan foydalanadi. Misol tariqasida bir yil



muddatga vafot etishdan sugʻurtalashni olib qaraydigan boʻlsak, sugʻurta kompaniyasi biladiki, sugʻurtalanganlar soni qanchalik koʻp boʻlsa, ularga nisbatan sugʻurta davri mobaynida vafot etadiganlar soni kam boʻladi. Bunday natija boʻlishini sogʻlom fikrlovchi har qanday odam ham va ehtimollar nazariyasi qonuniyati ham tasdiqlaydi. Bu sugʻurtalanuvchidan kam miqdordagi sugʻurta mukofotini olish bilan katta javobgarlikni zimmaga olish imkoniyatini beradi.

Ammo, sogʻlom fikr yoki ehtimollar nazariyasi qonuniyatiga qaramasdan vafot etganlar soni haddan tashqari ortib ketishi va natijada kompaniya qiyin ahvolga tushib qolishi, hatto kasodga uchrashi ham mumkin. Ha, agar kompaniya zarar choralarni koʻrib bormasa shunday holat yuz berishi mumkin.

Kimlarni vafot etishdan sugʻurtalash oson? Oʻzining yaqinda oʻlishini bilganni. Bular ogʻir kasallar, oʻzini oʻldirmoqchi boʻlganlar, everest choʻqqisiga chiqmoqchi boʻlganlar va hokazolar. Agar sugʻurta kompaniyasi hech qanday chora koʻrmasa, ogʻir kasallar kasalxonasida vafot etishdan sugʻurtalashni yoppasiga amalga oshirilishi mumkin.

Sugʻurta kompaniyasi xayriya fondi emas, tijorat tashkiloti. Shuning uchun ular barcha risklarni sugʻurtaga qabul qilavermaydi, balki maʼlum talablarga javob beradiganlarini qabul qiladi. Bunday talablardan eng birinchisi, qabul qilinayotgan risk ehtimollik xususiyatiga ega boʻlishi kerak. Kasallik yoki oʻlim sugʻurtalangan shaxsning ataylabdan qilgan harakati natijasi boʻlmasligi lozim. Hayot sugʻurtasi shartnomasi oʻz-oʻzini oʻldirish yoki oʻz-oʻzini oʻldirishga harakat qilish holatlarida toʻlovni amalga oshirmaslik qoidasini oʻzida mujassamlashtirgan boʻlishi kerak. Ikkinchidan, shartnomada koʻzda tutilgan sugʻurta hodisasining yuz berishi toʻlovni amalga oshirishdan oldin holatni chuqur oʻrganish zarurligini koʻzda tutishi lozim. Sugʻurtalangan shaxsning vafot etishi odatda ishonchsizlik tugʻdirmaydi, ammo bu borada ham tovlamachilik holatlari boʻlishi mumkin, masalan, sugʻurtalanuvchining chet elda vafot etganligi toʻgʻrisidagi yolgʻon maʼlumotni taqdim etilishi. Nogironlik masalasi ham qayta tekshirish qiyin boʻlgan holat, rak bilan kasallanganlikni qachon paydo boʻlganligini aniqlashning umuman

iloji yo‘q. Rak bilan kasallangan shaxs sug‘urtalanayotgan paytdan oldin ham rak bilan kasallangan bo‘lishi mumkin.

Barcha risklarning yuz berish darajasini bir xil deb hisoblash asossizdir. Riskning turli darajalarini qanday baholash mumkin? Aytaylik, ba’zida o‘zanidan toshib turadigan daryoning bo‘yida uy turibdi. Bu holatni ta’riflashda biz xavfli yoki xatarli yoki riskli so‘zlaridan birini ishlatamiz. Bu holat bo‘yicha bir narsani aniq aytish qiyin, ya’ni daryo o‘z o‘zanidan toshadimi yoki yo‘qmi, ushbu toshqin uyga zarar etkazadimi? O‘sha holat, ya’ni ushbu daryoda toshqin bo‘lish ehtimoli zararning yuz berish ehtimolini kuchaytiradi, va biz aytishimiz mumkinki, zarar etkazish chastotasi yuqori bo‘ladi. Biz “xatarli” terminini bunday holatda qo‘llashdan maqsad zarar yuz berish ehtimolining yuqori ekanligini bildirishidir. Faraz qilaylik, ushbu daryo qirg‘og‘idan naribroqda, uncha baland bo‘lmagan balandlikda yana bir uy turibdi. Bunday holatda daryoning o‘zanidan toshish ehtimoli o‘zgarmaydi, ammo ikkinchi uyga zarar etish ehtimoli pasayadi, ya’ni uy bunday holatda xatar darajasi past holatda turibdi.

Ammo bizning xulosamiz o‘zgarishi mumkin, qachonki, yuqorida misol keltirilgan uylarning qiymati hisobga olinganda. Aytaylik, qirg‘oqqa yaqin turgan birinchi uy engil konstruksiyada qurilgan yozgi uy, ta’mir talab va undan kam foydalaniladi. Qiymati 5000 funt sterlingdan ko‘p emas. Ikkinchi uy hashamatli, qiymati 200 000 funt sterlingdan ortiq. Bunday holatda biz o‘z fikrimizni ko‘riladigan zarar miqdorini hisobga olgan holda o‘zgartirishimiz kerak.

Biz risk so‘zini ko‘p hollarda zararning sababchisi bo‘lgan hodisa hamda yo‘qotishlarning hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlarni bildirish uchun ishlatamiz. Biz sabab to‘g‘risida fikr yuritayotganimizda albatta ushbu ikki holatni hisobga olishimiz zarur. Buni yuqorida ko‘rib o‘tgan, daryo bo‘yidagi ikki uy to‘g‘risidagi misolda ham ko‘rish mumkin. Faqat suv toshqini riski to‘g‘risida gapirish ma’nosiz bo‘lib qoladi. Biz shunday deyish bilan aslida suv toshqini natijasidagi zarar ko‘rish riskini nazarda tutamiz. Suv toshqini – bu zarar ko‘rishning sababi, uylardan birining daryo bo‘yida joylashganligi natijaga ta’sir ko‘rsatadi.

Suv toshqini – bu xavf, uying qirg‘oqdan uzoqligi esa ta’sir ko‘rsatuvchi faktor. Xavf bu birlamchi sabab, ushbu sabab natijasida zarar kelib chiqishi mumkin. Ko‘p hollarda ular manfaatdor shaxslarning xohishi va imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda yuz beradi. Shunday qilib, xavfni belgilovchi holatlar sifatida to‘lqin, yong‘in, o‘g‘irlik, avtohalokat va portlashlar hisoblanadi. Natijaga ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlar sifatida baholanadi. Ular zararining sababchilari bo‘lib xizmat qilmaydi, ammo zararining yuz berishi va uning hajmining ortishi yoki kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ta’sir ko‘rsatuvchi faktorlarni ko‘rib chiqish va tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi, qachonki, sug‘urta kompaniyasi biror riskni sug‘urtaga qabul qilayotganda va sug‘urta mukofotini belgilayotganda.

Ta’sir ko‘rsatuvchi faktor moddiy yoki nomoddiy bo‘lishi mumkin. Moddiy faktor riskning fizik parametrlariga taalluqli bo‘lib, bunday faktorlar sifatida bino konstruksiyasi, do‘kon yoki fabrikadagi xavfsizlik tizimlari yoki suv toshqinida uying daryo qirg‘og‘idan uzoqligi kabilarni misol keltirish mumkin. Nomoddiy faktorlar sub’ektiv faktorlar bo‘lib, ular hkam natijaga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday faktorlar sifatida sug‘urtalanuvchining sug‘urtalangan mulkka munosabatini misol keltirish mumkin.

#### **4.2. Risklar klassifikatsiyasi**

Risklar klassifikatsiyasi risk tushunchasining o‘zini tadqiq qilishdan farq qilib, bunda biz barcha risk turlarini ko‘rib chiqishimiz va ularni guruhlarga ajratishimiz zarur. Turli xildagi risk klassifikatsiyalaridan biz quyidagi uchta risklar klassifikatsiyasi bo‘yicha to‘xtalib o‘tamiz:

##### **1. Moliyaviy risklar.**

Risk ma’lum bir holatni ko‘zda tutadi va bunda mazkur holatning yuz berishi oqibatlarining noaniqligi mavjud. Moliyaviy riskda natija pul birligida o‘lchanishi mumkin va bunda u kutilgan natijani qiymatini belgilashi mumkin. Moliyaviy risk termini bunday ta’rifda riskning o‘zining tabiatidan ko‘ra ko‘proq natijaga taalluqli bo‘ladi.

Buni mulkning moddiy zaralanishi, o'g'irlanishi yoki yong'in natijasida biznesdagi foydaning yo'qotilishi holatlarida ko'rish mumkin. Biror bir shaxsga etkazilgan zarar natijasidagi yo'qotishlarni ham pul ko'rinishida o'lchash mumkin. Zarar etkazilgan holatda uni baholash sud orqali yoki advokat va sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuv asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatlarning barchasida riskli holatlarning oqibati moliyaviy baholash orqali baholanishi mumkin.

Yana boshqa holatlar mavjud bo'lib, baholashga bunday yondoshuvning iloji yo'q. Masalan, yangi avtomobil sotib olish yoki restoran taomnomasidan taom tanlash holatlarini ko'rib chiqaylik. Bunda ham riskli holatlar yuzaga kelishi mumkin, ammo ularning natijasi moliyaviy yo'qotishlar emas, balki, sotib olingan avtomobilda qulayliklarning kamligi yoki tanlangan taomning ma'qul kelmasligi kabi natijalar yuzaga kelishi mumkin. Yana boshqa holatlar, masalan hayotda muhim ijtimoiy qarorlar qabul qilish – bular ham nomoliyaviy risklar qatoriga kiradi, ya'ni biror kasbni tanlash, o'ziga bolalari bor turmush o'rtoq tanlash. Bular insonga moddiy ta'sir ko'rsatishi yoki ko'rsatmasligi mumkin. Ammo muhimi bu holatlarning natijasi moddiy jihatdan emas, balki ma'naviy o'lchamlar bilan o'lchanadi. Biznes dunyosida biz asosan moddiy jihatdan o'lchanadigan risklarga duch kelamiz.

## 2. Sof va spekulyativ risklar.

Risklarning ikkinchi klassifikatsiyasi ham oqibatlar bilan bog'liq. Bunda bir-biridan farqli ikki xil natija bo'lishi mumkin, bular birinchisi faqat zarar ko'rish, ikkinchi holatda natija foyda bilan tugashi ham mumkin. Sof risklar deganda natijasi zarar yoki uning yaxshi holati zararsizlik bo'lishi mumkin. Ya'ni riskning yuz berishi natijasida biz uchun noxush holat yuzaga kelishi yoki oldingi holat saqlanib qolishi mumkin. Sof risklar sifatida avtomobil avariya, fabrikada yong'in, do'kon yoki ombordan tovarlarning o'g'irlanishi, ishda jarohat olish kabilarni misol keltirish mumkin. Bu holatlarning birortasida yutuq bo'lishi mumkin emas. Yuqoridagi holatlar yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin.

Agar hodisa yuz bermasa holat o'zgarmaydi, hech kim hech narsadan yutuq ko'rmaydi.

Bunga muqobil sifatida spekulyativ risklar bo'lib, bunday holatda yutuq imkoniyati mavjud. Bunga yaxshi misol qilib aksiya sotib olishni keltirish mumkin. Aksiya sotib olishga pul tikish zararga yoki hech bo'lmaganda zarasiz chiqishga olib kelishi mumkin. Mazkur ishga qo'l urishdan maqsad kelajakda foyda ko'rishdan iborat.

Biznes dunyosida sof risklar ham, spekulyativ risklar ham mavjud. Misol tariqasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'rib chiqamiz. Ishlab chiqaruvchi shaxs maxsus jihozlar va texnologik liniyalarga ega bo'lgan katta fabrikaga ega. U ichki bozor va eksport uchun turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradi. Mazkur yo'nalish bo'yicha sof va spekulyativ risklarning yuz berish ehtimolligini ko'rib chiqamiz:

- fabrikaning, uning mexanizmlarining, inventarlari yoki xom-ashyo zahiralari turli ko'rinishdagi zararlanishlarga uchrashi mumkin. Bu zararlanishlar yong'in, portlash, dovul, kuchli shamol, ataylabdan zarar etkazish va boshqa xavflar natijasida yuz berishi mumkin;

- bundan tashqari o'g'irlik sodir etilish riski mavjud. Tayyor mahsulot, xom-ashyo yoki hatto fabrika jihozlari o'g'irlab ketilishi mumkin. Qo'pol qonunbuzarlarning yangilik yaratuvchiligini tushunish uchun sug'urta industriyasida uzoq ishlashga hojat yo'q;

- javobgarlikning ham tarkibida potensial xavflar mavjud. Ishlab chiqaruvchi o'z ishchi va xodimlarining ishda jarohat olishi yoki tashrif buyuruvchilarning jarohat olishi yoki mulkiga zarar yetishi bo'yicha javobgar bo'lib qolishi mumkin. Oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi sifatida uni iste'mol qiluvchilarning qandaydir darajada zararlanishi bo'yicha javobgarlikka ega;

- agar fabrikada yong'in yuz bersa, bu ishlab chiqarishning uzilishiga olib keladi va bu o'z navbatida foydaning kamayishiga sabab bo'ladi. Bu yerda sof va spekulyativ risklar o'rtasidagi farqni ko'rsatishga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib,

bundan maqsad, sof risklarning sug'urtalanishi mumkinligi va spekulyativ risklarning sug'urtalanishi mumkin emasligini ko'rsatib berishdan iborat.

Sug'urtaga xos umumiy kamchilik sifatida shuni aytib o'tish kerakki, natijasi yutuq bo'lishi mumkin bo'lgan risklar sug'urtaga qabul qilinishi mumkin emas. Nima uchun bunday ekanligini ko'rish va tushunish qiyin emas. Yutuqqa erishish ilinjida spekulyativ risklarga ixtiyoriy ravishda qo'l urishadi. Agar mijozning besamar harakatlari uchun sug'urta kompaniyasi to'lab bersa, ushbu yutuqqa erishish maqsadida harakat qilishga intilish katta bo'lmas edi. Ta'sir etuvchi faktorlarga xos terminlar asosida shuni aytish mumkinki, bunday holatda eng yuqori nomoddiy risk sug'urtalangan bo'lar edi.

Ammo shuni aytib o'tish kerakki, spekulyativ riskdan keyin hosil bo'lishi mumkin bo'lgan sof risk sug'urtalash uchun yaraydi. Demak, biror bir kompaniyaga pul tikish natijasida ushbu mablag'ni yo'qotish riskidan sug'urtalanish mumkin emas. Bu risk foyda keltirishi ham foyda keltirmasligi ham mumkin.

### 3. Fundamental va maxsus risklar.

Risklarning ushbu klassifikatsiyasi sabab va oqibatga taalluqlidir. Fundamental risklar – bu biror shaxs yoki guruhning aybi yoki xatosi bilan yuz bermaydi. Fundamental riskning oqibatlari ko'p sondagi odamlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday risklarga yer qimirlashi, suv bosish, ochlik, vulqonlarning harakatga kelishi va boshqva tabiiy hodisalarni misol keltirish mumkin. Ammo fundamental risklar sifatida faqat tabiat hodisalarini hisobga olish noto'g'ri bo'ladi. Ijtimoiy o'zgarishlar, siyosiy aralashuvlar yoki urush holatlari ham fundamental risklar sifatida qaralishi mumkin.

Shaxsning harakati bilan bog'liq bo'lmagan va ta'sir doirasi keng bo'lgan bunday risklardan tashqari maxsus risklar ham mavjud bo'lib, ularning sabab va oqibatlari ko'proq alohida shaxslar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday risklarga yuqorida tilga olingan yong'in, o'g'irlik, ishlab chiqarishga zarar yetishi va jarohat olish, avtomobio avariylari kabilarni kiritish mumkin.

Maxsus risklar asosan sug'urta qilishga yaraydigan risklar qatoriga kirs, o'z o'rnida fundamental risklar buning aksi bo'lib hisoblanadi. Ammo bu fikrda keskin turib olish ham yaramaydi, chunki sug'urta bozoridagi qarashlar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Shuni aytish mumkinki, fundamental risklar – bu shunday risklarki, ular nazorat qilinmaydi, qamrovi keng, hamma uchun bir hil ta'sir ko'rsatadi, uning oqibatlari uchun butun jamiyat javobgar bo'ladi. Ko'p hollarda geografik faktor muhim rol o'ynaydi. Bu ayniqsa zilzila va suv toshqinlariga taalluqli. Dunyoning juda ko'p joylarida sug'urtalovchilar bunday risklarni fundamental risk deb hisoblaydi va sug'urtaga qabul qilib bo'lmaydi deb hisoblashadi.

#### **4.3. Hayot sug'urtasiga xos risklar va ularning sug'urta shartnomalariga kiritilishi.**

Sug'urtaning asosiy tamoyili – riskni uzatish mexanizmi sifatida faoliyat ko'rsatishdan iborat. Riskni uzatish bilan bir qancha imkoniyatlar yuzaga keladi.

1. Himoya. Himoya tushunchasining ko'pgina xususiyatlari risk tushunchasi haqidagi qismda ochib berilgan edi. Riskni uzatish insoning kasallanishi yoki travma olishi holatlarini bartaraf eta olmaydi, ya'ni bu bilan insonni uning hayoti bilan bog'liq xavflardan himoya qilishning iloji yo'q. Haqiqatda nimani himoya qilish mumkin – bu shaxsning mulki (yoki korporativ tashkilotning). Emotsional yoki jismoniy ta'sirlanish yoki kasallanish insonning bilimi, uquvi va imkoniyatlari yetarli bo'lgan holatda oldini oluvchi tadbirlarni qo'llash orqali ma'lum darajada kamaytirilishi mumkin, ammo baribir infeksiyalar va sog'liqning kuchsizlanishi unga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Inson yoki biznesmenlar guruhi sug'urta polisini sotib olish orqali o'z mulkini (daromadi va egaligidagi mulklarni) insonlar ta'siridan (o'g'irlik yoki ataylabdan zarar etkazish), baxtsiz hodisadan (yong'in yoki o'tayotgan transport bilan zarar etkazish), to'fon yoki suv bosishi, kasallanish yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishdan himoyalashi mumkin. Shunday qilib insonning moddiy imkoniyatlari uning sog'ligi yoki aqli pasaygan holatda ham himoya qilinishi mumkin.

Risk, biz yuqorida ko'rganimizdek, birinchi o'rinda baxtsiz hodisalarni baholashga taalluqli bo'lib, ular yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin. Riskni baholash insoning aqli, tanasi va mulki yoki kompaniyaning mulki bilan bog'liq ko'p sondagi holatlarda qo'llaniladi. Bitta sug'urta paketining sug'urta polisida bir nechta risklar ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin. Ammo, ularning barchasi oxir oqibatda baxtsiz hodisalar bo'lib, ularning yuz berishi natijasida natijasida insonig mulki, tanasi va sog'ligiga zarar yetishi mumkin. Sug'urta orqali sog'lig'ini tiklash zarurati yuzaga kelgan insonnig tanasiga, sog'ligiga yoki mulkiga etgan zararni qoplash maqsadida yoki nogironni unga har toomnlama qulay sharoitda saqlab turish maqsadida uning moddiy holatini himoya qiladi.

Mehnatga qobiliyatsizlik yoshiga etgan insonlarning daromadi himoya shakli sifatidagi pensiyalar orqali ta'minlanadi. Bu esa shaxsiy pensiya va pensiya ta'minoti bilan bog'liq loyihalarni sug'urta ob'ektlari sirasiga kiritishning to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, himoya tushunchasi, risk yuz berishi natijasida sug'urtalanuvchining zarar ko'rgan mulkini oldingi holatga qaytarish uchun (yoki ba'zi holatlarda xuddi shunday ko'rinishdagi mulk bilan ta'minlash) zarur bo'ladigan mablag' bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Endi biz "mulk" terminiga aniq tushuncha berishimiz zarur. Mulk – bu mulkdor egalik qilayotgan barcha naarsalardir.

Shaxs yoki kompaniyaning mulki sifatida quyidagilar qaralishi mumkin: yer, bino, mebel, bank hisobvaraqlari, kiyim, sanoat aksiyalari, muzlatkichdagi oziq-ovqatlar, o'zi tomonidan yozilgan asarlarga mualliflik huquqi, avtomobil, ishlanmalarga patentlar va boshqa minglab narsalar. O'zidagi mavvjud mulklardan foydalanish natijasitda oladigan daromadla qiymati ham sug'urtalanishi mumkin. Mulk egasi o'z mulkini ma'lum bo'lgan barcha risklardan o'zi xoxlagan darajagacha sug'urtalashi mumkin. Sug'urtalash qiymati sug'urta mukofoti orqali to'lanadi.

2. Qiymat. Ko'pgina munosabatlarda sug'urta ishida muhim hisoblanuvchi, ammo hozirga qadar yetarli darajada e'tibor qaratilmayotgan tushuncha bu qiymat masalasidir. Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra qiymat tushunchasi narsaning bozorda



sotilayotgan bahosiga nisbatan “ayirboshlash qiymati” sifatida tushuniladi. Bunday konsepsiya sugʻurta nuqtai-nazaridan qaraganda umuman yetarli emas.

3. Zamonaviy qiymat. Odamlarning sugʻurtalanayotgan boyliklari va narsalarining asosiy qismi har doim ham bozorda sotilavermaydi. Ikkinchi tomondan, 1932 yildan boshlab, deyarli barcha mamlakatlarda bozorda sotilayotgan narsalarning narxi oshib kelmoqda.

Sugʻurta daʼvolarini qondirishning asosiy prinsipi – bu shunday aniqlanishi mumkin boʻlgan qoplama: sugʻurtalangan riskning harakatga kelishi natijasida mulkka etkazilgan zararni aniq va tshliq kompensatsiya qilish (shu bilan birga insonning aqliy va jismoniy holatiga taʼsir koʻrsatilgan holatlar), koʻp hollarda bu, mulk egasiga ushbu mulkni taʼmirlash yoki oʻxshashini sotib olish hisobiga mulk holatini oldingi holatga qaytarishimkonini beradi. Yetarlilicha qoplamani taʼminlaydigan mablagʻ miqdori qanday aniqlanadi? Sugʻurtalangan va sugʻurta hodisasiga uchragan mulk bozorda zaraga uchramagan oʻrnini bosuvchi mulkka nisbatan past narxda sotilishi mumkin. Ammo mazkur mulk egasi tomonidan koʻp yildan beri foydalanib kelinayotgan boʻlsa va har yili yuz berayotgan inflyasiya hisobiga hozirgi narxi oshib ketgan boʻlishi va natijada zarar koʻrgan boʻlishiga qaramasdan birlamchi qiymatidan yuqori narxda sotilishi mumkin. Oʻrnini bosuvchi predmetning bugungi kundagi narxi uning tarixiy narxidan, yoki zarar koʻrmagan holatdagi narxidan albatta yuqori. Faqat bitta istisno boʻlishi mumkin, yaʼni yuqori texnologiyalar asosida yaratilayotgan narsalarning narxi oʻtgan yilgi narxdan past boʻlishi mumkin. Zararni qoplash uchun sugʻurtalovchi hozirgi zamon narxida toʻlovni amalga oshirishi kerak.

Bu shuni anglatadiki, sugʻurtalovchi tomonidan olinayotgan sugʻurta mukofotini yangi sugʻurta shartnomasini tuzayotganda yoki eskisini yangilayotganda albatta qayta koʻrib chiqishi zarur (bu odatda bir yilda bir marta amalga oshiriladi). Bu tuzilgan shartnomalarda koʻrsatilgan risklar yuz berishi natijasida koʻrilgan zararlarni toʻliq qoplash, maʼmuriy xarajatlarni amalga oshirish va maʼlum darajada foyda olishni taʼminlaydiga sugʻurta fondini tashkil etish imkonini beradi.

Sug'urtalovchilar uchun sug'urtalanuvchi mulkning zararini faqat naqd pulda emas, balki o'rnini bosuvchi shunday mulk bilan qoplash huquqini saqlab qolish zarurati muhim bo'lib bormoqda. Turib qolgan va hisobdan chiqarilgan avtomobildan yangi avtomobilning qiymati yuqori albatta. Ammo, bir yilda yuzlab avtomobillarning zararini qoplab beruvchi sug'urtalovchi uchun bu zararlarning hammasi uchun turib qolgan avtomobillar sotib olishga etadigan naqd pul to'lash u tomonidan qabul qilingan to'g'ri qaror bo'lmaydi. Avtomobil sotuvchi dilerlar turib qolgan avtomobillarni sotishdan foyda ko'radilar. Sug'urtalovchi uchun sug'urtalanuvchiga naqd pul to'lashdan ko'ra turib qolgan avtomobillarni tarqatish foydali. Bunday qaror bir vaqtlar odat bo'lgan remont ustaxonalari va sug'urtalanuvchilar o'rtasida ta'mir uchun haqni baland belgilash to'g'risidagi xufyona kelishuvlarga chek qo'yadi. Sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi uchun undan olinadigan sug'urta mukofotini mumkin qadar past darajada saqlab turish uchun harakat qiladi, ammo yuqoridagi holatlar yuz berganda buni amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Bunga erishish uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga uning oshirib ko'rsatgan zararini emas, haqiqiy zararini to'lab berishi kerak.

Agar sug'urtachi sug'urtalanuvchilarning ko'rgan zararlarini sug'urta fondidan kam xarajat qilgan holda qoplash maqsadida turib qolgan avtomobillar, uylar mexanizmlar va boshqa narsalarni alohida shartlar asosida sotib olishni kelishib olsa, qiymatni aniqlashning bu shakli iqtisodiyot bo'yicha darsliklarda keltirilgan narxning shakllanish tizimi munosabatlariga hech qanday aloqasi bo'lmaydi. Kelajakda sug'urtalangan mulklarning asaosiy qismini da'volar bo'yicha baholashda shunday usul qo'llaniladi. Shuning uchun qiymatni aniqlashning bunday shakli sug'urta shartnomalarida bundan keyin yanada ko'proq uchrayveradi va bu o'z o'rnida sug'urta mukofotlarida ham o'z aksini topadi. Sug'urtalanuvchilar ham qiymatni belgilashning bu turini borgan sari ko'proq tan oladilar va shu asosda o'zlarining qancha mulkini sug'urtalash va o'zlarini sug'urtalashni o'ylab ko'radilar.

Ko'plab ob'ektlarning bozor qiymati murakkab mexanizmlar asosida aniqlanadi. Biror bir ob'ekt ma'lum bir narxda sotilganda shunday kategoriyadagi

mulklarning boshqa egalari ham o'z mulkini shunday qiymatda deb hisoblashadi (masalan bir ko'chadagi bir xil konstruksiyadagi uylar) Banklar ham o'z kreditlarini biror uyga nisbatan taklif qilganda shunday ko'rinishdagi boshqa uy qiymatidan kelib chiqib kredit qiymatini belgilashadi (boshqa mulklarga nisbatan ham shunday). Bank ko'p hollarda garovga qo'yilayotgan mazkur mulkni egasidan sug'urtalashni talab qiladi. Bundan maqsad kredit amal qilishi davomida mulkka biror zarar etganda to'lanmay qolgan kreditni shu mulk hisobidan qoplashdan iborat.

### **Nazorat savollari:**

1. Risk tushunchasiga ta'rif bering?
2. Risklar klassifikatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Risk-menejmenti va risklarni identifikatsiyalash tushunchasi.
4. Risklarni boshqarishning qanday turlari mavjud?
5. Moliyaviy risklarni izohlab bering?
6. Sof va spekulyativ risklar.
7. Fundamental va maxsus risklar tarkibiga qanday risklarni kiritish mumkin?
8. Sug'urta da'volarini qondirishning asosiy prinsiplariga tavsif bering?

## **5-BOB. HAYOT SUG‘URTASINING TURLARI. UZOQ VA QISQA MUDDATLI HAYOT SUG‘URTASI**

### **5.1. Hayotni ma’lum muddatga sug‘urta qilish**

Hayot sug‘urtasi insonlarga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning butun kompleksini hal etish imkonini beradigan katta hajmdagi sug‘urta kafolatlari va investitsion xizmatlarning to‘plamini taqdim etadi. Shartli ravishda ushbu xizmatlarni 2 guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy va iqtisodiy. Birinchi guruh vazifalarning amalga oshirilishi davlat ijtimoiy sug‘urtasi va ta’minoti tizimidagi etishmovchiliklarni boshqarish imkonini bersa, ikkinchi vazifalar guruhining bajarilishi esa bir tomondan shaxsiy daromadlarning oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan butun moliya-kredit operatsiyalarini amalga oshirish paytida zarur bo‘lgan kafolatni taqdim etadi.

Qonuniy hujjatlarga muvofiq zimmasiga hayot sug‘urtasi bo‘yicha belgilangan tartibda shartnoma tuzish majburiyati yuklatilganlar hayot sug‘urtasi bo‘yicha alohida maqsadlarni belgilashi mumkin, masalan xavfli va zararli mehnat sharoitidagi ishchilarning hayot sug‘urtasi, davlat xizmatidagi shaxslar hayot sug‘urtasi.

Shunday qilib fuqaro hayot sug‘urtasi shartnomasini o‘z oilasini barvaqt o‘lim xavfidan saqlash maqsadida, yoki kelgusi moliyaviy ehtiyojini ta’minlash uchun investitsion maqsadda tuzishi mumkin. Shuning uchun uzoq muddatli hayot sug‘urtasi favqulodda muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishga va bu orqali davlatni qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hayot sug‘urtasi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim bir mexanimi bo‘lib xizmat qiladi.

Hayotni ma’lum muddatga sug‘urta qilish shakli qadimgi va an’anaviy sug‘urta turi hisoblanadi. Bunda sug‘urta shartnomasi ma’lum belgilangan davrga (bir yil, besh yil, o‘n yil), va sug‘urta summasi naf oluvchiga faqatgina sug‘urtalanuvchi shartnoma amal qilish davrida vafot etganda beriladi.

Ushbu sugʻurta turi sugʻurtalanuvchining vafot etishi hodisasida sugʻurta toʻlovini amalga oshirishning eng yuqori kafolatini beradi va eng minimal sugʻurta mukofotini belgilaydi. Uning asosiy maqsadi - sugʻurtalangan shaxsning bevaqt vafot etishidan koʻriladigan zarardan uning oila-aʼzolarini himoya qilishdir.

Sugʻurta mukofoti shartnoma amal qilishi davomida toʻlab boriladi. Shartnoma sugʻurtalanuvchining sugʻurtalovchi daromadida ishtirokini ham, investitsion daromadidagi ishtirokini ham va boshqa shu kabi holatlarni koʻzda tutmaydi. Sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurta summasini toʻlash bir martada yoki boʻlib-boʻlib renta koʻrinishida toʻlanishi ham mumkin.

Muddatli sugʻurta belgilangan vaqt davrini qamrab oladigan hayotni sugʻurta qildirish boʻyicha shartnomalarning boshlangʻich (bazaviy) turi hisoblanadi. shbu shartnomalar turining bir necha xil variantlari mavjud:

- qayd qilib qoʻyilgan muddatli sugʻurta;
- qayta tiklanadigan muddatli sugʻurta;
- konvertatsiyalanadigan muddatli sugʻurta;
- sugʻurta summasi kamayib boradigan muddatli sugʻurta;
- sugʻurta summasi oʻsib boradigan muddatli sugʻurta;
- oila daromadlarini sugʻurta qildirish;
- sugʻurta summasi oʻsib oila daromadlarini sugʻurta qildirish.

Keling, bu variantlarga xos boʻlgan ustunliklar va mukofotlarni taqqoslaymiz va ularning har birini qoʻllash boʻyicha shartlarni koʻrib chiqamiz.

#### 1. Qayd qilib qoʻyilgan muddatli sugʻurta.

Bu muddatli sugʻurta qildirishning eng oddiy va shu bilan bir paytda arzon varianti hisoblanadi, chunki shartnomaning amal qilish muddati davomida doimiy boʻlib turadigan mukofot evaziga hayotni sugʻurta qilish boʻyicha sugʻurta kompaniyasi sugʻurta qildiruvchi shartnomaning amal qilish muddati yakunlangunga qadar oʻlgan hollarda sugʻurta summasi toʻlash majburiyatini oʻz zimmasiga oladi. Bu muddat yakunlangach, polis oʻz qiymatini yoʻqotadi.

Ushbu variantning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- sugʻurta mukofoti pastligi,

- sugʻurta qoplami cheklangan vaqt davomida amal qiladi,
- sugʻurta mukofoti va summasi shartnomada qayd qilib qoʻyiladi,
- polisning joriy qiymati va na qayta xarid qilish summasi mavjud emas,
- shartnoma tugagandan soʻng toʻlovlar yoʻq,
- mukofotlar kiritish kelishib olingan kutish muddatidan oʻtib ketgan hollarda polis amal qilishni toʻxtatadi.

Ushbu polisdan foydalanishning ehtimoli eng yuqori boʻlgan variant – qarz oluvchining oʻlimi holatida qarzning qaytarilishini taʼminlash.

## 2. Qayta tiklanadigan muddatli sugʻurta.

Muddatli sugʻurtaning ushbu varianti shu bilan ajralib turabiki, shartnoma sugʻurta qildiruvchining istagi bilan bevosita shartnoma muddati tugashi bilan tibbiy tekshiruvsiz uzaytirilishi mumkin. Ushbu polislar uchun yosh boʻyicha cheklovlar qoʻllanishi mumkin (masalan, 65 yoshgacha).

Shartnoma muddati uzaytirilgan hollarda sugʻurta mukofotlari sugʻurta qildiruvchining yoshini hisobga olgan holda oshiriladi va takroriy uzaytirish imkoniyati mavjud boʻladi.

Mazkur variantning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- polisning amal qilish muddati tibbiy tekshiruvsiz uzaytirilishi mumkin;
- polis navbatdagi muddat yakunlanganidan soʻng uzaytirilishi yoki qayta tiklanmasligi mumkin;
- shartnoma muddati uzaytirilganda sugʻurta mukofotlari sugʻurta qildiruvchining yoshini hisobga olgan holda oshiriladi.

Sugʻurta muddati 20 yilga teng boʻlgan polis xarid qilish oʻrniga 45 yoshli kishi unga shartnomaning amal qilish muddatini har besh yilda uzaytirish huquqini beradigan besh yillik qayta tiklanadigan polis xarid qilishi mumkin

## 3. Konvertatsiyalanadigan muddatli sugʻurta .

Qayd qilib qoʻyilgan muddatli sugʻurtaning ushbu varianti shartnoma amal qiladigan muddatning istalgan qismida sugʻurta qildiruvchiga sugʻurta mukofotlarining hammasini yoki bir qismini umrbod sugʻurta polisiga yoki qolgan umrni sugʻurta qildirish polisiga konvertatsiyalash imkonini beradi. Mukofot

stavkasini belgilash sugʻurta qildiruvchining konvertatsiya paytidagi yoshi uchun qolgan umrni sugʻurta qildirish yoki umrbod sugʻurta yangi polisi bilan bir xilda amalga oshiriladi.

Ushbu polis variantining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- qolgan umrni sugʻurta qildirish yoki umrbod sugʻurta polisiga konvertatsiya qilish imkoniyati;

- badallarning hammasi yoki bir qismi konvertatsiya qilinishi mumkin;

- ushbu variant boʻyicha mukofot konvertatsiya qiymatini kompensatsiyalash uchun biroz yuqori.

Polislarning ushbu turi ssuda taʼminoti sifatida ham qoʻllanishi, konvertatsiya esa uni kelajakda jamgʻarib boriladigan ssudaga aylantirish usuli sifatida foydalanilishi mumkin.

4. Sugʻurta summasi kamayib boradigan muddatli sugʻurta.

Muddatli sugʻurtaning ushbu variantida polis amal qilish muddatining oxirida nolga teng boʻladigan har yili belgilangan miqdorda pasayib boradigan sugʻurta summasi koʻzda tutiladi.

Ushbu variantga quyidagilar xos:

- mukofot doimiy boʻlib qolaveradi;

- qolgan sugʻurta summasi juda kichik boʻlib, mukofotni toʻlashdan boʻyin tovlashning oldini olish uchun mukofotni toʻlash davri shartnomaning amal qilish muddatidan kichik boʻlishi mumkin;

- mukofot hatto qayd qilib qoʻyilgan muddatli sugʻurtadan hams past boʻlishi yoki kamroq vaqt toʻlanishi mumkin.

Muddatli sugʻurtaning ushbu varianti odatda kamayib boradigan qarzni qoplash uchun, masalan, sugʻurta summasi uy uchun toʻlanmagan qarz miqdori bilan bir xil proporsiyada kamayib boradigan pulni boʻlib-boʻlib toʻash sharti bilan xarid qilingan uy boʻyicha qarzlarni qoplash uchun foydalaniladi.

5. Sugʻurta summasi oʻsib boradigan muddatli sugʻurta.

Sugʻurta qoplamining ushbu turi shartnomaning amal qilish muddati davomida pulning qiymati pasayib ketishi sababli sugʻurta qoplamining real

qiymatini pasaytiradigan inflyasiya ta'sirini hisobga olish uchun qo'llanadi. Bunga yoki sug'urta summasini har yili belgilangan foizga oshirish hisobiga, yoki oshirilgan summa bilan birga uzaytirilishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli polislardan foydalanish yordamida erishish mumkin. Odatda to'g'ri keladigan inflyasiya koeffitsientini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qilishning indeksli usulidan foydalaniladi.

Ushbu variantga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- sug'urta qoplami summasi tibbiy tekshiruvsiz polisning amal qilish muddati davomida o'sib boradi;

- sug'urta mukofotlari sug'urta summasining o'sishi bilan birgalikda o'sib boradi;

- sug'urta mukofotlari polis uzaytirilganda sug'urta qildiruvchining yoshiga muvofiq o'sib boradi;

- boshlang'ich sug'urta mukofotlari ekvivalent qayd qilingan muddatli sug'urta qildirishda bo'lgan holatdan ko'ra yuqori;

- sug'urta qoplami 60-65 yoshgacha amal qilishi mumkin.

VICH-infeksiya va OITS keng tarqalib ketganligi tufayli oxirgi paytlarda bu polislarni xarid qilish qiyinlashgan.

## **5.2. Hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish**

Hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish shakli – bu sug'urtalangan shaxsning butun umri davomida vafot etishidan sug'urtalash bo'lib, bunda sug'urta hodisasi qaerda va qachon yuz berishi hech qanday rol o'ynamaydi. Shartnomada sug'urtalanuvchining sug'urtalovchi daromadida ishtirok etishi, investitsion daromadidagi ishtiroki va boshqa shu kabi holatlar ko'zda tutiladi va bu sug'urta hodisasining qachon yuz berishiga qarab sug'urta summasining turlicha bo'lishiga olib kelishi mumkin. Sug'urta shartnomasining muddati belgilanmaydi. Sug'urta mukofoti bir martada yoki bo'lib-bo'lib sug'urta shartnomasi amala qilishi davomida to'lab borilishi mumkin. Sug'urtalangan shaxs 75-80 yoshga to'lgandan



keyin sug'urta mukofotini to'lashdan ozod etiladi. Sug'urta summasi bir martada yoki bo'lib-bo'lib renta shaklida to'lanishi mumkin.

Sug'urta qoplamasining ushbu turi, o'z nomidan ko'rinib turibdiki, boquvchini yo'qotish holatlarida oila uchun daromadni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Sug'urta summasi oila boquvchisi vafot etgan paytdan boshlab to shartnoma yakunlangunga qadar qismlab to'lab boriladi. Ba'zida joriy qiymat yoki kelishib olingan summa qismlab to'lash o'rniga boquvchi vafot etishi bilan bir martada to'lanishi mumkin.

Bu muddatli sug'urta qildirishning nisbatan arzon varianti hisoblanadi, chunki sug'urta qildiruvchi qanchalik uzoq yashasa, u o'lgan taqdirda shunchalik kam pul to'lash zarur bo'ladi. Agarda u shartnomaning amal qilish muddati yakunlanadigan paytga kelib tirik bo'lsa, sug'urta qildiruvchi umuman hech nima olmaydi.

Ushbu variantning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- o'lim bo'yicha to'lovlar qismlab amalga oshiriladi,
- polislar nisbatan arzon bo'ladi,
- to'lovlar foyda sifatida ko'rib chiqilishi va soliqqa tortilishi mumkin.

Sug'urta summasi o'sib oila daromadlarini sug'urta qildirish.

Inflyasiya oila daromadlarini sug'urta qildirish polisleri bo'yicha to'lovlar qimmatini «eb qo'yadi» va buning o'rnini to'ldirish uchun hayotni sug'urta qildirish bo'yicha ayrim kompaniyalar to'lovlar hajmi polisning amal qilish muddati davomida kelishib olingan miqdorda o'sib boradigan polislar taklif etadi. Ayrim polislar bo'yicha to'lovlar sug'urta mukofotlari to'lash paytidan boshlab o'sadi, boshqa polislar bo'yicha esa – sug'urta qildiruvchi o'lgan paytdan boshlab to'xtaydi o'sib boradigan to'lovlar inflyasiyadan ma'lum bir himoya beradi.

To'lovlar darajasi to'lovlarni kiritish jarayonida o'sa boshlaydigan polislar sug'urta qildiruvchining o'limidan so'ng ular bo'yicha indeksatsiya to'xtatiladigan polislardan qimmatroq bo'ladi. Polislarining ushbu turi, ehtimol, boqimandalarni himoya qilish uchun eng to'g'ri keladi, lyokin bu polislarini xarid qilish ham

VICH-infeksiya va OITS keng tarqalib ketganligi tufayli oxirgi paytlarda qiyinlashgan.

### **5.3. Vafot etish holatlaridan sug'urta qilish**

Vafot etishning asosiy ko'rsatkichi – bir yil davomida insonning vafot etish ko'rsatkichidir. Insonning yoshiga nisbatan vafot etishning bir yillik ehtimollik ko'rsatkichini  $q_x$  deb belgilanadi. 50 yoshli odamning bir yillik vafot etish ehtimolligi  $q_{50} = 0,02155$  ga teng. Bu shu yoshdagi 100 ming kishidan 2155 tasi ( $q_{50} = 0,02155 \times 100000 = 2155$ ) 51 yoshga kiringuncha vafot etishini bildiradi.

Umuman, keksa kishilar yoshlarga nisbatan vafot etish darajasining yuqoriligi bilan, erkaklar ayollarga nisbatan ushbu ko'rsatkich bo'yicha yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Vafot etishning sabablari turli yoshlarda turlicha bo'ladi. 2-jadvalda Britaniya tajribasidan kelib chiqqan holda turli yoshdagi insonlarning vafot etish sabablari keltirilgan.

Inson hayotining birinchi yilida vafot etish darajasi tez o'zgaradi, hayotining birinchi sutkasida ayniqsa vafot etish darajasi yuqori bo'ladi. Hayotining birinchi ikki haftasi yoki birinchi oyida ham vafot etish darajasi yuqori bo'ladi. Vafot etishining asosiy sababi tug'ma yurak nuqsoni hisoblanadi.

Maktabgacha yoshda bolalar uyda yoki bog'chada doimiy qarovda bo'ladi. Bu yoshda bolalar organizmi tug'ma nuqsonlarni engib o'tgan va shuning uchun vafot etish ehtimoli juda past bo'ladi. Vafot etishning asosiy sababi baxtsiz hodisalar bo'lishi mumkin.

Maktabning birinchi sinfida bolalar ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan doimiy e'tiborda bo'lishi davom etadi. Bu yoshda ham vafot etishning asosiy sababi baxtsiz hodisa bo'lishi mumkin. Vafot etishning eng minimal darajasi 9-11 yosh bo'ladi.

Buyuk Britaniyada vafot etishning asosiy xususiyatlari<sup>2</sup>

Yoshi	Vafot etish darajasi	Sharh	Vafot etishning asosiy sabablari
1-yoshgacha	Yuqori, ayniqsa hayotining birinchi haftasida	Tug‘ma yurak nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘limi yuqori	Tug‘ma yurak nuqsoni
1- yoshdan 4-yoshgacha	Past darajada	Doimiy e‘tiborda bo‘ladi	Ktilmagan baxtsiz hodisa, uyquda kutilmaganda vafot etish
5 yoshdan 12 yoshgacha	Past darajada	Xavfsiz muhit	Baxtsiz hodisa
13 yoshdan 16 yoshgacha	Biroz ko‘tariladi	Faol hayot tarzi	Baxtsiz hodisa, narkotiklar, suitsid
17 yoshdan 20 yoshgacha	Vaqtincha ko‘tarilish	Faol hayot tarzi	Avto va motohalokatlar, narkotiklar, suitsid
21 yoshdan 40 yoshgacha	Past darajada	Ish, nikoh, bolalar	Turli sabablar, OITS
41 yoshdan 70 yoshgacha	O‘sovchi darajada	Kasalliklar	Infarkt, rak
70 yoshdan yuqori	Yuqori, o‘sovchi daraja	Organizm himoya kuchlarining pasayishi	Kasalliklarning turli ko‘rinishlari

Maktabning birinchi sinfida bolalar ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan doimiy e‘tiborda bo‘lishi davom etadi. Bu yoshda ham vafot etishning asosiy sababi baxtsiz hodisa bo‘lishi mumkin. Vafot etishning eng minimal darajasi 9-11 yosh bo‘ladi.

Katta bo‘lib borgan sari, 12-14 yoshdan boshlab o‘smirlar faol hayot tarzini boshlaydi va doimiy e‘tibordan chiqadi. Shu sababli ushbu yoshdan boshlab vafot etish darajasi ortib boradi.

17-20 yosh guruhleri uchun 1-jadvalda vafot etish darajasining vaqtinchalik ortishi avto va moto avariylar bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

<sup>2</sup> Jadval Britaniya aktuar o‘quv materiallari (Akted study materials) asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Yoshga nisbatan yillik vafot etish ehtimolligining o‘zaro bog‘liqligini vafot etish jadvallari orqali tasvirlanadi. Yillik vafot etish ehtimolligi statistik ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Boshqa qo‘shimcha ko‘rsatkichlar, masalan hayotning davomiyligi ko‘rsatkichi ham yuqoridagi ma’lumotlar asosida hisoblanadi.

Vafot etish jadvalini hisoblash uchun zarur ma’lumotlar:

- biror bir davr uchun, masalan kalendar yili uchun insonlarning jinsi va yoshi kesimida vafot etganlar soni;

- o‘rganilayotgan davrda, masalan bir yoshgacha, bir yoshdan ikki yoshgacha va hokazo davrlarda jinsiy tarkib bo‘yicha erkak va ayollar soni.

Natijada erkak va ayollar uchun yoshga nisbatan vafot etishning empirik o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatkichi qx topiladi. Ia rasmdagi o‘zaro bog‘liqlik o‘zgarmas emas. Vafot etish darajasi katta yoshda kichik yoshdagilarga nisbatan past bo‘lishi mumkin. Bu bir qancha qoidalardan kelib chiqishi mumkin, masalan hayotning birinchi yilida vafot etish darajasi boshqa yillarga nisbatan yuqori bo‘ladi.

### 3-jadval

#### Rossiyada keng qo‘llaniladigan, erkaklarning vafot etish jadvali<sup>3</sup>

Yoshi, $x$	Vafot etish ehtimolligi, $q_1$	Belgilangan yoshga etadiganlar soni, $i$	Vafot etganlar soni, $d$	Hayot davomiyligining qolgan qismi, $e$
0	0,01821	100000	1821	61.4
1	0,00139	98179	136	61.6
2	0,00085	98043	83	60.6
3	0,00064	97959	63	59.7
4	0,00061	97897	60	58.7
5	0,00053	97837	52	57.8
6	0,00051	97785	50	56.8
7	0,00049	97735	48	55.8
8	0,00048	97687	47	54.9
9	0,00047	97640	46	53.9
10	0,00047	97594	46	52.9

<sup>3</sup> [www.ifin.ru/insurance](http://www.ifin.ru/insurance)

Vafot etish jadvali yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning gipotetik guruhlar uchun tuziladi, bunda bir kunda tug‘ilgan 100 ming chaqaloq olinishi mumkin. Bu vafot etish jadvali quyidagilarni ko‘rsatadi (3-jadval):

- vafot etishning yillik ehtimolligi,  $qx$ ;
- navbatdagi tug‘ilishga qadar yashaganlar soni,  $I_x$ ;
- hayotning har bir yilida vafot etganlar soni,  $dx$ ;
- ma’lum yoshgacha etganlarning qolgan hayotining davomiyligi  $X$ ,  $ex$ .

Vafot etish jadvallari erkaklar uchun alohida va ayollar uchun alohida tuzilishi yoki birgalikda tuzilishi mumkin, bundan tashqari quyidagilar bo‘yicha ham alohida jadvallar tuzilishi mumkin:

- shahar va qishloq aholisi uchun;
- alohida hududlar uchun;
- aholining turli qatlamlari uchun, masalan AQSHda oq tanlilar uchun alohida, qora tanlilar va ispan tilida so‘zlashuvchilar uchun alohida tuziladi.

Jadvallarni qanday qismlarga ajratish masalasi jadval aholining qaysi qatlami uchun tuzilayotganligi va qanday statistik ma’lumotlarning mavjudligidan kelib chiqib belgilanadi.

Vafot etish jadvalini tuzish uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

-yangi tug‘ilgan chaqaloqlar soni  $I_0$  bilan belgilanadi va buning uchun bolalar sonini masalan 100 000 deb olish mumkin;

-  $qx$  - vafot etishning yillik ehtimolligi ko‘rsatkichi bo‘lib, u statistik ma’lumotlardan olinadi;

-hayotining birinchi yilida vafot etganlar soni  $d_0 = I_0 \times q_0$ ;

-bir yoshgacha yashaganlar soni  $I_1 = I_0 - d_0$ ;

-hayotining ikkinchi yilida vafot etganlar soni  $d_1 = I_1 \times q_1$ ;

-ikki yoshgacha yashaganlar soni  $I_2 = I_1 - d_1$  va hokazo;

Vafot etish va yashab qolish ehtimolligi hisobi<sup>4</sup>

Yoshi, x	Vafot etish ehtimolligi, q	Yashab qolganlar soni, I	Vafot etganlar soni, d
40	0,00908	86855	789
41	0,00968	86067	833
42	0,01029	85234	877
43	0,01096	84357	925
44	0,01176	83432	981
45	0,01261	82451	1040

Vafot etish darajasi 4-jadvalga mos keladi deb hisoblaganimizda sug'urta hisoblari uchun foydali bo'lgan turli ehtimolliklarni topishimiz mumkin bo'ladi.

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 40 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan 86555 erkakdan 82451 nafari belgilangan yoshgacha yashaydi. 40 yoshli erkak yana kamida 5 yil yashashi ehtimolligi quyidagiga teng:

$$\frac{82451}{86855} = 0,94929$$

$$86855$$

Bundan yana shuni aniqlash mumkin, ya'ni 40 yoshli erkakning 5 yil davomida vafot etish ehtimolligi quyidagiga teng:

$$\frac{86855 - 82451}{86855} = 1 - \frac{82451}{86855} = 1 - 0,94929 = 0,05071$$

$$86855$$

$$86855$$

E'lon qilinadigan vafot etish jadvallarida har doim ham vafot etish ehtimolligi q<sub>x</sub> ma'lumotlari keltirilavermaydi. Shuning uchun boshqa ma'lumotlar asosida ushbu ko'rsatkichni aniqlashni bilib qo'ygan yaxshi.

Misol. Q40 ko'rsatkichini quyidagi ma'lumotlar asosida aniqlang:

1) I40 va d40;

<sup>4</sup> [www.ifin.ru/insurance](http://www.ifin.ru/insurance)

2) I40 va I41

Sugʻurta adabiyotlarida quyidagi aktuar koʻrsatkichlardan foydalaniladi:

$q_x - x$  yoshga teng insonning bir yil davomidagi vafot etishining yillik ehtimolligi

$R_x - x$  yoshdagi insonning bir yildan kam boʻlmagan hayot kechirishi ehtimolligi, yaʼni  $x+1$

$tq_x - t$  yil davomida  $x$  yoshga teng boʻlgan insonning vafot etish ehtimolligi

$tR_x - x$  yoshga teng boʻlgan inson  $t$  yoshdan kam yashamasligi ehtimolligi, yaʼni  $x + t$  yoshgacha yashashi.

Bu ehtimolliklarni vafot etish jadvaliga asosan quyidagi formulalar asosida hisoblash mumkin:

$$R_x = \frac{t_{x+1}}{t_x}; \quad q_x = \frac{dx}{t_x} = \frac{t_x - t_{x+1}}{t_x} = 1 - R_x;$$

$$tR_x = \frac{t_{x+1}}{t_x}; \quad tq_x = \frac{dx + \dots + dx + t - 1}{t_x} = \frac{t_x - t_{x+1}}{t_x} = 1 - tR_x;$$

Hayot sugʻurtasi shartnomalari uzoq muddatga tuziladi. Shuning uchun sugʻurtalovchilar uchun hozirgi zamon vafot etish darajasini bilishdan tashqari uning kelajakdagi oʻzgarishlarini ham bilish zarur.

Vafot etish darajasiga taʼsir koʻrsatuvchi faktorlarga yosh, jinsi va avloddan avlodga oʻtuvchi kasalliklar va yetishmovchiliklarni kiritish mumkin. Irsiyatning vafot etish darajasiga taʼsiri katta emas. Avloddan avlodga oʻtuvchi kasalliklarning ushbu koʻrsatkichga taʼsiri oʻrtacha boʻlib, bunday kasalliklar sifatida yurak kasalligi va qandli diabet kasalliklarini aytish mumkin.

Mazkur koʻrsatkichga taʼsir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy faktorlar sifatida kasb-kor, ovqatlanish, yashash sharoitlari, yashash joyi, taʼlim darajasi va hayot tarzini aytish mumkin. Ushbu faktorlar oʻrtasida aloqadorlik mavjud boʻlib, shu tufayli ularning aloxida taʼsir darajasini belgilash qiyin. Jumladan, insonning kasb-kori vafot etish darajasiga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsir koʻrsatadi, masalan yuqori risk

darajasiga ega bo'lgan ish, zararlilik darajasi yuqori bo'lgan ishlar, kuchli asabiylashish kabilar vafot etish darajasi ko'rsatkichining ortishiga olib keladi.

Xodim yoki ishchining kasb-kori uning oylik maoshini belgilaydi, bu o'z o'rnida uning hayot darajasiga, ovqatlanishi, tibbiy xizmatlardan foydalanish va boshqalarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada klass seleksiyasi xosil bo'ladi. Hayot sug'urtasida klass seleksiyasining roli juda yuqori bo'lib, jami axoliga nisbatan sug'urtalangan shaxslarning klass tarkibi yuqori darajadagi daromad va ta'lim darajasiga ega bo'lgan axoli qatlamlariga tomon aralashadi.

## 5-jadval

### Ijtimoiy sinflarga nisbatan vafot etish darajasi<sup>5</sup>

Ijtimoiy sinflar	O'rtacha darajaga nisbatan foizda
I. Professionallar (vrachlar, aktuariylar, advokatlar va boshqalar)	77
II. Tadbirkorlar va menejerlar	81
II.1. Xizmatchilar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar	99
II.2. Qo'l mexnati bo'yicha malakali xodimlar	106
III. Qo'l mexnatining o'rtacha malakali xodimlari	114
IV. Qo'l mexnatining malakasiz xodimlari	137

Qo'l mexnatining malakasiz xodimlarining o'rtacha vafot etish darajasi professionallarga nisbatan sal kam 80 % ortiq.

Tug'ri va sifatli ovqatlanish muxim o'rin tutadi. Noto'g'ri ovqatlanishning sabablari mablag'ning etishmasligi yoki odat yoki past darajadagi ma'lumot bo'lishi mumkin. Ortiqcha ovqatlanish boy oilalarda xam kambag'al oilalarda xam bo'lishi mumkin. Kambag'al oilalarda arzon va sifatsiz maxsulotlarni tanovul qilish natijasida organizmni yog' bosishi yoki boshqa kasalliklarning kelib chiqish darajasi yuqori.

<sup>5</sup> [www.ifin.ru/insurance](http://www.ifin.ru/insurance)



Yashash sharoitining talab darajasida bo'lmashligi infeksiya va respirator kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Yashash sharoiti uchun eng muhim talablar tozalik qishda issiqlik, suvning sifati va gigiena xisoblanadi. Yashash sharoitining yomonligiga odatda kambag'allik sabab bo'ladi. Shunday qilib Yashash sharoiti klass seleksiyasini faktorlaridan biri xisoblanadi.

Geografik faktorlarga turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi joyning tabiiy iqlim sharoiti, yo'l xarakatida avariyaalarning sodir bo'lish darajasi, tabiiy katastrofalar, siyosiy notinchliklar, tibbiy xizmatning yetarli emasligi kabilarni kiritish mumkin. Statistika ma'lumotlarining ko'rsatishicha hayot davomiyligining darajasi bir shaxarning turli qismlarida turlicha bo'lishi mumkin.

Ma'lumot darajasi daromat darajasiga va kasb-koriga ta'sir ko'rsatadi. Odatda ma'lumotli kishilar uzoq yashaydilar. Ma'lumotli bo'lish hayot tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ovqatlanish jismoniy badan tarbiya yetarli darajada bo'lib, chiyokish va alkogol iste'mol qilish nisbatan kam bo'ladi.

Vafot etish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa faktorlar sifatida jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, sportning xavfli turlari, sayoxat va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Jami axoliga birday ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar sifatida tibbiy xizmatining takomillashuvi, yangi kasalliklarni paydo bo'lishi, epidemiyalar urushlar va boshqalarni aytish mumkin.

Oilaviy ahvol bilan bog'liq xolatlarining vafot etish darajasiga ta'siri xam mavjud. Angliya oilalarida oilaviy xolatning vafot etish darajasiga ta'siri ko'rsatilgan. Demografiyada bu ko'rsatkichni vafot etishning eng yuqori chegarasi sifatida baxolashadi. Eng yuqori chegara 30 yoshlilarga yaqin bo'lib undan keyin daraja pasayadi, keksalik yoshida vafot etish farqi nisbatan past.

Nikoxda bo'lgan kishilarning vafot etish darajasi aholining boshqa qatlamlariga nisbatan past bo'ladi. Buning sababi, turmush qurayotkanlar odatda sog'lom kishilar bo'lib, nogironlar va boshqa nosog'lom kishilar kam turmush qurishadi, yani nikoxga kirishish selektiv faktor xisoblanadi. SHu bilan birga nikoxi buzilganlar o'rtasida o'lim darajasi yuqori bo'ladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Hayotni ma'lum muddatga sug'urta qilish shakllarini ayting?
2. Hayotni ma'lum muddatga sug'urta qilishda sug'urta mukofoti qaysi muddatda to'lanadi?
3. Hayotni qayd qilib qo'yilgan muddatli sug'urta qilish deganda nimani tushunasiz?
4. Sug'urta summasi kamayib boradigan muddatli sug'urta turini izohlab bering?
5. Hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish shakllarini ayting?
6. Hayotni uzoq muddatga sug'urta qilishning asosiy xususiyatlariga tavsif bering?
7. Vafot etish holatlaridan sug'urta qilishda vafot etishning asosiy ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
8. Buyuk Britaniyada vafot etishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

## **6-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA SUG‘URTA SHARTNOMALARINI TUZISH**

### **6.1. Hayot sug‘urtasida sug‘urta shartnomalarini tuzishning huquqiy jihatlari**

Hayot sug‘urtasi shartnomalari shaxsiy sug‘urta shartnomalariga o‘xshash bo‘lsada, farqli jixatlari ham ko‘p. Avvalam bor, sug‘urtalangan shaxsning vafot etishi “Sug‘urtalangan shaxs“ va “Naf oluvchi” terminlarining mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shartnomada naf oluvchining familiyasi va ismi sharifi, sug‘urtalanuvchiga aloqadorligi jihati aniq ko‘rsatilishi zarur. Shartnoma bu masalada keyinchalik munozaraga sabab bo‘lishi kerak emas.

Noaniqlik holatlari ba’zi mamlakatlarga xos bo‘lgan ko‘p xotinlik yoki ko‘p bolalik holatlarida ko‘proq yuzaga kelishi mumkin. Naf oluvchiga nisbatan shartnomada aniqlik kiritilishi qoplamani amalga oshirishni samarali yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Ba’zi holatlarda sug‘urta summasi shartnomada proporsiyali tarzda ko‘rsatilgan bir nechta naf oluvchilar o‘rtasida taqsimlanishi ham mumkin.

Sug‘urtalanuvchi shartnomaning amal qilishi davomida naf oluvchini o‘zgartirish huquqiga ega.<sup>6</sup>

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha bir taraf (sug‘urtalovchi) boshqa taraf (sug‘urta qildiruvchi) to‘laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga sug‘urta qildiruvchining o‘zining yohud shartnomada ko‘rsatilgan boshqa fuqaro (sug‘urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar etkazilgan, u muayyan eshga to‘lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug‘urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug‘urta pulini) bir yo‘la yoki vaqti-vaqti bilan to‘lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi kimning foydasini ko‘zlab tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxs sug‘urta pulini olish huquqiga ega bo‘ladi. Agar shartnomada naf

---

<sup>6</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003. p. 1 b. 3.

oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb tan olinadi. Sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning ezma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, shartnoma sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Naf oluvchi foydasiga sug'urta shartnomasi tuzish, shu jumladan u sug'urtalangan shaxs bo'lganda ham, sug'urta qildiruvchini, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yohud sug'urta qildiruvchining zimmasidagi majburiyatlar foydasiga shartnoma tuzilgan shaxs tomonidan bajarilmagan bo'lsa, ushbu shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Naf oluvchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini yohud shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lashni talab qilganida sug'urtalovchi undan, shu jumladan sug'urtalangan shaxs naf oluvchi bo'lgan taqdirda ham, sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni, shu bilan birga sug'urta qildiruvchining zimmasida bo'lgan, lyokin u bajarmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilishga haqli. Ilgari bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik oqibatlari xavfi naf oluvchining zimmasida bo'ladi. Sug'urta shartnomasi ezma shaklda tuzilishi lozim. Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Sug'urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yohud sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga uning ezma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtalovchi imzolagan, sug'urta shartnomasining shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitansiyasi)ni topshirish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda

shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug'urta mukofoti to'lash yohud - sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'langanda - birinchi badalni to'lash orqali tasdiqlanadi.

Sug'urtalovchi shartnoma tuzish chog'ida sug'urtaning alohida turlari bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ning o'zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo'llanishga haqli.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta xodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan emonlashtiradigan shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

Sug'urta shartnomasini tuzish shartlari sug'urtalovchi yohud sug'urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug'urtaning standart qoidalari (sug'urta qoidalari)da belgilab qo'yilishi mumkin.

Sug'urta qoidalarida mavjud bo'lgan va sug'urta shartnomasi (polisi) matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada (polisda) shunday qoidalar qo'llanilishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan va qoidalarning o'zi shartnoma (polis) bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida baen qilingan yohud unga ilova qilingan bo'lsa, sug'urta qiluvchi (naf oluvchi) uchun majburiydir. Ilova

qilingan taqdirda, shartnomani tuzish paytida sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoidalarini topshirilgani shartnomada ezuv bilan tasdiqlab qo'yilishi lozim.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi sug'urta qoidalarining ayrim bandlarini o'zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo'lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to'g'risida kelishishlari mumkin.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) o'z manfaatlarini himoya qilib, sug'urta shartnomasida (polisida) ko'rsatib o'tilgan tegishli turdagi sug'urta qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko'ra uning uchun majburiy bo'lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sug'urtalovchiga xabar qilishi shart.

Sug'urta shartnomasi (polisi)ning standart shaklida, sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida yoki ezma so'rovda sug'urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo'yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi.

Agar sug'urta shartnomasi sug'urtalovchining qandaydir savollariga sug'urta qildiruvchining javoblari bo'lmagan holda tuzilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli holatlar sug'urta qildiruvchi tomonidan ma'lum qilinmaganligiga asoslanib keyinchalik shartnomani bekor qilishni yohud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Agar sug'urta qildiruvchi aytib qo'ymagan holatlar o'tib ketgan bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Mol-mulkni sug'urtalash shartnomasi tuzilayotganida sug'urtalovchi sug'urta qilinayotgan mol-mulkni ko'zdan kechirishga, zaruriyat bo'lgan taqdirda uning haqiqiy qiymatini belgilash maqsadida ekspertiza tayinlashga haqli.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzilayotganida sug'urtalovchi sug'urta qilinayotgan shaxs sog'lig'ining haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirtirishga haqli.

## **6.2. Hayot sug'urtasi shartnomalarining tasniflanishi**

Hayot sug'urtasi amaliyoti sug'urta kompaniyalari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalarining har xilligini ko'rsatadi. Aholi daromadlarini sug'urtalash bilan ishlaydigan bu sug'urta tarmog'i moliya bozori ishlashiga o'zining ta'sirini juda tez ko'rsatadi. Barcha tuziladigan shartnomalar hayot sug'urtasi tarixi davomida ishlab chiqilgan o'ziga xos xususiyatga egadir. Hayot sug'urtasining asosiy farqli tomonlari quyidagilar:

- sug'urta ob'ekti;
- sug'urta predmeti;
- sug'urta mukofotlarini to'lash tartibi;
- sug'urta qoplamasining amal qilish davri;
- sug'urta qoplamasi shakli;
- sug'urta to'lovlari ko'rinishlari;
- shartnoma tuzish shakllari.

Hayot sug'urtasi ob'ekti quyidagilar bo'yicha farqlanadi:

- shaxsiy sug'urta bo'yicha tuzilgan shartnomada sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi bitta shaxs bo'ladi;
- boshqa shaxsning hayotini sug'urta qilishda sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi turli shaxslar bo'ladi;
- birgalikdagi hayot sug'urtasining birinchi yoki ikkinchi o'lim prinsipi asosida shartnoma tuziladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, hayot sug'urta shartnomasi tuzilayotgan vaqtda sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi turli shaxslar bo'lganda sug'urtalovchi sug'urtalanuvchining hayotiga qiziqishi bo'lishi kerak.

Birgalikdagi hayot sug'urtasi er-xotinlik juftliklari asosida tuziladi. Birinchi o'lim prinsipi asosida tuzilgan birgalikdagi hayot sug'urta shartnomasida

shartnoma summasi birinchi shaxs vafot etganda ikkinchi shaxsga to'lab beradi. Ikkinchi o'lim prinsipi asosida tuzilgan hayot sug'urta shartnomasi ikkala shaxs ham vafon etganda me'rosxo'r shaxsga to'lab beriladi. Birinchi turdagi sug'urta mukofoti ikkinchi turdagi sug'urta mukofotidan sezilarni darajada katta bo'ladi, chunki bitta o'lim kelishi riski ikkita o'limnikidan ko'ra baland hisoblanadi.

Sug'urta predmeti bo'yicha hayot sug'urtasi:

- o'lim hodisasini sug'urtalash;
- qolgan umni sug'urtalash.

O'lim hodisasi sug'urtasi sug'urtalangan shaxs vafot etganda sug'urta summasi to'lab beriladi. Qolgan umrni sug'urtalashda esa shartnoma muddati tugagan vaqtda sug'urtalangan shaxs hayot bo'lsa sug'urta summasi to'lab beriladi.

Sug'urta mukofotlarini to'lash tartibi bo'yicha:

- bir martalik to'lov amalga oshiriladigan sug'urta shartnomalari;
- davriy to'lov amalga oshiriladigan sug'urta shartnomalari. Davriy to'lov mukofotlari bir martalik to'lovdan summasidan farq qiladi.

Sug'urta qoplamalarining amal qilish davri bo'yicha:

- umrbod sug'urtalash (butun umrga);
- aniq bir davrdagi hayot sug'urtasi.

Sug'urta qoplamasining amal qilish muddati kriteriyasi nafaqat vaqt omilini balki sug'urta kompaniyasining o'ziga olayotgan riskini ham aniqlab beradi. Hayot sug'urtasida sug'urta hodisasining yuzaga kelish ehtimoli  $P$  sug'urta qiluvchi uchun 1 ga teng.

Ma'lum bir vaqt uchun sug'urta hodisasi sodir bo'lish ehtimoli sug'urta predmetiga bog'liq: qolgan umrni sug'urta qilish ehtimoli ( $P < 1$ ), o'lim sug'urtasi ehtimoli ( $P < 1$ ), agar har ikkisi bo'lsa sug'urta hodisasi sodir bo'lish ehtimoli 1 ga teng. Bunda sug'urta qiluvchi kompaniya garantiyani qanchalik katta bersa, sug'urta hodisasi sodir bo'lish ehtimoli qanchalik baland bo'lsa, va sug'urta shartnomasi muddati qanchalik qisqa bo'lsa shuchalik yaxshi bo'ladi.

Sug'urta qoplamasi shakli bo'yicha:

- qat'iy belgilangan sug'urta summasi;



- kamayib boradigan sug'urta summasi;
- oshib boradigan sug'urta summasi;
- sug'urta polislarining chakana narxlari indeksining oshishi bilan oshib boradigan sug'urta summasi;
- sug'urta kompaniyasi foydasiga sherikligi hisobidan sug'urta summalarining oshib borishi;
- sug'urta summasining sug'urta mukofotlarini to'gridan to'g'ri maxsus investitsion fondlarga investitsiya qilish hisobiga oshib borishi.

Aniq belgilangan summada sug'urta qilish ancha eski va ko'p tarqalgan shakl hisoblanadi. Kamayib boradigan sug'urta summasi shakli kredit olishda hamkor element hisoblanadi va qachon qarzni qaytarayotganda sug'urta summasi foizlar va asosiy qarz hayoti sug'urta qilingan shaxsning kreditori foydasiga o'tib ketadi. Oshib boradigan summa sug'urta shakli yaqinda moliya bozorida raqobatning kuchayib ketishi natijasida sug'urtachi sug'urta va moliyaviy mahsulotlarini birgalikda sotishi bilan paydo bo'ldi.

Sug'urta to'lovlarining ko'rinishlari bo'yicha quyidagicha farq qiladi:

- hayot sug'urtasining bir martalik sug'urta to'lovi;
- hayot sug'urtasining annuitet bo'yicha bo'yicha sug'urta to'lovlari;
- pensiya to'lovlari shaklidagi hayot sug'urtasi.

Sug'urtaning birinchi ko'rinishi sug'urtalovchiga yoki uning merosxoriga sug'urta hodisasi yuzaga kelganda yoki shartnoma muddati tugaganda to'lab beriladigan aniq bir kapitalni ifodalaydi. Ikkinchi ko'rinishi bo'yicha kapital emas, balki davriy to'lab boriladigan sug'urta to'lovlarini ifodalaydi. Uchinchi ko'rinish bo'yicha to'lovlar sug'urtalovchi qachon pensiyaga chiqsa o'shanda sug'urta to'lovlari pensiya tariqasida oylik, choraklik yoki yillik qilib to'lab beriladi.

Shartnoma tuzish usullariga ko'ra hayot sug'urtasi ikkiga bo'linadi:

- individual;
- kollektiv.

Birinchi vaziyatda shartnoma jismoniy shaxs bilan tuziladi va uning predmeti bir yoki ikki kishi bo'lishi mumkin. Kollektiv shartnomalar yuridik shaxs

tomonidan tuziladi va aniq bir shaxslar hayot risklarini sug'urtalaydi. Juda ko'p hollarda kollektiv sug'urta shartnomalarida nafaqat o'lim riskini, balki baxtsiz hodisa, nogironlik va kasallik risklarini ham sug'urta qilinadi.

### **6.3. Hayot sug'urtasi shartnomalarining turlari**

Hayot sug'urtasi shartnomalarining asosiy turlari boshqalaridan ko'ra muhim mezonlar va xususiyatlarini (komponentlarini) ochib berib, turli xil hayot sug'urtasi shartnomalarining yo'nalishlarini aniqlab olib, sug'urta bozorida ko'p ishlatiladigan sug'urta shartnomalari majmualarini yaratish mumkin. Hayot sug'urtasi amaliyotida sug'urta polislarining muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta bazaviy turini ajratish mumkin. Bular bir biridan yuqorida ko'rsatilgan mezonlar bo'yicha farq qiladi:

- tezkor hayot sug'urtasi - aniq muddatga vafot etishdan sug'urta qilish. Sug'urta kompaniyasi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan mukofotni sug'urta hodisasi qachon yuz berishidan qat'iy nazar, shartnoma muddatida yuzaga kelgan bo'lsa to'lab berishi shart;

- umrbod hayot sug'urtasi - shaxs hayotini umrining oxirigacha shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab sug'urta qilishi tushuniladi. Sug'urta kompaniyasi sug'urta shartnomasi tuzilgan vaqtdan boshlab sug'urta hodisasi yuzaga kelganda sug'urta summasini to'lab berishga majburdir;

- aralash hayot sug'urtasi - shaxsni ma'lum muddatga ham o'lim ham qolgan umrini sug'urta qilish hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasi shartnoma amal qilib turgan muddatda o'lim hodisasi yuz berganda yoki shartnoma muddati tugagan vaqtda sug'urtalanuvchi hayot bo'lsa shartnomada ko'rsatib o'tilgan sug'urta summasini to'lab berishi shart.

Yana alohida guruh asosida quyidagi shartnomalarni ham ko'rishimiz mumkin:

- pensiya sug'urtasi shartnomalari;
- annuitet yoki renta hayot sug'urtasi.

Faqat qolgan umrini sug'urta qilish shartnomalari yo'qligi haqida qonuniy savol paydo bo'lishi mumkin. Bunda sug'urta kompaniyasi sug'urtalanuvchiga agar u shartnoma muddati davomida vafot etmasa shartnomada ko'rsatilgan summani to'lab berishi kerak, agar teskarisi bo'lsa sug'urta mukofoti o'zida qoladi. Bunday shartnoma sug'urtalovchi uchun unchalik foydali emas, chunki agar sug'urtalangan shaxs vafot etsa yig'ilgan sug'urta summasi na o'ziga va na uning me'rosxo'riga tegadi.

### ***Tezkor sug'urta shartnomalari***

1. *Tezkor sug'urta doimiy mukofoti bilan.* Bu eng arzon va eng oddiy hayot sug'urta shakli hisoblanadi. SHartnoma amal qilish muddatida davriy, doimiy va kam sug'urta mukofoti to'lanadi va sug'urta hodisasi, ya'ni o'lim holati yuzaga kelganda sug'urta kompaniyasi kafolatlangan sug'urta summasini to'lab beradi.

2. *O'zgartiriladigan tezkor sug'urta.* Umrbod yoki aralash sug'urta shartnomasida sug'urta shartnomasi amal qilish muddati davomida shartnoma opsiya konvertatsiyasi mavjud bo'ladi. Yangi sug'urta mukofoti umrbod yoki aralash sug'urta tariflariga muvofiq hisoblanadi. Bu sug'urta turi bo'yicha yangidan tibbiy ko'rikdan o'tish talab qilinmaydi. Shartnoma summasini avvalgi sug'urta summasiga to'liq yoki qisman konvertatsiya qilish mumkin. Oxirgi vaziyatda bitta tezkor sug'urta shartnomasi o'rnini ikkita sug'urta shartnomasi oladi: qisqartirilgan sug'urta summasi bilan bitta shartnoma va avvalgi sug'urta summasining bir qismiga tuzilgan yangi aralash yoki umrbod sug'urta shartnomasi. Tezkor sug'urta bo'yicha qisqartirilgan summa yangi polisda ko'rsatilgan summaga teng bo'ladi.

3. *Kamayib boruvchi sug'urta summasidagi tezkor sug'urta.* Yillik sug'urta summasi shartnoma muddati tugagunga qadar kamayib nolgacha tugab boradi. Sug'urta mukofotlari doimiy bo'lib qolaveradi, lyokin ularni to'lash mudati sug'urtalovchining vijdotsizligini oldini olish uchun shartnoma muddatidan qisqaroq bo'ladi, bo'lmasa sug'urtalovchi shartnoma amal qilish muddati oxiriga kelib sug'urta mukofotlarini to'lamay qo'yilishi mumkin. Odatda bunday ko'rinishdagi shartnomalar kredit munosabatlarini, asosan ipoteka kreditlarini yoki

turar joy qurilishi uchun olingan kreditlar olishni amalga oshirish bilan birga tuziladi. Bunday turdagi sug'urta shartnomalaridan asosan kredit tashkilotlari foyda ko'radi. Bunday shartnomalardan ipoteka kreditlari tizimini rivojlantirishda keng foydalaniladi.

4. *O'sib boruvchi sug'urta summali tezkor sug'urta.* Bu polis inflyasiya jarayoniga qarshi kafolatni o'zida aks ettiradi. Mukofotlar sug'urta qoplamalarining o'sishi bilan birga oshib boradi. Bunday sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta summalari polisning chakana narxi indeksining oshishi bilan proporsional ravishda oshib boradi.

5. *Oilaviy daromad sug'urtasi.* Bu polislar tezkor hayot sug'urtasiga muhim qo'shimcha hisoblanadi. Ularning eng asosiy farqi shundaki, sug'urta hodisasi yuzaga kelganda boquvchining daromadining o'rnini bosadigan summa, renta to'lab beriladi.

#### ***Umrbod sug'urta shartnomalari***


1. *Qati'y belgilangan summada umrbod sug'urta.* Sug'urtalovchi shartnoma tuzilgan kundan boshlab umrining oxirigacha teng taqsimlangan mukofotlarni to'lab boradi va u vafot etgan holda shartnomada belgilangan summa to'lab beriladi. Bu doimiy va oxirgi muddatsiz polis bo'lib, uning muddati sug'urta hodisasi yuzaga kelganda yoki shartnoma bekor qilinganda tugaydi. Da'volar ko'p bo'lsa ham, bunday shartnomalar sug'urta mukofotlari tezkor sug'urta mukofotlaridan ancha ko'pdir. Bunday turdagi sug'urta shartnomalarida mukofotlar nafaqat umrbod sug'urta to'lovlaridan bo'lishi mumkin, balki bir martalik (faqat shartnoma tuzilayotgan vaqtda to'lanadi) yoki vaqtinchalik (aniq bir yoshga etgunga qadar yoki pensiyaga chiqquncha to'lanadi) to'lovlar to'lash sharti bilan tuzilishi ham mumkin.

Umrbod sug'urta shunchaki riskdan kafolatni beribgina qolmay, jamg'armalar yaratish mexanizmini tashkil etish imkoniniyam beradi. Mijozlarni o'ziga jalb qiladigan joyi shundaki, hayot sug'urta shartnomalari sug'urta himoyasini berish bilan birga moliyaviy mahsulotiniyam taqdim etadi, ya'ni sug'urtalovchi investitsiya qilish imkoniga ega bo'ladi.

2. *Sug'urta kompaniyasi foydasiga sherik bo'lish bilan umrbod sug'urta.* Sug'urtalovchi bir martalik yoki doimiy sug'urta mukofotini shartnomada belgilangan muddat ichida to'lab boradi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda sug'urta kompaniyasi sug'urta summasi bilan birga, hisoblangan sug'urta bonuslarini ham to'lab beradi.

3. *Ikkita sug'urta summali hayot sug'urtasi.* Bunday turdagi sug'urta polislari sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan summadan kam bo'lmagan sug'urta qoplamalarini kafolatlaydi. Shartnomada o'lim holati kuzatilganda to'lab beriladigan sug'urta summasi va har yili qo'shilib ko'payib boradigan sug'urta bonuslari belgilab ko'rsatiladi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda o'sha ikkita summaning qaysi biri katta bo'lsa, o'shanisi to'lab beriladi (1- rasm).

4. *Hayot sug'urtasining investitsion polislari.* Foydaga sherik bo'lishdan tashqari sug'urta kompaniyalari mijozlariga sug'urta summasi ma'lum bir investitsiya operatsiyasiga qo'yiladigan polislarni taklif etishdi. Sug'urta kompaniyalari sug'urtalovchilardan yig'ib olgan sug'urta mukofoti summalarini maxsus investitsion fondlarga joylashtirish majburiyatini o'zlariga oladilar.



**1-rasm. Ikkita sug'urta summali hayot sug'urtasida sug'urta to'lovlarining o'zgarish grafigi.**

*Bu yerda:*  $S$  - sug'urta summasi;  $T$  - shartnoma amal qilish muddati;  $S_b$  - bazaviy sug'urta summasi;  $\Delta S_b$  - bonuslar hisoblanishi hisobidan oshib boradigan bazaviy sug'urta summasi;  $S_T$  - o'lim hodisasi yuzaga kelganda to'lab beriladigan kafolat to'lovi darajasi.

Birinchi investitsion polislari 1950-yillar oxirida Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan va "unit-linked" (yunit bilan bog'liq) deb atalgan. Bunday turdagi sug'urta polislari shunday mijozlar uchun yaratilganki, polis ular uchun birinchi navbatda sug'urta himoyasi emas, balki qo'shimcha daromad manbai va kapital yaratish uchun kerak. "Unit-linked" sug'urta polislari banklar va investitsion kompaniyalarning jiddiy alternativ mahsuloti hisoblanadi, chunki bir tomondan polislari individual investorlarga fond birjasida ishtirok etish imkonini bersa, boshqa tomondan yana kerakli sug'urta kafolatini ham beradi.

Turli tuman investitsiya shartnomalari mavjud, lyokin ular quyidagi umumiy prinsipga asoslanadi: olinadigan sug'urta mukofotlari sug'urtachilar tomonidan maxsus yunitlangan fondlar(yunit-fond)dan yunitlar(shartli birliklar)ni sotib olish uchun ishlatiladi. Keyinchalik polis qiymati sotib olingan yunit qiymatining o'zgarishi bilan o'zgarib boradi.

Ikki tomonlama narx tizimidan foydalanadi: har bir yunit sotish narxi va sotib olish narxiga ega. Taklif narxi (offer price) - bu sug'urta mukofoti to'langan vaqtda sotib olingan yunit narxi hisoblanadi. Sotib olish narxi (bid price) - kompaniya sug'urta to'lovlarini to'lash muddati kelganda yoki sug'urtalovchi polisni qayta sotib olmoqchi bo'lganda yunit uchun taklif qilinadigan narx hisoblanadi. Bu narx taklif qilinayotgan narxdan past bo'ladi. Odatda farq taxminan 5%li marjani tashkil etadi va bu korxonanaig ustama xarajatlarini qoplaydi. Yana polisni boshqarish uchun olinadigan oylik foiz bo'lib, u fondan polis sotib olinayotgan yoki sotilayotgan vaqtdan oldin echib olinadi. Kompaniyaning yunitlarni boshqarish bo'yicha xarajatlari boshida katta summani tashkil etsa, yunitlarni kapitalizatsiya qilish davomida kamayib boradi. Shuning uchun birinchi unitlarni sotib olish narxi keyingilaridan ko'ra baland bo'ladi. Ba'zi

kompaniyalar ikki tomonlama narx tizimidan voz kechib uning o'rniga shartnomani mudatidan oldin bekor qilishda jarimalarni qo'llaydi.

### ***Sugurtalanuvchining foydada ishtirok etmaslik qo'shma sugurtasi.***

Bu qo'shma sugurtaning asosiy shakli bo'lib, vafot etish holatida yoki shartnoma muddati tugaganidan so'nggina, qayd qilingan va kafillangan mablag'lar to'lanadi.

Sug'urta mablag'i bir xil yoki turli xil bo'lishi mumkin. Vafot etish holatidagi to'lovlar, hali hayot holatidan ko'ra ancha yuqori to'lanadi. Sug'urta mablag'lari vafot etish holatida tezda; shartnomada belgilangan muddat tugab qolib sug'urtalanuvchi hali hayot bo'lganida bu holdagi to'lovlar ancha kechiktirib beriladi. Muddat cho'zib turilgan holatda, sug'urtachi faqatgina shartnomada qayd qilingan muddatdan so'ng qo'yilgan mablag'ni to'lab beradi. Bu holatda sug'urtalanuvchining qanday holatda: hayot yoki vafot etishi e'tiborga olinmaydi.

To'lab qo'yilgan qo'shma sugurtaning foydasi, sugurtachi tomonidan shartli ravishda 3 bo'lakka bo'linadi:

- tavakkalchilik foydasi: belgilangan muddatdan avval vafot etish holatida, tuzilgan tavakkalchilik fondi (bo'lish prinsipi);

- omonat foydasi: yig'ish zahirasi uchun mo'ljallangan bo'lib, bu shartnomada qayd qilingan muddatdan so'ng hayot bo'lishni nazarda tutadi (kapitalizatsiya prinsipi);

- ish yuritish xarajatlari.

Qoidaga ko'ra: foyda muddatli yoki tez bo'lishi mumkin. Qo'shma sugurtaning tez sugurta shaklini sug'urta deb aytish qiyindir. Chunki bu turdagi sug'urtada moliyaviy xavf ko'proq. Sug'urta kompaniyasiga berilgan mablag'ning necha foizini kompaniya o'z qo'lga kirita oladi? Foydada ishtirok etmaslik qo'shma sugurtasining muddatli to'lov xavfi esa aniq bir foiz ko'rsatkichlarini aniklanishiga olib keladi.

### ***Sug'urtalanuvchining foydada ishtirok etish qo'shma sugurtasi.***

Bu sugurta jamlash sugurtasining eng kup yoyilgan turidandir. Vafot etish Vafot etish holatida ham shartnomada qayd qilingan muddat o'tib qolganida ham

sug'urtalanuvchiga sug'urta mablag'i o'ulab beriladi. Bu sugurtani shartnomada qayd qilingan muddat arafasidagi ko'shilgan bonuslar hamda kafillangan mablag' tashkil kiladi.

***Ikki xil sug'urta mablag'iga ega bo'lgan qo'shma sug'urta.***

Ikkala sug'urta qo'shilmasi – foydada ishtirok etish qo'shma sug'urtasi va tezkor sug'urtaning kamayib boruvchi mablag'i ushbu shartnomani tashkil qiladi.

Vafot etish holatida sug'urtachi ikkala mablag'dan eng yukori ko'rsatkichini: asosiy sug'urta mablag'iga bonuslar qo'shilgan mablag'ni yoki vafot etish holatida kafillangan sugurta mablaglarini tulaydi. Shartnomada qayd kilingan muddat o'tib qolganida, asosiy sug'urta mablag'i va qo'shilgan bonuslar to'lab beriladi.

***Egik hayot qo'shma sug'urtasi.***

Sug'urta shartnomasini muddatdan oldin bekor kilish holatini va sotib olishning arzon narxga tushib qolishini oldini olish uchun mo'ljallangan. Katta mablag'ga birorta ham shartnoma imzolanmaydi. O'rtacha sugurta mablag'iga ega bo'lgan bir necha shartnomalar tuziladi. Ushbu shartnomalarning yig'ilmasi butun ko'rinishda talab qilingan sug'urta qoplamasiga barobar bo'ladi. Sug'urtaning foydasi muddat bilan to'lab boriladi.

Imzolangan shartnomalarning hammasi uchun foydani to'lay olmasligiga sabab, sotib olingan narx hisobida bir qism polislar yo'q qilinadi ( yoki sug'urta mablagini 10 yil muddat o'tgandan so'ng olinadi ); qolgan shartnomalar esa o'z faoliyatini davom ettiradi. Boshqa odatiy sug'urtalardan farki shuki, egik hayot qo'shma sug'urtasi kayd qilingan muddat poyoniga ega emas.

Ular quyidagicha tuzilgan bo'ladi:

Sug'urtalanuvchi shaxs shartnomani bekor qilib, arzon narx evaziga sug'urta shartnomasini sotib olgandan ko'ra, sug'urtaning foydasini kutib turgani afzaldir.

#### **6.4. Sug'urta shartnomasini qayta sotib olish**

Qayta sotib olish summasi - sug'urta qiluvchi sug'urtalovchiga biror bir sabab bilan shartnomani bekor qilganda to'lab berishi kerak bo'lgan summa. U



o'zida muddatdan ilgari bekor qilingan uzoq muddatli hayot sug'urta shartnomasi bo'yicha yig'ilib borgan mukofotlar zahirasini aks ettiradi. Har bir shartnoma bo'yicha to'lanadigan mukofotlar kapitalizatsiya qilinadi va matematik zahira hisoblab boriladi. 2-3 yildan keyin sug'urtalovchi shartnomani belgilangan muddatdan oldin bekor qilib, to'lagan sug'urta mukofotlarining bir qismini qaytarishni talab qilish huquqiga egadir.

Sotib olish qiymati shartnoma shartlari bilan oldindan kelishib qo'yiladi va u mukofotlar to'langan muddat, mukofot hajmi va yillik bonuslarga bog'liq. Sotib olish qiymati har doim shartnoma muddati tugaganda yoki sug'urta hodisasi yuzaga kelganda to'lanib beriladigan summadan kam bo'ladi. Sug'urta kompaniyasi sotib olish qiymatini aniqlayotganda o'zining ustama xarajatlari va agentlarga beradigan komission summani ushlab qoladi. Odatda polisda uni har xil vaqtlar uchun bekor qilishda to'lanadigan belgilangan kafolatlangan qayta sotib olish qiymati ko'rsatiladi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan matematik zahira summasini talab qilib olishga huquq beradigan boshqa quyidagi operatsiyalar ham mavjud:

- *Sessiya*. Sug'urtalovchi shartnomani boshqa shaxsga hadya qilish yoki sotish orqali o'tkazishi mumkin. Bunday hollarda yig'ilib borilgan matematik zahira summasi boshqa shaxsga o'tadi va sug'urta shartnomasi tugatilmaydi.

- *Sug'urta shartnomasi ostida bo'nak yoki ssud*. Sug'urtalovchi sug'urta qiluvchidan sotib olish qiymatining 90 foizgacha summani sug'urta mukofotlarini shartnomani tugatmasdan to'lab borish sharti bilan olishi mumkin. Agar sug'urtalovchi avans summasini kelishilgan foiz to'lovlari bilan qaytarsa, sug'urta summasi qayta tiklanadi va shartnoma muddati tugganda yoki talab qilinganda to'lab beriladi. Agar avans summasi foiz to'lovlari bilan qaytarilmasa, sug'urta summasi shu summaga qisqartiriladi yoki sug'urta shartnomasi sug'urta kompaniyasi tomonidan bekor qilinadi.

- *Polisni garovga berish*. Ko'pincha sug'urta polisi ssuda bergan sug'urta kompaniyasiga garov o'rnida berilishi mumkin.

### ***Hayot sug'urtasining "Shaffofligi"***

Hayot sug'urtasining shaffoflik prinsipi sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini tuzayotgan vaqtda yoki uning amal qilish muddati davomida sug'urta kompaniyasidan uning faoliyati va sug'urta operatsiyalari haqida hamma ma'lumotni talab qilib olish huquqiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bu prinsip birinchilardan bo'lib 1980-yillarda Buyuk Britaniyada olib kiritilgan bo'lib, unda sug'urtalovchiga taqdim etiladigan ma'lumotlarni berish tartibi ko'rsatiladi. Evropa sug'urta tushunchasida *shaffoflik* sug'urta qiluvchi sug'urtalovchiga shartnoma tuzish vaqtida yoki uni tuzib bo'lgandan keyin hamma kerakli ma'lumotni etkazib berishga majburligini anglatadi. Bu ma'lumotlar:

- sug'urta kompaniyasining bosh ofisi va shartnoma tuzayotgan agentligi rekvizitlari va huquqiy shakli haqida ma'lumot;

- sug'urta shartlari, shu jumladan, har bir kafolatlari va qo'shimcha shartlari, shartnoma muddatlari, mukofot to'lash shartlari, bonus hisoblash shartlari, polisni qayta sotib olish qiymatini aniqlash qoidalari, har bir kafolatlar bo'yicha mukofot hisob-kitoblar haqida ma'lumot;

- mijozga beriladigan shartnomani o'ylab ko'rish uchun beriladigan kunlar soni haqida ma'lumot. Agar shu kunlar oralig'ida shartnoma bekor qilinsa to'langan summa to'liq qaytariladi;

- har bir polis turi bo'lisha soliqqa tortish haqida ma'lumot;

- sug'urta shartnomalari bo'yicha arz qilish va ishni sudda ko'rib chiqish tartibi haqida ma'lumot;

- polis shartlarining o'zgarishi yoki shu polis turi bo'yicha qonunchilikdagi o'zgarishlar haqida ma'lumot.

### **Nazorat savollari:**

1. Hayot sug'urtasi shartnomalarining shaxsiy sug'urta shartnomalariga o'xshash va farqli jixatlari.

2. Hayot sug'urtasida sug'urtalanuvchi shartnomaning amal qilishi davomida naf oluvchini o'zgartirish huquqiga egami?

3. Shaxsiy sugʻurta shartnomasini tuzishda sugʻurta qildiruvchi bilan sugʻurtalovchi oʻrtasida qanday shartlar toʻgʻrisida kelishuvga erishilishi lozim?
4. Shartnoma tuzish usullariga koʻra hayot sugʻurtasi nechta turga boʻlinadi?
5. Ikkita sugʻurta summali hayot sugʻurtasida sugʻurta toʻlovlarining oʻzgarish grafigini tushuntiring.
6. Hayot sugʻurtasida tezkor sugʻurta shartnomalari va ularning turlariga tavsif bering.
7. Hayot sugʻurtasida umrbod sugʻurta shartnomalarini tavsiflang.
8. Hayot sugʻurtasining shaffoflik prinsipi nimalardan iborat?

## **7-BOB. HAYOT SUG‘URTASINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **7.1. Hayot sug‘urtasida umumiy nazorat va iqtisodiy muhit**

Nazorat jarayoni tushunchasi biznesning barcha sohalarida qo‘llaniladi. Sug‘urtada buni ko‘pincha aktuar nazorat jarayoni deb ataydi. Hayot sug‘urtasi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatuvchi sug‘urta kompaniyasini boshqarishning barcha asosiy jihatlari nazorat jarayonlaridagi ularning o‘rni bilan bog‘liq terminlarda ko‘rilishi mumkin.

Biznesni boshqarishga jalb qilingan shaxslarning barchasi o‘zlarining kundalik ish faoliyatida nazorat jarayonlarini amalga oshirishda ishtirok etadi. Kompaniyaning nazorat jarayonlarida ishtirok etayotganlar o‘zlarining o‘rni va rolini yaxshi bilishlari o‘z vazifalarini samarali bajarishlarida qo‘l keladi. Aniqroq aytganda, “Umumiy tijorat va iqtisodiy muhit” qismi nazorat jarayoniga kirmaydi, ammo sug‘urta kompaniyasi ishlayotgan umumiy jarayonni belgilab beradi.

Aktuar nazorat jarayonini kompaniyani umumiy boshqarish darajasida (masalan, kompaniyaning biznes-strategiyasini ishlab chiqishda) va kompaniya ishidagi aniq masalalarni hal etishda qo‘llash mumkin.

Bu bosqichda kompaniya tomonidan hayot sug‘urtasi bo‘yicha qabul qilinayotgan qarorlarga ta’sir ko‘rsatadigan masalalar o‘rganiladi.

*Mijozlarning talablari.* Sug‘urta kompaniyasining maqsadi – mijozlarning talablarini qondirishdan iborat. Ularning talablari vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Bunday o‘zgarishlarni birinchi bo‘lib ilg‘ab olgan kompaniya ularning talablarini birinchi bo‘lib qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladi va raqobatchilarni ortda qoldiradi. Mijozlarning talablaridan kelib chiqib, mavjud sug‘urta mahsulotlarining yetarlliligi va yangi sug‘urta mahsulotlariga bo‘lgan talablar aniqlanadi.

*Sotish kanallari.* Sug‘urta mahsulotlarini quyidagi sotish kanallari orqali amalga oshirilishi mumkin: o‘z agentlik tizimi, sug‘urta brokerlari, banklar, onlayn-sotuv, supermarketlar, pochta va boshqalar. Bunda kompaniya quyidagilarni bilishi zarur: sotish kanallarining samaradorlik darajasini, turli

kanallar orqali sotilayotgan sugʻurta mahsulotlarining samaradorligini, sotish kanalidan kelib chiqib, sotuvchilarni ragʻbatlantirish darajasini. Misol sifatida kredit oluvchining hayotini sugʻurtalash xizmatiga boʻlgan kuchli talabning yuzaga kelgan paytlarini aytish mumkin. Ammo xalqaro iqtisodiy krizisning boshlanishi bunday talabning pasayishiga sabab boʻldi. Ammo biznesning kuchayishi bilan mazkur talab yana kuchayishi mumkin. Bundan tashqari uzoq muddatli ipoteka kreditlari sugʻurtasiga boʻlgan talab ham oshib ketishi mumkin.

*Raqobat.* Asosiy raqobatchilarni bilish, ularning mahsulotlarini, qoʻllayotgan tariflarini, sotish kanallarini, sotuvchilarni ragʻbatlantirish tartiblarini oʻrganish raqobatda oʻz mavqeini saqlab qolishda muhim jihatlar hisoblanadi. Hayot sugʻurtasining jamgʻarib boriladigan turlari boʻyicha raqobatchilar faqatgina sugʻurta kompaniyalari emas, balki banklar, pay fondlari, nodavlat pensiya jamgʻarmalari va boshqa investitsiya institutlari ham raqobatchi sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

*Tartibga solish.* Hayot sugʻurtasini tartibga solish va boshqarish – sugʻurta kompaniyasining faqat hayot sugʻurtasi bilan shugʻullanishini belgilab qoʻyish, ular tomonidan sotiladigan sugʻurta mahsulotlari uchun turli chegara va qoidalarni belgilab qoʻyish, aktivlarni investitsiyaga yoʻnaltirish boʻyicha qoida va chegaralarni belgilash, sugʻurta zahiralarini shakllantirish qoidalarini belgilash, buxgalteriyani yuritish tartiblarini belgilash va shu kabilar sugʻurta kompaniyasi faoliyatiga jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Bu holatlar faqat sugʻurta kompaniyasining oʻziga emas, balki raqobatchilarga ham taʼsir koʻrsatadi.

Hayot sugʻurtasiga boʻlgan talabga mamlakatdagi ijtimoiy sugʻurtaning holati ham taʼsir koʻrsatadi. Masalan, aholining qarish darajasining ortishi bilan davlat pensiya taʼminotining pasayishi ixtiyoriy pensiya sugʻurtasi va va pensiya taʼminotiga boʻlgan talabning ortishiga olib keladi.

Soliqqa tortish. Sugʻurta faoliyatini tartibga solish kabi, ushbu faoliyatni soliqqa tortish ham sugʻurta kompaniyasining hamda uning raqobatchilarining imkoniyatlariga taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, hayot sugʻurtasi bilan shugʻullaniuvchi sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyatini soliqqa tortish, ular bilan

raqobatchi hisoblangan boshqa tarmoq sub'ektlarining investitsion faoliyatini soliqqa tortishdagi farqlarning mavjud bo'lishi ular faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab mamlakatlarda pensiya sug'urtasi bilan bog'liq imtiyozlar mavjud. Masalan AQSHda annuitetlar sug'urtasi bilan bog'liq soliq imtiyozining mavjudligi tufayli ushbu sug'urta turidan kelib tushayotgan sug'urta mukofotlari sug'urta kompaniyalari tomonidan hayot sug'urtasi bo'yicha yig'ilayotgan jami sug'urta mukofotlarida 50 foizdan ortiqni tashkil etadi.

*Iqtisodiyot.* Mamlakatdagi umumiy iqtisodiy holat mijozlarning to'lovga qobilligiga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy pasayish davrida biznes hajmlari pasayadi va bu ko'plab sug'urtalanuvchilar tomonidan tuzilgan uzoq muddatli sug'urta shartnomalarini muddatidan oldin bekor qilinishiga olib keladi.

*Investitsiya.* Hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, ayniqsa jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi va annuitetlar sug'urtasi bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlarini investitsiyaga yo'naltiradi. Shuning uchun ularning faoliyatida investitsion faoliyat muhim hisoblanadi.

## **7.2. Hayot sug'urtasida muammoni aniqlash. Qaror qabul qilish.**

### **Tajribani monitoring qilish.**

Muammoni aniqlash biznesda muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilish kerak degan savolga javob topishga yordam beradi. Umumiy ko'rinishda javob oddiy – sug'urtalovchi foyda keltiradigan biznesni sotishi kerak va bu jarayonda hosil bo'ladigan risklarni bartaraf eta olishi kerak. Biznesni rivojlantirishda kompaniya rivojlanishning ko'plab variantlaridan birini tanlashi zarur. Strategik darajada kompaniya quyidagilardan birini tanlashi mumkin:

- qo'shimcha kapital jalb qilishni talab qiluvchi agressiv tez rivojlanish;
- mavjud mablag'larga tayanuvchi, bir tyokisdagi, balanslashgan rivojlanish;
- hayot sug'urtasining barcha turlari bilan shug'ullanuvchi (individual sug'urta, jamoa sug'urtasi, bank sug'urtasi, annuitetlar sug'urtasi va boshqalar) kompaniyani tashkil etish;

- hayot sugʻurtasining individual sugʻurta turlari bilan shugʻullanuvchi kompaniyani tashkil etish;

- ommaviylashmagan, kam qoʻllaniladigan, ammo shu bilan birga daromadli sugʻurta turlari bilan shugʻullanuvchi sugʻurta kompaniyasini tashkil etish;

- investitsion strategiyaning turli variantlarini qoʻllovchi kompaniyani tashkil etish.

Taktik darajada aniq sugʻurta mahsulotlariga bagʻishlangan xususiy savollar, umumiy strategik darajadagi aniq investitsiyaga taalluqli qarorlar, komission ragʻbatlantirishdagi strukturaviy oʻzgarishlar bilan bogʻliq masalalar hal etilishi mumkin.

Turli variantlarni tanlashda ushbu variantlardan kutilayotgan foyda va risklarning oʻzaro balansini hisobga olish zarur. Risklar albatta identifikatsiyalanishi va mumkin boʻlsa shifrlanishi zarur. Oxir oqibatda kompaniya risklarning oʻrtacha darajasini taʼminlash bilan bir vaqtda aksionerlar foydasini maksimallashtirishga yoʻnaltirilgan qarorlar qabul qilishga harakat qilish zarur. Riskdan umuman qochishning, ayniqsa sugʻurtada iloji yoʻq.

Hayot sugʻurtasining asosini uzoq muddatli biznes tashkil qiladi, shuning uchun mavjud risklar investitsiyalarning kelajakda daromad keltirish darajasi, sugʻurtalanganlarning vafot etish darajasi, xarajatlar va mavjud shartnomalarning muddatidan oldin bekor qilish ehtimolligi darajalariga bogʻliq. Bundan tashqari kompaniya barcha biznes turlari uchun taalluqli boʻlgan marketing va operatsion risklar bilan ham yuzma-yuz keladi. Bu risklarning koʻpchiligiga tijorat va iqtisodiy muhitdagi oʻzgarishlar taʼsir koʻrsatadi.

Bu bosqichda oldingi bosqichda oʻz oldiga qoʻyilgan vazifalarni hal etish bilan bogʻliq qarorlar ishlab chiqiladi. Masalan, sugʻurta kompaniyasi oʻzining mahsulotlar lineykasini kengaytirish va yangi sugʻurta turlari bilan savdo qilishni rejalashtirilgan. Qaror qabul qilishdan oldin bu kompaniya quyidagilarni koʻrib chiqishi zarur:

- sugʻurta mahsulotlarining variantlari, mijozlar va sugʻurta kompaniyasi nuqtai-nazaridan ularning yutuq va kamchiliklari;

- aktuar ta'minoti: sug'urta mahsulotlarining tarifkatsiyasi, rezervlashtirish metodologiyasi, sotib olinuvchi summalar va bonuslar hisobi;

- sotish kanallarining variantlari va ular bilan bog'liq marketing siyosati, xususan reklama faoliyati va sotuvchilarni rag'batlantirish;

- kompaniya aktivlarini investitsiyalash strategiyasining turli variantlari;

- riskni kamaytirish bo'yicha tadbirlar, shu jumladan anderrayting va qayta sug'urta;

- kompaniyaning operatsion qismi ishlari: polislarni ma'muriylashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish, avtomatlashtirish, zararlarni ko'rib chiqish va boshqalar.

Kompaniya tomonidan qabul qilingan har qanday qaror kompaniyaning kelajakdagi moliyaviy natijalariga taalluqli u yoki bu noaniqliklar, ya'ni risklar bilan bog'liq. Risklarni tahlil qilish uchun qabul qilingan qarorlarning kelajakdagi oqibatlarini prognoz qilishning turli modellaridan foydalaniladi. Ushbu modellarning xususiyatlaridagi umumiylik – vafot etish yoki kasallanish, investitsiyalarning daromadliligi, xarajatlar, yangi biznes hajmi va shartnomalarni muddatidan oldin bekor qilish kabi, kelajakdagi asosiy o'zgarishlar (ya'ni sug'urta kompaniyasi faoliyatiga ta'sir etuvchi faktorlar) to'g'risidagi taxminlardan foydalanish. Modellar sug'urta kompaniyasida o'rnatilgan me'zonlarga asosan eng yaxshi (optimal) variantni tanlash imkoniyatini beradi. Bunday me'zonlarga misol tariqasida kompavniyaga qabul qilish mumkin bo'lgan risklar darajasini oshirmadan kutilayotgan foydani maksimallashtirish. Risk darajasi deganda sug'urta kompaniyasining to'lovga qobiliyatsizlik holatiga tushish ehtimolligi tushuniladi. Qabul qilinishi mumkin bo'lgan risk darajasi sifatida bir yillik ish faoliyati natijalariga nisbatan 1 yoki 1,5 foizli to'lovga noqobillik ehtimolligi bo'lishi mumkin.

Hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompanisi uchun asosiy model bo'lib, sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan sug'urta shartnomalari portfeli asosida shakllantiriladigan pul oqimlarini prognoz qilish imkonini beruvchi biznes modeli hisoblanadi. Kelajak haqidagi taxminlarning bunday jamlanmasida



bu model sug'urta mahsulotlarini tarifkatsiyalashda qo'llanilishi mumkin. Kompaniya o'z biznesining kelajagini kelajakda soliqqa tortishdagi o'zgarishlar yoki kompaniya kapitalining kelajakdagi hajmi kabi savollarga javob topish orqali prognoz qilishi mumkin.

Birlamchi tahlil avvalam bor biznesni rivojlantirishda amalga oshish ehtimolligi yuqori bo'lgan ko'rinishlar bo'yicha amalga oshiriladi. Agar birlamchi tahlil o'zining ijobiy natijalarini bersa, quyidagi holatlarning rejalashtirilganiga nisbatan ehtimoldagilari o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi: vafot etish, investitsiyalarning daromadliligi, sug'urta shartnomalarini muddatidan oldin bekor qilish darajasi, yangi biznes va xarajatlar hajmi.

### **7.3. Hayot sug'urtasini amalga oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari**

Bugungi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasini amalga oshirishda va ushbu faoliyatni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan;

- aholining sug'urta madaniyatining pastligi - albatta bu so'z birozgina qo'pol eshitilgani bilan, ammo haqiqat ekanligini tan olishimiz kerak. Chunki haqiqatdan ham hozirgi kunda jamiyat o'rtasida sug'urta haqidagi tasavvur, ong, sug'urta haqidagi madaniyat, sug'urta haqidagi tushuncha insonlar onggida hali unchalik darajada shakllanmaganligi hech birimizga sir emas. Bu esa bizning, ya'ni sug'urta sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning eng katta muammoimizdir. Bu masalani echishga hozirgi vaqtda barcha sug'urta kompaniyalari bel bog'lagan desak adashmagan bo'lamiz. Jamiyatga sug'urtaning afzallik taraflarini tushuntirish, ularga sug'urtaning o'zini nima ekanligini tushuntirish har bir sug'urta sohasida faoliyat olib borayotgan kishilarning oldida turgan muhim vazifadir;

- aholining sug'urtaga nisbatan ishonchining pastligi. Sug'urtaga bo'lgan ishonchni tahlil qilishdan avval keling sug'urtaning tarifini bir eslab ko'raylik. "Sug'urta – bu yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya

qiluvchi tadbirkorlik tarmog'idir". U insonlarning tinchligi, sog'ligi, osoishtaligi yo'lida xizmat qiladi. Nega kishilar unga ya'ni sug'urta sohasiga unchalik darajada ishonch bildirishmayapti? Bu kimning aybi, yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak kimning kamchiligi? Insonlarning ishonchini qozonish bu juda qiyin masala, ammo uni yo'qotib qo'yish bu juda oson. Shunday ekan aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilishi zarur. Bu O'zbekiston Respublikasi sug'urta kompaniyalarining zimmasida turgan juda zarur, shuning bilan dolzarb masaladir;

- aholi bilan ishlash tizimining umuman yo'qligi. Avvalam bor sug'urta kompaniyalarning aholi bilan ishlash tizimiga nimalar kirishini keltirib o'tsak. Bular:

1. Joylarda aholi o'rtasida turli tadbirlar o'tkazish.
2. Seminarlar tashkil qilish.
3. Aholining sug'urtaga bo'lgan munosabatini o'rganish.
4. Uni qanday sug'urta xizmatlarini qiziqtirishini bilish.
5. Maktab, kolledj, litseylarda sug'urta sohasida konfirensiyalar o'tkazish.

Yuqorida sanab o'tkanlarimizdan qaysi biri sug'urta kompaniyalari tomonidan yo'lga qo'yilgan, yoki qo'yilmoqda. Bu bir tarafdin uncha muhim emasdek ko'rinishi mumkin, biroq bu tadbirlar aholining sug'urtaga bo'lgan qarashlarini bir oz bo'lsa ham o'zgartirishiga shubhamiz yo'q;

- sug'urta sohasida malakali kadrlarning etishmasligi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sug'urta kompaniyalarida ishlovchi hodimlarning ko'pchiligi, aniqroq qilib aytadigan 90% sug'urta sohasida ta'lim olishmagan. Ular yillar mobaynida sug'urta sohasida ishlab tajriba orttirishgan. Biz bu bilan ularni qoralamoqchi emasmiz, ammo har bir sug'urta kompaniyasida xizmat qilayotgan xodim sug'urta sohasida o'qigan, shu sohaning mutahassisi bo'lishi lozim. Chunki bu unga kelajakdagi faoliyatida juda kerak bo'ladi. Shu paytgachan hech bir oliy o'quv yurtlarida sug'urta yo'nalishida ta'lim berilmagan. Mana endigina shu masalaga e'tibor qaratildi. Bu kelajakda o'zining juda katta ijobiy natijasini beradi.

O'zbekistondagi hayot sug'urtasi bo'yicha mavjud muammolar:

- hayot sug'urtasi haqida aholi orasidagi sug'urta madaniyatining past darajada ekanligi;

- respublika sug'urta bozorida hayot sug'urtasi faoliyatini yurituvchi kompaniyalarning kamligi;

- inflyasiyaning sezilarli darajada ekanligi;

- hayot sug'urtasi uchun kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan byudjetga majburiy to'lovlar to'lanishi;

- hayot sug'urtasi bo'yicha malakali sug'urta agentlarining kamligi;

- hayot sug'urtasi mohiyatini yoritib beruvchi manbalarning kamligi.

Muammolarni bartaraf etish yo'llari:

- aholining sug'urta madaniyatini oshirish;

- hayot sug'urtasi haqida reklamalar berish;

- hayot sug'urtasini mazmun mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan hujjatli film ishlab chiqib, uni keng ommaga taqdim etish;

- sug'urta bozorida raqobatbardosh hayot sug'urtasi kompaniyalarini tashkil etish;

- soliq tizimida islohotlar olib borish lozim;

- hayot sug'urtasi bo'yicha yuqori malakali agentlar tayyorlash.

- hayot sug'urtasi ma'lumotlar bazasini yaratish: kitoblar, elektron darsliklar.

Ma'lumki mamlakatimizda islohotlar rejali asosda amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotning barcha soxalaini bosqichma-bosqich mustaxkamlash nafaqat tovarlar va xizmatlar xajmining o'sishida, infratuzilmaning takomillashida, balki axoli turmush darajasining ortishida xam o'z aksini topmoqda.

Bunga inflyasiya darajasining prognozlashtirilgan doirada tartibga solinishi, import o'rnini bosish va bozorni yuqori sifatli tovar va xizmatlar bilan to'ldirish siyosati, shuningdek eng kam ish xaqining doimiy ravishda oshirib borilishi, axolining sotib olish qobiliyatining ortishiga sabab bo'lmoqda. SHu sababli, hayot sug'urtasi bozorining saloxiyati borasida bermalol jadal o'sish sur'atlarini kutish mumkin. Yoshi ulug'larni qadrlash, bolalarga yaxshi ta'lim berishni ta'minlash va kelajakda ularning yaxshi hayot tarzini ta'minlash kabi milliy qadriyatlarimizni

xisobga olgan xolda, xozirda annuitet, pensiya va aralash hayot sug‘urtasi turlariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Umuman, bozorda mavjud bo‘lgan va kelajakda kiritilishi mo‘ljallangan xar bir sug‘urta maxsuloti fuqarolarning ijimoiy xolati va daromad darajasidan qat’iy nazar keng ko‘llanishi mo‘ljallangan. Hayot sug‘urtasi turlari bir qator moliyaviy imkoniyatlar bilan birgalikda xar bir fuqaroga bir qator uzoq muddatli ijtimoiy va moliyaviy muammolarni xal etish va shu bilan birgalikda ishonchli sug‘urta ximoyasi bilan ta’minlashni imkonini beradi. Bunday afzalliklarni jamlovchi sug‘urta maxsulotlarini “oqilona investitsiyalar” deb nomlash mumkin, va umid qilamizki, yaqin kelajakda ushbu moliyaviy instrumet, o‘z hayotidagi eng muhim bo‘lgan-o‘z oilasining farovonligini ta’minlashni xoxlovchi xar bir O‘zbekiston aholisining hayot tarzining ajralmas qismi bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda hayot sug‘urtasi turlarini rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan bir necha faktorlarni sanab o‘tishimiz mumkin:

- hayot sug‘urtasi haqida aholi orasidagi sug‘urta madaniyatining past darajada ekanligi;
- respublika sug‘urta bozorida hayot sug‘urtasi faoliyatini yurituvchi kompaniyalarning kamligi;
- inflyasiyaning sezilarli darajada ekanligi;
- hayot sug‘urtasi uchun kelib tushgan sug‘urta mukofotlaridan byudjetga majburiy to‘lovlar to‘lanishi;
- hayot sug‘urtasi bo‘yicha malakali sug‘urta agentlarining kamligi;
- hayot sug‘urtasi mohiyatini yoritib beruvchi manbalarning kamligi.

Muammolarni bartaraf etish yo‘llari

- aholining sug‘urta madaniyatini oshirish;
- hayot sug‘urtasi haqida reklamalar berish;
- hayot sug‘urtasini mazmun mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan hujjatli film ishlab chiqib, uni keng ommaga taqdim etish;
- sug‘urta bozorida raqobatbardosh hayot sug‘urtasi kompaniyalarini tashkil etish;

- soliq tizimida islohotlar olib borish lozim;
- hayot sug'urtasi bo'yicha yuqori malakali agentlar tayyorlash.
- hayot sug'urtasi ma'lumotlar bazasini yaratish: kitoblar, elektron darsliklar.

**Nazorat savollari:**

1. Hayot sug'urtasiga bo'lgan talabga mamlakatdagi ijtimoiy sug'urtaning holati qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. O'zbekiston milly sug'urta bozorida hayot sug'urtasini amalga oshirishda va ushbu faoliyatni rivojlantirishda qanday muammolar mavjud?
3. Hayot sug'urtasi bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etishning qanday yo'llarini bilasiz?
4. Hayot sug'urtasining yangi turlarini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan faktorlarni sanab o'ting.
5. Aholi sug'urta madaniyatining pastligiga sabab nima?

## **8-BOB. HAYOT SUG‘URTA SIDA TARIF STAVKALARI**

### **8.1. Sug‘urta tarifi tushunchasi, sug‘urta mahsulotini tarifikatsiya qilish**

Hayot sug‘urta turlari bo‘yicha tarif stavkalarini aniqlash va ularning qo‘llanilishi shartlarini belgilash sug‘urta mahsulotini tarifikatsiya qilish deb nomlanadi. Tarifikatsiyaning asosiy bosqichlari sifatida *tarifikatsiya tizimini* shakllantirish va *tarif stavkalarini* hisoblashni keltirish mumkin. Ma’lumki, sug‘urta tarifining tarkibiy qismi bo‘lgan netto-stavka sug‘urtalovchi uchun sug‘urtalangan ob’ektning sug‘urta hodisasiga uchrash ehtimolligini hisobga oluvchi sug‘urta qoplamasi to‘lanishining matematik kutilishini ifodalaydi. Mazkur kattalikka quyidagi omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi:

- shartnoma bo‘yicha sug‘urta hodisasining yuz berish ehtimolligi;
- sug‘urta hodisasining kutilayotgan og‘irligi (bunda sug‘urta qoplamasining kutilayotgan hajmining sug‘urta summasiga nisbati nazarda tutiladi).

Umumiy tartibda barcha tarifikatsiya tizimlarida sug‘urtalanayotgan ob’ektlar bir nechta guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh uchun bazaviy tarif stavkasi ishlab chiqiladi. Bundan tashqari sug‘urtalovchi aks ettirishni lozim topgan barcha risk omillarining ro‘yxati keltiriladi. Har bir omilning sug‘urta ob’ektida mavjudligi tarifni hisoblashda maxsus koeffitsientlar orqali hisobga olinishi belgilanadi. Koieffitsientlarning bir qancha turlari bo‘lib, ular ko‘paytiruvchi, qo‘shiluvchi yoki boshqa shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Kerakli bo‘lgan koeffitsientni tanlash tarifikatsiya tizimini yaratishda sug‘urta turining xarakteridan kelib chiqib sug‘urtalovchi tomonidan tanlanadi. Hozirgi kunda mamlakatimiz sug‘urtalovchilari tomonidan o‘tgan yillar davomida sug‘urta hodisalarining yuz berishi bo‘yicha yetarlli darajada ma’lumot to‘planganligi shubhasiz. Yuqoridagilardan kelib chiqib, sug‘urtalovchilar tomonidan tarif siyosatini amalga oshirishda tarifikatsiya tizimi risk omillarining guruhlarini bo‘yicha ishlab chiqish taklif etiladi.

Shaxsiy sugʻurtada tarifni klasslarga ajratishda muhim meʼzonlar sifatida quyidagilar hisoblanadi:

1) *Yoshi*. Sugʻurta shartnomasini tuzishda sugʻurtalanuvchilarning yoshidan kelib chiqib tabaqalashtiriladi.

2) *Jinsi*. Sugʻurta qoplamalari statistikasiga koʻra qoplamalar hajmi sugʻurtalanuvchining jinsiga nisbatan farqlanadi. Sogʻliqni sugʻurtalashda ayollarga nisbatan tarif stavkalarining yuqoriroq darajalari qoʻllansa, hayot sugʻurtasida erkaklar uchun balandroq stavkalar qoʻllaniladi.

3) *Kasb-kori*. Ushbu faktorning tarif stavkalariga taʼsiri kasbning xavflilik darajasidan va kasb kasalliklarining yuz berish ehtimoligidan kelib chiqadi.

4) *Tamaki mahsulotlarini qabul qilishi*. Maʼlumki, chiyokish insonning kasallanishi va vafot etishini tezlashtiruvchi faktorlardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, chekuvchilarga nisbatan yuqoriroq tarif stavkalari qoʻllaniladi.

5) *Geografik faktor*. Kasallanish va vafot etishga taʼsir koʻrsatuvchi faktorlardan muhimi geografik joylashuv hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda tarif stavkalarini tabaqalashtirishda geografik faktor eʼtiborga olinadi.

6) *Ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar*. Vafot etish va kasallanish turli ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar uchun farqlanadi. Shuning uchun shaxsiy sugʻurtaning baʼzi turlari uchun ushbu faktor muhim hisoblanadi.

7) *Sugʻurta mahsulotlari dizaynining oʻziga xosliklari*. Sugʻurta shartnomalarini shakllantirish, birinchi oʻrinda sugʻurta javobgarligining hajmi sugʻurta summasiga, qoplama hajmiga va sugʻurta mukofoti hajmiga taʼsir koʻrsatadi.

Sugʻurtalovchi tarif tizimini yaratishdan tashqari tarif siyosatini olib borishi ham uning iqtisodiy holatiga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Masalan, notoʻgʻri olib borilgan tarif siyosati risklarning antiseleksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Risklar antiseleksiyasi bu kompaniya uchun noqulay boʻlgan risklarning qabul qilinishi hisoblanadi. Kompaniya uchun noqulay risklarga xaqiqatdagi yuz berish ehtimoli sugʻurta tarifida nazarada tutilgan ehtimollikdan baland risklarni kiritish

mumkin. Risklar antiseleksiyasini vujudga kelishini quyidagi misol orqali ham ko'rish mumkin.

Sug'urta tashkiloti sug'urta tariflarini hisoblashda tarifkatsiya tizimini qanchalik samarali amalga oshirsa, uning shallantirgan sug'urta zahiralari shunchalik majburiyatlariga muvofiq bo'ladi. Tarifkatsiya tizimini ishlab chiqishda sug'urtalanuvchilarni risklar bo'yicha guruhlash va risklar antiseleksiyasi kabi yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Sug'urta tashkilotlarining tarif siyosatini tartibga solishda bir qancha usullar qo'llaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- tarifni talab va taklif asosida tartibga solinishi;
- tarifni davlat tomonidan tartibga solinishi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshqa tovarlar va xizmatlar kabi, sug'urta xizmatining ham bahosi, ya'ni sug'urta tarifi talab va taklif asosida paydo bo'ladi hamda bu baho o'zining pastki va yuqori chegaralariga ega. Sug'urta tushumlarining miqdori sug'urta to'lovlari va sug'urta tashkilotlari xarajatlari miqdoriga teng bo'lishi sug'urta bahosining pastki chegarasini bildiradi. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyasi asosiy faoliyatdan foyda ololmaydi. Ko'p hollarda sug'urta bozoridagi keskin raqobat, sug'urta tashkilotlarining potensial mijozlarni jalb etish maqsadida tarif stavkalarini kamaytirishga majbur etadi.

Chet mamlakatlarda, sug'urtalovchilar sug'urta faoliyatidan zarar ko'rganda, bu zarar investitsiyadan keladigan daromad hisobidan qoplanadi. Sug'urta tarifining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug'urta xizmatining ma'lum bir turiga yetarli darajada talab mavjud bo'lganda, sug'urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lyokin, vaqt o'tishi bilan bozorda sug'urta xizmati ko'rsatish turlarining ko'payishi bilan, o'z-o'zidan tarif stavkalari kamayadi.



## 8.2. Sug'urta tashkilotida tarif siyosati

Risklar transferini funktsional mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan sug'urta xizmatlarini tashkil etish hamda ularni ko'rsatish sa'y-harakatlari majmuasi, deb ta'kidlash mumkin. Mazkur faoliyatning asosiy maqsadi iqtisodiyot sub'ektlarining talablariga ko'ra, ularni sug'urta risklaridan himoyasini ta'minlashga qaratilgandir. Bu jarayonda risklar yuz berishi oqibatida ko'rilishi ehtimol bo'lgan zararlarni qoplashda sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlashning ahamiyati ortmoqda.

Shunga ko'ra, risklar transferida tariflarni optimal darajada belgilash sug'urta tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Risklar transferida tariflarni belgilash qator uslubiyatlarga, xususan, ehtimollik nazariyasiga binoan sug'urtachilarda shakllantirilgan ma'lumotlar bazasiga asoslangandir.

Xususan, tariflarni belgilashda har bir shartnoma bo'yicha quyidagi:

- sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli;
- sug'urta mukofotining o'rtacha kattaligi;
- to'lanishi ehtimol bo'lgan sug'urta qoplamasining o'rtacha summasi kabi omillar e'tiborga olinadi.

Risklar transferi bo'yicha tariflarni aniqlash uslubiyatlarida ob'ektlarning o'ziga xosligi to'liq aks etmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, tariflarni belgilashda unga ta'sir etuvchi qator omillar qat'iy e'tiborga olingan uslubiyatning samarasi kutilgan darajada bo'lishi mumkin. Xususan, bunday uslubiyat:

- sug'urta ob'ektlarini tasniflash (guruhlash);
- har bir guruhning o'ziga xos tomonlarini aniqlashtirish;
- o'ziga xos xususiyatlarni son jihatdan baholash uslubiyatini ishlab chiqish;
- har bir guruh ob'ektlarining umumiy tomonlarini aks ettirgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- tariflarini hisoblashning dasturiy ta'minotini yo'lga qo'yish kabi bir qator sa'y-harakatlarni amalga oshirishni talab etadi.

Sugʻurta faoliyatida zararlilik koʻrsatkichilari oʻzgarishi sugʻurtachining sugʻurtalanuvchilardan undirgan mukofotlari summasini jamlashi va ularni investitsiyalar bozorida joylashtirishi jarayonidagi vositachi sifatidagi roli bilan ham izohlanadi.

Investitsion faoliyatdan olingan foyda summasi sugʻurta kompaniyasining tarif siyosatiga taʼsir etuvchi muhim omil sanaladi. Qayd etish lozimki, sugʻurta operatsiyalaridan koʻrilgan zararni investitsiya faoliyatidan olingan foyda hisobidan subsidiya qilinishiga boʻlgan munosabat ham turlichadir. Xususan, bunday faoliyat, bir tomondan, mablagʻlar taqchilligida raqobatga mos boʻlgan tarif siyosatini yuritish uchun aynan investitsiyalar bozorida qulay konʻyunkturaning yuzaga kelishi hisobiga zahirani talab darajasida shakllantirish imkoniyatini yuzaga keltirsa, boshqa tomondan, aynan shunday faoliyatdan olingan daromad hisobiga texnik natijalarni tenglashtirish uchun sugʻurta fondidan jalb etiladigan mablagʻlar yetarli darajada boʻlishini taʼminlovchi omil sifatida qaralayotganligini ham qayd etib oʻtish lozimdir. Mazkur holat sugʻurtachining oʻz javobgarligiga qabul qilgan risk boʻyicha nazorati sustlashuvining omili boʻlmasligi lozim.

Hozirga qadar, sugʻurta amaliyotida majburiyatlar hajmi, erkin aktivlarning tuzilishi va bahosi, moliyaviy kafillik taʼminlanganligi, sugʻurta portfelining ratsional shakllanishi bilan bogʻliq boʻlgan risklar taqsimoti, sugʻurta zahiralari shakllantirilishi borasida yagona bir kontseptsiya ishlab chiqilmagan. Shu bois sugʻurta tashkilotlari bu muammolarni empirik tarzda hal etishga majbur boʻlmoqda.

Har qanday sugʻurta turi boʻyicha tariflar hisob-kitobi (aktuar hisob-kitoblar) da aniq sugʻurta obʻektining qiymati hisoblab chiqiladi. Umuman aktuar hisob-kitoblar yordamida sugʻurta xizmatini hamda sugʻurtachi tomonidan sugʻurtalanuvchiga koʻrsatiladigan xizmatining qancha turishi aniqlanadi.

Sugʻurtani amalga oshirish xarajatlarini hisoblash «aktuar kalkulyatsiya» (actuary) deb ataladi. Uning yordamida shartnoma boʻyicha sugʻurta mukofotlari hamda sugʻurtachining ish yuritish xarajatlari summasi, yaʼni mazkur xizmat

tannarxi hisoblab chiqiladi. Sug'urta faoliyatida aktuar hisob-kitoblarning o'ziga xos tomonlari ham mavjud va ular quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- baholanayotgan risk doimo ehtimollik xarakteriga ega bo'lishi;
- ayrim yillarda umumiy qonuniyatga zid turkum tasodifiy hodisalar yuz berishi, ularning ta'siri, o'z navbatida, sug'urta tashkilotidan talab etiladigan sug'urta qoplamasi to'lovi summasining sezilarli o'zgarishini taqozo etishi;
- sug'urtachi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat tannarxi sug'urta munosabatlari yig'indisidan keltirilib chiqarilishi;
- sug'urtachi ixtiyorida bo'ladigan maxsus zahirani ajratish, uning optimal hajmini aniqlash talab etilishi;
- sug'urta shartnomalari ko'rsatkichlarini (inglizcha «storno») bashorat qilish hamda ular bo'yicha ekspert bahosi talab etilishi;
- qarz (ssuda) foizlari me'yorlarini va aniq vaqt oralig'ida ularning o'zgarish an'alarini tadqiq etish taqozo etilishi;
- sug'urta hodisasi bilan bog'liq holda to'liq yoki qisman zararlar yuzaga kelishi hamda ular kattaligining kenglik va vaqtda taqsimlanishiga maxsus jadvallar yordamida o'zgartirishlar kiritish talabi namoyon bo'lishi;
- ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish, ya'ni sug'urta mukofotlari va sug'urta tashkiloti tomonidan tarif davrida ko'rsatilayotgan sug'urta ta'minoti o'rtasida o'zaro tenglik o'rnatilishi taqozo etilishi;
- umumiy sug'urta doirasida risklarni aniqlashtirish va ularni guruhlash talab etilishi kabilar.

Sug'urta to'lovlari hajmining hisob-kitoblari aynan bir mamlakat, alohida bir hududning o'ziga xos tomonlarini inobatga olgan holda, shuningdek risk yuz berishi ehtimolining vaqt va kenglikdagi xilma-xilligi asosida aniqlanadi. Masalan, sug'urtalangan ob'ektlar soni 100 ta, har bir ob'ekt bo'yicha sug'urta summasi 2 mln. so'm bo'lsa, risk ehtimoli 2 foiz darajasida ( $0,02 \times 100 \times 2$  mln. so'm) hamda zarar sug'urta summasiga teng yoki undan katta bo'lganida, mazkur umumiy sug'urta doirasidagi bu sug'urta turi bo'yicha yillik sug'urta qoplamasi, ya'ni netto-stavka aynan 4 mln. so'mni tashkil etadi.

Aniqlangan sug'urta qoplamasini sug'urtalangan ob'ektlar soniga bo'lsak, umumiy sug'urta zahirasiga har bir sug'urtalanuvchi tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti 40 ming so'm (0,02 x 2 mln. so'm) ekanligi aniqlanadi. Har bir sug'urtalanuvchi aynan shuncha sug'urta mukofotini to'lashi kerak. Sug'urta summasining birligi sifatida 1000, 100 yoki 1 so'm olinishi mumkin.

Tarif stavkasi yordamida har bir sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lashi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti aniqlanadi. Buning uchun shartnomada qayd etilgan sug'urta summasi tarif stavkasiga ko'paytiriladi. Masalan, tarif stavkasi har 100 so'mdan 2 so'm darajasida belgilangan bo'lsa, shartnoma bo'yicha sug'urta summasi 5 mln. so'mga teng bo'lganda, sug'urta mukofotining kattaligi quyidagicha aniqlanadi:

$$(2 \text{ so'm} \times 5 \text{ mln. so'm}) : 100 \text{ so'm} = 100\,000 \text{ so'm.}$$

Sug'urta tarifi stavkasi sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Uning to'g'ri hisoblab chiqilganligi muhimdir. Sug'urtachi sug'urta tarifi asosida undirilgan sug'urta mukofotlari hisobidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini to'liq hajmda bajarilishini ta'minlaydi, ya'ni sug'urta faoliyatini amalga oshirish xarajatlarini qoplaydi.

Sug'urta risklari sezilarli darajada kam yuz bergan yoki sug'urta hodisasi oqibatida ko'rilgan zarar ko'lami katta bo'lmagan yillar hisobiga sug'urtachining daromad (foйда) olish ehtimoli ortadi. Shuni ham nazarda tutish lozimki, aniq natijalar hisob-kitobida hisobot davri davomida xabar qilingan, ammo sug'urta qoplamasi amalga oshirilmagan zarar sug'urta tashkiloti faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlariga ham sezilarli ta'sir etadi.

Sug'urta tarifining risk yuz berishi ehtimoliga nisbatan yuqori darajada ko'rsatilishi bir tomondan, mijoz bilan sug'urta shartnomasi tuzilmay qolishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, sug'urtachining sug'urta bozoridagi raqobatbardoshligiga ham salbiy ta'sir etadi, aksincha, tarif stavkasining past darajada belgilanishi sug'urtachi mablag'larining taqchilligini keltirib chiqarishi oqibatida, sug'urtalanuvchi ko'rgan zararining sug'urta qoplamasi amalga oshirilmay qolinishiga olib kelishi mumkin, ammo, bunday holat amaliyotda

deyarli uchramaydi.

### **8.3. Sug'urta tarif stavkasining tuzilishi va tarkibi. Brutto va netto-stavkani hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari va umumiy tamoyillari**

Sug'urta mukofotlarining stavkalari tarif davri uchun hisoblab chiqiladi, ya'ni tarif hisoblari asosida belgilangan davr uchun ekvivalentlik ta'minlanadi. Shunday qilib, har qanday sug'urta turi bo'yicha tarif stavkasi brutto-stavka sifatida qaraladi va u ikki qismdan: netto-stavka (sug'urta qoplamasi to'lovlari uchun zahira summasi) va sug'urtachining faoliyat yuritish xarajatlaridan (odatda u «yuk» deb ataladi) iborat bo'ladi. Brutto-stavkada bu ikkala qismning nisbati, ularning mohiyatidan kelib chiqib, turlicha foizlarda belgilanishi mumkin. Netto-stavka brutto-stavkaning asosini tashkil etadi va uning hissasiga, sug'urta turiga qarab, 60-95 foizgacha ulush to'g'ri kelishi mumkin. «Yuk» hisobiga esa, shunga mos ravishda odatda 5-40 foiz ulush belgilanadi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha qancha sug'urta turi sug'urtalanayotgan bo'lsa, netto-stavka ham shuncha qismdan iborat bo'ladi. Masalan, hayotni aralash sug'urtalash bo'yicha netto-stavka belgilangan davrgacha yashaganligi uchun, o'lim holati yuz berganligi uchun, mehnat faoliyatini yo'qotish holati uchun kabi netto-stavkalardan tashkil topadi.

«Yuk»da sug'urta ishini olib borish xarajatlari aks etadi. U quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

- ma'muriy-xo'jalik xarajatlari (uning asosini tashkilot shtatidagi xodimlarga to'lanadigan maoshlar summasi tashkil etadi);
- sug'urta polislarini joylashtirganligi uchun haqlar;
- sug'urta agentlari, menejerlar uchun haqlar.

To'lov shakllari, odatda brutto-stavka yoki «yuk»ka nisbatan foizlarda aniqlanadi. Foiz to'lovlaridan tashqari rag'batlantirishlar ham amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy sug'urta qilish tarmog'i klasslari bo'yicha «yuk» sug'urta ishini yuritish xarajatlaridan tashqari ogohlantirish zahirasi ajratmalar qilish va

rejalantirilgan foyda summalarini ham o'zida aks ettiradi. Brutto-stavkani hisoblashda, dastlab netto-stavka aniqlab olinadi, so'ngra unga «yuk» (odatda brutto-stavkaga nisbatan foizlarda) qo'shib hisoblanadi. Brutto-stavka qo'yidagicha aniqlanadi:

$$MS = \frac{NS}{100 - Yu(\%)},$$

Bu yerda,  $MS$  – brutto stavka;

$NS$  – netto stavka;

$Yu(\%)$  – yuk (foizlarda ifodalanadi).

Majburiy sug'urta turlari bo'yicha tariflar me'yoriy hujjatlar bilan o'rnatilsa, ixtiyoriy sug'urtada esa, sug'urtachi tomonidan mustaqil ravishda aniqlanadi.

Tarifni aniqlash uslubiyati, tarif stavkasi va uning dastlabki ma'lumotlar manbasi, netto-stavka va «yuk» ulushlari ko'rsatilgan holda tarif hisob-kitoblari maxsus vakolatli Davlat organiga taqdim etiladi. Mazkur organ tomonidan ruxsat berilganidan so'ng sug'urta tashkiloti o'zi hisoblab chiqqan sug'urta tarifini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tarifining hajmi sug'urta ob'ektini tavsiflovchi qator holatlarni hisobga olgan holda tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra belgilanadi.

Netto-stavka ikki qismdan - sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi va risk «yuki»dan shakllantiriladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi - eng katta ehtimollikka ko'ra, sug'urtalangan ob'ektlar summasining to'langan sug'urta qoplamasi summasi nisbatidan kelib chiqadi.

Risk qoplamasi to'lovining kattaligi sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolligi darajasiga bog'liq bo'ladi. Risk bo'yicha sug'urta mukofoti uning yuz berish ehtimolligining vaqt va kenglikdagi holatidan keltirib chiqariladi. Hayot sug'urtasi tarmog'ida risk ehtimoli mijozlar jinsi va yoshiga ko'p jihatdan aloqador bo'lsa, umumiy sug'urta tarmog'ida esa, nisbatan doimiy risk mavjuddir. Ammo ma'lum vaqt oralig'ida risk kattaligi o'zgarishi ham kuzatiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Hayot sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkalari qanday aniqlanadi?
2. Sug'urta mahsulotini tarifkatsiya qilish deganda nima tushuniladi?
3. Tarifkatsiyaning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
4. Shaxsiy sug'urtada tarifni klasslarga ajratishda muhim me'zonlarni ayting?
5. Sug'urta tashkilotlarining tarif siyosatini tartibga solishda qanday usullar qo'llaniladi?
6. Sug'urta kompaniyasining tarif siyosatiga investitsion faoliyat qanday ta'sir etadi?
7. Netto tarif stavkasining tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

## **9-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI AMALGA OSHIRISH**

### **9.1. Aktuariylar faoliyatiga umumiy tavsif**

Aktuariy - lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma’noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o‘zlashtirib olgan sug‘urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug‘urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta zahiralari shakllantirish bilan bog‘liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Hozirgi raytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko‘rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.

Aktuariy maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko‘rsatganlik, tijorat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilotning zarar ko‘rishiga olib kelgan o‘zga xatti-harakatlari natijasida etkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo‘ladi.

Aktuar tashkilot o‘z shtatida kamida bitta aktuariyga ega bo‘lishi kerak.

- sug‘urtalovchi sifatida sug‘urta va qayta sug‘urta qilish operatsiyalari o‘tkazishga;

-s ug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

- sug‘urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Bugungi kunda O‘zbekiston sug‘urta bozorida quyidagi akturat tashkilotlar ham mavjud bo‘lib ular riskni qay darajada ekanligini aniqlab kerakli tariff stavkani hisoblab chiqishdi. Sug‘urta bozorida aktuar hissobchilarni o‘ni juda katta desak xato bo‘lmaydi. Hozirda quidagi aktuar tashkilotlar mijozlarga o‘z faoliyatini ko‘rsatib kelmoqdalar.

Aktuar hisob-kitoblar - sug‘urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig‘indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga



asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarif stavkasini miqdori sugʻurta hodisalari roʻy berishining ehtimoliyligiga bogʻliq.

## 6-jadval

### Aktuar tashkilotlar<sup>7</sup>

<b>№</b>	<b>Kompaniya nomlari</b>	<b>Huquqiy tashkiliy shakl</b>
1.	Actuarial Advisers	Mas'uliyati cheklangan jamiyat
2.	Actuarial Service Bureau	Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sugʻurtalashda sugʻurtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sugʻurta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sugʻurtasi boʻyicha sugʻurta summolari sugʻurtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga etganda toʻlanadi. Yetarli miqdordagi sugʻurta fondini shakllantirish uchun, sugʻurtalovchi shartnoma amalda boʻlgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga yetishi ehtimoliyligini bilishi zarur. Aholi oʻlimi darajasi xaqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga yetishi ehtimolligini hisoblash hamda fuqarolarning oʻlimi toʻgʻrisidagi jadvalni tuzish mumkin. Bu jadval asosida nafaqani va hayotni sugʻurtalash boʻyicha tarif stavkalarni hisoblash mumkin.

Aktuar hisoblarning asosiy gʻoyalarini tushunish sugʻurta mahsulotining mohiyatini yaxshi tushunish imkonini beradi. Hayot sugʻurtasi boʻyicha sugʻurta mahsulotini yaxshi tushunib olish uchun sugʻurta badali nimalardan tashkil topishini, foyda nimadan hosil boʻlishini va ushbu foyda hisobidan bonuslar qanday hisoblanishini, indeksatsiya qilish qanday amalga oshirilishini va boshqalarni bilib olish zarur.

Ma'lumki, sugʻurtaga sugʻurtalanuvchi tomonidan qilingan kichik toʻlov kelajakda u koʻrishi mumkin boʻlgan katta zararni qoplab beradi. Sugʻurta doimiy

<sup>7</sup> Ma'lumot [www.uzreport](http://www.uzreport) sayti asosida tayyorlangan.

amal qilishini ta'minlash uchun kutiladigan zararlar hajmini baholash va har bir ishtirokchi tomonidan to'lanadigan sug'urta badalining miqdorini aniqlab olish zarur.

Ehtimollar nazariyasi noaniqliklarning matematik jihatdan tasvirlashga yo'naltirilgan. Ehtimollar nazariyasi aktuar hisoblar uchun baza hisoblanib, uning maqsadi hayot va sog'liqni sug'urtalashning amal qilishini ta'minlashda muhim hisoblangan sug'urta mukofoti va sug'urta zahiralari ko'rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Ehtimollik nima? Ba'zi hodisalarning matematik ehtimolligi 0 dan 1 gacha bo'lgan intervalda yotuvchi son bilan ifodalanadi. Agar biror hodisaning matematik ehtimolligi 0 ga teng bo'lsa, bu hodisa yuz bermaydi, agar u 1 ga teng bo'lsa hodisa yuz berishi mumkin.  $\frac{1}{2}$  ehtimollik nimani bildiradi? Masalan, tanga tashlashni misol qilib oladigan bo'lsak, tanganing burgut qismi jami tashlashning yarmida tushsa, reshka qismi qolgan yarmida tushadi.

Biror hodisaning yuz berish ehtimolligini aniqlashning umumiy prinsipi sifatida shuni aytish mumkinki, uning eng oddiy ko'rinishini quyidagi nisbat bilan ifodalash mumkin:

$$\text{Ehtimollik} = \frac{\text{hodisalar yuz beradigan holatda ro'y berishi kutiladigan hodisalar soni}}{\text{Hodisalar yuz berishi mumkin bo'lgan holatdagi hodisalar soni}}$$

Masalan, agar tangani ming marta tashlansa, unda:

- tanganing burgut tomoni tushish ehtimolligi 500 ga teng;
- hodisalar yuz berishi mumkin bo'lgan holatdagi hodisalar soni 1000 ga teng.

Yuz berishi mumkin bo'lgan ko'plab hodisalardan bittasining yuz berish ehtimolligi birga teng bo'lganda nimadir yuz berishi kerak.

Tanga tashlashda ikki hodisa: burgut va reshkaning tushishi yuz berishi mumkin. Agar burgut tushish ehtimolligi  $\frac{1}{2}$  ga teng bo'lsa (to'g'ri tangada), reshka tushish ehtimolligi ham  $\frac{1}{2}$  ( $= 1 - \frac{1}{2}$ ) ga teng bo'ladi. Agar tanga noto'g'ri tanga bo'lsa, burgut tomoning tushish ehtimolligi  $\frac{1}{2}$  dan katta bo'lar edi, masalan  $\frac{2}{3}$  ga teng bo'lsa, reshkaning tushish ehtimolligi  $1 - \frac{2}{3} = \frac{1}{3}$  ga teng bo'lar edi.

Umumiy holatda barcha yuz berishi mumkin bo'lgan ehtimolliklarning summasi birga teng. Bu tasdiqni vafot etishdan sug'urtalash misolida ko'rib chiqamiz. Sug'urtalangan shaxs bir yil davomida vafot etishi yoki vafot etmasligi mumkin. Bu ikki holat sug'urtalangan shaxsning hayotiga nisbatan o'zaro inkor qiluvchi hodisalarning to'liq jamlanmasini ko'rsatadi. Nogironlik holatidan bir yilga sug'urtalash amalga oshirilganda o'zaro inkor qiluvchi hodisalarning to'liq jamlanmasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- sug'urtalangan shaxs vafot etdi;
- sug'urtalangan shaxs hayot va sog'lom;
- sug'urtalangan shaxs nogiron bo'lib qoldi.

Ehtimollar nazariyasida alohida, bir-biriga bog'liq bo'lmagan hodisalar tushunchasi muhim hisoblanadi. Hodisalarning xususiyatini aniqlashda, bir-biriga bog'liq bo'lmagan hodisalar sifatida birining yuz berishi ikkinchisini keltirib chiqarmaydigan hodisalar nazarda tutiladi. Masalan, tanga tashlashda tangani birinchitashlanishining natijasi uning ikkinchi tashlanishining natijasiga ta'sir ko'rsatmaydi va hokazo. Hattoki, agar tanganing burgut tomoni ketma-ket o'n marta tushganda ham, o'n birinchi tashlashga ularning hech qanday ta'siri bo'lmaydi.

Bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikkita hodisaning yuz berishi ular yuz berishining o'z ehtimolligiga bog'liq. Xususan, ikkita burgut yoki ikkita reshkaning ketma-ket tushishi  $\frac{1}{2} \times \frac{1}{2} = \frac{1}{4}$  ga teng. Hech bo'lmaganda bitta reshkaning tushish ehtimolligi  $1 - \frac{1}{4} = \frac{3}{4}$  ga teng.

Ehtimollar nazariyasining asosiy natijalaridan biri sifatida sug'urta faoliyatining asosida yotuvchi katta sonlar qonuni yoki Bernulli qonuni hisoblanadi. Bu qonunga ko'ra: urinishlar sonining ortishi bilan, masalan tangani

tashlash sonining ortishi bilan bizni qiziqtirayotgan hodisa yuz berganda (tanganing burgut tomoni tushishi) bunday holatlar sonining urinishlar soniga nisbati harakat qilinayotgan holatga tomon o'zgaradi. Bu bilan o'rganilayotgan hodisalarning mustaqil ekanligi ko'rinadi. Sug'urtalangan shaxslarning vafot etish yoki kasallanish holatlari bilan o'zaro bog'liq muammolar (katastrofalar, epidemiyalar va hokazolar) boshqa jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

## 9.2. Hayot sug'urtasida aktuar hisoblarni amalga oshirish

Yoshga nisbatan yillik vafot etish ehtimolligining o'zaro bog'liqligini vafot etish jadvallari orqali tasvirlanadi. Yillik vafot etish ehtimolligi statistik ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Boshqa qo'shimcha ko'rsatkichlar, masalan hayotning davomiyligi ko'rsatkichi ham yuqoridagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

Vafot etish jadvalini hisoblash uchun zarur ma'lumotlar:

- biror bir davr uchun, masalan kalendar yili uchun insonlarning jinsi va yoshi kesimida vafot etganlar soni;
- o'rganilayotgan davrda, masalan bir yoshgacha, bir yoshdan ikki yoshgacha va hokazo davrlarda jinsiy tarkib bo'yicha erkak va ayollar soni.

Natijada erkak va ayollar uchun yoshga nisbatan vafot etishning empirik o'zaro bog'liqligi ko'rsatkichi qx topiladi. 1a rasmdagi o'zaro bog'liqlik o'zgarmas emas. Vafot etish darajasi katta yoshda kichik yoshdagilarga nisbatan past bo'lishi mumkin. Bu bir qancha qoidalardan kelib chiqishi mumkin, masalan hayotning birinchi yilida vafot etish darajasi boshqa yillarga nisbatan yuqori bo'ladi.

Vafot etish jadvali yangi tug'ilgan chaqaloqlarning gipotetik guruhlar uchun tuziladi, bunda bir kunda tug'ilgan 100 ming chaqaloq olinishi mumkin. Bu vafot etish jadvali quyidagilarni ko'rsatadi:

- vafot etishning yillik ehtimolligi,  $q_x$ ;
- navbatdagi tug'ilishga qadar yashaganlar soni,  $I_x$ ;
- hayotning har bir yilida vafot etganlar soni,  $d_x$ ;
- ma'lum yoshgacha etganlarning qolgan hayotining davomiyligi  $X$ ,  $e_x$ .

Vafot etish jadvallari erkaklar uchun alohida va ayollar uchun alohida tuzilishi yoki birgalikda tuzilishi mumkin, bundan tashqari quyidagilar bo'yicha ham alohida jadvallar tuzilishi mumkin:

- shahar va qishloq aholisi uchun;
- alohida hududlar uchun;
- aholining turli qatlamlari uchun, masalan AQSHda oq tanlilar uchun alohida, qora tanlilar va ispan tilida so'zlashuvchilar uchun alohida tuziladi.

Vafot etish jadvalini tuzish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- yangi tug'ilgan chaqaloqlar soni 10 bilan belgilanadi va buning uchun bolalar sonini masalan 100 000 deb olish mumkin;
- qx - vafot etishning yillik ehtimolligi ko'rsatkichi bo'lib, u statistik ma'lumotlardan olinadi;
- hayotining birinchi yilida vafot etganlar soni  $d_0 = I_0 \times q_0$ ;
- bir yoshgacha yashaganlar soni  $l = I_0 - d_0$ ;
- hayotining ikkinchi yilida vafot etganlar soni  $d_0 = I_1 \times q_1$ ;
- ikki yoshgacha yashaganlar soni  $l_2 = I_1 - d_1$  va hokazo.

Hayot sug'urtasining jamg'arma turlari bo'yicha faoliyatni tartibga solish va zamon talablari asosida boshqarish sohani barqarorlashuviga va tez sur'atlarda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, mamlakat iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Sug'urtaning bu turida Sug'urtalovchining ijtimoiy jihatdan javobgarligi darajasining yuqoriligi bilan hayot sug'urtasi faoliyati ustidan davlat nazorati o'rnatilishini talab etadi. Soha faoliyatda davlat nazoratining zarurligi hayot sug'urtasining mazmun-mohiyatidan ma'lum.

Qoidaga ko'ra, jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasi shartnomalari 5-10-15-20 va undan yuqori bo'lgan muddatlarga tuziladi. Hayotni sug'urtalovchi sug'urta tashkilotlari sug'urta qildiruvchilardan olingan sug'urta mukofotlari evaziga sug'urta xodisasi yuz berganda, bir necha o'n yillardan keyin o'z majburiyatlarini bajarishiga qat'iy ishonch bo'lishi lozim. Hayot sug'urtasi shartnomasi tuzilishi bilan sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida uzoq

muddatli munosabatlar o'rnatiladi. Bunda sug'urta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilishda davlat ko'magi zarur bo'ladi.

Hayot sug'urtasi faoliyati bo'yicha davlat nazorati sug'urtalovchilarni moliyaviy holatini va tuzilgan shartnomalar doirasida olingan majburiyatlarini bajara olishini, ya'ni to'lov qobiliyatlilik darajasini muntazam kuzatib borish va tartibga solishda namoyon bo'ladi.

Sug'urtalovchida olingan majburiyatlari bo'yicha javobgarlikni bajarish uchun yetarli mablag'ning bo'lmasligi nafaqat shartnoma bo'yicha sug'urtalovchiga, balki butun sug'urtaga bo'lgan ishonchni yo'qolishiga olib keladi. Aholining sug'urta bo'lgan ishonchi yo'qolishi natijasida ularning davlat moliya institutlariga bo'lgan shikoyatini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham davlat sug'urtalovchilarni moliyaviy barqarorligini nazorat qilish bilan birga sug'urta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilish va shu bilan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishi lozimdir.

Hayot sug'urtasi faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini shakllantirishning ahamiyatga molik yo'nalishlari – sug'urtalovchilarni moliyaviy barqarorligini va to'lovga qobiliyatlilik darajasini oshirish hisoblanadi. Bularni amalga oshirish yo'lida mamlakat sug'urta qonunchiligida quyidagi ko'rsatmalar berilgan: a) litsenziya olish majburiyligi; b) ustav kapitalning shakllantirilganligi; c) sug'urta zahiralarni shakllantirish va ularni joylashtirish tartibi; d) qayta sug'urtaga berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-sonli "Sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, shuningdek sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida sug'urta faoliyati turlariga qarab, sug'urtalovchilarning ustav kapitali minimal miqdorlarini 2012-2014 yillar mobaynida bosqichma-bosqich, tabaqalashtirilgan tarzda oshirib borish belgilandi. Unga ko'ra hayotni sug'urtalash tarmog'i bo'yicha ustav kapitalning eng kam

miqdorlari 2012 yil 1 iyuldan 1 500,0 ming evro ekvivalentida, 2014 yil 1 iyuldan esa 2 000,0 ming evro ekvivalentida bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan.

Sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatining kafolatlari bo'lib sug'urta zahirolari va o'zlik kapitali hisoblanadi.

2008 yil 15 dekabrda sug'urtalovchilarning sug'urta zahirolari to'g'risidagi nizomga muvofiq hayotni sug'urtalovchi sug'urta tashkilotlari hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zahira (HJZ) va hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jamg'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zahiralarini (HZ) shakllantirishlari lozim. Bunda mukofotlar zahirasi va zararlar zahirasi kabi texnik zahiralar shakllantiriladi.

Mukofotlar zahirasi hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zahira va hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jamg'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zahirani qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zahira sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar yoki sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar bazaviy sug'urta mukofotining 92 foizidan va uni joylashtirishdan (unga hisoblangan foizlardan) olinadigan investitsiya daromadining 50 foizidan kam bo'lmagan hajmda har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblanadi. Bunda HJZning olingan hajmi sug'urta shartnomasi bilan belgilangan qaytarib sotib olish summasidan (sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilinganda kafolatlangan) kam bo'lmasligi lozim.

Umumiy holda HJZ har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan HJZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jamg'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zahira har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha «pro rata temporis» yoki «1/24» usuli bilan hisoblanadi. Umumiy holda HZ har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan HZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Zararlar zahirasi o'z ichiga xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasi oladi. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi sug'urta to'lovlarini amalga

o'shish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urtalovchiga xabar qilingan sug'urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan sug'urta qildiruvchining mulkiy manfaatlariga etkazilgan zararni (ziyonni) miqdorini baholash va kamaytirish bilan bog'liq ekspert, maslahat yoki boshqa xizmatlarga haq to'lash uchun sug'urtalovchiga zarur bo'lgan pul mablag'lari summasini to'lash bo'yicha sug'urtalovchining hisobot sanasiga bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

XZZ har bir bartaraf etilmagan da'vo bo'yicha aniqlanadi. Agarda zarar to'g'risida xabar qilingan bo'lib, uning miqdori aniqlanmagan bo'lsa, hisob-kitob uchun sug'urta pulidan katta bo'lmagan eng yuqori ehtimoli kutilgan zarar miqdori olinadi. XZZ xabar qilingan zararlarni hisobga olish jurnalida ro'yxatga olingan hisobot davridagi xabar qilingan zararlarning summasining hisobot davridan oldingi davrlarda bartaraf etilmagan zararlarning summasiga qo'shilgan va hisobot davrida to'langan zararlarning summasiga kamaytirilgan, hamda hisobot davrida bartaraf etilmagan da'volar summasidan uch foizgacha miqdorda zararni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar qo'shilgan summaga mos keladi.

Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlarning zahirasi sug'urta to'lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urtalovchiga hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda xabar qilinmagan sug'urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan, o'z ichiga zararlarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlarni olgan, sug'urtalovchining hisobot sanasiga majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi. Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlarning zahirasi har bir sug'urta turi bo'yicha alohida, sug'urtalovchining ushbu sug'urta turi bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish yuzasidan yig'ilgan statistikaning inobatiga olgan holda, hisoblanadi.

Sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi ularning to'lov qobiliyati bog'liqdir. Shuning uchun ham sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizomda belgilangan talablar doirasida faoliyat



ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur nizomda sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati normativlarini va ularni aniqlash tartibini, sug'urtalovchilarning aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablari belgilangan.

Sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati ta'minlanishi uchun ular o'z aktivlarini belgilangan tartibda joylashtirishlari lozim:

- sug'urtalovchilarning aktivlarini joylashtirishlari bo'yicha belgilangan talabga ko'ra, ular o'z mablag'lari manbalarining 50% miqdorida boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitallariga aktivlarni joylashtirish;

- sug'urta faoliyati yoki sug'urta faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshiradigan sho'ba korxonalaridan boshqa bir yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi ushbu yuridik shaxs ustav kapitalining 30 foizi miqdorida;

- ko'chmas mulk ob'ektlariga joylashtirishda ma'lum bir ob'ekt sifatida ko'rilishi mumkin bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlari majmuiga o'z aktivlarining 50 foizigacha; bank omonatlariga (depozitlarga) joylashtirishda, ya'ni bitta tijorat bankiga joylashtirilgan mablag'lar sug'urtalovchi aktivlarining 40 foizigacha;

- kredit tashkilotlarida (tijorat banklaridan tashqari) omonatlarga joylashtirishda, omonatlarning umumiy summasi sug'urtalovchi aktivlarining 10 foizidan oshmasligi zarur;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) o'z ta'sischilari, aksiyadorlari va xodimlariga, shuningdek u bilan hayot sug'urtasi shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchilarga ushbu shartnomalar bilan kafolatlangan qarzlarni berishga haqli. Bunda berilgan qarzlarning umumiy summasi sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ustav kapitalining 10 foizidan oshmasligi shart.

Sug'urtalovchilarning mablag'larini turli qo'yilma ob'ektlariga joylashtirish ularning moliyaviy barqarorligini va tolov qobiliyatini ta'minlash orqali sug'urta qildiruvchilarga o'z vaqtida sifatli xizmat ko'rsatishlarini ta'minlaydi.

Mamlakatda hayot sug'urtasini rivojlanishi va investorlarni himoya qilishdagi sug'urtani rolini oshib borishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatining oshishi, o'zlik kapitali xajmini oshirish orqali ichki va tashqi investorlar orasida nufuzining oshishi, ish tashkil qilish sifatining oshishi, olingan majburiyatlar bo'yicha so'zsiz majburiyatlarni bajarishi;

- sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini doimiy nazorat qilib borish, to'lov qobiliyati pasaygan sug'urtalovchilarga o'z vaqtida uni barataraf etish uchun choralar ko'rish va ko'rsatmalar berish;

- sug'urta bozorida raqobatbardosh hayot sug'urtasi kompaniyalarini tashkil etish.

- sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlar bajarilishini kafolatlash jamg'armalarini tashkil etish. Bunday jamg'armalar to'lov qobiliyatini yo'qotgan yoki bankrotga uchragan kompaniyalarning majburiyatlarini bajarishini ta'minlaydi, shu bilan birga aholini sug'urtaga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Davlat hayot sug'urtasini rag'batlantiruvchi, asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Chunki hayot sug'urtasi bozorining rivojlanishida davlat manfaatdorligi ham mavjud, sababi bu tarmoq ijtimoiy himoyani tashkil etishning ma'lum bir muhim shakllaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham hayot sug'urtasi bozorini tartibga solishning eng muhim yo'nalishlaridan biri mamlakatda ushbu tarmoqqa tegishli bo'lgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish hisoblanadi.

Hayot sug'urtasining jamg'arma turlarini rivojlantirish uchun qo'yilgan qadamlardan eng muhimi soliq imtiyozi berish orqali sohani rag'batlantirishdir. 2007 yil 10 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-618-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda hayot sug'urtasi bozorini rivojlantirish hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hayot sug'urtasida keng qatnashishlarini rag'batlantirish uchun ular hayotni uzoq muddatli sug'urtasi to'laydigan sug'urta mukofotlari soliqqa tortilmasligi belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2007 yil 25 iyunda 1693-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Mol-mulk sug'urtasi va uzoq muddatli hayot sug'urtasiga oid sug'urta mukofotlari yuzasidan yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i va jismoniy shaxslarning daromad

solig'i bo'yicha imtiyozlar berish tartibi to'g'risida"gi nizomda ushbu soliq imtiyozini qo'llash tartibi ko'rsatilgan.

Davlatimiz tomonidan berilgan bu soliq imtiyozi uzoq muddatli hayot sug'urtasini rivojlantirishga va aholini ijtimoiy himoya qilish va ularni moddiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

#### **Nazorat savollari:**

1. Aktuariy so'zi qaysi tildan olingan va nima ma'noni bildiradi?
2. Aktuariy malaka sertifikatiga ega bo'lishi shartmi?
3. Aktuar tashkilot o'z shtatida kamida nechta aktuariyga ega bo'lishi kerak?
4. Aktuar hisob-kitoblar deganda nimani tushunasiz?
5. Sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning qanday iqtisodiy-matematik usullari mavjud.
6. O'zbekistonda nechta aktuar tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda?

## **10-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA SUG‘URTA ZAHIRALARINI SHAKLLANTIRISH**

### **10.1. Hayot sug‘urtasida sug‘urta zahiralarini shakllantirishning zarurligi**

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro‘yxatga olingan Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zahiralarini to‘g‘risidagi nizomda O‘zbekiston Respublikasining "Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuniga muvofiq sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta zahiralarini hisoblash uslubi hamda shakllantirish va joylashtirish tartibiga talablari belgilangan. Mazkur Nizom davlat ijtimoiy sug‘urta tashkilotlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Sug‘urta zahiralarini sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtaning har bir turi (klassi) bo‘yicha sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash nazarda tutilgan valyutada shakllantiriladi.

Sug‘urtalovchi buxgalteriya hisobotini tuzishda hisobot sanasiga sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olingan moliyaviy natijalarini aniqlashda sug‘urta zahiralarini hajmini hisoblaydi. Sug‘urta zahiralarini hisob-kitobi sug‘urtalovchining hisob va hisobot ma‘lumotlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Har bir hisobot sanasiga har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta zahiralarini hisob-kitob qilish uchun zarur ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi hujjatlar sug‘urtalovchi tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilgan sanadan boshlab, 3 yildan kam bo‘lmagan muddatda saqlanishi lozim. Xususan, quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi hujjatlarning saqlanishi lozim:

- shartnoma (polis, guvohnoma, kvitansiya) raqami;
- shartnomaning kuchga kirgan sanasi (sug‘urtaning amal qilishining boshlanish sanasi);
- shartnomaning amal qilish muddati;
- sug‘urta puli (pullari) miqdori (miqdorlari);
- hisoblangan sug‘urta mukofoti (badallari) miqdori;

- sugʻurta mukofoti (badallari) hisoblangan sana;
- sugʻurta mukofotining (badallarining) miqdori (miqdorlari) va toʻlangan sanasi (sanalari);
- shartnoma tuzganlik uchun hisoblangan mukofot miqdori;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda sugʻurta mukofotidan (badallaridan) ajratmalar miqdori;
- shartnomani muddatidan oldin tugatish sanasi;
- shartnoma shartlarini oʻzgartirish sanasi (sanalari);
- shartnomaning muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining oʻzgartirilishi) munosabati bilan sugʻurta qildiruvchilarga (qayta sugʻurta qildiruvchilarga) qaytarilgan sugʻurta mukofoti (badallari) miqdori;
- sugʻurta mukofotini (badallarini) qaytarish sanasi;
- sugʻurta hodisasi (hodisalari) toʻgʻrisida ariza tushgan sana (sanalar);
- sugʻurta hodisasi (hodisalari) yuz bergan sana (sanalar);
- xabar qilingan zarar (zararlar) miqdori (miqdorlari), shuningdek uni bartaraf etish jarayonida xabar qilingan zarar (zararlar) miqdorining (miqdorlarining) oʻzgarishi toʻgʻrisida maʼlumot;
- sugʻurta toʻlovi (toʻlovlari) sanasi (sanalari);
- sugʻurta toʻlovi (toʻlovlari) miqdori (miqdorlari);
- sugʻurta toʻlovini (toʻlovlarini) toʻlashni rad etish sanasi (sanalari).

Koʻrsatilgan maʼlumotlar elektron maʼlumotlar bazasi, shuningdek Tuzilgan sugʻurta shartnomalarini hisobga olish jurnali, Zararlar va muddatidan oldin tugatilgan sugʻurta shartnomalarini hisobga olish jurnali, Qayta sugʻurta qilishga qabul qilingan shartnomalarni hisobga olish jurnali, Qayta sugʻurta qilishga qabul qilingan shartnomalar boʻyicha zararlarni hisobga olish jurnali uchun ham majburiy rekvizitlar hisoblanadi. Sugʻurtalovchi sugʻurta zahiralari hisob-kitobini koʻrsatilgan registrlarda mavjud boʻlgan maʼlumotlar asosida amalga oshiradi.

Sugʻurtalovchi oʻzining balansida (holatga koʻra) majburiyat yoki aktivlar sifatida hisobga olinuvchi quyidagi texnik zahiralarni shakllantirishi shart:

a) ishlab topilmagan mukofot zahirasi (umumiy sugʻurta (qayta sugʻurta qilish) boʻyicha faoliyatni amalga oshirishda);

b) mukofotlar zahirasi (hayotni sugʻurta qilish boʻyicha faoliyatni amalga oshirishda);

v) keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun moʻljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha barqarorlashtirish zahirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha faoliyatni amalga oshirishda);

v-1) keyingi yillarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun moʻljallangan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha barqarorlashtirish zahirasi (IFJMS BZ) (ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha faoliyatni amalga oshirishda);

v-2) keyingi yillarda tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun moʻljallangan tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha barqarorlashtirish zahirasi (TFJMS BZ) (tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha faoliyatni amalga oshirishda);

g) sugʻurta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sugʻurta shartnomasi shartlari boʻyicha qoplanishi lozim boʻlgan zarar (ziyon) hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zahirasi:

– xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi (XZZ);

– sodir boʻlgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasi (SXZZ).

Sugʻurtalovchi qoʻshimcha ravishda:

– ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi (OCHZ);

– falokatlar zahirasi (FZ);

– zararlilikning tebranishi zahirasi (ZTZ);

- aktivlarning nomuvofiqligi zahirasi (ANZ);
- sugʻurta faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlgan boshqa turdagi sugʻurta zahiralari tashkil etishi mumkin.

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha barqarorlashtirish zahirasi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha barqarorlashtirish zahirasi va tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha barqarorlashtirish zahirasi tashqari, texnik zahiralarni hisob-kitob qilish bazasi sifatida bazaviy sugʻurta mukofoti - hisobot davrida sugʻurta (qayta sugʻurta qilish) shartnomalarini tuzish boʻyicha vositachilik xizmatlarini koʻrsatganlik uchun hisoblangan komission mukofoti va ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi shakllantirishga yoʻnaltirilgan mablagʻlar summasi chegirilgan, hisoblangan sugʻurta brutto-mukofoti qabul qilinadi.

Foydani aniqlashda texnik zahiraning kamayishi sugʻurtalovchining daromadini, texnik zahiraning koʻpayishi esa zararini namoyon etadi.

Ishlab topilmagan mukofot zahirasi (IMZ) - bu sugʻurta (qayta sugʻurta qilish) shartnomasi boʻyicha hisoblangan, keyingi hisobot davrlarida amalga oshirilishi mumkin boʻlgan, kelgusi toʻlovlarni taʼminlash boʻyicha majburiyatlarni bajarish uchun moʻljallangan hisobot davrining chegaralaridan chiquvchi shartnomaning amal qilish davriga tegishli sugʻurta mukofotining qismi.

Sugʻurta zahiralari hisoblash uchun sugʻurtalovchi nizomda keltirilgan har bir hisob guruhi ichida sugʻurta shartnomasining shartlari, sugʻurta obʻektlari, sugʻurta obʻektlarining joylashuvi va sugʻurta tavakkalchiliklari roʻyxatiga bogʻliq holda qoʻshimcha hisob guruhlarini kiritishi mumkin.

Har bir qayta sugʻurtaga qabul qilingan shartnoma (shartnomalar) boʻyicha qayta sugʻurta qilish shartnomasining amal qilish doirasiga tushuvchi zararining sodir boʻlishi borasidagi sugʻurtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir sugʻurta toʻlovidagi oldindan oʻrnatilgan ulushni qoplash boʻyicha qayta sugʻurtalovchining majburiyati paydo boʻluvchi shartlarga ega boʻlgan

proporsional qayta sug'urta qilish shartnomalari tegishli sug'urta shartnomalariga oid hisob guruhlariga kiritiladi.

Sug'urtalovchi tomonidan belgilangan guruhlanish bo'yicha bir nechta hisob guruhlariga taalluqli bo'lgan shartnoma tuzilgan taqdirda, sug'urta zahiralarini hisoblash maqsadida ko'rsatilgan shartnomaning muayyan hisob guruhiga to'g'ri keluvchi har bir qismi tegishli hisob guruhiga taalluqli alohida shartli shartnoma sifatida hisobga olinadi.

## **10.2. Hayot sug'urtasida sug'urta zahiralarini shakllantirish qoidalari**

Hayot sug'urtasida shartnomaning kuchga kirish sanasi (sug'urtaning amal qilishining boshlanish sanasi) shartnoma bo'yicha sug'urta mukofotini (badallarini) hisoblash sanasidan kechroq bo'lsa va sug'urta zahiralarining hisob-kitobi shartnomaning kuchga kirish sanasiga (sug'urtaning amal qilishining boshlanish sanasiga) qadar amalga oshirilgan taqdirda, ishlab topilmagan mukofot zahirasi hisoblash maqsadida ishlab topilmagan mukofot zahirasi shartnoma bo'yicha hisoblangan sug'urta mukofoti (badallari) (sug'urta brutto-mukofoti) miqdoriga teng deb qabul qilinadi.

Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha alohida "pro rata temporis" usuli - ishlab topilmagan mukofotni hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatiga proporsional holda hisoblash orqali hisoblanadi. Har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot hisob-kitob uchun qabul qilingan bazaviy sug'urta mukofotining hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatining (kunlarda) sug'urta shartnomasining butun amal qilish muddati (kunlarda) nisbatiga ko'paytmasi sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Imi = Bmi \quad x \quad \frac{Ti - Mi}{Ti}$$



bu yerda:

*Imi* - i-shartnoma bo'yicha ishlab topilmagan mukofot;

*Bmi* - i-shartnoma bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti;

*Ti* - i-shartnomaning kunlardagi amal qilish muddati;

*Mi* - i-shartnomaning kuchga kirishidan boshlab hisobot sanasigacha bo'lgan kunlar soni.

Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zahirasi har bir shartnoma bo'yicha "pro rata temporis" usuli orqali hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zahirasi "1/24" usuli bo'yicha ham hisoblanishi mumkin.

Ishlab topilmagan mukofotni (ishlab topilmagan mukofot zahirasini) "1/24" usuli orqali hisoblash uchun bitta hisob guruhiga taalluqli bo'lgan shartnomalar kichik guruhlariga ajratiladi. Kichik guruhlariga amal qilish muddati (oylarda) bir xil bo'lgan va amal qilishining boshlanish sanasi bir xil oylarga to'g'ri keluvchi shartnomalar kiritiladi.

Kichik guruhga kiruvchi shartnomalar bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotining umumiy summasi kichik guruhga kiruvchi har bir shartnoma bo'yicha hisoblangan bazaviy sug'urta mukofotlarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zahirasi) "1/24" usuli bo'yicha hisoblanganda, quyidagi shartlar qo'llaniladi:

– sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanish sanasi deb oyning o'rtasi qabul qilinadi;

– sug'urta shartnomasining oylarning butun sonlariga teng bo'lmagan amal qilish muddati oylarning eng yaqin katta butun soniga teng deb qabul qilinadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zahirasi) har bir kichik guruh bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotlari umumiy summasini ishlab topilmagan mukofot zahirasi miqdorini hisoblash koeffitsientlariga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Har bir kichik guruh uchun koeffitsient kichik guruhlarga kiruvchi shartnomalarning hisobot sanasiga tugamagan amal qilish muddatining (yarim oylarda) kichik guruhga kiruvchi shartnomalar amal qilishining umumiy muddatiga (yarim oylarda) nisbati sifatida aniqlanadi.

Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zahirasi "1/24" usuli orqali har bir kichik guruh bo'yicha hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni (ishlab topilmagan mukofot zahiralarini) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Ikkinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar bazaviy sug'urta mukofoti miqdorida har bir shartnoma bo'yicha aniqlanadi.

Uchinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot hisobot sanasiga bazaviy sug'urta mukofotining 40 foizi miqdorida har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha aniqlanadi.

To'rtinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar bazaviy sug'urta mukofotining 75 foizi miqdorida har bir shartnoma bo'yicha aniqlanadi.

Mukofotlar zahirasi keyingi hisobot davrlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha kelgusidagi to'lovlarni ta'minlashga oid majburiyatlarni bajarish va sug'urta polisining kafolati asosida qarz berish uchun mo'ljallangan. Mukofotlar zahirasi quyidagilardan iborat:

- hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zahira (HJZ);
- hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jamg'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zahira (HZ).

Mukofotlar zahirasi hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zahira va hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jamg'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zahirani qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zahira sug'urta shartnomasining amal qilish muddati to'liq tugagunga qadar yoki sug'urta

hodisasi yuz bergunga qadar bazaviy sug'urta mukofotining 92 foizidan va uni joylashtirishdan (unga hisoblangan foizlardan) olinadigan investitsiya daromadining 50 foizidan kam bo'lmagan hajmda har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblanadi. Bunda HJZning olingan hajmi sug'urta shartnomasi bilan belgilangan qaytarib sotib olish summasidan (sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilinganda kafolatlangan) kam bo'lmasligi lozim.

Umumiy holda HJZ har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan HJZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Hayotni sug'urta qilishning boshqa turlari (jamg'arilib boruvchi turlaridan tashqari) bo'yicha zahira har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha "pro rata temporis" yoki "1/24" usuli bilan hisoblanadi.

Umumiy holda HZ har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblangan HZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Zararlar zahirasi o'z ichiga xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasini va sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasini oladi.

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi sug'urta to'lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urtalovchiga xabar qilingan sug'urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan sug'urta qildiruvchining mulkiy manfaatlariga etkazilgan zararni (ziyonni) miqdorini baholash va kamaytirish bilan bog'liq ekspert, maslahat yoki boshqa xizmatlarga haq to'lash uchun sug'urtalovchiga zarur bo'lgan pul mablag'lari summasini to'lash bo'yicha sug'urtalovchining hisobot sanasiga bajarilmagan yoki to'liq bajarilmagan majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

XZZ har bir bartaraf etilmagan da'vo bo'yicha aniqlanadi. Agarda zarar to'g'risida xabar qilingan bo'lib, uning miqdori aniqlanmagan bo'lsa, hisob-kitob uchun sug'urta pulidan katta bo'lmagan eng yuqori ehtimoli kutilgan zarar miqdori olinadi.

XZZ xabar qilingan zararlarni hisobga olish jurnalida ro'yxatga olingan hisobot davridagi xabar qilingan zararlar summasining hisobot davridan oldingi

davrlarda bartaraf etilmagan zararlar summasiga qo'shilgan va hisobot davrida to'langan zararlar summasiga kamaytirilgan, hamda hisobot davrida bartaraf etilmagan da'volar summasidan uch foizgacha miqdorda zararni bartaraf etish bo'yicha xarajatlar qo'shilgan summaga mos keladi.

Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasi sug'urta to'lovlarini amalga oshirish, jumladan hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda sodir bo'lganligi haqida qonun yoki shartnomada belgilangan tartibda sug'urtalovchiga hisobot davrida yoki unga qadar bo'lgan davrlarda xabar qilinmagan sug'urta hodisalari munosabati bilan yuzaga kelgan, o'z ichiga zararlarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlarni olgan, sug'urtalovchining hisobot sanasiga majburiyatlarining baholanishi hisoblanadi.

Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasi har bir sug'urta turi bo'yicha alohida, sug'urtalovchining ushbu sug'urta turi bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish yuzasidan yig'ilgan statistikani inobatga olgan holda, hisoblanadi.

Umumiy holda, SXZZ har bir sug'urta turi bo'yicha hisoblangan SXZZlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Biroq ushbu summa umumiy sug'urtada (qayta sug'urta qilishda) har qanday holda hisobot davriga qadar o'n ikki oy mobaynida umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti summasining 10 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zahirasi (IFJMS BZ) keyingi yillarda sug'urtaning mazkur turi bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zahirasi hisob-kitobi quyidagi ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi:

– ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofoti;

– ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha hisobot davrida amalga oshirilgan sugʻurta toʻlovlari;

– ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishni hisobot davrida amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sugʻurta hodisalari sodir boʻlishining oldini olish va ogohlantirish boʻyicha ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi ajratmalar);

– boshqa koʻrsatkichlar.

IFJMS BZni hisoblash maqsadida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishni amalga oshirish xarajatlari miqdori (shu jumladan, sugʻurta hodisalari sodir boʻlishining oldini olish va ogohlantirish boʻyicha ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi ajratmalar) hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish shartnomalari boʻyicha hisoblangan sugʻurta brutto-mukofotining 30 foizi miqdorida oʻrnatiladi.

IFJMS BZning hisob-kitobi brutto-sugʻurtalash koʻrsatkichlaridan kelib chiqqan holda (qayta sugʻurtalovchilar ishtirokini (ulushini) hisobga olmagan holda) amalga oshiriladi.

Sugʻurtalovchi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha barqarorlashtirish zahirasi quyidagi tartibda hisoblaydi.

IFJMS BZ miqdorini hisob-kitob qilish bazasi sifatida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishni amalga oshirishdan hosil boʻlgan moliyaviy natija miqdori qabul qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishni amalga oshirishdan hosil boʻlgan moliyaviy natija hisobot davridagi sugʻurtaning mazkur turi boʻyicha daromadlar miqdori va hisobot davridagi sugʻurtaning mazkur turi boʻyicha xarajatlar miqdori oʻrtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha daromadlar quyidagilarning yigʻindisi sifatida aniqlanadi:

– hisobot davrida hisoblangan sugʻurta brutto-mukofotlari;

– ishlab topilmagan mukofot zahirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasi hisobot davrida kamayish tomonga o‘zgarishi.

Hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlar quyidagilarning yig‘indisi sifatida aniqlanadi:

– hisobot davrida sug‘urta shartnomalarining muddatidan oldin tugatilishi (shartlarining o‘zgartirilishi) munosabati bilan sug‘urta qildiruvchilarga qaytarilgan sug‘urta mukofotlari (badallari);

– hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish xarajatlari (shu jumladan, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi ajratmalar);

– quyidagilardan iborat bo‘lgan hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha joriy sug‘urta to‘lovlarini ta‘minlash xarajatlari:

– ishlab topilmagan mukofot zahirasi, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zahirasi va sodir bo‘lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zahirasi hisobot davrida ko‘payish tomonga o‘zgarishi;

– hisobot davrida amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq ko‘rsatilgan daromadlarning 5 foizidan ortiq bo‘lsa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zahirasi hisobot davri oxiriga ko‘rsatilgan ortiq summaga ko‘payadi.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlar summasi daromadlar summasidan ortib ketsa, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zahirasi hisobot davri oxiriga xarajatlarning daromadlardan ortgan summasiga kamaytiriladi.

Agar sug'urtalovchi hisobot davri boshiga qadar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zahirasini hisoblamagan bo'lsa, mazkur zahira hisobot davri boshiga nolga teng deb qabul qilinadi.

Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zahirasi hisob-kitoblar natijasida manfiy qiymatga ega bo'lsa, mazkur zahira nolga teng deb qabul qilinadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zahirasini hisob-kitob qilish uchun mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan jadvallardan foydalaniladi.

Ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi (OCHZ) baxtsiz hodisalarni, sug'urta qilingan mulkni yo'qotish yoki shikastlanishini ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish, shuningdek sug'urta hodisalarining sodir bo'lishini ogohlantirish va oldini olishga yo'naltirilgan boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan.

OCHZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanadigan ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

Bunda sug'urtalovchi OCHZdan moliyalashtiriladigan ogohlantirish chora-tadbirlarining aniq ro'yxatini belgilashi va uni Davsug'urtanazoratga kelishish uchun taqdim etishi lozim.

OCHZ sug'urta shartnomalari bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotlaridan ajratmalar yo'li bilan shakllantiriladi.

OCHZga ajratmalar miqdori, tarif stavkasi tarkibida ushbu maqsadlarga ko'zda tutilgan foizlardan kelib chiqib, biroq sug'urta shartnomalari bo'yicha hisobot davrida hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 10 foizidan ko'p bo'lmagan holda (qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari), ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari zahirasi (IFJMS OCHZ) ajratmalar miqdori,

hisobot davrida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha hisoblangan sug'urta brutto-mukofotining 5 foizi miqdorida belgilanadi.

Falokatlar zahirasi (FZ), ko'p sonli sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish zaruratini keltirib chiqargan engib bo'lmas kuch yoki yirik miqyosdagi avariya oqibati hisoblangan, favqulodda etkazilgan ziyonni qoplashga mo'ljallangan. FZ shartlarida engib bo'lmas kuch yoki yirik miqyosdagi avariya oqibatida etkazilgan ziyonni qoplash munosabati bilan sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirishi majburiyatini ko'zda tutuvchi sug'urta turlari bo'yicha shakllantiriladi.

Falokatlar zahirasini shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanadigan falokatlar zahirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

Zararlilikning tebranishi zahirasi (ZTZ), sug'urta turi bo'yicha sug'urta tarifining netto-stavkasini hisoblash uchun asos bo'lgan kutilayotgan zararlilik darajasidan hisobot davridagi zararlilik darajasi yuqori bo'lgan holatda, sug'urtalovchining sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini kompensatsiya qilishga mo'ljallangan.

Zararlilikning tebranishi zahirasining miqdori yalpi hisoblangan sug'urta mukofotining 10 foizidan oshmasligi lozim.

ZTZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanadigan zararlilikning tebranishi zahirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

Aktivlarning nomuvofiqligi zahirasi (ANZ) faqat hayotni sug'urta qilish sohasida faoliyat yuritadigan sug'urtalovchi tomonidan tashkil etilishi mumkin va mukofotlar zahirasining 20 foizidan ortiq bo'lmasligi lozim.

ANZni shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlari sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanadigan aktivlarning nomuvofiqligi zahirasi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.



O'zida majburiyatlarni aks ettirmagan, biroq sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa zahiralarni sug'urtalovchi tomonidan bunday zahirani shakllantirish va undan foydalanish tartibi, shartlarini nazarda tutuvchi tegishli zahira to'g'risidagi nizom sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlanganidan keyingina tashkil etilishi mumkin.

Sug'urtalovchi sug'urta zahiralari mablag'lari qiymatiga ekvivalent bo'lgan summadagi aktivlarni ajratishi shart. Ajratilgan aktivlar, ularni ajratish vaqtida sug'urtalovchining hisob va hisobot registrlarida aniq belgilangan bo'lishi shart.

Ajratilgan aktivlarning umumiy qiymati sug'urta zahiralari mablag'larining jami miqdoridan kam bo'lmasligi lozim. Ajratilgan aktivlar qiymati sifatida ularning balans qiymati tushuniladi.

Ajratilgan aktivlar diversifikatsiya, qaytarilish, foydalilik va likvidlik talablariga javob berishi lozim.

Ajratilgan aktivlar mablag'lari sug'urtalovchi tomonidan faqat tegishli sug'urta zahiralarning shakllantirish maqsadiga muvofiq holda ishlatilishi mumkin. Ajratilgan aktivlar garov predmeti yoki kreditorga kafilning majburiyatlari bo'yicha pul mablag'larini to'lash manbai sifatida xizmat qila olmaydi.

Sug'urta zahiralari xorijiy valyutada belgilangan holatlarda, aktivlar sug'urta zahiralari belgilangan valyutaga ekvivalent valyutada yoki erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada ajratiladi.

Ajratilgan aktivlar quyidagi aktivlardan iborat bo'lishi mumkin emas:

- sug'urtalovchining ta'sischilari, aksiyadorlari va xodimlariga berilgan qarzlarni, shuningdek ular bo'yicha jamg'arilgan foizlar;
- debitor - bog'liq shaxslarning qarzlari;
- sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida belgilangan to'lov sanasidan uch oydan ko'p muddat mobaynida sug'urta qildiruvchilar (qayta sug'urta qildiruvchilar) tomonidan to'lanmagan sug'urta mukofotlari;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha debitorlik qarzlari;
- kafolat bo'yicha summalar;

– majburiyat predmeti bo‘lgan aktivlar (qabul qilingan majburiyatlar doirasida).

Ajratilgan aktivlarning 70% dan kam bo‘lmagan qismi quyidagilardan (yoki ularning ba’zilaridan) tarkib topishi lozim:

- O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari;
- bank omonatlari (depozitlar);
- kassadagi va/yoki hisob (valyuta) raqamlardagi va o‘zga bank raqamlaridagi pul mablag‘lari, shuningdek ularga tenglashtirilgan mablag‘lar;
- xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog‘ozlari (Davsug‘urtanazorat bilan kelishgan holda);
- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan qimmatli qog‘ozlar bozorida savdoni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega bo‘lgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan hamda qimmatli qog‘ozlar bozorida muomalaga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar.

Sug‘urtalovchining boshqaruv organlari ajratilgan aktivlarning hisobot sanasiga mavjudligini va qiymatini tekshirib ko‘rishi, shuningdek aktivlar ajratilgan sug‘urta zahiralari summasi bilan ularni taqqoslab ko‘rishi shart va bunday huquqqa har qanday boshqa vaqtda ham ega.

Ajratilgan aktivlar qiymati sug‘urta zahiralari summasidan kam bo‘lgan holatda, sug‘urtalovchi ajratilgan aktivlar qiymatini sug‘urta zahiralari summasidan kam bo‘lmagan qiymatga oshirish va sug‘urta zahiralari hajmining 105 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ko‘paytirish uchun yetarli miqdordagi qo‘shimcha aktivlarni ajratishi shart.

Ajratilgan aktivlar summasi sug‘urta zahiralari summasining 105 foizidan ortiq bo‘lgan holatda, sug‘urtalovchi ajratilgan aktivlar qiymati sug‘urta zahiralari miqdoridan kam bo‘lmagan va sug‘urta zahiralari miqdorining 105 foizidan ko‘p

bo'lmagan summagacha qisqargunga qadar, ajratilgan aktivlarning ortiqcha bo'lgan qismini ajratilmagan aktivlarga o'tkazishi shart.

Sug'urtalovchilar har chorakda chorak o'tgandan keyingi oyning 25 sanasigacha moliyaviy hisobot tarkibida (buxgalteriya balansi - 1-shakl, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot - 2-shakl) mazkur Nizomning 1, 2, 2-1, 3 va 4-ilovalariga muvofiq shakllarda sug'urta zahiralari to'g'risidagi hisobotlarni Davsug'urtanazoratga taqdim etadilar. Bunda yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobot tarkibidagi sug'urta zahiralari to'g'risidagi hisobotlar hisobot yilidan keyingi yilning 15 fevralidan kechikmagan holda taqdim etiladi (xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar bundan mustasno). Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobot tarkibidagi sug'urta zahiralari to'g'risidagi hisobotlarni hisobot yilidan keyingi yilning 25 martidan kechikmagan holda taqdim etadilar.

Sug'urta zahiralari hisoblash uslubi hamda shakllantirish va joylashtirish tartibi talablari buzilgan taqdirda, Davsug'urtanazorat sug'urtalovchiga yo'l qo'yilgan kamchiliklarni eng qisqa, ammo sug'urtalovchi ko'rsatmani olgan sanadan boshlab bir oydan ko'p bo'lmagan muddatda bartaraf etishi to'g'risida ko'rsatma beradi.

Kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilgandan so'ng uch kun ichida, sug'urtalovchi Davsug'urtanazoratga tegishli hisob-kitoblar va kamchiliklarning bartaraf etilganligi to'g'risida ma'lumotlarni (hisobotlarni) taqdim etishi shart.

Davsug'urtanazorat sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingan texnik zahiralarning tarkibini va hisoblash usullarini o'zgartirish borasida ko'rsatma berish, shuningdek Davsug'urtanazoratga sug'urta zahiralari to'g'risidagi axborotni taqdim etishning boshqa tartibini o'rnatish huquqiga ega. Zarur holda, Davsug'urtanazorat yuzaga kelgan holat sabablarini aniqlash maqsadida sug'urtalovchiga o'zining vakilini yo'llaydi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq holda sug'urtalovchi operatsiyalarining yoppasiga yoki tanlov asosida tekshiruvini amalga oshiradi.

Sug'urtalovchi tomonidan mazkur Nizomda o'rnatilgan talablarga rioya qilinmagan, belgilangan muddatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi Davsug'urtanazorat ko'rsatmasini bajarmagan taqdirda, sug'urtalovchiga qonun hujjatlariga muvofiq choralar ko'riladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Sug'urta zahiralari sug'urtalovchi tomonidan qanday valyutada shakllantiriladi?
2. Sug'urtalovchi o'zining balansida qanday texnik zahiralarni shakllantirishi shart?
3. Sug'urtalovchining texnik zahiralari kamayishi yoki ko'payishi nimani anglatadi?
4. Ishlab topilmagan mukofot zahirasini tavsiflang?
5. Hayot sug'urtasida shartnomaning kuchga kirish sanasi (sug'urtaning amal qilishining boshlanish sanasi) qanday belgilanadi?
6. Hayotni sug'urta qilishning jamg'arilib boruvchi turlari bo'yicha zahira qanday hisoblanadi?
7. Sug'urta zahiralarini hisoblash uslubi hamda shakllantirish va joylashtirish tartibi talablari buzilgan taqdirda sug'urtalovchiga nisbatan qanday chora ko'riladi?
8. Sug'urta zahiralari xorijiy valyutada belgilanishi mumkinmi?

## **11-BOB. HAYOT SUG‘URTASI BO‘YICHA ASOSIY SUG‘URTA POLISLARI**

### **11.1. Muddatli sug‘urta bo‘yicha asosiy sug‘urta polislar**

Odatda odamlar yoki oila a‘zolarini o‘zining bevaqt o‘limidan himoya qilish uchun, yoki kelajakda belgilangan moliyaviy vazifalarni bajarish uchun investitsiyalar sifatida hayotni sug‘urta qildirish haqida shartnoma tuzadi. Polislar quyidagi tarzda guruhlariga ajratilishi mumkin:

- muddatli sug‘urta;
- umrbod sug‘urta;
- qolgan umrni sug‘urta qildirish.

Muddatli sug‘urta odatda belgilangan muddat davomida o‘lim holati ro‘y berishidan himoya qilish uchun foydalaniladi va shu muddatga shartnoma tuziladi. Agar ushbu vaqt muddati davomida o‘lim holati ro‘y bermasa, hech qanday to‘lov amalga oshirilmaydi va sug‘urta qildiruvchi kiritilgan mukofot pulini qaytarib olmaydi. Shu sababdan sug‘urta mukofotlari juda past bo‘lishi mumkin, chunki ular o‘lim bo‘yicha da‘volarni qoplashga to‘liq ketadi va agarda shartnomaning amal qilish muddati tugagan paytga kelib, sug‘urta qildiruvchi tirik bo‘lgan hollarda qaytarilmaydi.

Umrbod sug‘urta qildirish asosan u taqdim etadigan himoya uchun foydalaniladi. Sug‘urta summasi sug‘urta qildirgan shaxsning o‘limi bilan to‘lanadi. Bunday shartnomalar uzoq muddatli bo‘lishi sababli, ular investitsion tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi va shartnoma amal qilishining ma‘lum bir bosqichida polis daromad keltira boshlaydi (muddatli sug‘urtadan farqli ravishda). Bunday polislar joriy qiymatga (qayta sotib olish summasi) ega bo‘lib, odatda bu sug‘urta mukofotlari to‘langan dastlabki ikki-uch yildan so‘g ro‘y beradi.

Qolgan umrni sug‘urta qildirish ko‘proq investitsion shartnomalarga o‘xshab ketadi. Qolgan umrni sug‘urta qildirish polislarida kelajakda belgilangan vaqt mahalida yoki shu muddat tugagunga qadar o‘lim holati ro‘y berganda sug‘urta

summasi to'lanishi ko'zda tutiladi. Ular uchun, xuddi umrbod sug'urta polislari kabi, qayta sotib olish summasi mavjud bo'ladi.

*Investitsion polislari.*

Sug'urta qiluvchining nuqtai nazaridan, muddatli sug'urtada investitsion element umuman mavjud emas. Bu polislari faqat himoya uchun mo'ljallangan va sug'urta qoplami cheklangan muddatda amal qilishi sababli hayotni sug'urta qildirish bo'yicha kompaniyadan to'lov muqarrar sanalmaydi.

Qolgan umrni sug'urta qildirish polislari yoki umrbod sug'urta polislari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- kafolatlangan summaga daromadsiz polislari;
- muayyan sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyat samaradorligiga bog'liq bo'lgan daromad bilan bog'liq daromadli polislari.

*Daromadli polislari.*

Polislarning ushbu turi sug'urta qildiruvchiga sug'urta kompaniyasi oladigan foydani taqsimlashda ishtirok etishga imkon beradi. Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha kompaniya har yili o'z aktivlari va majburiyatlarini baholaydi va sug'urta summasiga qo'shimcha sifatida olingan barcha foydadan bonus yoki mukofot hisoblab chiqadi. Bu qo'shimcha to'lovlar sug'urta qildiruvchining o'limi yoki polis bo'yicha to'lov muddati kelmagunga qadar olinishi mumkin emas.

Amaliyotda bonus to'lovlarining turli xil variantlari uchraydi, lyokin mazkur darslikda shuni ta'kidlash kifoyaki, ular odatda har yili sug'urta summalaridan foiz shaklida belgilanadi. Bu bonuslar yoki sug'urta summasidan, yoki ilgari hisoblangan bonuslarni hisobga olgan holda sug'urta summasidan hisoblab chiqilishi mumkin .

Hayotni sug'urta qilish bo'yicha kompaniya qo'shimcha ravishda «yakuniy bonus» tayinlashi mumkin bo'lib, u faqat sug'urta qildiruvchining o'limi yoki polis bo'yicha to'lov muddati kelgan holdagina to'lanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Qolgan umrni sug'urta qildirish polislari va umrbod sug'urta polislari qayta sotib olish summasiga ega, shu sababli bu polislari

bo'yicha bonuslar hisoblab chiqiladi, lyokin ular kamroq bo'ladi va odatda ular uchun yakuniy bonus foydalanilmaydi.

Pirovardida daromadli polislari quyidagilarni ta'minlaydi;

- kelishilgan muddat kelgan yoki o'lim holati ro'y berganda kafolatlangan summa,

- yillik bonuslar,

- kelishilgan muddat kelgan yoki o'lim holati ro'y berganda qo'shiladigan yakuniy bonus,

- qayta xarid qilish summasi, jumladan, yillik bonuslarning ma'lum bir qismi.

Daromadli polislari bo'yicha mukofotlar odatda sug'urta summasi bir xil bo'lgan daromadsiz polislardan yuqori bo'ladi va bu ular keltiradigan qo'shimcha daromadlarni aks ettiradi.

*Ulushli (hissali) polislari.*

Ulushli polislari investorlarga daromad darajasi bevosita hayotni sug'urta qilish bo'yicha kompaniyalarning investitsion faoliyat samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan polislari taklif qilish usuli sifatida paydo bo'lgan. Odatda bunga ulushli polislari qiymatini sug'urta kompaniyasi yoki boshqa boshqaruvchi tomonidan boshqariladigan trust fondidagi ulushlar qiymatiga bog'lab qo'yish yo'li bilan erishilgan.

Ulushli polislari bo'yicha olinadigan mukofotlarning hammasi yoki bir qismi joriy narx bo'yicha trust fondida ulushlar xarid qilish uchun foydalanilgan. Polislarning joriy qiymati bu ulushlar qiymati bilan birgalikda o'zgarib boradi. Garchi chaqqon bozorda u o'sadigan bo'sada, narx tushab ketgan hollarda ularning egalari yutqazib qo'yishi ham mumkin.

Ushbu bosqichda investitsion polislarning bu jihati haqida batafsil to'xtalib o'tishga zarurat yo'q.

## **11.2. Umrbod sug'urta bo'yicha asosiy sug'urta polislar**

Umrbod polislarini ikkita asosiy jihat ajratib turadi:

- polis bo'yicha sug'urta summasi sug'urta qildiruvchi shaxs o'lganidan so'ng to'lanadi;

- sug'urta mukofotlari muddatli sug'urta holatidan ko'ra yuqori bo'ladi, chunki da'vo albatta o'ringa ega bo'ladi.

Bu doimiy polislar bo'lib, yakunlanish muddati bilan chegaralanmaydi va ushbu polis bo'yicha baribir pul to'lanishi sababli u ssuda uchun durustgina ta'minot bo'lib xizmat qilishi mumkin. Umrbod polislarining bir necha xil turlari mavjud.

### *Daromadsiz umrbod polislar.*

Daromadsiz umrbod polislar uchun quyidagilar xosdir:

- amal qilish muddati davomida sug'urta mukofotlari to'lab borilishi;

- qayd qilib qo'yilgan sug'urta summasi.

Ayrim polislarida 80 yoki 85 yoshdan keyin sug'urta mukofotlari to'lash ko'zda tutilmaydi, lyokin agar bunday polisni shu yoshda xarid qilinadigan bo'lsa, sug'urta mukofotlari ancha unchalik yuqori bo'lmaydi, chunki ular qisqa vaqt davomida to'lanish ehtimoli katta.

### *Daromadli umrbod polislar*

Polislarining ushbu turi daromadsiz umrbod polislariga o'xshab ketadi va faqatgina polisda kelishib olingan va sug'urta qildiruvchi o'lganida to'lanadigan qo'shimcha bonuslar bilan farq qiladi. Sug'urta mukofotlari shartnoma amal qiladigan butun muddat davomida to'lanishi yoki u 80-85 yoshga etganda to'xtatilishi mumkin.

### *Arzon umrbod polislar*

Polislarining ushbu turida o'lim holatida kafolatlangan sug'urta summasi, lyokin polisning amal qilish davri davomida bonuslar hisobiga yildan-yilga o'sib boradigan va nihoyat, belgilangan paytga kelib kafolatlangan sug'urta summasiga etadigan va undan ortib ham ketib ketadigan bazaviy sug'urta summasi kichikroq bo'lishini ko'zda tutadi. O'lim holatida sug'urta to'lovi o'lim ro'y bergan paytga



kelib to'plangan katta summadan kelib chiqib belgilanadi. Sug'urta mukofotlari oddiy daromadli umrbod polislari bo'yicha sug'urta mukofotidan kam.

### **11.3. Qolgan umrni sug'urta qildirish bo'yicha asosiy sug'urta polislari**

Polislarining yana bir asosiy turi qolgan umrni sug'urta qildirish polislari hisoblanadi.

Ularning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- sug'urta summasi polis amal qilishi yakun topadigan oldindan kelishib olingan sanada yoki sug'urta qildiruvchining o'limi undan oldinroq ro'y bergan paytda to'lanadi;

- ushbu polisga teng keladigani yo'q – uning qayta xarid qilish summasi yoki joriy qiymati mavjud;

- sug'urta mukofotlari polis amal qiladigan muddat davomida to'lab boriladi.

Qolgan umrni sug'urta qildirish bo'yicha sug'urta mukofotlari umrbod polislari bo'yicha sug'urta mukofotlaridan katta, chunki polisning amal qilish muddati yakunlanadigan sana belgilanishi shuni anglatadiki, da'volarning katta qismi oldinroq bildiriladi va shunday ekan, sug'urta mukofotlari kamroq vaqt davomida to'plab boriladi, sug'urta mukofotlari to'lanadigan muddat qanchalik kichik bo'lsa, ularning miqdori shunchalik katta bo'ladi.

Ko'plab polislarda o'lim holati ro'y berganda yoki polisning amal qilishi yakun topadigan sanada yakuniy bonus to'lanishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu to'lov shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan hollarda to'lanmaydi.

Qolgan umrni sug'urta qildirish daromadsiz polislari

Bu qolgan umrni sug'urta qildirish daromadsiz polislariining eng asosiy shakli bo'lib, unda sug'urta summasi va sug'urta mukofoti stavkalari qat'iy belgilab qo'yilgan bo'ladi.

*Qolgan umrni sug'urta qildirish daromadli polislari.*

Daromadli polislari bo'yicha bonuslar hisoblab chiqish umumiy tamoyili qolgan umrni sug'urta qildirish polislariiga nisbatan ham qo'llanishi mumkin.

Sugʻurta summasi kafolatlangan boʻlib, qoʻshimcha ravishda bonuslar toʻlanadi. Agarda polis muddatning oxiriga qadar amal qiladigan boʻlsa, bonuslar sugʻurta qildiruvchi shartnomaning amal qilish davri davomida oʻladigan hollardan yuqori boʻladi, chunki bonuslar koʻproq vaqt toʻplanib keladi.

Umrbod polislar boʻyicha boʻlgani kabi, be urda ham toʻlov aniq hajmini oldindan aytib boʻlmaydi, chunki uning qachon roʻy berishi maʼlum emas, demak, toʻplangan bonuslar hajmi nomaʼlum.

Toʻlanadigan qoʻshimcha bonuslar tufayli sugʻurta mukofotlari sugʻurta summasi bir xil boʻlgan qolgan umrni sugʻurta qildirish boʻyicha daromadsiz polislardan koʻra yuqori.

Qolgan umrni sugʻurta qildirish daromadli polisleri koʻplab jamgʻarib boriladigan sxemalarda asosiy element hisoblanadi va uy xarid qilish bitimlarida keng foydalaniladi, chunki ular taʼminot taqdim etadi (zayom polisning amal qilishi yakun topadigan sana kelganda yoki sugʻurta qildiruvchi oʻlgan holda qaytariladi), bonuslar esa qoʻshimcha jamgʻarma elementini ifodalaydi.

*Qolgan umrni sugʻurta qildirish arzon polisleri.*

Qolgan umrni sugʻurta qildirish arzon polisleri qolgan umrni sugʻurta qildirish daromadli polisining engillashtirilgan variantidir. Unda qolgan umrni sugʻurta qildirish daromadli polisi bilan sugʻurta summasi kamayib boradigan muddatli sugʻurta jihatlari uygʻunlashadi.

Qolgan umrni sugʻurta qildirish arzon polislarida boʻlgani kabi, ikkita sugʻurta summasi boʻladi. Oʻlim holatida sugʻurta toʻlovi summasi ikkita summadan kattasi sifatida aniqlanadi:

- bonuslar miqdoriga koʻpaytirilgan bazaviy summa;
- oʻlim holatiga kafolatlangan summa.

Polisning amal qilish muddati yakun topadigan sana yetib kelishida toʻlanadigan summa shartnomaning amal qilish davrida hisoblab chiqilgan barcha bonuslar miqdoriga oshirilgan bazaviy summa sifatida aniqlanadi. Bunday polislar uy xarid qilishda ssudani taʼminlashning arzon usuli sifatida paydo boʻlgan, bunda oʻlim holatiga kafolatlangan summa olingan qarz miqdoriga teng qilib belgilangan.

Qolgan umrni sugʻurta qildirishning arzon polislari rivoji sifatida qolgan umrni sugʻurta qildirishning boshlangʻich toʻlovlar kichik va mukofot oʻsib boradigan polislari paydo boʻlgan. Amalda bu asta-syokinlik bilan toʻliq mukofot darajasigacha oʻsib boradigan shartnomaning amal qilish muddati boshida mukofot miqdori kichikligi bilan tavsiflanadigan qolgan umrni sugʻurta qildirishning arzon polisidir.

Qolgan umrni sugʻurta qildirishning «moslashuvchan» polislari. Polislarning ushbu turi qolgan umrni sugʻurta qildirishning anʼanaviy polislari kamchiliklari (polisning amal qilish muddati yakun topadigan sana qayd qilib qoʻyilishi va qaytariladigan summa kichikligi) oʻrnini toʻdiradi va shartnomaning amal qila boshlagan paytdan boshlab oʻn yil oʻtgach istalgan payt hech kanday jarima toʻlamasdan bekor qilinishi mumkin boʻladi. Qaytarib beriladigan summa odatda toʻliq hajmda yoki qisman, polis amal qilish muddati yakun topadigan vaqtdagidan ertaroq vaqtdagi kabi kafolatlanadi.

Polislar odatda qolgan umrni sugʻurta qildirishning daromadli polislari kabi uzoq muddatga, masalan 25 yilga yoki 65 yoshga etishga tuziladi.

#### *Sof qolgan umrni sugʻurta qildirish.*

«Sof» qolgan umrni sugʻurta qildirish polisi hayot boʻyicha hech qanday sugʻurta qoplami taqdim etmaydi. Bu kelishilgan muddatda sugʻurta qildiruvchiga sugʻurta summasi toʻash boʻyicha oddiy shartnoma hisoblanadi, xolos. Agar sugʻurta qildiruvchi polisning amal qilish muddati yakun topgunga qadar oʻladigan boʻlsa, hech qanday toʻlov amalga oshirilmaydi, garchi ayrim kompaniyalar bu holatda sugʻurta muokoftini qaytarib bersada. Bu polslarning kamdan-kam uchraydigan turi hisoblanadi, chunki investitsiyalar uchun kapital kiritishning ushbu usulining oʻrnini bermalol toʻliq bosa oladigan koʻplab yoʻnalishlar mavjud.

#### **11.4. Hayot sugʻurtasi boʻyicha boshqa turdagi sugʻurta polislari**

Yuqorida aytib oʻtilgan shartnomalarning uchta asosiy turidan tashqari, maxsus xususiyatlarga ega boʻlgan va qoʻllanadigan shartnomalar ham ishlab chiqilgan.

*Ulushli polislar*, qolgan umrni sug'urta qildirish polisleri, umrbod polislar yoki muddatli polislar sifatida foydalanilishi mumkin.

*Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha universal polislar* oddiy ulushli umrbod polislar rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Amalda ular mutlaq moslashuvchanlikni ta'minlash uchun turli qo'shimcha xususiyatlar bilan standart ulushli umrbod polislarini ifodalaydi. Asosiy g'oya shundan iboratki, sug'urta qildiruvchi u istagan narsani, u istagan paytda to'laydi va unga yoqqan narsani imkoniyatlar (opsiyalar) ro'yxatidan tanlab oladi. Barcha to'langan mukofotlar tanlab olingan fondga (trastda) ulush xarid qilish uchun foydalaniladi va tanlangan opsiyalar qiymati har oy mos keluvchi ulushlarni sotish yo'li bilan to'lab boriladi.

Opsiyalar ro'yxati odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'lim holati bo'yicha to'lovlar;
- mos keluvchi indekslar, masalan, iste'mol narxlarini indeksini qo'llagan holda o'lim holati bo'yicha to'lovlarni avtomatik qayta hisob-kitob qilish uchun har yillik indeksatsiya;
- sug'urtaga qabul qilish majburiyligi;
- mehnatga layoqatsizlik davrida mukofot to'lashdan ozod etilish;
- muntazam daromad;
- mukofot to'lovlarini, masalan, ishsizlik davrida to'xtatib turish imkoniyati;
- nogironlik bo'yicha to'lovlar;
- kasallik holatida to'lovlar;
- tibbiy xarajatlarni qoplash uchun to'lovlar;
- ko'ngisiz hodisa oqibatidagi o'lim holati bo'yicha to'lovlar;
- polisga boshqa shaxsni qo'shish imkoniyati, masalan, nikoh qurgandan so'ng;
- jiddiy kasalliklar holatidagi to'lovlar.

Opsiyalar birdaniga tanlanishi yoki keyinroq qo'shilishi ham mumkin.

*Shartli tanlanadigan polislar.*

Bu polislar ular bo'yicha to'lovlar kelishib olingan shartlarni bajarish sharti bilan sug'urta qildiruvchining o'lim holati amalga oshiriladigan shartnomalar turini

ifodalaydi. Odatda bunday shartlar quyidagilar bo'lishi mumkin: uchinchi shaxs hayotligida sug'urta qildiruvchining o'limi (kontr-hayot). Masalan, agar er sug'urta qildirgan, xotin esa kontrsug'urta qildiruvchi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, polis bo'yicha to'lov faqatgina er xotiniidan oldin o'lgan hollarda amalga oshiriladi. Sug'urta mukofoti sug'urta qildiruvchi va kontrsug'urta qildiruvchining yoshi, jinsi va salomatligiga bog'liq bo'ladi.

Polislar boshqa kelishib olingan shartlarni qoplash uchun tuzilishi mumkin bo'lib, sug'urta mukofoti polisda belgilangan shartlarni tanlashga bog'liq bo'ladi.

*Qo'shimchalar kiritilgan polislar.*

Hayotni sug'urta qildirish bo'yicha ko'plab kompaniyalar sug'urta qildiruvchining istagi bilan standart polislariga kiritilishi mumkin bo'lgan qo'shimchalardan foydalanadi. Odatda qo'shimchalar faqat umrbod polislar yoki qolgan umrni sug'urta qildirish polislariga taqdim etiladi.

Bu qo'shimchalarning barchasi sug'urta mukofotining ortishiga olib keladi va ularni kiritish imkoniyati bu xizmatlarni taqdim etuvchi sug'urta kompaniyasining andarrayteri tomonidan aniqlanadi. Eng tarqalgan qo'shimchalar quyidagilar hisoblanadi:

- sug'urta mukofoti to'lashdanozod etish;
- sug'urta qildiruvchi jarohat yoki kasallik tufayli o'zining kasbiy majburiyatlari yoki mashg'ulotlarini bajarish layoqatiga ega bo'lmasa, u sug'urta mukofotlari to'lashdan ozod etiladi;
- nogironlik bo'yicha to'lovlar;
- sug'urta summasi xuddi o'lim holatida bo'lgani kabi, nogironlikda ham to'lanadi;
- ko'ngilsiz hodisa bo'yicha ikki karra to'lovlar. Agar sug'urta qildiruvchi ko'ngilsiz hodisa oqibatida halok bo'lsa, o'lim holati bo'yicha sug'urta summasi miqdoridagi qo'shimcha to'lov amalga oshiriladi;
- o'sib boradigan sug'urta qoplami;
- sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoplamini belgilangan vaqtda belgilangan summaga oshirish imkonini beradi;

-jiddiy kasalliklarga qarshi sugʻurta qoplami.

Agar tibbiy tashxis belgilangan kasalliklar mavjud ekanligini koʻrsatsa, yoki vrachlar xulosasiga koʻra polis boʻyicha toʻlov amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda “fond boshqarilishi” degan qarash paydo boʻldi. Bunda boshqaruvchi har bir muddatda mablagʻlarni foydali va kafilli omonatlarga quyilishini hal qiladi. Koʻplab sugʻurta kompaniyalari oʻz mijozlariga qoʻshimcha toʻlov evaziga investitsion sarmoya polislarini bir fondan ikkinchi fondga oʻtkazish imkoniyatlarini taqdim qiladi. Fondlar yunit koʻrsatkichlarini har kun, har hafta, har oy oʻzgartirib turadi. Yunitlarning ikkala narxi moliya nashrlarida chop etiladi.

Masalan: **Financial times** “unit–linked” investitsion polislarinig imkoniyatlari boshqa daromadli polislardan ancha yuqori boʻlib, ammo ularda tavakkalchilik havfi ustunroqdir. Investitsion polislar boʻyicha sugʻurtachi sugʻurta qilingan mablagʻdan yuqori boʻlgan mablagʻni yoki sugʻurta qilgan mablagʻ koʻrsatkichidan ancha past boʻlgan mablagʻni olishi mumkin. Daromad arafasida imzolangan sugʻurta mablagʻi toʻlov mablagʻidan kam boʻlmasligi shart, ammo bonuslarning koʻrsatgichi yuqori boʻlmasligi mumkin.

Oxirgi paytlarda sugʻurta kompaniyalari qoʻshma operatsiyalarni toʻgʻridan-toʻgʻri hamda daromad ishtirokchisi nomli operatsiyalarni amaliyotlarida qoʻllay boshladi. Sugʻurta kompaniyalari sugʻurta qiluvchi mijozlariga yunitlangan yaʼni foyda ishtirokchisi nomli polislarini taqdim qila boshladilar. Bu polislar – yunitlar fondlar bilan bogʻliq boʻlib, sugʻurta qiluvchi kompaniya oʻz mijozlariga yunitlarning narxini mijozlar toʻlab quygan narxdan tushib qolmasligini kafillab berar edi.

Umrboqiy sugʻurta investitsion polisleri ikki xil boʻladi, bir zumli va doimiy daromadli. Birinchi turdagi shartnoma sugʻurtalangan bond deyiladi. Bu investitsion shartnomaning oddiy koʻrinishidagi shaklidir. Bondlar umrbod sugʻurta asosida imzolanib, sugʻurtalanuvchi shaxs bu bondni sugʻurta hodisasi roʻyoga chiqquncha istagan vaqt ushlab turishi mumkin. Daromad tanlangan fondning yunitlarini toʻlash uchun ishlatilishi mumkin. Yunit narxi daromad

kunidagi belgilab quyilgan narxga bog'liq bo'ladi. Polis istagan vaqtda naqd mablag'iga aylantirilishi mumkin. Polisning sotilish narxi yunitlarning sotuv kunidagi narxlariga teng bo'ladi. Sug'urta qiluvchi shaxs shartnoma amal qilish muddatida yangi kirimlarni kiritishi mumkin. Sug'urtachi quygan mablag'larga yunitlar sotib olinib, sug'urtachining polisiga ushbu yunitlar qo'shib quyiladi. Har yili bir qism yunitlarni kirim sifatida olsa bo'ladi. Oxirgi vaqtlarda sug'urta qiluvchi kompaniyalar bondlarni kirita boshladi. Bu bondlar sug'urta qiluvchi shaxslarga dividend yoki renta ko'rinishidagi daromad to'lovidir. Bunday ko'rinishidagi daromad to'lovi har olti oy davomida beriladigan bo'ladi.

Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqtda (sug'urta qiluvchi shaxsning qazo bo'lish holati), sug'urta mablag'i merosxo'rlarga to'lab beriladi. Sug'urta mablag'i yunitlarning narxiga teng bo'ladi. Yunitlar inson yoshiga moslashtirilgan bo'ladi.

Masalan:

- 60 yoshdan yuqori bo'lgan shaxslarga 101% yunitlar narxi to'lanadi;
- 50 yoshi atrofida bo'lgan shaxslarga 120% to'lanadi;
- 30 yoshga kirgan shaxslarga 200% to'lanadi.

Umrbod sug'urta investitsion polislari shartnomada belgilangan mablag'gacha doimiy ravishda yunitlarni yig'ish usuliga asoslangan bo'ladi. Sug'urta qiluvchi shaxs qazo bo'lgan holatida ikki hil mablag' turining eng yuqorisi; shartnoma asosidagi sug'urta mablag'i yoki yunitlarning sotib olingan narxi to'lab beriladi.

Sug'urtalanuvchining foydada ishtirok etmaslik qo'shma sug'urtasi qo'shma sug'urtaning asos shakli bo'lib, qazo holatida yoki shartnoma muddati tugaganidan so'nggina qayd qilingan va kafillangan mablag'lar to'lanadi. Sug'urta mablag'i bir xil yoki turli xil bo'lishi mumkin. Qazo holatidagi to'lovlar, hali hayot holatidan ko'ra ancha yuqori to'lanadi. Sug'urta mablag'lari qazo holatida tezda; shartnomada belgilangan muddat tugab qolib sug'urtalanovchi hali hayot bo'lganida bu holdagi to'lovlar ancha kechiktirib beriladi. Muddat cho'zib turilgan holatda, sug'urtachi faqatgina shartnomada qayd qilingan muddatdan so'ng

quyilgan mablag'ni to'lab beradi. Bu holatda sug'urtalanuvchining qanday holatda; hayot yoki qazo bo'lishi ahamiyatga olinmaydi.

To'lab quyilgan qo'shma sug'urtaning foydasi, sug'urtachi tomonidan shartli ravishda 3 bo'lakga bo'linadi.

*Tavakkalchilik foydasi* belgilangan muddatdan avval qazo bo'lish holatida tuzilgan tavakkalchilik fondi (bo'lish printsipi)

*Omonat foydasi* yig'ish zahirasi uchun mo'ljallangan bo'lib bu shartnomada qayd qilingan muddatdan so'ng hayot bo'lishni nazarda tutadi (kapitalizatsiya printsipi)

*Ish yuritish harajatlari.*

Qoiadaga ko'ra: foyda muddatli yoki tez bo'lishi mumkin. Qo'shma sug'urtaning tez sug'urta shaklini sug'urta deb aytish qiyin. Chunki bu mablag'ning necha foizini kompaniya o'z qo'liga kirita oladi.

Foydada ishtirok etmaslik qo'shma sug'utasining muddatli to'lov xavfi esa aniq bir foiz ko'rsatkichlarini aniqlanishiga olib keladi.

Sug'urtalanuvchining foydada ishtirok etish qo'shma sug'urtasi jamg'arib boriladigan sug'urtaning eng ko'p yoyilgan turidandir. Vafot etish holatida ham shartnomada qayd qilingan muddat o'tib qolganida ham sug'urtalanuvchiga sug'urta mablag'i to'lab beriladi. Bu sug'urtani shartnomada qayd qilingan muddat arafasidagi qo'shilgan bonuslar hamda kafillangan mablag' tashkil qiladi.

Ikkala sug'urta qo'shilmasi – foydada ishtirok etish qo'shma sug'urtasi va tezkor sug'urtaning kamayib boruvchi mablag'i ushbu shartnomani tashkil qiladi. Qazo holatida sug'urtachi ikkala mablag'dan eng yuqori ko'rsatkichisini: asosiy sug'urta mablag'iga bonuslar qo'shilgan mablag'ni yoki qazo holatida kafillangan sug'urta mablag'larini to'laydi. Shartnomada qayd qilingan muddat o'tib qolganida, asosiy sug'urta mablag'i va qo'shilgan bonuslar to'lab beriladi.

Egik hayot qo'shma sug'urtasi sug'urta shartnomasini muddatdan oldin bekor qilish holatini va sotib olishning arzon narxga tushib qolishini oldini olish uchun mo'ljallangan. Katta mablag'ga birorta ham shatnoma imzolanmaydi. O'rtacha sug'urta mablag'iga ega bo'lgan bir necha shartnomalar tuziladi. Ushbu



shartnomalarning yig'ilmasi butun ko'rinishda talab qilingan sug'urta qoploviga barobar bo'ladi. Sug'urtaning foydasi muddat bilan to'lab boriladi.

Imzolatilgan shartnomalarning hammasi uchun foydani to'lay olmasligiga sabab, sotib olingan narx hisobida bir qism polislar yo'q qilinadi ( yoki sug'urta mablag'ini 10 yil muddati o'tganidan so'ng olinadi ); qolgan shartnomalar esa o'z faoliyatini davom ettiradi. Boshqa odatiy sug'urtalardan farqi shuki, egik hayot qo'shma sug'urtasi qayd qilingan muddat poyoniga ega emas.

Ular quyidagicha tuzilgan bo'ladi:

Sug'urtalanuvchi shaxs shartnomani bekor qilib, arzon narx evaziga sug'urta shartnomasini sotib olgandan ko'ra, sug'urtaning foydasini kutib turgani afzaldir.

Sug'urta mablag'ining qolishi, sug'urta foydasining to'lay olmaslik holati – reduktsiyali sug'urta shartnomasi deyiladi. Agarda sug'urta qilgan shaxs navbatdagi foydani shartnomaga kiritmasa, sug'urtachi shartnoma zahirasiida yig'ilgan foyda hisobidan mijozga to'lovni amalga oshiradi. To'lovlar – shartnoma zahirasi bo'shagunicha to'lab boriladi. Reduktsiyali polis – shartnomada qayd qilingan muddat davomida sug'urtaning mablag' qoplovini davom ettirish uchun beriladi. Bu holatda sug'urtachi sug'urta foydasini to'lay olmaydi. Asos sug'urta mablag'i to'lanmagan foyda bilan kamayib boradi. Shartnoma muddati o'z nihoyasiga etganida yoki sug'urtalanuvchi qazo holatida, sug'urta qilingan mablag'ning kamayib qolgan qismi to'lab beriladi. Shu qolgan qismga bonuslar qo'shib borishi mumkin. Sug'urta qiluvchi shaxsga kamayib qolgan sug'urta mablag'ini qo'lga kiritishi yaxshiroq.

Qo'shma investitsion sug'urta polisleri ham umrbod sug'urta polislaridek, faoliyat ko'rsatadi. Bu polisning farqi shuki:

Ikki xil sug'urta qilinadigan xavf : qazo yoki hayotni davom ettirish holati – sug'urtachi tomonidan ikki qismga bo'linadi.

Birinchi va asosiy qism – yunitlarni xarid qilishga sarflanadi.

Ikkinchi va kichikroq qism – qazo holatida, kafillangan mablag'ni qoplash uchun tuziladi.

Shartnoma muddati poyoniga etganida, sugʻurtalanuvchi hali hayot boʻlsa, u holda shartnomada qayd qilingan muddatgacha sotib olingan yunitlar narxi boʻyicha toʻlovlar toʻlab beriladi. Qazo holatida ikkala mablagʻdan eng yuqorisi toʻlanadi: shartnomada qayd qilingan muddatgacha yigʻilgan yunitlar narxi yoki kafillangan sugʻurta mablagʻi toʻlab beriladi. Bu turdagi shartnomalarga oʻrtacha 10 yil muddati beriladi. Shartnoma qayd qilingan muddatdan oldin bekor qilinsa, unda yunitlar sotib olingan kunidagi narx bilan tenglashtiriladi. Shartnomaning ilk yillarida mablagʻlar katta chegirmalar bilan toʻlab boriladi. Bu chegirmalar sugʻurtalanuvchining shartnoma ustama harajatlarini hamda mablagʻni yunit fondlarda joylashtirish uchun sarflanadi.

Oxirgi vaqtlarda chet el sugʻurta bozorlarida turli-tuman sugʻurta segmentlari taqdim etilmoqda. Taqdim etilayotgan sugʻurtalarda, sugʻurtalanuvchi shaxsning tanlash erkinligi hamda ixtiyoriy ravishda oʻzgartirishlar kiritishi kabi yangi turdagi shakllar yaratildi. Buning asosida “universal life” (“universal hayot”) erkin sugʻurta polisi turar edi. Bu sugʻurtaning eng koʻp yoyilgan joyi Buyuk Britaniya va AQSH boʻlib qoldi. Uning ayni shu yerlarda keng yoyilishiga sabab esa, oʻz hayotini sugʻurta qilish mashhur boʻlgan.

Bunday turdagi sugʻurtaning asosiy gʻoyasi, sugʻurtalanuvchi shartnomani tuzayotganida erkin toʻlov rejasini hamda muddat boʻyicha talab qilinayotgan kafillikni erkin tanlash huquqiga ega boʻldi. Talab qilingan sugʻurta kirimlari toʻlanganidan soʻng va talab qilingan oʻzgartirishlardan keyin, sugʻurtachi sugʻurta mablagʻlarini oʻzgartirishi mumkin. Bunday turdagi shartnomalar moliyaviy shartnomalarga yaqinroqdir. Shaxsiy sugʻurtadan koʻra: ular omonat maxsulotlariga oʻxshab, asosiy maqsadi zahira boʻlib turishdir. Bunday turdagi sugʻurta shartnomalarining asosida umrbod investitsion shartnomalar hamda qoʻshma sugʻurtalar asos boʻladi.

Sugʻurtalanuvchi tomonidan toʻlangan sugʻurta puli – sugʻurtalanuvchining omonat hisobiga kelib tushadi. Bu hisob aniq minimal daromad (AQSHda – 4,5%) ga ega. Sugʻurta kompaniyalari har oy “xavf” pullarini omonat hisobiga oʻtkazadilar. Bu holat – qazo holatida pul bilan taʼminlashni kafillab beradi.

Sugʻurtalanuvchi qazo holati uchun sugʻurta mablagʻini oʻzi tanlaydi. Qazo holatida omonat hisobidagi pullar olinadi. Toʻlovlar imkoniyati turlicha: sugʻuratlanuvchi maʼlum vaqtgacha tovon pulini kiritmasligi mumkin. Bu esa shartnomaning bekor qilinishiga sabab boʻla olmaydi, chunki omonat hisobida qolgan qoldigʻ mablagʻ sugʻurta hisobini taʼminlashga imkoniyat beradi. Sugʻurtalanuvchi hayot boʻlganida uning mablagʻi, omonat hisobidagi toʻda boʻlgan mablagʻi bilan aniqlab beriladi. Koʻp hollarda sugʻurta kompaniyalari yunitlangan fondlarni ishlatadilar.

“Universal hayot” polislarini esa “unit-linked” turdagi polislar nomi ostida taqdim etadilar.

Shartnoma faoliyati davomida sugʻurtalanuvchi istagan vaqt polisga qoʻshimcha kafilliklar (optionslar) kiritishi yoki omonat hisobidan mablagʻni olish, qoʻshimcha mablagʻ kiritish yoki qazo holatidagi sugʻurta mablagʻini oʻzgartirish kabi kafilliklarni kiritishi mumkin.

Asosiy toʻlovdan tashqari bunday polislarida quyidagi kafilliklar taqdim etiladi:

- doimiy foyda toʻlovlari (rentalar);
- doimiy ravishda sogʻliqni yoʻqotish hollaridagi yordam pullari;
- nogironlik holatida sugʻurta pullari;
- kasalxonaga tushib qolish holatidagi yordam pullari;
- baxtsiz hodisa sodir boʻlganida yordam pullari;
- ogʻir kasallikni diagnostikasini qoplash holatiga;

Bunday turdagi sugʻurta shartnomalari moliyaviy segment bilan birgalikda raqobat qilib yuradi. Aholining shaxsiy omonatlarini yuqori rentabilligini kafolatlaydi. Buning asosiy sababi lgotali soliq solinishidir.

### **Nazorat savollari:**

1. Sugʻurta polislarini qanday guruhlariga ajratish mumkin?
2. Qanday sugʻurta polisleri investitsion shartnomalarga oʻxshab ketadi?
3. Qolgan umrni sugʻurta qildirish polislarini tavsiflab bering?

4. Umrbod sugʻurta polislari qanday jihatlari bilan ajralib turadi?
5. Daromadsiz umrbod polislari uchun qanday xususiyatlar xos?
6. Qolgan umrni sugʻurta qildirishning daromadli polislari qancha muddatga beriladi?
7. “Universal hayot” polislari qanday polislari guruhiga kiradi?

## **12-BOB. HAYOT SUG‘URTASI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI SUG‘URTA KOMPANIYASINING INVESTITSION FAOLIYATI**

### **12.1. Sug‘urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati. Inflyasiya va uning investitsion faoliyatga ta’siri**

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish har bir tarmoq iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bog‘liq bo‘ladi. Investitsiyalarni bozor iqtisodiyotiga moslashtirish investitsion siyosatni ham tubdan tubdan o‘zgartirishni talab qilmoqda. Shu bilan birga investitsion siyosatni amalga oshirish chog‘ida bozor munosabatlariga mos dastaklardan foydalanishni, ya’ni investitsion jarayon ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilashni, mamlakatda investorlar uchun to‘laqonli raqobatni ta’minlashni, moddiy va intellektual boyliklarni boshqarishda batamom erkin harakat va shunga tenglashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishni taqoza etmoqda. Investitsiyalar yuqori likvidli instrumentlarga bo‘lgan qurilmalar bilan balanslangan bo‘lsa, unda qurilmalarning barchasi (portfel) hayotni sug‘urtalash bo‘yicha kompaniyalarning investitsion siyosatini optimallashtiradi<sup>8</sup>. Bu borada turli iqtisodchi olim va amaliyotchilar o‘zlarining ilmiy nuqtai nazaridan kelib chiqib, quyidagicha ta’riflar bergan. Masalan prefessor E.V.Mixaylovning fikricha “investitsiya bu-sub’ekt ixtiyoridagi barcha moliyaviy, moddiy va boshqa boyliklarni kelajakda iqtisodiy samara olish uchun biror ob’ektga sarflashdir». Bu o‘rinda investitsiyaning mohiyati bilan mazmunini bozor iqtisodiyotiga moslashtirib ochib berishga harakat qilingan. Boshqa bir iqtisodchi olimning investitsiyaga tarif berishicha, “tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob’ektlariga foyda, yaratiladigan yoki ijtimoiy samara beradigan mulkiy yoki intellektual boyliklarning hamma turlari investitsiyalardir”<sup>9</sup> deb o‘zining fikr va mulohazalarini bildirib o‘tganlar.

---

<sup>8</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.

<sup>9</sup> Бачоров В.В. «Инвестиции» изд. «Питер» 2002 г.

“Investitsiya” atamasi lotin tilidagi “Invest” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “qoʻyish”, “mablagʻni safarbar etish” maʼnosini bildiradi. Aksariyat hollarda “Investitsiya” tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obʻektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy neʼmatlar hamda ularga doir huquqlar tarzida tariflanadi<sup>10</sup>.

Mamlakat iqtisodiyotida investitsiyalarning ahamiyati toʻgʻrisida fikr yuritadigan boʻlsak, bu oʻrinda “Investitsiya” tushunchasining moliyaviy, mulkiy va intellektual qadriyatlarni takror ishlab chiqarishning inikosi boʻlmish dastlabki va asosiy tushuncha boʻlib maydonga chiqishini unutmaslik kerak.

Shuningdek iqtisodiyotimizda investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilingan va oʻtgan vaqt ichida ular ancha takomillashtirildi. Investitsiya faoliyati toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilgan qonunda koʻrsatilishicha, investitsiya bu - iqtisodiy samara (foйда, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablagʻlari, banklarga qoʻyilgan omonatlar, paylar, qimmatli qogʻozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Investitsiya faoliyati haqidagi qonunning 2-moddasida asosiy tushunchalar quyidagicha qoʻllaniladi:

- investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat obʻektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy neʼmatlar hamda ularga doir huquqlar;

- investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati subʻektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bogʻliq harakatlari majmui;

- investor - oʻz mablagʻlarini, qarzga olingan va jalb etilgan mablagʻlarni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obʻektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subʻekti;

- investitsion faoliyat ishtirokchisi - investor buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsion faoliyatni taʼminlovchi investitsiya faoliyati subʻekti;

---

<sup>10</sup> Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. Оʻquv qoʻllanma. -Т.: Молия нашриёти. 2003 й.

- reinvestitsiyalar - investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish.

Investitsiya faoliyati haqidagi qonunning 3-moddasida investitsiyalarning belgilanish ob'ekti bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi.

Kapital investitsiyalarga asosiy fondlarni yaratish va qayta ishlab chiqarish shu bilan bir qatorda moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'yiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalarga inson imkoniyatlarini rivojlantirish, shuningdek moddiy bo'lmagan boyliklarni rivojlantirishga qo'yiladigan investitsiyalar kiradi.

Ushbu iqtisodchi olimlar tomonidan hamda qonunchilik hujjatlarida keltirib o'tilgan ta'riflar investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida to'laligicha faoliyat ko'rsatishini aniq tasdiqlaydi. Jumladan unda, birinchidan, investitsiyaning o'ziga va investitsiya faoliyatining ob'ektlariga keng ta'rif berilgan, ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan. Agar investor daromad olmaydigan bo'lsa, investitsion jarayonni amalga oshirishning ham mantiqi qolmaydi. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlaridan kelib chiqib, borilgan ta'rifning o'zidayoq investitsion jarayonning hajmi, asosiy bosqichlar, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilma mablag'lar (sarf-xarajatlar), samara(daromad, foyda) aniq va ravshan ko'rsatib o'tilgan. Xuddi shuningdek yondashuv, investitsion faoliyatning bozor munosabatlariga o'tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontal usullaridan bir xilda foydalanishni ta'minlab beradi. Shuningdek investitsiyalarning bir qancha turlari bo'lib, ular iqtisodiyotda tutgan o'rnini bilan ajralib turadi. Masalan, moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda ularga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning xillari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid xaq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «nou-xau», kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Iqtisodi rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan ma'lumki, investitsion kompleks bir necha elementlardan iborat, ularning asosiylari quyidagilardir:

- investitsiya siyosati;
- investitsiya iqlimi;
- investitsiya faoliyati;
- kapital qo'yilmalar;
- investitsiya bosqichlari va boshqalar.

Ushbu elementlarning har biri bozor iqtisodiyoti sharoitlarida o'ziga xos yo'nalishlarga egadir. Shu bilan birga iqtisodiyotning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalarning kapital mulkka aylanish jarayoni shunchalik tezroq o'sadi. Sug'urta kompaniyalarini investitsiya faoliyati haqida gap yuritishimizdan oldin biz kompaniyaning moliyaviy mablag'larini aylanishiga e'tibor bersak maqsadga muvofiq bo'ladi (2-rasmga qarang).


Sug'urta kompaniyasini dastlabki moliya manbai bo'lib, nizom jamg'armasi hisoblanadi. Qonunchilik bo'yicha litsenziya olgunga qadar kompaniyaning 90 foiz nizom jamg'armasi pul ko'rinishida shakllangan bo'lishi talab etiladi<sup>11</sup>. Keyingi yillarda

---

<sup>11</sup> «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunning 12-moddasi, 2002 yil 5 aprel.



to'lanadigan sug'urta muhofotlari, qayta sug'urta operatsiyalari bo'yicha to'lovlar va investitsiya faoliyatidan olgan daromadlaridan shakllanib bormoqda.



**2-rasm. Sug'urta kompaniyasining faoliyati sxemasi<sup>12</sup>**

Oxirgi yillar mobaynida hukumatimiz tomonidan sug'urta sahasini rivojlantirishga kata e'tibor berilib, sug'urta bozorini bosqichma-bosqich isloh qilish tamoyili amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning mustaqil rivojlanishi davrida sug'urtalashning huquqiy bazasiga va sug'urta sohasida bozor tuzilmasini rivojlantirishga poydevor qo'yildi. Keyingi yillarda mamlakat sug'urta xizmatlari bozorida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni erkinlashtirish doirasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002 yil 5 apreldagi VIII-sessiyasida "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 6-moddasiga muvofiq, sug'urtalovchilar sug'urta

<sup>12</sup> Кенжаев И. Суғурта компанияларининг инвестицион фаолияти масалалари // Молия илмий журнали, 2013 йил №2-сон, 62 б.

faoliyatini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlanishi belgilandi<sup>13</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirilishi investitsion faoliyatni jadallashtirishga, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishga, eksport salohiyatini yanada kengaytirishga va eksport o‘shishiga ko‘maklashishga qaratilgan hamda institutsional o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Sug‘urta bozori rivojlanishining zamonaviy bosqichi sug‘urta biznesi xalqaro amaliyoti talablariga javob beruvchi sug‘urta xizmatlarining keng ko‘lami bilan taqdim etilgan sug‘urta xizmatlari tizimini rivojlantirishning tabiiy talabini belgilab berdi. O‘zbekistonda sug‘urta bozorida ushbu xizmatlarni olib borish barcha turdagi tadbirkorlik faoliyati sub’ektlarining va haolining keng qatlamlari manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Sug‘urta kompaniyalari asosiy faoliyati bilan bir qatorda investsiya faoliyatini ham amalga oshirish imkoniyatiga egadir. Odatda, sug‘urta kompaniyalarining sug‘urtaviy xizmat ko‘rsatish o‘ziga xos xususiyatga ega ya‘ni, mijoz dastlab sug‘urtalovchiga sug‘urta badalini shartnoma tuzilishi bilan to‘laydi. Sug‘urta shartnomasi muddatining tugashi xizmat to‘liq ko‘rsatilganligini bildiradi. Demak, sug‘urta kompaniyalarida moliya resurslarining harakati xususiyatlari shunga olib boradiki, sug‘urta kompaniyalari ixtiyorida shartnomani amal qilish mobaynida qo‘shimcha daromad olish maqsadida investitsiyalash mumkin bo‘lgan vaqtinchalik majburiyatdan holi bo‘lgan katta miqdorda vaqtincha bo‘sh mablag‘lar to‘planadi. Sug‘urtalovchilar bu mablag‘larni qo‘shimcha daromad olish maqsadida turli ob’ektlarga investitsiya qilishlari mumkin.

Sug‘urta tashkilotlari ixtiyorida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni to‘planishi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Chunki sug‘urta kompaniyalar tomonidan moliya resurslarining to‘planishi sug‘urtani faol investitsion siyosat yo‘li bilan iqtisodiyotning asosiy omiliga aylantiradi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, sug‘urtalovchilar turli polis egalaridan

---

<sup>13</sup> “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasi, 2002 yil 5 aprel.

olingan passiv pul mablag'larini moliya bozorida harakat qiluvchi aktiv kapitaliga aylantirishadi.

Sug'urta kompaniyasining investitsion imkoniyatlarini quyidagi omillar belgilaydi:

- yig'iladigan sug'urta mukofotlari hajmi;
- sug'urta portfeli hajmi;
- amalga oshirilayotgan sug'urta xizmatining foydaliligi yoki zararliligi;
- sug'urta rezervlarini shakllantirishga davlat tomonidan qo'yiladigan talablar;
- tuzilgan sug'urta shartnomalari muddati;
- o'zlik mablag'lari hajmi.

Sug'urta kompaniyasining investitsion imkoniyatlari taxminan shunday deyarli shakllanib boradi. Investitsion imkoniyat asosiy qismi «O'zlik mablag'lar»ga to'g'ri keladi. Sug'urta rezervi esa domiy ravishda sug'urta qoplamalari to'lanishiga qarab o'zgarib turadi. Sug'urta kompaniyasining investitsion portfeli tizimi, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashi lozim va u odatda sug'urta nazorati me'yorlari bilan belgilanadi. Unda sug'urta zahiralarning vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini joylashtirish tartibi belgilanadi.

Inflyasiya termini lotinchadan inflation – shishish ma'nosidan olingan bo'lib, pul qiymatining pasayishini bildiradi, ya'ni pul qiymatining pasayishi natijasida bir xil summadagi pul massasiga ma'lum oldingi davrga nisbatan kam tovar va xizmatlarni sotib olinishi yuz beradi. Inflyasiya yuz berayotganligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan biri narx-navoning oshishidir. Yuqori darajadagi inflyasiya butun mamlakat iqtisodiyotiga zarar keltirish bilan birga, o'z o'rnida hayot sug'urtasiga hamda investitsiyalarning daromadliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Dunyo mamlakatlari moliyasi tarixiga e'tibor bergan holda aytish mumkinki, inflyasiya doimiy o'sish xususiyatiga ega, shundan kelib chiqqan holda manbalarda inflyasiyani o'suvchi xususiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Ammo buni inkor etuvchi holatlarning ham bo'lganligini manbalarga asoslangan holda

aytish mumkin. Masalan, AQSH mamlakati iqtisodiyoti tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, 1770 yildan 1920 yilga qadar inflyasiya jarayonida o'sish yuz bermagan, 1920 yilda 1970 yilga qadar kichik hajmdagi inflyasiya, ya'ni 20 foizlik inflyasiya yuz berganligini ko'rish mumkin. 1810 yildan 1850 yilgacha va 1870 yildan 1890 yilgacha bo'lgan davrlarda hattoki deflyasiya jarayonlari yuz berganligini ko'rish mumkin<sup>14</sup>. Angliya tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu mamlakatda 1900 yildan 1940 yilgacha inflyasiyada o'sish deyarli bo'lmagan, 1940 yildan 1980 yilga qadar kichik foizda inflyasiya yuz bergan va 1980 yildan 2000 yillar oralig'ida inflyasiya darajasining keskin oshib ketganligini ko'rish mumkin.<sup>15</sup> Ushbu ikki holatdan xulosa qilgan holda aytish mumkinki, dunyo miqyosida sezilarli darajadagi inflyasiya jarayonlari 1970 yillardan keyin yuz berib boshlagan.

Inflyasiyaning asosiy sababi – muomaladagi pul massasining ortib ketishidir. Muomaladagi pul massasi ko'paygani holda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi oshmasa o'z-o'zidan narxlar oshadi. Muomaladagi pul massasining oshishiga ba'zi hollarda haqiqiy bo'lmagan yasama pullarning noqonuniy guruhlar tomonidan (bunday guruhlar pul ishlab chiqaruvchi rasmiy korxonalarda ham faoliyat ko'rsatishi mumkin) muomalaga chiqarilishi ham sabab bo'lishi mumkin.

Kuchli yoki o'rtacha inflyasiya jarayonlari ketayotgan mamlakatda hayot sug'urtasi xizmatlarini sotib oluvchilar soni kamayib ketadi, buning sababi hayot sug'urtasi xizmatlari asosan uzoq muddatli bo'lib, ushbu davr davomida sug'urtalanuvchi tomonidan to'lab borilgan pul mablag'larining kuchli qadrsizlanishi yuz beradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davrlarda bir tuzumdan boshqa tuzumga o'tilishi, o'tish davrida ma'lum muddat iqtisodiyotning izdan chiqishi sezilarli darajadagi inflyasiyaning yuz berishiga olib keldi. Bu esa o'z o'rnida hayot sug'urtasi xizmatlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi va ma'lum muddat davomida hayot sug'urtasi xizmatlarini ko'rsatish deyarli to'xtab qoldi.

---

<sup>14</sup> [www.measuringworth.com](http://www.measuringworth.com)

<sup>15</sup> [www.measuringworth.com](http://www.measuringworth.com)

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanish pallasiga kirgan bugungi kunda hayot sug'urtasi xizmatlari hajmi ham yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda va ushbu xizmatni ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari soni ham ko'payib bormoqda.

## **12.2. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari**

Investitsiya siyosatini amalga oshirishda bozor munosabatlarini mos dastaklardan foydalanish, ya'ni investitsion jarayon qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish, mamlakatda investorlar uchun to'laqonli raqobatni ta'minlash, moddiy va aqliy boyliklarni boshqarishda batamom erkin harakat va shunga tenglashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Jumladan 1993 yilning 6 maydagi qabul qilingan "Sug'urta to'g'risida"gi qonunning 10 - moddasi quyidagicha ko'rsatib o'tilgan edi - "Sugurtalovchilarda qiymati to'langan ustav kapitalining va sug'urta zahiralarning mavjud bo'lishi, shuningde qayta sug'urta qilish tizimi sug'urtalovchilar moliyaviy barqarorligining negizi hisoblanadi". Ushbu qonunning 11-moddasida esa «Sug'urta tashkilotlari o'z moliyaviy ahvollarini barqaror saqlab turish maqsadida investitsiyaga berishga yoi sug'urta zahiralari va o'zga mablag'lardan boshqa yol bilan foydalanishga haqlidir. Tijorat faoliyatini qo'shma va boshqa xil ishlab chiqarish hamda tijorat tuzilmalarini tashkil qilishda qatnashish yo'li bilan ham amalga oshirish mumkin" deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida investitsiya faoliyati hamda investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish tartiblari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qonunning 4-moddasida investitsiyalarni amalga oshirish shakllari haqida to'xtalib o'tilgan, ya'ni investorlar investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

- yuridik shaxs tuzish yoi ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, jumladan mol-mulkni yoki aksiyalarni olish;

- qimmatli qog'ozlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

- konsessiyalari, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalarni olish;

- mulk huquqini, shu jumladan ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob'ektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish.

Investorlar investitsiyalarni qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin. Investor investitsiyalash maqsadi, yo'nalishi, turi va hajmini mustaqil ravishda belgilaydi, buni amalga oshirish uchun shartnoma asosida, qoida tariqasida, tanlov savdosini o'tkazish yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslarni investitsiya faoliyati ishtirokchilari sifatida jalb etadi.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investor, o'ziga zarur bo'lgan mol-mulkni yuridik va jismoniy shaxslardan o'zaro kelishuv asosida belgilanadigan shartlarda hajmi va nomenlaturasini cheklamagan tarzda olishga haqli.

Shu bilan bir qatorda investor qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan, «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunning 14-moddasida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi belgilangan:

- investitsiya faoliyatining qonunchili negizi takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar va soliq solish ob'ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;
- asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;
- normalar, qoidalar va standartlarni belgilash;
- monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash;
- kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;
- erga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;

- investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringini yuritish;
- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi 68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Nizomda sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatining ob'ektlari quyidagicha etib belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;
- xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlari;
- bank sertifikatlari (depozit sertifikatlari);
- kredit tashkilotlariga qo'yilgan omonatlar (depozitlar);
- ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar;
- yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi;
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan qimmatli qog'ozlar bozorida savdoni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega bo'lgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan hamda qimmatli qog'ozlar bozorida muomalaga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar.

Mazkur Nizomga ko'ra sug'urtalovchi sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etishi kerak:

- O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom" bilan belgilangan sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid talablarga va O'zbekiston

Respublikasi moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini to'g'risidagi nizom" bilan belgilangan sug'urta zahiralarini joylashtirish tartibiga oid talablarga rioya qilish;

- moliyaviy, texnik va axborot resurslari mavjudligini ta'minlash;

- mablag'larni investitsiya qilish maqsadga muvofiqligi haqida mas'ul shaxsning yozma xulosalarini olish;

- mas'ul shaxsning ushbu Nizom bilan belgilangan malakaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziririning 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida»gi Nizomda sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilar aktivlarini joylashtirishga oid talablar belgilangan. Unga ko'ra:

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalariga joylashtirgan aktivlarining umumiy summasi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitalining 50 foizi miqdori;

- sug'urtalovchining va qayta sug'urtalovchining har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalining 30 foizidan oshmasligi shart, (sug'urta faoliyati, shuningdek sug'urta faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshiradigan sho'ba korxonalar bundan mustasno);

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlari ko'chmas mulk ob'ektlariga joylashtirilganda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 50 foizidan ortig'ini bitta yer uchastkasi yoki ko'chmas mulkning boshqa ob'ektiga yoxud bitta ob'ekt sifatida ko'rilishi mumkin bo'lgan yer uchastkalari va ko'chmas mulk ob'ektlari majmuiga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi;

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini bank omonatlariga (depozitlariga) joylashtirishda, bitta tijorat bankiga joylashtirilgan



omonat sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 40 foizidan oshmasligi shart.

- sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini kredit tashkilotlarida (tijorat banklaridan tashqari) omonatlarga (depozitlarga) joylashtirishda, omonatlarning (depozitlarning) umumiy summasi sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 10 foizidan oshmasligi shart.

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini bitta yuridik shaxsning ustav kapitaliga joylashtirish yoki bitta yuridik shaxsda ishtirok etish bo'yicha boshqa huquqlari, agar qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 30 foizidan oshmasligi shart<sup>16</sup>.

Shu bilan birga sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini quyidagi yo'llar bilan joylashtirish taqiqlanadi:

- intellektual mulkka qo'yilmalar (dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, adabiyot, firma nomlari va tovar belgilarini xarid qilish bundan mustasno);

- mazkur Nizomda nazarda tutilgan hollardan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarz shartnomasini tuzish (moliyaviy yordam berish).

Shu bilan bir qatorda sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish tartibi va muddatlari belgilangan:

- sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) to'lov qobiliyati normativlari hisob-kitobini va sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorak, chorak o'tgandan keyingi o'ying 25 sanasigacha Davsug'urtanazoratga taqdim etishadi;

- umumiy sug'urta sohasida yoki faqat qayta sug'urta qilish faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchining to'lov qobiliyati marjasining yetarliligi

---

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom.

normativi hisob-kitobi mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq keltirilgan shakl bo'yicha taqdim etiladi;

- hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan sug'urtalovchining to'lov qobiliyati marjasining yetarlliligi normativi hisob-kitobi mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq keltirilgan shakl bo'yicha taqdim etiladi.

Shuningdek to'lov qobiliyati normativlariga va sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek, qayta sug'urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilmaslik holatlarida<sup>17</sup>:

- hisobot davridagi (chorak, yarim yil, 9 oy, 1 yil) faoliyat yakunlari bo'yicha to'lov qobiliyati marjasining yetarlliligi normativi 1 dan 0,5 gacha kamaygan taqdirda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) kamchilik aniqlangan sanadan boshlab o'n kun ichida moliyaviy ahvolni sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqadi va Davsug'urtanazoratga kelishish uchun taqdim etadi;

- chora-tadbirlar majmuasi kamchilik aniqlangan sanadan boshlab olti oydan ko'p bo'lmagan muddat uchun ishlab chiqiladi va moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish tadbirlarini, muddati va ushbu tadbirdan kutilayotgan natijalari ko'rsatilgan holda, o'z ichiga olishi lozim;

- chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishda, sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) moliyaviy ahvolini eng qisqa muddatlarda sog'lomlashtirishga olib keluvchi chora-tadbirlar ustuvor, deb qaralishi lozim;

- chora-tadbirlar majmuasida ustav kapitali miqdorining o'zgarishi, qayta sug'urta qilish operatsiyalarining kengaytirilishi, tarif siyosatining o'zgartirilishi, debitor va kreditor qarzlarning qisqartirilishi, aktivlar tuzilmasining o'zgarishi, shuningdek to'lov qobiliyatini saqlab turuvchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa usullarning qo'llanilishi ham nazarda tutilishi mumkin;

---

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom.

- zarur hollarda, Davsug‘urtanazorat sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) vujudga kelgan holatning sabablarini o‘rganish va sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishga ko‘maklashish uchun o‘zining vakilini yuborish huquqiga ega;

- sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) rahbari tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuasi Davsug‘urtanazoratga ikki nusxada taqdim etiladi. Agar chora-tadbirlar majmuasida ustav kapitalini ta’sischi (aktsiyadorlar) mablag‘lari hisobidan o‘zgartirish nazarda tutilgan bo‘lsa, chora-tadbirlar majmuasi ta’sischi bilan kelishilgan bo‘lishi kerak;

- taqdim etilgan chora-tadbirlar majmuasi va hisobotlarning tahlili asosida Davsug‘urtanazorat sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) moliyaviy ahvolni yaxshilash bo‘yicha maslahatlar beradi, shuningdek chora-tadbirlar majmuasida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

- hisobot davridagi (chorak, yarim yil, 9 oy, 1 yil) faoliyat yakunlari bo‘yicha to‘lov qobiliyati marjasining yetarliligi normativi 0,5 dan kamaygan taqdirda, sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) litsenziyasi(lari)ning amal qilishi to‘xtatib turiladi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi<sup>18</sup>;

- sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha majburiyatlarining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori yoki majburiyatlari jaming yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdori normativlari, hamda sug‘urtalovchilarning (qayta sug‘urtalovchilarning) aktivlarini joylashtirishga oid, shuningdek qayta sug‘urta qilish operatsiyalariga oid talablarga rioya qilinmagan taqdirda, Davsug‘urtanazorat sug‘urtalovchiga (qayta sug‘urtalovchiga) yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni, ammo sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) ko‘rsatmani olgan sanadan boshlab bir oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda bartaraf etishi to‘g‘risida ko‘rsatma beradi;

---

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risida”gi Nizom.

- kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilgandan so'ng uch kun ichida, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) Davsug'urtanazoratga tegishli hisob-kitoblar va kamchiliklarni bartaraf etilganligi to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi shart;

- sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan mazkur Nizomda belgilangan normativ va talablarga rioya qilinmagan, moliyaviy ahvolni sog'lomlashtirish bo'yicha choralar ko'rilmagan, sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish chora-tadbirlar belgilangan muddatda erishilmagan taqdirda, belgilangan muddatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi Davsug'urtanazorat ko'rsatmasini bajarmagan taqdirda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) litsenziyasining amal qilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatiladi.

### **12.3. Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining xorij tajribasi**

Rivojlangan mamlakatlarning investitsiya bozorlarida sug'urta kompaniyalarining olgan daromadlari ayrim sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga kelgan zararlarni qoplash imkoniyatini bermoqda. Shu nuqtai nazardan sug'urta tashkiloti investitsiya faoliyatini samarali olib borishi uning daromad manbalari tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek sug'urtalovchi sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishi va investitsiya joylashtiriluvidan tashqari boshqa faoliyatdan ham daromad olishi mumkin<sup>19</sup>.

Bunday daromadning manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- depo mukofotlar hisobiga o'tkazilgan foiz summalar;
- regress tartibida olingan summalar;
- asosiy fondlar, moddiy boyliklar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda;
- ijarachilik faoliyatidan olingan daromadlar;

---

<sup>19</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.

- sug'urta zahiralarining qaytim summalari;
- o'qitish, maslahat ishlarini olib borish bo'yicha undirilgan to'lovlar hisoblanadi.

Sug'urtalovchining sug'urta xizmatlarini sotuvidan tashqari olgan daromadlari asosan o'z filiallariga ish qog'ozlarini (hisobot blanklari va shu kabilarni) tayyorlab berish, ularning yangi «maxsulot»ini reklama qilish kabilar hisobiga olinadi. Ayrim hollarda ular ijara munosabatlari orqali ham daromadlarini shakllantiradi.

Sug'urtalovchilar tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlar, ularning jamg'arma hajmini oshiradi. Shu bilan birga ularning biznesni yuritish bilan bog'liq xarajatlar, da'vo va aksiyador dividendlariga sarflangan to'lovlar jamg'arma hajmini kamaytiradi. Sug'urtalovchi ko'p yil davomida faoliyat ko'rsatish uchun jamg'armani yildan-yilga mustahkamlab borishi zarur<sup>20</sup>. Shu bilan birga kompaniya menejerlari bu mablag'larni bank depozitida ma'lum foiz olish maqsadida ushlab turishadi. Agar menejerlar jamg'arma mablag'larini bank kabi turli ob'ektlarga investitsiya qilsalar, ular katta daromad olishlari mumkin. Bank foiz to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan mijozga berishi ham mumkin. Mijozdan olingan pul mablag'lari omonatchi to'lovini va bank xarajatlarini qoplashi lozim. Shuningdek sug'urta jamg'armaning menejerlari bevosita qar berishi mumkin. Sug'urtalovchilar bank bo'lmaganligi tufayli ular bu ishni aksiyalar sotib olish orqali amalga oshiradi.

Sug'urtalovchilar o'zlari mas'ul bo'lgan jamg'armalar mablag'larini boshqa usul bilan ham joylashtiradilar. Masalan ijaraga berish va ob'ektlarni qurish, shuningdek turli moliyaviy instrumentlarni ishlatish usullari orqali amalga oshiradilar.

1979 yildan boshlab, rivojlangan mamlakatlarda yangi tashkil etilgan sug'urta kompaniyalarga bir vaqtning o'zida umumiy sug'urtalash va hayot sug'urtasi bilan shug'ullanish taqiq etilganligi to'g'risida qonuni harakatga tushishi bilanoq, ko'p tarmoqli sug'urta kompaniyalar faoliyatining ikki turini alohida

---

<sup>20</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.

alohida olib bordi. Chunki mazkur sug'urta jamg'armalar mohiyatan bir-biridan farqlanadi. Hayot sug'urtasi bilan bog'liq mablag'lar uzoq vaqt davomida yig'iladi. Agar jamiyat barqaror bo'lib jamg'arma oqilona boshqarilsa, unda jamg'armaning faqat oz qismi to'lovlarga sarflanadi. Shunday qilib hayot sug'urtasi jamg'armasining boshqaruvi uzoq muddatli xususiyatiga ega. Demak uning mablag'larini qisqa vaqt ichida foyda keltirmaydigan, masalan, aksiyalarga, ko'chmas mulkka va boshqa yo'nalishlarga jalb qilish mumkin (bunday holatda mablag'lar besh yigirma besh yillar davomida kapital o'sishini va yaxshi daromad kelishini ta'minlaydi). Agar bunday investitsiyalar yuqori likvidli instrumentlarga bo'lgan qurilmalar bilan balanslangan bo'lsa, unda qurilmalarning barchasi (portfel) hayotni sug'urtalash bo'yicha kompaniyalarning investitsion siyosatini optimallashtiradi<sup>21</sup>.

Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bo'lgan Buyuk Britaniyada ancha taraqqiy etgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Buyuk Britaniyada faoliyat ko'rsatuvchi barcha sug'urta tashkilotlari sug'urtaning qaysi tarmog'ida faoliyat ko'rsatishiga qarab aktiv va majburiyatlar bo'yicha alohida hisob-kitob ishlarini yuritishadi. Sug'urtaning bu tarmoqlaridah faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlarining bo'sh mablag'larini investitsiyaga yo'naltirishda alohida talablar qo'yilgan. Chunki, hayot sug'urtasi odatda uzoq muddatli bulib, unda sug'urta zahiralarini uzoq muddatli investitsiya ob'ektlariga joylashtirish mumkin. Buyuk Britaniyadagi har bir sug'urta tashkiloti o'zining investitsiya dasturlariga ega. Moliyaviy bozorning rivojlanishi natijasida sug'urta tashkilotlarining investitsion siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, hozirgi paytda Buyuk Britaniya sug'urtalovchilari o'z investitsion faoliyatlarini amalga oshirishda o'tgan asrning 40 yillarini oxirida London aktuariylar instituti tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga asoslanib olib boradilar.

---

<sup>21</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.

Buyuk Britaniyada uzoq muddatli hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar quyidagi tamoyillarga rioya etishlari shart:

- investitsiya faoliyatining maqsadli sarflangan kapitalni saqlanishini kafolatlagan holda yuqori darajada daromad olishdan iborat bo'lishi;

- investitsiya mablag'lari turli-tuman ob'ektlarga joylashtirilishi va bunda iqtisodiy va siyosiy omillarning salbiy ta'sirini mumkin bo'lgan darajada kamaytirishni hisobga olish;

- sug'urta tashkiloti elgusida iqtisodiyotda va siyosatda ehtimol tutilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'z investitsiya dasturlarini ishlab chiqishi;

- sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati istiqbolli, iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatidagi asosiy tamoyillaridan biri investitsiya mablag'larining likvidligini ta'minlashdir.

Investitsiyalar bo'yicha sug'urta kompaniyalarining menejerlari doimo yuqori daromad olishdan manfaatdor bo'lganligi tufayli yo'naltirish ko'zda tutilgan investitsiyalar ishonchlilik nuqtai nazarda ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb biladilar.

Umuman olganda hayot sug'urtasi jamg'armalari investitsiyalarning quyidagi holatlarini qayd etish mumkin<sup>22</sup>:

- shartnomalar uzoq muddatli bo'lishi lozim: qo'yilgan xatolar sug'urtalanganlarga zarar keltiradi. shuning uchun sug'urta mukofotlarining tushishi barqaror va doimiy bo'lishi lozim;

- xarajatlar ularning miqdori va vaqt doirasida taksimlanishiga nisbatan asosli va sinchkovlik bilan baholanishi lozim; ular favkulotda kerak bo'lganda jamg'armalarga murojaat etish xususiyatidan holi bo'lishi lozim;

- inqiroziy risk ehtimolligi minimallashtirilishi lozim;

- sug'urta mukofotlari polis harakati davomida olingan foydani hisobga oladi. Hayot sug'urtalash jamg'armasi o'zining to'lovligini o'z investitsiyalari va sug'urta kompaniyalaridan tushgan mablag'lar hisobidan qoplaydi. Shuning uchun

---

<sup>22</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.

ishlab topilgan mablag' sug'urta mukofotlarini hisoblashda nazarda tutilgan summaga to'g'ri kelishi lozim;

- investsion siyosat andarrayting bo'yicha faoliyat kabi muhimdir. Sug'urtalanuvchilar manfaatida boshqariladigan hayot sug'urtasining katta miqdordagi zahiralari umumiy sug'urtalash kompaniyalarining zahiralariidan ancha ko'pdir;

- shartnomalar uzoq muddadga ega bo'lganligi sababli sug'urta to'lovlarini hisob-kitob qilishda inflyasiya bilan bog'liq jarayonlarni ham e'tiborga olish lozim;

- kafolatlangan sotib olinuvchi annuitetlar va naqd pul bilan to'lov imkoniyati bor annuitetlar va daromad kuponlari investitsiyalarga nisbatan boshqacha yondoshuvni, masalan, katta likvidlikni talab qiladi.

Kompaniyalarning bunday xususiyati investitsiyalar sohasida ba'zi bir oqibatlarini belgilab beradi<sup>23</sup>:

- shartnomalar uzoq muddadli (60 yildan ko'proq muddat) bo'lganligi sababli hayot sug'urtasi jamg'armalari odatda o'z mablag'larini uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga kiritadi;

- hayot sug'urtasi jamg'armalar kompaniyalarning daromadlari xarajatlaridan ko'p bo'lganligi sababli va barcha sug'urta qoplamalar, zararlar va shu kabilar mukofot va investitsiyalardan kelgan daromad hisobidan to'lanilishi sababli hayot sug'urtasi jamig'armalarini qisqaa muddatli qimmatli qog'ozlarga kiritish kerakligiga talab qolmaydi:

- aktuariylarning tarjibasi shundan dalolat beradiki, polislar bo'yicha mas'uliyat xarakterining tugatish muddatini investsion portfeldagi bitimlar harakatining tugatish muddatlari bilan kelishish hayot sug'urtasi kompaniyalari uchun eng qulay siyosat hisoblanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. "Investitsiya" atamasi qaysi tildan oligan va qanday ma'noni anglatadi?

---

<sup>23</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.



2. Sugʻurta kompaniyasi investitsion faoliyatining huquqiy asosi nimalardan iborat?
3. Sugʻurta kompaniyasining investitsion imkoniyatlarini qanday omillar belgilaydi?
4. “Sugʻurtalovchi va qayta sugʻurtalovchining investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Nizomning mazmuni nimadan iborat?
5. Sugʻurtalovchi va qayta sugʻurtalovchi investitsiya faoliyatining obʼektlari nimalardan iborat?
6. Hayotni sugʻurta qilish sohasida sugʻurta faoliyatini amalga oshiradigan sugʻurtalovchining toʻlov qobiliyati marjasi qanday hisoblanadi?
7. Sugʻurtalovchi sugʻurta operatsiyalarini amalga oshirish va investitsiya joylashtiriluvidan tashqari qanday daromad olishi mumkin?
8. Sugʻurta tashkilotlarining investitsiya faoliyati qaysi mamlakatlarda taraqqiy etgan?

## **13-BOB. HAYOTNI UZOQ MUDDATLI SUG‘URTA QILISH**

### **13.1. Hayotni uzoq muddatli sug‘urtalashning mohiyati, zarurligi va ahamiyati**

Hayotni sug‘urtalash – oila o‘z boquvchisini yo‘qotganligini munosabati bilan duch kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy qiyinchiliklardan yaqinlarimizni himoyalash imkonini beruvchi dasturdir. Sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda Sug‘urta kompaniyasi Naf oluvchilarga (me‘rosxorlarga) bunday og‘ir va kutilmagan holatlarda odatdagidan ko‘ra ko‘proq zarur bo‘ladigan sug‘urta pulini to‘lab beradi.

Korporativ mijozlar uchun ularning xodimlari foydasiga mo‘ljallangan mazkur dastur xodimlarni va ularning oilalarini ijtimoiy himoyasini ta‘minlashning samarali mehanizmi bo‘lib, xodimlarning o‘z ishlariga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshiradi va qo‘shimcha rag‘bat bolib xizmat qiladi.

Sug‘urta shartnomasining asosiy shartlari:

1. Sug‘urta muddati 2 dan 20 yilgacha;
2. Sug‘urta puli miqdori Sug‘urtalanuvchi (mijoz) tomonidan tanlangandan keyin Sug‘urta kompaniyasi sug‘urta mukofotini hisoblab beradi. Sug‘urta mukofotining miqdori Sug‘urtalangan shaxsning yoshi, sug‘urta muddati va sug‘urta badallarini to‘lash tartibiga bog‘liq;
3. Badallar to‘lovi quyidagi uslublarning birida: bir vaqtning o‘zida to‘liq, yillik, yarim yilda bir marotaba, har chorakda yoki har oyda amalga oshirilishi mumkin;
4. Sug‘urta pulining to‘lovi sug‘urtalangan shaxs vafot etsa (sug‘urta hodisasi), Sug‘urtalangan shaxs tomonidan tayinlangan Naf oluvchi yoki Sug‘urtalangan shaxsning me‘rosxorlariga to‘lanadi;
5. Sug‘urtalangan shaxsning yoshi – 18 dan 60 gacha, shartnoma muddati tugashi sanasida 65 yoshdan katta bo‘lmasligi kerak.

Soliq imtiyozlari:

Ushbu yo‘nalishni rivojlantirish va aholining himoyalanganligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qo‘shimcha soliq imtiyozlari taqdim etilgan:

- yuridik shxslarning foydasidan olinadigan soliqlar bo‘yicha imtiyozlar: yuridik shaxslar tomonidan hayotni uzoq muddatga sug‘urtalash ushun to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari boshqa xarajatlar sirasiga kiradi (O‘zR SK 145-moddasining 33-bandi);

- yuridik shaxslar hayotini uzoq muddatga sug‘urtalash xarajatlari jismoniy shaxslarning daromadlari sirasiga kirmaydi (O‘zR SK 172 va 307 moddalari);

- jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqlar bo‘yicha imtiyozlar uzoq muddat ga sug‘urtalash uchun sug‘urta mukofotlari to‘lashga yo‘naltirilgan jismoniy shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlari soliqqa tortilmaydi (daromad solig‘iga tortilmaydi, O‘zR SK 179-moddasining 28-bandi).

*Bonus to‘lovli hayotni uzoq muddatga sug‘urtalash.*

Bonus to‘lovli hayotni uzoq muddatga sug‘urtalash – uzoq muddatga sug‘urta himoyasini ta‘minlashga qaratilgan unifikatsiya qilingan dasturdir. Bonus to‘lovli hayot sug‘urtasining asosiy mohiyati hayotni sug‘urtalash bilan birga mablag‘larni jamg‘arish imkoniyatini yaratishdan va moliyaviy barqaror kelajakni ta‘minlashdan iborat.

Sug‘urta shartnomasining asosiy shartlari:

1. Sug‘urta muddati – 13 oydan 20 yilgacha;

2. Sug‘urta puli miqdori sug‘urtalanuvchi (mijoz) tomonidan tanlangandan keyin Sug‘urta kompaniyasi sug‘urta mukofotini hisoblab beradi. Sug‘urta mukofotining miqdori Sug‘urtalangan shaxsning yoshi, sug‘urta muddati va sug‘urta badallarini to‘lash tartibiga bog‘liq;

3. Badallar to‘lovi quyidagi uslublarning birida: bir vaqtning o‘zida to‘liq, yillik, yarim yilda bir marotaba, har chorakda yoki har oyda amalgam oshirilishi mumkin;

4. Sug‘urta puli quyidagi hollarda (sug‘urta hodisasi) to‘lanadi:

- Sugʻurtalangan shaxs shartnoma muddati tugaguncha yashaganda (bunda sugʻurta puli toʻlangan barcha badallar va kompaniyaning qoʻshimcha bonusi yigʻindisiga teng;

- Sugʻurtalangan shaxs vafot etganda (bunda sugʻurta puli olim qachon yuz berganligi va qancha badallar toʻlanganligidan qatʻiy nazar sugʻurtalangan shaxs butun muddati uchun toʻlashi kerak boʻlgan barcha badallar va Kompaniyaning qoʻshimcha bonusi yigʻindisiga teng.

5. Sugʻurtalangan shaxsning yoshi – 18 dan 60 gacha, shartnoma muddati tugashi sanasida 65 yoshdan katta boʻlmasligi kerak.

Korporativ mijozlar uchun ularning xodimlari foydasiga moʻljallangan mazkur dastur xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishga, kasbiy ulgʻayish va lavozimlarini koʻtarilishiga hamda hisobot davri yakunlari boʻyicha sezilarli darajada moddiy ragʻbatlantirishning samarali mexanizmi boʻlib xizmat qiladi.

Soliq imtiyozlari:

Ushbu yoʻnalishni rivojlantirish va aholining himoyalanganligini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qoʻshimcha soliq imtiyozlari taqdim etilgan:

- yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliqlar boʻyicha imtiyozlar: yuridik shaxslar tomonidan hayotni uzoq muddatga sugʻurtalash uchun toʻlanadigan sugʻurta mukofotlari boshqa xarajatlar sirasiga kiradi (OʻZRSK145-moddasining 33-bandi);

- yuridik shaxslarning hayotni uzoq muddatga sugʻurtalash xarajatlari jismoniy shaxslarning daromadlari sirasiga kirmaydi (OʻZR SK 172 va 307 moddalari);

- jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqlar boʻyicha imtiyozlar: uzoq muddatga sugʻurtalash uchun sugʻurta mukofotlarini toʻlashga yonaltirilgan jismoniy shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlari soliqqa tortilmaydi (daromad soligʻiga tortilmaydi, OʻZR SK 179-moddasining 28-bandi).

*Taʼlim olish uchun hayotni uzoq muddatga sugʻurtalash*

Sug'urtaning mazkur turi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatdan qat'iy nazar Sizga farzandingiz o'qish dargohiga kirayotganda moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash masalasini hal etish imkonini beradi. Sug'urta muddati mobaynida ishonchli sug'urta himoyasi bilan ta'minlab, oila boquvchisidan (Sug'urtalanuvchidan) ayrilganda ham farzand o'qishga kirayotganda kelishilgan pullarni oladi va kerakli mablag'lar bilan ta'minlangan bo'ladi.

Sug'urta shartnomasining asosiy shartlari:

1. Sug'urta muddati 13 oydan 20 yilgacha;

2. Sug'urta puli miqdori sug'urtalanuvchi (mijoz) tomonidan tanlangandan keyin Sug'urta kompaniyasi sug'urta mukofotini hisoblab beradi. Sug'urta mukofotining miqdori Sug'urtalangan shaxsning yoshi, sug'urta muddati va sug'urta badallarini to'lash tartibiga bog'liq;

3. Badallar to'lovi quyidagi uslublarning birida: bir vaqtning o'zida to'liq, yillik, yarim yilda bir marotaba, har chorakda yoki har oyda amalgam oshirilishi mumkun;

4. Sug'urta quyidagi hollarda (sug'urta hodisasi) to'lanadi:

- farzand o'qish dargohiga qabul qilinganda (OO'Yu, kasb kolleji, akademik litsey, maktab);

- farzand Sug'urta polisida ko'rsatilgan yoshga to'lganda (agar belgilangan muddatda o'qishga kira olmasa).

Yuqorida ko'rsatilgan hollarda sug'urta puli miqdori barcha to'langan badallar va kompaniyadan qo'shimcha bonus yig'indisiga teng.

Ota-onalar uchun qo'shimcha himoya:

Sug'urta muddati mobaynida ota yoki ona halok bo'lib, kelishilgan badalni to'lay olmasa ham Sug'urta kompaniyasi ota-ona to'lashi kerak bo'lgan mablag'ni (bonussiz ) to'lab beradi.

5. Ota-onaning yoshi – 18 dan 60 gacha, shartnoma muddati tugashi sanasida 65 yoshdan katta bo'lmasligi kerak.

Soliq imtiyozlari:

Ushbu yoʻnalishni rivojlantirish va aholining himoyalanganligini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qoʻshimcha soliq imtiyozlari taqdim etilgan:

- yuridik shxslarning foydasidan olinadigan soliqlar boʻyicha imtiyozlar: yuridik shaxslar tomonidan hayotni uzoq muddatga sugʻurtalash ushun toʻlanadigan sugʻurta mukofotlari boshqa xarajatlar sirasiga kiradi (OʻzR SK 145-moddasining 33-bandi);

- yuridik shaxslar hayotini uzoq muddatga sugʻurtalash xarajatlari jismoniy shaxslarning daromadlari sirasiga kirmaydi (OʻzR SK 172 va 307 moddalari);

- jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqlar boʻyicha imtiyozlar: uzoq muddatga sugʻurtalash uchun sugʻurta mukofotlari toʻlashga yoʻnaltirilgan jismoniy shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlari soliqqa tortilmaydi (daromad soligʻiga tortilmaydi, OʻzR SK 179-moddasining 28-bandi).

#### Nikoh uchun hayotni uzoq muddatga sugʻurtalash

Sugʻurtaning mazkur turi Sizga qanday kutilmagan hodisa yuz berishidan qatʻiy nazar farzandingiz (yoki oʻzingiz) nikoh qurishi paytida moliyaviy mablaglar bilan taʻminlash masalasini hal etish imkonini beradi. Sugʻurta muddati mobaynida ishonchli sugʻurta himoyasi bilan taʻminlab, oila boquvchisidan (Sugʻurtalanuvchidan) ayrilganda ham farzand nikoh qurayotganda kelishilgan pullarni oladi va kerakli mablagʻlar bilan taʻminlangan boʻladi.

Sugʻurta shartnomasining asosiy shartlari:

1. Sugʻurta muddati - 13 oydan 20 yilgacha;

2. Sugʻurta puli miqdori Sugʻurtalanuvchi (mijoz) tomonidan tanlangandan keyin Sugʻurta kompaniyasi sugʻurta mukofotini hisoblab beradi. Sugʻurta mukofotining miqdori Sugʻurtalangan shaxsning yoshi, sugʻurta muddati va sugʻurta badallarini toʻlash tartibiga bogʻliq.

3. Badallar toʻlovi quyidagi uslublarning birida: bir vaqtning oʻzida toʻliq, yillik, yarim yilda bir marotaba, har chorakda yoki har oyda amalga oshirilishi mumkin;

4. Sugʻurta puli quyidagi hollarda (sugʻurta hodisasi) toʻlanadi:

- farzand nikoh qurganda;
- farzand sugʻurta polisida koʻrsatilgan yoshga toʻlganda (agar belgilangan muddatda nikoh qurmasa).

Yuqorida koʻrsatilgan hollarda sugʻurta puli miqdori barcha toʻlangan badallar va Kompaniyaning qoʻshimcha bonusi yigʻindisiga teng.

Qoʻshimcha himoya:

- sugʻurta muddati mobaynida ota-ona halok boʻlsa I guruh nogironi boʻlsa va badallarni toʻlay olmasa ham Sugʻurta kompaniyasi ota-ona tomonidan toʻlanishi kerak boʻlgan mablagʻni (bonussiz) toʻlab beradi;

- mijoz istagiga koʻra sugʻurta shartlarida ota-onani va farzandni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash sharti kiritilishi mumkin.

5. Ota-onaning yoshi – 18 dan 60 gacha, shartnoma muddati tugashi sanasida 65 yoshdan katta boʻlmasligi kerak.

Soliq imtiyozlari:

Ushbu yoʻnalishni rivojlantirish va aholining himoyalanganligini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qoʻshimcha soliq imtiyozlari taqdim etilgan:

- yuridik shxslarning foydasidan olinadigan soliqlar boʻyicha imtiyozlar: yuridik shaxslar tomonidan hayotni uzoq muddatga sugʻurtalash ushun toʻlanadigan sugʻurta mukofotlari boshqa xarajatlar sirasiga kiradi (OʻzR SK 145-moddasining 33-bandi);

- yuridik shaxslar hayotini uzoq muddatga sugʻurtalash xarajatlari jismoniy shaxslarning daromadlari sirasiga kirmaydi (OʻzR SK 172 va 307 moddalari);

- jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqlar boʻyicha imtiyozlar: uzoq muddatga sugʻurtalash uchun sugʻurta mukofotlari toʻlashga yoʻnaltirilgan jismoniy shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlari soliqqa tortilmaydi (daromad soligʻiga tortilmaydi, OʻzR SK 179-moddasining 28-bandi).

Hayot sugʻurtasida operatsiyalarni amalga oshirish texnologiyasi boʻyicha ularni uch guruhga boʻlish mumkin:

- oddiy sugʻurta;

- jamoaviy sug'urta;
- industrial sug'urta.

Hayot sug'urtasining eng asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning uzoq muddatli sug'urta turi ekanligidadir. Aniqroq qilib aytganda, hayot sug'urtasi turlarining asosiy qismi besh yildan kam bo'lmagan sug'urta turlaridan tashkil topgan. Ba'zi mamlakatlarda, shu jumladan bizning mamlakatimizda hayot sug'urtasi bir yildan ortiq muddatga amalga oshirilmoqda. Bunday mamlakatlar hayot sug'urtasi hali yetarlli darajada rivojlanmagan mamlakatlardir. Shu bilan birga, bir yildan ortiq muddatga sug'urta qilish amal qilayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida uzoq muddatli hayot sug'urtasiga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozlar qo'llanilmaydi.

Uzoq muddatlilik talabining qo'yilishi hayot sug'urtasining bir qancha o'ziga xos xususiyatlarining yuzaga kelishiga olib keladi. Bunday o'ziga xos xususiyatlar sifatida quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

- hayot sug'urtasi maxsulotlari dizaynining o'zgarishi, masalan, sug'urta mukofotini bo'lib to'lash imkoniyatining paydo bo'lishi;
- andarrayting jarayonining murakkablashuvi, bu ko'p yillik prognozni amalga oshirish zaruriyatidan hosil bo'ladi;
- ish yuritishdagi qo'shimcha risk komponentlarining paydo bo'lishi, masalan, uzoq muddatli shartnomaning amal qilishini kutilmaganda to'xtatish riski;
- sug'urta mahsulotlarini boshqarishning yangi instrumentlarining paydo bo'lishi (sug'urta shartnomalarining amal qilishi davomida shartlariga o'zgartirish kiritish imkoniyati).

Hayot sug'urtasining yana bitta muhim xususiyatlaridan biri, zararlarni tartibga solishning o'ziga xosligi bo'lib, bunda sug'urta qoplamasi katta hajmdagi bir martalik ko'rinishda yoki renta shaklida (annuitetlar, pensiya) amalga oshiriladi. Qoplamani renta ko'rinishida amalga oshirilganda bu jarayon bir necha o'n yillarni o'z ichiga olishi mumkin. Mazkur sug'urta turining uzoq muddatliliigi va zararlarni tartibga solishni o'ziga xosligidan kelib chiquvchi muhim jihati



shundaki, qoplamani amalga oshirishning barcha variantlarida jamg'aruvchi komponentlarning mavjudligidir. Shuning uchun hayot sug'urtasi mahsulotlarini tahlili va dizayni uchun investitsion xususiyatlar o'ta muhim xisoblanadi. Bu manoda hayot sug'urtasi mahsulotlari u yoki bu darajada moliyaviy instrumentlar va mablag'larni turli sohalarga investitsiya qilish jarayonlarida raqobatlasha oladi.

Hayot sug'urtasining uzoq muddatlilik xususiyati foydada ishtirok etishni sug'urtalash, ulushdosh sifatidagi ishtirokni sug'urtalash yangi sug'urta mahsulotlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu sug'urta turlari dastlab hayot sug'urtasida paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik va ko'p vaqtlar o'tib sog'liqni sug'urtalash turlariga ham kirib bordi.

Hayot sug'urtasi turli maqsadlarda qo'llaniladi, bular sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- sug'urtalangan shaxs va uning qaramog'idagilarning joriy moliyaviy talablarini taminlash, aniqrog'i sug'urtalangan shaxsning va oila-azolarining o'rtacha hayot darajasini taminlashda moddiy jihatdan qo'llab quvvatlash (malum yoshgacha etishdan sug'urtalashda), etim qolgan bolalar tarbiyasi uchun joriy xarajatlar va boshqalar;

- sug'urtalangan shaxs va uning qaramog'idagilarning maxsus moliyaviy talablarini qondirish, shu bilan birga qarzlarni to'lash, garov va boshqa majburiyatlarni sug'urtalanuvchi vafot etgan holatda to'lash, o'zining yoki farzandlarining talimi uchun to'lov va boshqa ko'zda tutilmagan, sug'urtalanuvchining vafot etishi bilan to'lanmay qolishi ehtimoli mavjud bo'lgan xolatlar;

- sug'urtalangan shaxsning vafot etishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash, bu o'z ichiga dafn marosimi bilan bog'liq xarajatlar, o'limidan oldingi davolash xarajatlari, merosni huquqiy rasmiylashtirish xarajatlari va uning soliq to'lovlari xarajatlari va boshqa xarajatlar;

- hamkorning yoki muhim xodimning vafot etishi tufayli hosil bo'ladigan, biznesni yuritishning qo'shimcha xarajatlarini qoplash.

Yuqorida keltirilgan holatlar sugʻurtalanuvchining malum yoshga yetishi va vafot etishi bilan bogʻliq barcha mulkiy yoʻqotishlarini qoplaydi.

Hayot sugʻurtasi insonlarga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning butun kompleksini hal etish imkonini beradigan katta hajmdagi sugʻurta kafolatlari va investitsion xizmatlarning toʻplamini taqdim etadi. Shartli ravishda ushbu xizmatlarni 2 guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy va iqtisodiy.

Birinchi guruh vazifalarning amalga oshirilishi davlat ijtimoiy sugʻurtasi va taʼminoti tizimidagi etishmovchiliklarni boshqarish imkonini beradi.

Ikkinchi vazifalar guruhining bajarilishi esa bir tomondan shaxsiy daromadlarning oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan butun moliya-kredit operatsiyalarini amalga oshirish paytida zarur boʻlgan kafolatni taqdim etadi.

### **13.2. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda hayotni uzoq muddatli sugʻurtalashning rivojlanishi va huquqiy asoslarining yaratilishi**

Mamlakatimizda mustaqillik yillari sugʻurta sohasini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki “Sugʻurta toʻgʻrisida” gi Qonun 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. Keyinchalik mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, sugʻurta tizimida yuz bergan oʻzgarishlarni hisobga olib yangi tahrirda 2002 yil 5 aprelda “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi. 1993-2017 yillar davomida milliy sugʻurta tizimi faoliyatini qonuniy tartibga solish bilan bogʻliq oʻnlab qonunchilik hujjatlari qabul qilindi va ular muntazam takomillashtirilib borilmoqda.

Sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari ichida 2002 yilning 5 aprelda qabul qilingan “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonun muhim oʻrin tutadi. Ushbu Qonunga koʻra Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta tizimi 2 sohaga ajratiladi:

1. Hayotni sugʻurta qilish tarmogʻi. Bunda jismoniy shaxslarning hayoti, sogʻligʻi, mehnat qobiliyati va pul taʼminoti bilan bogʻliq manfaatlari sugʻurta qilinadi.

2. Umumiy sug'urta tarmog'i. Bunda shaxsiy, mulkiy va javobgarlikni sug'urta qilish kabilarni o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarori asosida "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida" Nizom tasdiqlangan. Nizomda litsenziya talablari va shartlari, litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, arizalarni ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish kabi masalalar yoritilgan. Ushbu qarorning 8 bandiga ko'ra Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi litsenziat — sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini qo'shib olib borishga haqli emas, umumiy sug'urtaning 1 va 2-klasslari bo'yicha faoliyat bundan mustasno.

Shuningdek, mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlari bo'yicha klassifikator ham 2002 yil 27 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizomga 1-ilova sifatida sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan.

Mazkur sug'urta faoliyati klassifikatorining qabul qilinishi sug'urta kompaniyalari uchun sug'urta faoliyatini amalga oshirishda asos hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari sug'urta faoliyati uchun litsenziya olishda Moliya vazirligi tomonidan qo'yiladigan talablarda ham faoliyat yuritmoqchi bo'lgan sug'urta xizmatlari bo'yicha sug'urta shartomlaridan nusxa taqdim etilishi shart hamda arizada sug'urta klasslari nomlari ham keltiriladi. Keltirilgan sug'urta turlari bo'yicha boshqa talablar ham o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi – "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining

sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizom haqida bo'lib, uning 1- ilovasida sug'urta faoliyati klassifikatorining tarkibi hamda tarmog'i kelirilgan.

- hayotni sug'urta qilish sohasida ixtiyoriy va majburiy sug'urtalash boyicha quyidagi klasslarni o'z ichiga oladi:

I klass – Hayot va annuitetlar;

II klass – Nikoh va tug'ilish;

III klass – Hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish;

IV klass – Sog'liqni sug'urta qilish;

- umumiy sug'urta sohasida quyidagi klasslarni o'z ichiga oladi:

1 klass – Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish;

2 klass – Kasallik holatlaridan ehtiyot shart sug'urta qilish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'iga muvofiq tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 12 mayda 1806-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida" Nizom, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'iga binoan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatiga olingan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahirolari to'g'risida"gi Nizom va boshqa shu kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizomda sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) alohida tavakkalchiliklar bo'yicha majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdori sug'urta zahirolari va o'z mablag'lari manbalari summasining 20 foizidan oshmasligi shart. Masalan, sug'urtalovchining sug'urta zahirolari va o'z mablag'lari miqdori 5,0 mlrd.so'mni tashkil etadi. Demak, nizomga asosan sug'urtalovchining alohida tavakkalchiliklar, ya'ni bitta sug'urta shartnomasi doirasida zimmasiga olmoqchi bo'lgan majburiyati 1,0 mlrd.so'mdan oshib ketmasligi zarur. Agar sug'urta majburiyati miqdori 1,0 mlrd.so'mdan oshib ketsa, u holda sug'urtalovchi oshgan summani qayta sug'urta qilishi shart.

Sug'urta zahiralari shakllantirish bo'yicha talablar va ularni hisob-kitob qilish tartibi "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida"gi Nizomda qayd etilgan. Sug'urta zahiralari har bir sug'urta turi bo'yicha shartnoma bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) to'lanishi zarur bo'lgan valyutada shakllantiriladi. Sug'urtalovchi sug'urta zahirasini buxgalteriya hisobotini tuzish paytida hisobot davri holatiga sug'urta faoliyatini amalga oshirish bo'yicha olingan moliyaviy natijani aniqlashda hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008 yil 11 iyuldagi 77-sonli, Davlat soliq qo'mitasining 2008-3-sonli va Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining 2008 yil 26 iyundagi 13-son qarorlari bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 avgustda 1842-son bilan ro'yxatga olingan "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug'urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizom"da sug'urtalovchilarga sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun jarima sanksiyalari qo'llash tartibi belgilangan. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi PQ-872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomga muvofiq sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun sug'urtalovchilarga jarima sanksiyalarini qo'llash to'g'risidagi qarorlar sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat organi - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari, sug'urtalovchilar tomonidan buzilganligi uchun ularga sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchi uchun belgilangan ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foiz miqdorigacha jarima solinadi.

Sug'urta sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shubxasiz, qabul qilinayotgan barcha qarorlar va islohatlar mamlakatimizda sug'urta sohasiga davlat miqyosda berilayotgan yuksak e'tibordan dalolat beradi.

Bugungi kunda sugʻurta kompaniyalarining ishonchliligining muhim koʻrsatkichlaridan biri bu uning sugʻurtalanganlardan kelib tushayotgan talablarni oʻz vaqtida va toʻliq bajarish qobiliyatiga ega boʻlishidir. Bu, ayniqsa, shaxsiy sugʻurta boʻyicha xizmat koʻrsatadigan kompaniyalar ishida juda muhimdir.

Shaxsiy, hayot va sogʻliqni sugʻurtalashga ixtisoslashgan “Oʻzbekinvest Hayot” sugʻurta kompaniyasi ham sugʻurta eʼtirozlariga katta eʼtibor qaratmoqda.

“Oʻzbekinvest Hayot” sugʻurta kompaniyasi 2018 yilning 1-choragida amalga oshirilgan sugʻurta toʻlovlarniing hajmi 5,06 mlrd.soʻmni tashkil etdi va bu 2017 yilning shu davridan 136,8 foizga koʻp boʻldi. Hisobot davrida kelib tushgan arizalarning soni 1,73 tadan oshdi, shulardan qariyb 1,7 mingtasi hal etildi. Qolgan arizalar koʻrib chiqilmoqda.

Kompaniya tomonidan amalga oshirilgan toʻlovlardan, uning ixtisoslashuviga mos holda, 92 foizdan ortigʻi ixtiyoriy turlarga toʻgʻri keladi. Oʻz navbatida, hayotni ixtiyoriy sugʻurtalash shartnomalari boʻyicha toʻlovlarning ulushi umumiy toʻlovlarning 91 foizini tashkil etdi. Hisobot davrida Oʻzbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida”gi qonunini amalga oshirish doirasida amalga oshirilgan toʻlovlar hajmi umumiy qiymatning 8 foizini tashkil etdi. Koʻrib chiqilayotgan davrda amalga oshirilgan toʻlovlarning kelib tushgan sugʻurta mukofotlariga nisbatan ulushi 79,1 foizni tashkil etgan. Buni esa uning sugʻurta portfelida ham, kelib tushayotgan sugʻurta eʼtirozlarida, uzoq muddatli shartnomalarda ham ustunligi bilan izohlash mumkin. Kompaniya filial tarmogʻi faoliyatini rivojlantirish boʻyicha ishlar doirasida, aytish lozimki, hisobot yilida hududiy filiallar tomonidan amalga oshirilgan toʻlovlarning ulushi umumiy hajmning yarmilan koʻpini tashkil etdi.

Joriy yilning I choragi yakunlariga koʻra, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan “Oʻzbekinvest Hayot” sugʻurta kompaniyasidan olingan sugʻurta mukofotlarining qiymati 6,4 mlrd. soʻmdan oshib, 2017 yilning shu davriga nisbatan 134 foizga oʻsishni taʼminladi. Koʻrib chiqilayotgan davrdagi amalda boʻlgan hayot va sogʻliqni sugʻurtalash shartnomalari boʻyicha sugʻurta

majburiyatlari hajmi 280,9 mlrd. soʻmdan oshdi va oʻtgan yilga nisbatan 21,1 foizga koʻpaydi.

“Oʻzbekinvest Hayot” sugʻurta kompaniyasi sugʻurta portfeli tuzilmasida mukofotlarning asosiy ulushi (98 foizdan koʻpi), kompaniya ixtisosligiga koʻra, hayotni sugʻurtalash sohasiga, shu jumladan, majburiy turlariga toʻgʻri keldi. Oʻz navbatida, hayotni uzoq muddatli sugʻurtalashning ixtiyoriy turlarining ulushi sugʻurta mukofotlari umumiy yigʻimida 79 foizdan oshdi va oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 54 foizga oʻsdi.

Kompaniya faoliyatining xususiyatini hisobga olib, filial tarmogʻining rivojlanishi ham muhim yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Oʻtgan davrda “Oʻzbekinvest Hayot” sugʻurta kompaniyasining sugʻurta mukofotlari umumiy yigʻindisida hududiy filiallarning ulushi 68,2 foizini tashkil etdi, 2017 yilning I choragida bu koʻrsatkich 62 foiz darajasida boʻlgan edi.

Kompaniya faoliyatini yanada rivojlantirish amaldagi mahsulotlarni takomillashtirish va yangilarini ishlab chiqish, isteʼmolchilarning afzal koʻrgan jihatlarni kuzatish, sugʻurta eʼtirozlarini muvofiqlashtirish sifatini oshirish va koʻrsatiladigan xizmatlarga koʻzlangan auditoriyaning turli toifalariga yoʻl ochib berish uchun agentlik tarmogʻini kengaytirishni taqozo etadi.

7-jadval

**2017 yilda “Oʻzbekinvest Hayot” sugʻurta kompaniyasi tomonidan toʻplangan sugʻurta mukofotlari<sup>24</sup>**

<b>t/r</b>	<b>Sugʻurta turlari</b>	<b>Sugʻurta mukofotlari summasi (mlrd. soʻm)</b>
<b>1</b>	Ixtiyoriy sugʻurta boʻyicha	15,8
<b>2</b>	Annuitetlar buyicha	5,2
<b>3</b>	Boshqa sugʻurta turlari boʻyicha (umumiy sugʻurta tarmogʻining 1,2-klasslari)	0,8
<b>JAMI:</b>		<b>21,8</b>

2017 yilda “Oʻzbekinvest Hayot” sugʻurta kompaniyasi tomonidan yigʻilgan jami sugʻurta mukofotlari summasi 21,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

<sup>24</sup> “Oʻzbekinvest Hayot” sugʻurta kompaniyasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**2017 yilda “O‘zbekinvest Hayot” sug‘urta kompaniyasi tomonidan tuzilgan sug‘urta shartnomalari va olingan majburiyatlar hajmi<sup>25</sup>**

t/r	Sug‘urta turlari	Sug‘urta shartnomalari soni (dona)	Majburiyatlar (mlrd. so‘m)
1	Ixtiyoriy sug‘urta	2940	31,0
2	Majburiy sug‘urta	81	5,0
<b>JAMI:</b>		3021	36,0

**2017 yilda “O‘zbekinvest Hayot” sug‘urta kompaniyasi tomonidan to‘lab berilgan sug‘urta qoplamalari hajmi<sup>26</sup>**

t/r	Sug‘urta turlari	Sug‘urta qoplamalari (mlrd. so‘m)
1	Ixtiyoriy sug‘urta	12,850
2	Majburiy sug‘urta	1,350
<b>JAMI:</b>		14,2

Demak, sug‘urta mukofotlarining o‘shish prognozi 2016 yilga nisbatan 140 foiz deb belgilangan holatda amaldagi o‘shish 133 foiz (21,8 mlrd.so‘mdan ziyod)ni tashkil etdi. Amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari hajmi 14,2 mlrd.so‘mdan oshdi. Bu 2016 yilning shu davriga nisbatan 155,9 foiz o‘shishni tashkil etdi. 2017 yilda investitsiyalar hajmining o‘shishi 146 foiz, aktivlarning o‘shishi esa 141,6 foizga teng bo‘ldi.

Sug‘urta mukofotlarining umumiy hajmida filial tarmoqlarining ulushi 65 foiz bo‘lib (o‘shish 117 foiz), umumiy amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlarida esa 43 foiz (o‘shish 126 foiz)ni tashkil etdi.

“Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan imtiyozli xizmatlar bo‘yicha olingan majburiyatlarning qiymati 364,5 mln.so‘mni, sug‘urta to‘lovlari qiymati esa 3,35 mln.so‘mni tashkil etdi (amaldagi shartnomalar bo‘yicha 2017 yildagi to‘lovlar prognozi 300 mln.so‘m bo‘lgan holatda).

<sup>25</sup> “O‘zbekinvest Hayot” sug‘urta kompaniyasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>26</sup> “O‘zbekinvest Hayot” sug‘urta kompaniyasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



O'tgan yilda Kompaniyaning agentlik tarmog'i 57 ta agentga ko'paydi, bu bilan sug'urta agentlarining soni (jismoniy va yuridik shaxslar) reestr bo'yicha 138 taga etdi. 2017 yilda sug'urta agentlari vositachiligida tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha tushumlarning ulushi umumiy hajmning 38,53 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, kompaniya tomonidan sug'urtachilar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligini oshirish, sug'urta xizmatlarini amalga oshirishda axborot texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish zarurati, sug'urta xizmatlarining xususiyatlari hamda sug'urta e'tirozlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida axborot berish va tushuntirish ishlarini kuchaytirilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi" qonuni talablariga rioya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan sug'urta operatsiyalari ustidan nazorat kuchaytirilmoqda.

"O'zbekinvest Hayot" sug'urta bozorida hayot sug'urtasi bo'yicha yuqori natija va ko'rsatkichlarga erishdi. Jumladan, sug'urta mukofotlarini to'plash, yuridik va jismoniy shaxslar bilan sug'urta shartnomalarini tuzish olingan majburiyatlarda sug'urta qoplamalarini to'lab berishda faol ishtirok etib kelayotganini ko'rishimiz mumkin.

### **13.3. Bonus to'lovli hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish**

"O'zbekinvest hayot" sug'urta kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilib amaliyotda qo'llanib kelinayotgan bonus to'lovli hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish qoidalarin ko'rib chiqamiz.

«O'zbekinvest Hayot» Sug'urta kompaniyasining (O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 07.01.2013 y. berilgan SF № 00178 litsenziya) ushbu Bonus to'lovli hayotni uzoq muddatli sug'urtasi qoidalari O'zbekiston Respublikasining sug'urtani tartibga soluvchi qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Davlat sug'urta nazorati inspeksiyasida deponentlangan "Hayot va annuitetlar" III klass qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Qoidalarga muvofiq «O‘zbekinvest Hayot» sug‘urta kompaniyasi jismoniy va yuridik shaxslar bilan sug‘urta shartnomalari tuzib, ushbu qoidalarda va sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda ularga muvofiq pul mablag‘lari to‘lovlarini amalga oshiradi.

Ushbu qoidalarda foydalanilgan asosiy atamalar:

Sug‘urta shartnomasi (shartnoma) – sug‘urtalovchi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida tuzilgan yozma kelishuv bo‘lib, unga muvofiq sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta pulini to‘lash yoki boshqa to‘lovlarni amalga oshirish majburiyatini, sug‘urta qildiruvchi esa sug‘urta shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni, shu jumladan sug‘urta mukofotini to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Sug‘urta polisi (Polis) – sug‘urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlaydigan va sug‘urta qildiruvchi sug‘urta mukofotini yoki birinchi badalni to‘lagandan keyin unga beriladigan hujjat.

Sug‘urta hodisasi – yuz berishi bilan sug‘urtalovchining sug‘urta pulini to‘lash majburiyatini keltirib chiqaradigan voqea.

Sug‘urtalangan shaxs – jismoniy shaxs bo‘lib, sug‘urta shartnomasi unga nisbatan tuziladi. Ushbu qoidalarga ko‘ra sug‘urtalangan shaxs sug‘urta qildiruvchi bo‘lishi mumkin.

Naf oluvchi – sug‘urta hodisasi yuz berganda kelishilgan sug‘urta pulini olishga haqli jismoniy yoki yuridik shaxs.

Sug‘urta puli – sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan va sug‘urtalovchining sug‘urta shartnomasi bo‘yicha majburiyatlari hajmining chegarasini bildiruvchi pul mablag‘lari miqdori.

Sug‘urta mukofoti – sug‘urta qildiruvchi sug‘urtalovchiga sug‘urta uchun sug‘urta shartnomasida belgilangan muddat, miqdor va shartlarda to‘lashi shart bo‘lgan pul mablag‘lari.

Sug‘urta badali (badal) – sug‘urta mukofotining sug‘urta shartnomasida belgilangan muddat, miqdor va shartlarda to‘lanadigan qismi. Sug‘urta muddati davomida to‘liq to‘langan sug‘urta badallarining yig‘indisi sug‘urta mukofotining

miqdoriga teng.

Bonus – sugʻurtalangan shaxs sugʻurta muddati tugaganda hayot boʻlsa, sugʻurtalovchi naf oluvchiga toʻlaydigan sugʻurta pulining qoʻshimcha qismi.

Qaytariladigan pul – sugʻurta shartnomasi muddatidan avval bekor qilinsa yoki tugatilsa, sugʻurtalovchi sugʻurta qildiruvchiga/naf oluvchiga toʻlaydigan pul mablagʻlari.

Sugʻurta muddati – sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan sugʻurtalangan shaxsning sugʻurta himoyasi boʻyicha sugʻurtalovchining majburiyati amal qiladigan davr. Sugʻurtalovchi sugʻurta polisida koʻrsatilgan sugʻurta muddati mobaynida yuz bergan sugʻurta hodisalari boʻyicha majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi.

Sugʻurta himoyasi – sugʻurta muddati mobaynida sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda sugʻurtalovchining sugʻurta pulini toʻlash boʻyicha majburiyati.

Imtiyozli muddat – Ushbu qoidalarga muvofiq belgilangan, sugʻurta qildiruvchi sugʻurta badallarini oʻz vaqtida toʻlash majburiyatini buzsa, sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta toʻxtatilmaydigan muddat.

Sugʻurta valyutasi – shartnomada belgilangan sugʻurta mukofotini, sugʻurta pulini va qaytariladigan pulni toʻlash valyutasi. Ushbu qoidalarga muvofiq sugʻurta milliy valyutada (soʻm) hamda chet el valyutasida (AQSH dollari) amalga oshirilishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari boʻlgan layoqatli jismoniy yoki yuridik shaxslar ushbu qoidalar boʻyicha sugʻurta qildiruvchi boʻlishlari mumkin. 18 dan 60 yoshgacha boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar yoshi sugʻurta shartnomasining muddati tugashi paytida 65 yoshdan oshmasligi sharti bilan ushbu Qoidalar boʻyicha Sugʻurtalangan shaxs boʻlishlari mumkin.

2-guruh nogironlari, doimiy qarab turishga muhtojligi tibbiy xulosalar bilan tasdiqlangan shaxslar hamda ruhiy kasalliklarga chalinganlar, orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) yoki odam immuniteti tanqisligi (OIT) virusi bor

bemorlarni sugʻurtalash mumkin emas. Agar shartnoma mazkur shaxslarga nisbatan rasmiylashtirilganligi aniqlansa, ushbu Sugʻurta shartnomasi rasmiylashtirilgan kundan eʼtiboran haqiqiy emas deb hisoblanadi va toʻlangan Sugʻurta badallari Sugʻurta qildiruvchiga qaytariladi.

Ushbu qoidalarga muvofiq sugʻurta qildiruvchi tomonidan tayinlangan jismoniy yoki yuridik shaxslar naf oluvchilar boʻlishi mumkin. Sugʻurta qildiruvchi sugʻurtalangan shaxs boʻlmagan holatlarda naf oluvchini tayinlash faqat sugʻurtalangan shaxsning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

Ushbu shartnomaga muvofiq naf oluvchi boʻlib sugʻurtalangan shaxs hisoblanadi. Sugʻurtalangan shaxs vafot etgan hollarda sugʻurtalangan shaxs vafot etgan holat uchun naf oluvchi sifatida koʻrsatilgan shaxs naf oluvchi boʻlib hisoblanadi. Agar ushbu shartnomada sugʻurtalangan shaxs vafot etgan holat uchun naf oluvchi koʻrsatilmagan boʻlsa, yoki sugʻurta pulini olishga ulgurmay vafot etsa, sugʻurtalangan shaxsning meʼrosxoʻrlari naf oluvchilar sifatida eʼtirof etiladi.

Ushbu Qoidalarga muvofiq sugʻurta obʼekti boʻlib, sugʻurtalangan shaxsning hayoti bilan bogʻliq Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid boʻlmagan mulkiy manfaatlarini hisoblanadi.

Ushbu Qoidalarga muvofiq sugʻurtalangan shaxslarga quyidagi Sugʻurta hodisalari yuz berishidan sugʻurta himoyasi taqdim etiladi:

a) Sugʻurtalangan shaxs sugʻurta muddati yakunidagi kunda soat 24.00 da hayot boʻlsa;

b) Sugʻurtalangan shaxsning keltirilgan istinolardan boshqa har qanday sabablarga koʻra sugʻurta muddati mobaynida vafot etishi.

Ushbu qoidalarda koʻrsatilgan voqea sugʻurta hodisasi boʻlib hisoblanmaydi va u boʻyicha sugʻurta summasi toʻlanmaydi, agar u quyidagilar natijasida yuz bersa:

a) alkogoldan yoki mast boʻlish uchun qabul qilingan moddalardan zaharlanish, giyohvand, toksik moddalarni isteʼmol qilish sababli zaharlanish;

b) yadroviy portlash ta'siri, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish, kimyoviy yoki bakteriologik zaharlanish;

v) urush harakatlari hamda manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar;

g) o'z joniga qasd qilishi yoki buning oqibatlari natijasida bo'lsa va shu paytda ushbu shartnoma ikki yildan kam muddatda amalda bo'lgan bo'lsa;

d) uning tergov organlari yoki sud tomonidan aniqlangan qasddan jinoyat qilish alomatlari bilan bog'liq harakatlaridan kelib chiqqan bo'lsa;

e) Sug'urtalangan shaxs ozodlikdan mahrum qilingan joyda bo'lgan yoki tergov qilinayotgan davrda bo'lsa;

j) Sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan so'ng 12 oy tugagunga qadar yurak va qon tomir tizimidagi kasalliklar (yurak va qon tomirlarning anevrizmi, ishemik xastaliklar, qon aylanishi etishmovchiligi alomatlari bo'lgan kardioskleroz, yurak etishmovchiligi, gipertoniya), markaziy asab tizimining organik shikastlanishi, miya qon aylanishining surunkali buzilishi, o'pkaga nafas etishmasligi kuzatiladigan surunkali kasalliklar, sil kasalligi, har qanday tana a'zosidagi yomon tabiatli kasalliklar, jigar sirrozi, nefrit, nefroz, diabet, yara sanchig'i, giyohvandlik, alkogol psixoz (deliriya), orttirilgan immunitet tanqisligi (OITS) yoki ularning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri natijasida bo'lsa;

Naf oluvchining yoki uning topshirig'iga binoan boshqa shaxslarning sug'urta hodisasi yuz berishiga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari natijasida bo'lsa.

Yuqorida keltirilgan hollarda qaytariladigan pul ushbu shartnomada ko'rsatilgan tartibda hisoblanib to'lanadi.

Ikki yoki undan ortiq shaxslar sug'urtalanganda sug'urta puli har bir sug'urtalangan shaxs uchun alohida o'rnatiladi. Shartnoma bo'yicha umumiy sug'urta puli barcha sug'urtalangan shaxslarning sug'urta pullari yig'indisiga teng.

Ushbu shartnoma amalda bo'lgan davrda sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta pulining miqdorini kamaytirishga, shuningdek sug'urtalangan shaxslarning sug'urta summalarini umumiy sug'urta summasi chegarasida o'zgartirishga haqli. Sug'urta pulining miqdori o'zgargan

taqdirda sug'urta mukofotining va sug'urta bonusining miqdori ham o'zgaradi. Sug'urta puli kamaytirilgandan keyingi sug'urta mukofoti miqdori sug'urta qildiruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan shartlarda to'lab bo'lingan sug'urta mukofotidan kam bo'lishi mumkin emas. Sug'urta pulining o'zgarishi ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

Agar sug'urta davri tugagunga qadar o'n uch oydan kam bo'lmagan vaqt qolgan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan davrda sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta pulining miqdorini oshirishga haqli. Sug'urta puli oshirilgan taqdirda sug'urta mukofoti va sug'urta bonus miqdori ham oshadi. Bunda sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddatining qolgan davriga va sug'urtalovchining amalda bo'lgan tariflariga muvofiq bonus miqdori sug'urta pulining oshirilayotgan qismigagina oshadi.

Bonus sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta pulining qismi hisoblanadi. Bonus miqdori sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlangan tarif stavkalariga muvofiq o'rnatilib, natijada sug'urta puli va sug'urta mukofotining farqiga teng bo'ladi. Bonus miqdori sug'urta puli miqdori, sug'urta muddati, sug'urtalangan shaxsning yoshi, to'lovlar davriyligi va sug'urtalovchi belgilagan amaldagi tarif stavkalariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasiga bog'liq.

Sug'urta puli milliy valyutada (so'm) hamda xorijiy valyutada (AQSH dollari) o'rnatilishi mumkin. Sug'urta puli AQSH dollarida o'rnatilganda sug'urta mukofoti AQSH dollarida to'lanadi.

Sug'urta mukofoti/badallari qiymati sug'urta puli miqdori, sug'urta muddati, sug'urtalangan shaxsning sug'urta muddati boshlangan sanadagi yoshi, to'lovlarning davriyligi sug'urtalovchi belgilagan amaldagi tarif stavkalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Sug'urta mukofoti to'lovi sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuvga muvofiq bir vaqtning o'zida yoki davriy sug'urta badallarini har yilda, har yarim yilda, har chorakda yoki har oyda to'lash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urta mukofoti/sug'urta badali sug'urtalovchining bank hisobiga kelib tushgan kundan boshlab to'langan hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchi navbatdagi sug'urta badalini sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan hajm va muddatda to'lash majburiyatiga amal qilmasa, sug'urtalovchi tomonidan 30 (o'ttiz) kundan iborat imtiyozli muddat belgilanishi mumkin. Imtiyozli muddat ushbu shartnomaga muvofiq navbatdagi sug'urta badali to'lanadigan sanadan boshlanadi. Imtiyozli muddat sug'urta qildiruvchiga sug'urta muddati boshlangan vaqtdan bir yil mobaynida faqat ikki marotabagacha berilishi mumkin;

Sug'urta puli milliy valyutada (so'm) hamda xorijiy valyutada (AQSH dollari) o'rnatilishi mumkin. Sug'urta puli AQSH dollarida o'rnatilganda sug'urta mukofoti AQSH dollarida to'lanadi. Bunda sug'urtalovchi tomonidan xorijiy valyutada sug'urtalash uchun belgilangan tarif stavkalar qo'llaniladi.

Sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi to'ldiradigan, belgilangan shakldagi yozma ariza-so'rovnoma asosida yozma shaklda tuzilishi lozim. Sug'urta shartnomasi tuzilgandan keyin ariza-so'rovnoma uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs bilan sug'urta shartnomasi sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga ushbu qoidalarning asosiy shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisini berish orqali tuziladi. Sug'urta qildiruvchiga polis bilan birgalikda ushbu sug'urta qoidalari ham topshirilishi lozim. Bunda sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasini taklif etilgan shartlarda tuzishga roziligi Sug'urta qildiruvchi sug'urta polisini (uning ikkinchi nusxasida qabul qilib olganligini yozish sharti bilan) qabul qilib olishi va sug'urta mukofotini yoki uning birinchi badalini to'lashi bilan tasdiqlanadi.

Sug'urta qildiruvchi yuridik shaxs bo'lsa, sug'urta qildiruvchi ariza-so'rovnoma bilan birgalikda sug'urta shartnomasiga kiritilayotgan sug'urtalangan shaxslarning o'rnatilgan tartibdagi ro'yxatini hamda ushbu shaxslarning pasport nusxalarini taqdim etadi. Sug'urta mukofoti yoki birinchi sug'urta badali

to'langandan keyin sug'urta qildiruvchiga sug'urtaning asosiy shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisi taqdim etiladi.

Sug'urtalovchi sug'urtalanishi kerak bo'lgan shaxsning tibbiy ko'rikdan o'tishini talab qilishga haqli. Tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortilsa, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini tuzishni rad etishi mumkin. Sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi sodir bo'lishi darajasini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha axborot talab etilishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchiga sug'urta polisi sug'urtalovchining hisob raqamiga sug'urta mukofoti/birinchi sug'urta badali kelib tushgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida beriladi.

Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxs sug'urta polisini yo'qotsa, sug'urta qildiruvchining/sug'urtalangan shaxsning yozma arizasiga ko'ra uning dublikati berilishi mumkin. Dublikat berilgandan keyin yo'qolgan sug'urta polisi haqiqiy emas deb hisoblanib, u bo'yicha hech qanday to'lovlar amalga oshirilmaydi.

Sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi kelishgan holda, agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmasa, ushbu qoidalarning alohida shartlarini istisno qilishga, o'zgartirishga yoki ularga qo'shimcha kiritishga haqli.

Sug'urta muddati o'n uch oydan kam bo'lmagan muddatda belgilanishi mumkin. Sug'urta muddati sug'urta qildiruvchining yozma arizasiga ko'ra sug'urtalovchining roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin. Sug'urta muddati o'zgargan taqdirda sug'urta pulining miqdori, sug'urta badalining miqdori va/yoki bonus miqdori sug'urtalovchining tasdiqlangan tariflariga muvofiq o'zgaradi.

Sug'urtalovchining sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta himoyasi bo'yicha majburiyatlari sug'urta mukofoti yoki uning birinchi badali sug'urtalovchining bank hisob-raqamiga kelib tushgan kundan keyingi kuni, lekin sug'urta muddati boshlanish sanasidan avval bo'lmagan muddatda kuchga kiradi



va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati tugashi sanasida, soat 24.00 da tugaydi.

Sug'urta qildiruvchi birinchi sug'urta badalini sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan hajm va muddatlarda to'lash majburiyatini bajarmasa, sug'urta shartnomasi tuzilmagan deb hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

- sug'urtalovchidan sug'urta shartnomasi shartlarini bajarishini talab qilishi;
- sug'urta polisi yo'qolsa, uning dublikatini olishi;
- sug'urtalangan shaxsni ushbu shaxs va sug'urtalovchi roziligi bilan almashtirishi;
- sug'urtalangan shaxs almashganda sug'urtalovchi sug'urta mukofoti miqdorini sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urtalangan shaxsning yoshidan kelib chiqib, qayta hisob-kitob qiladi;

- shartnomada ko'rsatilgan naf oluvchini sug'urtalovchini yozma ogohlantirgan holda almashtirishi. Naf oluvchi faqat sug'urtalangan shaxsning roziligi bilan almashtirilishi mumkin.

Naf oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha biron bir majburiyatni bajarganidan keyin yoki Sug'urtalovchidan to'lovni talab qilgandan keyin almashtirilishi mumkin emas.

Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

- sug'urta shartnomasida belgilangan miqdor va muddatlarda sug'urta badallarini to'lashi;
- sug'urta shartnomasini tuzish uchun sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va u yuz berganda yetishi mumkin bo'lgan zararlarning miqdorini aniqlashda sezilarli ahamiyatga ega, o'ziga ma'lum bo'lgan barcha tavsilotlarni Sug'urtalovchiga bildirishi. Sug'urtalovchi tomonidan ariza-so'rovnomada so'ralgan tavsilotlar ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

- sug'urta shartnomasini tuzayotganda bildirilgan tavsilotlar sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan muddat mobaynida o'zgarganligi unga ma'lum bo'lsa va bu o'zgarishlar sug'urta hodisasi yuz berishi qaltisligi darajasiga sezilarli ta'sir

etsa, bu haqda sug'urtalovchiga xabar qilishi. Ariza-so'rovnoma aniq ko'rsatilgan tavsilotlarning o'zgarishi ahamiyatli bo'lib hisoblanadi;

- sug'urta shartnomasini tuzayotganda sug'urtalangan shaxsni uning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishi hamda uni ushbu shartnoma amalda bo'lgan muddat ichida kiritiladigan o'zgarishlar haqida xabardor qilishi.

Sug'urtalovchining huquqlari:

- sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs, naf oluvchi bergan axborotni hamda ular tomonidan sug'urta shartnomasining va ushbu qoidalarning shartlari bajarilishini tekshirishi;

Sug'urtalangan shaxsdan/naf oluvchidan ular to'lov haqida talab qo'yanlarida shartnoma bo'yicha majburiyatlarning, shu jumladan sug'urta qildiruvchi zimmasidagi ado etilmagan majburiyatlarning bajarilishini talab qilishi.

Avval bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik qaltisligi sug'urtalangan shaxsning/naf oluvchining zimmasidadir;

- sug'urtalangan shaxsni to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazishilishini talab qilishi;

- sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxs (naf oluvchi) sug'urta hodisasini aniqlash uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etmasa yoki oldindan yolg'onligi ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etsa, to'lovni rad etishi;

- qaltislik darajasini oshishiga olib kelgan tavsilotlar haqida xabar berilsa, sug'urta shartnomasi shartlarini o'zgartirishni yoki qo'shimcha sug'urta badali to'lanishini talab qilishi.

Agar Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi shartlari o'zgartirilishiga yoki sug'urta badali oshishiga qarshi bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda bekor qilishga haqli;

- ushbu shartnomaning bandlarida ko'rsatilgan voqealar yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilsa yoki sug'urtalovchi naf oluvchi sug'urta pulini olishga haqli ekanligida asosli ravishda shubhalanganda naf oluvchi zarur isbotlarni taqdim etmasa, sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda sug'urta puli to'lovini mutasaddi organlar qaror chiqargunlariga qadar keyinroqqa qoldirishi;

- sug'urta qildiruvchi ushbu qoidalarining bandlarida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmasa, sug'urta shartnomasini bekor qilinishini va sug'urta shartnomasi bekor qilinishidan ko'rilgan zararlarni qoplanishini talab qilishi.

Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- sug'urta qildiruvchiga sug'urta shartlari bilan birga sug'urta polisini berishi;

- sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) sug'urta pulini sug'urta shartnomasida belgilangan tartib, miqdor va muddatlarda to'lashi;

- sug'urta shartnomasini bajarish davomida olingan hamda sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs va naf oluvchi haqidagi axborotning maxfiylikini ta'minlashi;

- sug'urta qildiruvchini ushbu qoidalarining shartlari bilan tanishtirishi.

Sug'urtalangan shaxsning huquqlari:

- sug'urta shartnomasini tuzayotganda o'z xohshiga ko'ra naf oluvchini tanlashi;

- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan muddatda naf oluvchini almashtirishi;

- sug'urtalovchidan sug'urta shartnomasi shartlari o'zgarganligi haqida axborot so'rashi;

- sug'urta hodisasi yuz berganda o'ziga nisbatan tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi qabul qilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilishi;

- jismoniy shaxs bo'lgan sug'urta qildiruvchi vafot etsa sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishi.

Sug'urtalangan shaxsning majburiyatlari:

- sug'urta shartnomasini tuzayotganda sug'urta hodisasi yuzaga kelishi ehtimolini aniqlash uchun sezilarli ahamiyatga ega, o'ziga ma'lum bo'lgan barcha tavsilotlar haqida sug'urtalovchiga xabar berishi. Sug'urtalovchi ariza-so'rovnomada aniq keltirgan tavsilotlar ahamiyatli bo'lib hisoblanadi;

- sug'urta shartnomasi amal qiladigan muddat ichida sug'urta shartnomasini tuzayotganda xabar qilingan tavsilotlardagi o'ziga ma'lum bo'lgan o'zgarishlar haqida, agar bu o'zgarishlar sug'urta hodisasi yuz berishi qaltisligi oshishiga sezilarli darajada ta'sir etsa, sug'urtalovchiga bu haqda darhol xabar berishi.

Sug'urtalovchi ariza-so'rovnomada aniq keltirgan tavsilotlarning o'zgarishi ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

Naf oluvchining huquqlari:

a) sug'urta hodisasi yuz berganda o'z foydasiga tuzilgan ushbu shartnoma bo'yicha sug'urtalovchi qabul qilgan majburiyatlarni bajarilishini talab qilishi;

b) sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarishi.

Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda tugatiladi:

a) sug'urta davri tuganganda yoki sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini to'la hajmda bajarganda;

b) sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb topilganda;

v) sug'urtalangan shaxs sug'urta davri mobaynida ushbu qoidalarining bandida ko'rsatilgan voqealar natijasida vafot etsa;

g) imtiyozli muddat taqdim etilmagan holda sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini sug'urta shartnomasida belgilangan miqdor va muddatda to'lamaganda;

d) sug'urta qildiruvchi (jismoniy shaxs) vafot etganda, agar sug'urtalangan shaxs yoki boshqa shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlarini bajarish majburiyatini olmasa;

e) sug'urta qildiruvchi (yuridik shaxs) tugatilganda;

j) sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasidan voz kechganda. Bunda agar bekor qilish paytiga qadar sug'urta hodisasi yuz bermagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasini istalgan paytda bekor qilishi mumkin;

z) taqdim etilgan imtiyozli muddat o'tgandan keyin navbatdagi sug'urta badali to'lanmasa. Bunday holatda sug'urtalovchi qaytariladigan pulni ushbu qoidalarining 14-bo'limiga muvofiq sug'urta qildiruvchiga to'lagan holda sug'urta

shartnomasini bir tomonlama bekor qiladi.

Sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuvga muvofiq har qanday holatda bekor qilinishi mumkin.

Agar sug'urta shartnomasi bir nechta sug'urtalangan shaxslarga nisbatan tuzilgan bo'lsa, sug'urta shartnomasi sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchining kelishuviga muvofiq bir yoki bir nechta sug'urtalangan shaxslarga nisbatan bekor qilinishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda ham tugatilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Sug'urtalovchining sug'urta pulini sug'urtalangan shaxsga/naf oluvchiga to'lash majburiyatini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan voqea yuz bersa, sug'urta qildiruvchi to'lov o'tkazilishi kerak bo'lgan hisob raqamining bank rekvizitlari ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

a) Sug'urtalangan shaxs sug'urta davri tugaganda hayot bo'lsa:

- sug'urtalangan shaxsning pasportining nusxasi (pasportning asl nusxasini taqdim etgan holda).

- sug'urtalangan shaxs sug'urta davri tugaganda hayot bo'lsa, u shaxsan sug'urtalovchining huzuriga kelib, pasportini ko'rsatishi yoki sug'urtalovchining vakili uning hayot ekanligiga iqror bo'lishiga imkoniyat berishi shart.

b) sug'urta davri mobaynida Sug'urtalangan shaxs vafot etsa:

- naf oluvchi pasportining nusxasi (pasportning asl nusxasini taqdim etgan holda);

- sug'urtalangan shaxsning o'limi haqidagi guvohnomaning notarius tasdiqlagan nusxasi;

- me'ros huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (sug'urta qildiruvchining va sug'urtalangan shaxsning sug'urtalangan shaxs vafot etgan holat uchun naf oluvchini tayinlash haqida qarori bo'lmagan taqdirda);

- o'lim sababi ko'rsatilgan boshqa mavjud hujjatlar.

- sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi va sug'urta puli to'lovi to'g'risidagi ariza sug'urta hodisasi sodir bo'lgandan keyin uch yil ichida topshirilishi mumkin.

Sug'urtalangan shaxs/naf oluvchi tomonidan sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida ariza mazkur muddat o'tgandan keyin taqdim etilgan taqdirda sug'urtalovchi tomonidan hech qanday to'lov amalga oshirilmaydi.

Zarur bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta hodisasini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni talab qilishga haqli.

Agar Sug'urtalangan shaxs tomonidan sug'urtalangan shaxs vafot etishi holati uchun bir nechta naf oluvchilar tayinlangan bo'lsa, ularning har biriga Sug'urtalangan shaxs ko'rsatgan ulush to'lanadi, agar ulushlar ko'rsatilmagan bo'lsa, sug'urta puli teng ulushlarda to'lanadi. Agar sug'urta pulini to'lash paytida naf oluvchilardan biri vafot etgan bo'lsa, agar shartnomada boshqa holatlar ko'rsatilmagan bo'lsa, unga tegishli ulush sug'urtalangan shaxsning me'rosxo'rlariga to'lanadi.

Sug'urtalangan shaxs vafot etgan vaqtda sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti shartnomada kelishilgan miqdordan ko'proq to'langan taqdirda, sug'urta mukofotining ortiqcha to'langan qismi sug'urta qildiruvchiga qaytariladi, naf oluvchiga esa shartnomada belgilangan sug'urta puli to'lanadi.

Agar naf oluvchi sug'urtalangan shaxsning joniga qasd qilsa yoki qasddan uning halok bo'lishiga olib kelishiga sabab bo'lgan og'ir tan jarohatlari etkazsa, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlariga qaytariladigan pul ushbu qoidalarniga muvofiq to'lanadi.

Biroq, sug'urta qildiruvchi tomonidan bir nechta naf oluvchi tayinlangan bo'lsa, sug'urtalangan shaxsning vafot etishiga qasddan harakat qilgan shaxsga tegishli sug'urta pulining qismi sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlariga to'lanadi.

Sug'urta puli sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlariga quyidagi hollarda to'lanadi:

- sug'urtalangan shaxs va naf oluvchi (yoki barcha saf oluvchilar, agar ular ko'p bo'lsalar) bir vaqtning o'zida vafot etsalar;

- agar saf oluvchi (yoki barcha saf oluvchilar, agar ular ko'p bo'lsalar) sug'urtalangan shaxsdan avval vafot etib, sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxs naf oluvchi almashganligi haqida tegishli o'zgarishlarni kiritmagan bo'lsa;

- agar sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxs sug'urtalash haqida ariza berayotganda naf oluvchi tayinlanishi haqida topshiriq qoldirmagan bo'lsa yoki sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan muddat ichida uni bekor qilsa;

- agar sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta puli merosxo'rlarga (famiyalar ko'rsatilmasdan) to'lanishi kerakligi belgilab qo'yilgan bo'lsa;

- ushbu qoidalarda ko'rsatilgan boshqa holatlarda.

Sug'urta puli uni oluvchining shaxsiy hisob raqamiga yoki uning yozma arizasida ko'rsatilgan boshqa hisob raqamiga ushbu qoidalariga muvofiq sug'urta to'lovi haqida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran 15 (o'n besh) kalendar kuni ichida bir vaqtning o'zida to'liq to'lanadi. To'lov kuni bo'lib sug'urtalovchi tomonidan oluvchining bank hisob raqamiga pul o'tkazilgan kun hisoblanadi.

Agar sug'urta hodisasi imtiyozli muddat ichida yuz bersa, sug'urtalovchi to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta pulini unga to'langan sug'urta mukofotiga mutanosib summa miqdorida cheklashi va vaqtida to'lanmagan sug'urta badalini chegirib qolishi mumkin.

Agar sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan muddatda ba'zi oylar uchun sug'urta badallari to'lanmay qolganligi aniqlansa, to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta pulidan to'lanmay qolgan mablag' ushlab qolinadi. Agar sug'urtalovchiga to'lanmay qolgan pul miqdori sug'urta hodisasi sodir bo'lgan kundagi eng kam oylik ish haqining besh barobaridan ko'p bo'lsa, bonus miqdori to'langan sug'urta mukofotiga va amaldagi tarif stavkalari miqdoriga mos ravishda kamaytiriladi.

Agar sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofoti miqdoridan ortiqcha mablag' to'langan bo'lsa, ortiqcha to'langan mablag' sug'urta qildiruvchiga qaytarilishi lozim.

Sug'urta puli shartnomada belgilangan va sug'urta mukofoti to'langan valyutada to'lanadi.

Qaytariladigan pul sugʻurta qildiruvchiga, sugʻurtalangan shaxsga/naf oluvchiga quyidagi hujjatlar ilova qilingan va sugʻurta qildiruvchining toʻlovni oʻtkazish uchun bank hisob raqami rekvizitlari koʻrsatilgan yozma arizasi asosida toʻlanadi:

a) Sugʻurta shartnomasi sugʻurta qildiruvchining xohishiga koʻra muddatidan oldin tugatilganda yoki bekor qilinganda, shu jumladan yuridik shaxs boʻlgan sugʻurta qildiruvchi tugatilganda yoki shartnomada belgilangan muddat va miqdorlarda sugʻurta mukofoti/badali toʻlanmasligi natijasida bekor qilinganda:

- oluvchining toʻlovni oʻtkazish uchun bank hisob-raqami koʻrsatilgan yozma arizasi;

- sugʻurta polisining asl nusxasi;

- jismoniy shaxs boʻlgan sugʻurta qildiruvchining pasportining nusxasi (pasportning asl nusxasini taqdim etgan holda);

- oluvchining pasporti nusxasi (pasportning asl nusxasini taqdim etgan holda) – agar sugʻurta qildiruvchining qaytariladigan pul toʻlovi haqidagi arizasida qaytariladigan pulni sugʻurtalangan shaxsdan boshqa shaxs olishi belgilangan boʻlsa;

- oluvchining STIR raqami (soliq toʻlovchining identifikatsiya raqami) – agar sugʻurta qildiruvchining qaytariladigan pul toʻlovi haqidagi arizasida qaytariladigan pulni sugʻurtalangan shaxsdan boshqa shaxs olishi belgilangan boʻlsa;

- oluvchining SHNJH (shaxsiy nafaqa jamgʻarmasi hisobi) – agar sugʻurta qildiruvchining qaytariladigan pul toʻlovi haqidagi arizasida qaytariladigan pulni sugʻurtalangan shaxsdan boshqa shaxs olishi belgilangan boʻlsa.

b) sugʻurtalangan shaxs sugʻurta davri mobaynida ushbu qoidalarining bandida koʻrsatilgan voqealar natijasida vafot etsa:

- oluvchining toʻlovni oʻtkazish uchun bank hisob-raqami koʻrsatilgan yozma arizasi;

- sugʻurta polisining asl nusxasi;



- jismoniy shaxs bo'lgan sug'urta qildiruvchining pasportining nusxasi (pasportning asl nusxasini taqdim etgan holda);

- sug'urtalangan shaxs o'limi haqidagi guvohnomaning notarius tasdiqlagan nusxasi;

- vafot etishi sababini ko'rsatuvchi boshqa mavjud hujjatlar.

Zarur bo'lsa, sug'urtalovchi qaytariladigan pulni to'lashi uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni talab qilishi mumkin.

Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchining xohishiga ko'ra muddatidan oldin tugatilganda yoki bekor qilinganda, shu jumladan yuridik shaxs bo'lgan sug'urta qildiruvchi tugatilganda yoki shartnomada belgilangan muddat va miqdorlarda sug'urta mukofoti/badali to'lanmasligi natijasida bekor qilinganda, qaytariladigan pul quyidagi tartibda belgilanadi:

- u amal qilishi muddatining birinchi yilida – to'langan sug'urta badallarining 75% miqdorida;

- u amal qilishi muddatining ikkinchi yilida – to'langan sug'urta badallarining 80% miqdorida;

- u amal qilishi muddatining ikkinchi yili o'tgandan so'ng - to'langan sug'urta badallarining 85% miqdorida.

Quyidagi hollarda sug'urta mukofoti/badallarining 90% miqdoridagi Qaytariladigan pul to'lanadi:

a) sug'urtalangan shaxs ushbu qoidalarida ko'rsatilgan voqealar natijasida vafot etsa;

b) sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi vafot etsa. Bunda, agar shartnomada boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa, qaytariladigan pul sug'urtalangan shaxsga to'lanadi.

Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan vaqtda sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti shartnomada kelishilgan miqdordan ko'proq to'langan taqdirda, sug'urta mukofotining ortiqcha to'langan qismi qaytariladigan pulni hisoblashda inobatga olinmaydi va sug'urta qildiruvchiga to'liq qaytariladi.

Agar sugʻurta shartnomasi amalda boʻlgan muddatda jismoniy shaxs boʻlgan sugʻurta qildiruvchi shartnoma boʻyicha oʻz majburiyatlarni bajara olmaydigan holat yuzaga kelganda, sugʻurtalangan shaxs, naf oluvchi yoki boshqa shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda shartnoma shartlarini bajarishni, jumladan sugʻurta mukofotini toʻlash majburiyatini olganda, shartnoma bekor qilinmaydi hamda qaytariladigan pul toʻlanmaydi, boshqa hollarda shartnoma bekor qilinishi lozim.

Sugʻurta shartnomasi sugʻurtalovchining xohishiga muvofiq muddatidan oldin tugatilsa yoki bekor qilinsa yoxud sugʻurta shartnomasi sud qarori bilan haqiqiy emas deb tan olinsa, sugʻurtalovchi sugʻurta qildiruvchiga qaytariladigan pulni barcha toʻlangan sugʻurta badallari miqdorida toʻlaydi.

Qaytariladigan pul sugʻurta mukofoti toʻlangan valyutada toʻlanadi.

Qaytariladigan pul sugʻurtalovchiga barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan paytdan eʼtiboran 15 (oʻn besh) kalendar kuni ichida toʻlanadi. Agar sugʻurta qildiruvchi va sugʻurtalangan shaxs bir vaqtning oʻzida vafot etsa, qaytariladigan pul naf oluvchiga toʻlanadi, naf oluvchi mavjud boʻlmagan taqdirda sugʻurtalangan shaxsning merosxoʻrlariga toʻlanadi.

Tomonlar sugʻurta shartnomasi boʻyicha oʻz zimmalariga qabul qilgan majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki notoʻgʻri bajarganliklari uchun Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgardirlar.

### **Nazorat savollari:**

1. Hayotni uzoq muddatli sugʻurtalashda sugʻurta shartnomasining asosiy shartlari nimalardan iborat?
2. Hayotni sugʻurtalashda sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchilarga qanday soliq imtiyozlari taqdim etilgan?
3. Bonus toʻlovli hayot sugʻurtasining asosiy mohiyati nimadan iborat?
4. Hayotni sugʻurtalashda sugʻurta mukofoti toʻlovini toʻlash qaysi muddatda amalga oshirilishi kerak?
5. Hayotni uzoq muddatli sugʻurtalashda sugʻurta shartnomasi kamida va koʻpi bilan qancha muddatga tuziladi?

## **14-BOB. HAYOT SUG'URTASINING MAJBURIY TURLARI.**

### **ANNUITET SUG'URTASI**

#### **14.1. Hayot sug'urtasida annuitet tuashunchasi va annuitet**

##### **shartnomasining asosiy shartlari**

Annuitet - renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniyada, Fransiyada va AQSHda keng rivojlangan.

Boshqacha qilib aytganda annuitet – sug'urta shartnomasi bo'lib, u sug'urtalangan shaxsning bir zumli to'langan mablag'i evaziga hayotining bir qismi davomida yillik to'lanadigan renta hisoblanadi.

Odatiy hayot sug'urtasida sug'urta qoplamasi sug'urtalangan shaxs vafot etganida to'lansa, annuitetlar sug'urtasida buning aksi bo'lib, sug'urta qilingan shaxs toki hayot bo'lgunigacha sug'urta qoplamasi to'lab boriladi. Amaliyotda yillik renta har chorak yoki har oyda to'lab borilishi kerak, lekin bu renta, to'lab borilgan bir yillik rentaning umumiy hisobiga teng bo'ladi.

Odatda bir martalik kirimning to'lovini to'lash uchun sug'urta mablag'lari yoki yig'ib borilgan hayotni sug'urtalash mablag'lari ishlatiladi. Ba'zan annuitetlar xaridini muddatli to'lab berishga ruxsat etiladi.

Annuitetlar quyidagi ko'rinishlarga ega:

- Prenumerando (oldindan to'lov);
- Postnumerando (kechiktirilib beriladigan to'lov);

Birinchi holatda, belgilangan kundan to'lov amalga oshiriladi, ya'ni yilning boshi, chorakning boshi yoki oyning boshiga to'g'ri keladi.

Ikkinchi holatda, to'lovlar to'lov muddatining oxirida amalga oshadi.

Ko'p hollarda annuitetlarni nafaqaga chiqish oldi yoki farzandlar ta'limini to'lash uchun sotib olinadi (3-shaxs foydasi uchun).

Annuitetlarning sug'urta narxini aniqlash uchun aholinig yuqori sog'lomlik ko'rsatkichi va vafot etish koeffitsientli jadvalaridan foydalaniladi.

Quyidagi turdagi annuitetlar mavjud<sup>27</sup>:

- Oddiy annuitet.

Bir martalik to'lovi asosida sug'urtalanuvchiga umrboqiy bir yillik renta to'lanadi.

- Kechiktiriladigan annuitet.

Shartnomani imzolayotganda, imzolash vaqti va rentalarni to'lash vaqti aytib o'tiladi. Kechiktirilgan vaqt uchun muddatli daromadlar belgilanadi. Sug'urtalanuvchiga bu daromadlar annuitetlarni to'lash uchun beriladi.

- Tez annuitet.

Sug'urta shartnomasida belgilangan muddat yoki vafot etish holatida renta to'lovlarini to'lash ko'zda tutilgan (qaysi bir hodisa tez amalga oshishi inobatga olinadi).

- Kafolatlangan annuitet.

Shartnomada kafolatlangan muddatgacha sug'urtalanuvchining hayot yoki qazo bo'lishiga qaramay renta to'lovi amalga oshadi.

Shunday qilib, mabodo sug'urtalanuvchi kafolatlangan muddatgacha vafot etsa, renta to'lovlarini shartnomada belgilangan muddatgacha merosxo'rlar oladi. Umumiy renta mablag'i merosxo'rlarga bir martada to'lanishi ham mumkin.

- Mablag'larni himoya qilish annuitetlari.

Bu shartnomaga binoan sug'urtalanuvchi yoki merosxo'rlar to'liq to'lab borilgan mablag'ni olishadi. Sug'urtalanuvchiga umrboqiy foyda to'lovi kafolatlanadi. Agarda sug'urtalanuvchi oldinroq vafot etsa, umumiy to'lanadigan rentaning hisobi merosxo'rlarga mablag'dan qolgan farq sifatida to'lab beriladi.

- O'sib boruvchi summali annuitetlar.

---

<sup>27</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.

Inflyasiya jarayonlarining mavjudligi va shartnoma muddatlarining uzoqligi tufayli sug'urtalanuvchiga to'lanadigan qoplamalar o'z qiymatini yo'qotib boradi. Shuni hisobga olgan holda ba'zi sug'urta kompaniyalari inflyasiya darajasidan kelib chiqqan holda o'sib boruvchi summali annuitetlarni qo'llay boshlashdi. Ba'zi sug'urta kompaniyalari esa iste'mol indekslarini qo'llash orqali sug'urta summalarini indeksatsiyalashni amalga oshirishmoqda.

Bu annuitetlar oddiy annuitetlarga nisbatan kam boshlang'ich to'lovlarni ko'zda tutadi.

- Hayotni birgalikda sug'urtalash va oxirgi yashab qoluvchi uchun annuitet.

Pensiya ta'minotini amalga oshirish zaruratidan kelib chiqib, er-xotindan biri vafot etganda ham ikkinchisi qoplamalarni olishini ta'minlash maqsadida bir yo'la ikki kishining hayotini sug'urtalash bilan bir vaqtda annuitetlar sug'urtasi ham amalga oshiriladi. Bu shartnomaga binoan er-xotindan biri vafot etgan taqdirda qoplamalar odatda to'liq saqlab qolinadi yoki ba'zi hollarda uchdan biriga qisqarishi mumkin.

Bu annuitetlar oldindan yoki sug'urta hodisasidan keyin, proporsional yoki noproporsional, kafolatlangan summa bilan yoki oddiy annuitetlar kabi to'lanishi mumkin.

- Pensiyaga chiqish uchun annuitetlar.

Inson pensiya yoshiga etganda pensiya rejasi bo'yicha yig'ilgan sug'urta qoplamasi annuitetlarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Bunday qoidalar Angliya pensiya tizimida mavjud.

Ushbu qoidaning o'ziga xos xususiyatlari:

- shartnoma kim bilan tuzilganligidan qat'iy nazar, yig'ilgan summa hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta kompaniyasi yoki o'zaro sug'urtalash jamiyatidan annuitetni sotib olish uchun ishlatilishi shart. Annuitet 50-70 yoshlar oralig'ida kuchga kirishi zarur. Quyidagi holatlarda 50 yoshdan oldin ham kuchga kirishi mumkin:

- agar inson aqliy imkoniyatlar yoki jismoniy holati bilan bog'liq yuzaga kelgan kamchiliklar natijasida o'z xizmat vazifasini bajara olish imkoniyati yo'qolsa yoki inson egallab turgan vazifa bo'yicha ertaroq yoshdan pensiyaga chiqish tartibi belgilangan bo'lsa;

- annuitet insonning qachon ishni to'xtatganligidan qat'iy nazar, 50 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan har qanday vaqtda to'lab boshlanishi mumkin;

- annuitet faqat hali hayot bo'lgan shaxsga beriladi va uni oluvchining shaxsi o'zgartirilishi yoki muddatidan oldin sotib olinishi mumkin emas;

- to'lanayotgan annuitetning qolgan qismi sug'urtalangan shaxs vafot etgandan keyin o'n yil davomida uning merosxo'rlariga berilishi mumkin;

- sug'urtalangan shaxs o'zi vafot etgandan keyin uning turmush o'rtog'i yoki qaramog'idagilardan biriga berish maqsadida kamaytirilgan annuitet olish huquqiga ega.

Bunday qoidalar ba'zi o'zgarishlar bilan boshqa mamlakatlarda ham qo'llanib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida annuitet sug'urtasining majburiy turi O'zbekiston Respublikasining 2009 iyul 16 apreldagi «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi to'g'risida» gi O'RQ-210-sonli qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 177-sonli qaroriga hamda O'zbekiston Respublikasining 2005 iyul 11 fevraldagi «Mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq ravishda hodimlarga etkazilgan shikastlar, kasbiy kasalliklar yoki sog'liqiga boshqa zararlarni qoplash qoidalari»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha jabrlanuvchi yoki zararni qoplanishiga haqli shahsning zararlari bir yildan ortiq muddatda qoplanishi belgilangan hollarda Ish beruvchi uning hisob raqamiga pul mablag'lari kelib tushgan kundan e'tiboran yetti ish kuni ichida annuitet shartnomasini tuzishi shart.

Annuitet shartnomasi bo'yicha sug'urta kompaniyasi annuitet shartnomasida kelishilgan to'lov uchun (sug'urta mukofoti) sug'urta puli chegarasida bir yildan ortiq muddatga joriy to'lovlar ko'rinishida sug'urta qoplamasini quyidagicha tegishli shahsga to'laydi:

- mehnat jarohatini olish bilan bog'liq ravishda uning sog'liqiga etkazilgan zarar, ish vazifalarini bajarish bilan bog'liq kasb kasalligi uchun jabrlanuvchiga;
- ish vazifalarini bajarish bilan bog'liq ravishda hodim vafot etganda sug'urta qoplamasini olishga haqli naf oluvchiga.

Annuitet shartnomasining asosiy shartlari:

1. Annuitet shartnomasi jabrlanuvchi mehnatga layoqatini yoqotgan ma'lum muddatga yoki naf oluvchi boquvchi-hodimning vafot etishi munosabati bilan qoplama olishga haqqi bo'lgan muddatga tuziladi.

2. Sug'urta mukofotining to'lovi butun sug'urta muddati uchun Ish beruvchi tomonidan bir vaqtning o'zida to'liq amalga oshiriladi.

3. Sug'urta qoplamasining miqdori ish haqining miqdoriga bog'liq. Annuitet shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasi quyidagi ko'rinishda to'lanadi:

- jabrlanuvchining mehnatdagi jarohatgacha bo'lgan o'rtacha oylik ish haqining mehnat qobiliyatini yoqotish yoki kasb kasalligi darajasiga mos foizlaridagi oylik to'lovlar;

- vafot bo'lgan shahsning ulushi va uning qaramogida bo'lgan, lekin zararni qoplanishiga haqli bo'lmagan mehnatga layoqatli shahslarning ulushini chegirib qolgan holda o'rtacha oylik ish haqi miqdoridagi oylik to'lovlar.

Annuitetlar shartnomasi ommaviy shartnomadir. Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi annuitetlar shartnomasida shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga, sug'urta puli doirasida tegishincha:

- jabrlanuvchiga u o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog'lig'iga etkazilgan zarar uchun;

- xodim o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda vafot etgan taqdirda sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan naf oluvchiga joriy to'lovlar tarzida bir yildan ortiq muddat uchun sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi.

Annuitetlar shartnomasi ish beruvchi bilan annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'rtasida tuziladi. Annuitetlar shartnomasini tuzish uchun ish beruvchining yozma shakldagi arizasi asos bo'ladi.

Annuitetlar shartnomasi shartlari va uni tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Annuitetlar shartnomasida ko'rsatilishi lozim bo'lgan shartlarning to'liq emasligi uchun javobgarlik annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi zimmasida bo'ladi. Annuitetlar shartnomasi qonun hujjatlariga muvofiq jabrlanuvchiga mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi belgilangan muddatga yoki naf oluvchi sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'ladigan muddatga tuziladi.

Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta puli va sug'urta mukofoti annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta puli jabrlanuvchiga yoki naf oluvchiga qonun hujjatlariga muvofiq o'rni qoplanishi lozim bo'lgan etkazilgan zarar miqdorida belgilanadi.

Etkazilgan zarar miqdorini aniqlashda jabrlanuvchiga uning o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan tayinlangan nogironlik pensiyasi, xuddi shuningdek boshqa turdagi pensiyalar, nafaqalar va sog'lig'i shikastlanguniga qadar ham, undan keyin ham bo'lgan boshqa shunga o'xshash to'lovlar hisobga olinmaydi va etkazilgan zararining o'rni qoplanishi lozim bo'lgan miqdori kamaytirilishiga olib kelmaydi (etkazilgan zararining o'rnini qoplash hisobiga kiritilmaydi). Jabrlanuvchi sog'lig'i shikastlanganidan keyin oladigan ish haqi (daromad) ham etkazilgan zararining o'rnini qoplash hisobiga kiritilmaydi. Annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti ish beruvchi tomonidan annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtaning butun davri uchun bir yo'la to'lanadi.

Ish beruvchining huquq va majburiyatlari.



Ish beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- ushbu Qonunga muvofiq ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini tuzish uchun sug'urtalovchini va annuitetlar shartnomasini tuzish uchun annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini tanlash;

- sug'urtalovchidan va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining va (yoki) annuitetlar shartnomasining shartlarini tushuntirib berishni talab qilish;

- sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- yillik ish haqi miqdori kamayganda sug'urta mukofotining yillik ish haqi miqdorining kamayishiga va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining tugallanmagan davriga mutanosib qismini olish.

Ish beruvchi:

- o'zi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran yoki ish beruvchilar jismoniy shaxslar uchun mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzilgan sanadan e'tiboran o'n besh ish kunidan kechiktirmay o'zining fuqarolik javobgarligini ushbu Qonunga muvofiq sug'urtalashi;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha va ayrim hollarda annuitetlar shartnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta mukofotini to'lashi;

- yillik ish haqi miqdori o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda xabar qilishi;

- ish beruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat turlarining xavflilik darajasi o'zgargan paytdan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi va zarur bo'lgan hollarda, qo'shimcha hisoblab chiqarilgan sug'urta mukofotini to'lashi;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berganligi o'ziga ayon bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug'urtalovchiga yozma shaklda bildirishi;

- xodimlarni ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan tanishtirishi, shu jumladan mazkur shartnoma bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;

- sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni jabrlanuvchi yoki naf oluvchi yozma shakldagi ariza bilan murojaat qilgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida taqdim etishi;

- agar sug'urta tovonini jabrlanuvchi yoki naf oluvchi tomonidan qilingan suiiste'molliklar oqibatida asossiz ravishda to'langan bo'lsa, ortiqcha to'langan sug'urta tovonini haqida sug'urtalovchiga xabar qilishi va ortiqcha to'langan mablag'larni sug'urtalovchiga qaytarish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rishi shart.

Ish beruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirishda ishtirok etish va zarur bo'lgan hollarda tegishli ekspertlarni jalb etish;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisaga doir axborotni tekshirish; sug'urta mukofotini aniqlash uchun sug'urta xavfini baholash;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berish. Sug'urtalovchi: ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi shartlari bilan ish beruvchini tanishtirishi, shu jumladan uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi;


- o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan, ish beruvchi va (yoki) jabrlanuvchi yoxud naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi;

- sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ish beruvchi sug'urta tovonini to'lash uchun murojaat etganidan keyin

o‘n besh ish kunidan kechiktirmay bu haqda ish beruvchiga rad etish sabablarini dalillar bilan asoslantirgan holda yozma shaklda xabar qilishi;

- ushbu Qonunning 13-moddasida nazarda tutilgan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan e‘tiboran o‘n ish kunidan kechiktirmay qaror qabul qilishi va sug‘urta tovonini to‘lashi;

- o‘zi almashtirilgan taqdirda bu haqda ish beruvchiga darhol yozma shaklda xabar berishi shart. Sug‘urtalovchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.



**3-rasm. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash bo‘yicha o‘zaro aloqadorlik sxemasi<sup>28</sup>**

Jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- ish beruvchiga yoki sug‘urtalovchiga yoxud annuitetlar shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lash haqida yozma shakldagi ariza bilan murojaat etish;

<sup>28</sup> Rasm mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.


- qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urta to'voni olish;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining yoki annuitetlar shartnomasining shartlari to'g'risida ish beruvchidan yoki sug'urtalovchidan yoxud annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan bepul axborot olish;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirishda zaruriyat bo'lganda, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillarini yoxud o'zining ishonchli shaxsini jalb etgan holda belgilangan tartibda ishtirok etish;

- ish beruvchidan sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni olish.

## Sug'urta mukofoti strukturasi



4-rasm. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta mukofotini hisoblash<sup>29</sup>

<sup>29</sup> Rasm mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Naf oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urta tovonini olish haqidagi talab bilan ish beruvchiga yoki sug'urtalovchiga murojaat etish; qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida va tartibda sug'urtalovchi va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan sug'urta tovonini olish;

- ish beruvchidan, sug'urtalovchidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining shartlari to'g'risida hamda annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchidan annuitetlar shartnomasi shartlari haqida bepul axborot olish;

- xodim o'z mehnat vazifalarini bajarayotganda vafot etganligi haqida ish beruvchiga xabar qilish; ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisani tekshirishda belgilangan tartibda ishtirok etish, zarur bo'lgan hollarda kasaba uyushmasi vakillarini yoki xodimlarning boshqa vakillik organi vakillarini yoxud o'zining ishonchli shaxsini jalb etgan holda ishtirok etish;

- ish beruvchidan sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni olish.

#### **14.2. Sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari**

Sug'urtalovchiga va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga qo'yiladigan talablar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirish uchun sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi belgilangan tartibda faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyaga ega bo'lishi kerak.

Sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'zining alohida bo'linmalariga ega bo'lishi kerak, ular ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi yoki annuitetlar shartnomasini tuzish, ish beruvchilarning va (yoki) jabrlanuvchilarning yoxud naf oluvchilarning sug'urta

tovoni to'g'risidagi talablarini ko'rib chiqish hamda belgilangan tartibda sug'urta tovonini to'lash vakolatiga ega bo'lishi lozim.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishda raqobatni cheklash yoki bartaraf etish, ayrim sug'urtalovchilarga va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchilarga boshqalariga nisbatan asossiz imtiyozlar berish yoki olish, ish beruvchilar, jabrlanuvchilar va naf oluvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatleri kamsitilishiga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta zahirasini shakllantirish. Agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni amalga oshirishda mazkur sug'urta turi bo'yicha sug'urtalovchining daromadlari va xarajatlari orasidagi farq bir yilda ushbu daromadlarning besh foizidan ortiq bo'lsa, ortiqcha summa keyingi yillarda sug'urta tovonini to'lash xarajatlarini kompensatsiya qilish uchun sug'urtalovchi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urta zahirasini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Sug'urtalovchini va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini almashtirish. Sug'urtalovchini va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini almashtirishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

- sug'urtalovchi yoki annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda;

- sug'urtalovchiga yoki annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga nisbatan bankrotlik taomili qo'llanilganda;

- sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyaning amal qilishi belgilangan tartibda tugatilganda yoki u bekor qilinganda.

Sug'urtalovchini va (yoki) annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchini almashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Annuitet tushunchasiga ta'rif bering.
2. Annuitetlarning qanday turlari mavjud?
3. Kafolatlangan annuitet nima, uning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Kechiktiriladigan annuitet deganda nimani tushunasiz?
5. Annuitet shartnomasining asosiy shartlari nimalardan iborat?
6. Annuitet shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasi qanday ko'rinishda to'lanadi?

## 15-BOB. TIBBIY SUG‘URTA VA SOG‘LIQNI SUG‘URTALASH

### 15.1. Tibbiy sug‘urtaning umumiy tavsifi va nazariy asoslari

Tibbiy sug‘urta deganda xohlagan sababdan, shu qatorda baxtsiz hodisadan yoki kasallikdan, sog‘liqni yo‘qotishdan sug‘urtalash tushuniladi. To‘lovli tibbiyotda ushbu sug‘urta turi tibbiy yordam xarajatlarini qoplash sifatida, bepul tibbiyotda esa tibbiy xarajatlarni moliyalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha manba sifatida aytib o‘tilgan.

Rivojlangan pullik sog‘liqni saqlash tizimiga ega bo‘lgan ko‘pchilik davlatlarda tibbiy sug‘urta keng qo‘llanadi. Uning asosiy maqsadi aholini keng doirasiga tibbiy xizmatlar bilan foydalanish imkoniyatini yaratish va imkoni boricha sug‘urta qildiruvchilarni xarajatlarini to‘liq miqdorda qoplanadi. O‘zbekiston Respublikasida pullik tibbiyot hali u qadar keng tarqalmagan, negaki “Sog‘liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiy-profilaktik tashkilotlari davlat kafolatlagan miqdorda tibbiy yordamni aholiga bepul ko‘rsatadi. Bepul tibbiy yordamning hajmi va amalga oshirish tartibi qonunchilik tomonidan belgilanadi”<sup>30</sup>.

Tibbiy sug‘urta qaltisliklarni taqsimlashda jamoa birdamlik prinsipiga asoslangan: boy – kambag‘alga, sog‘lom – bemorga, yosh – qariga to‘laydi. Sug‘urta prinsipi quyidagi tarzda amalga oshiriladi: kasal bo‘lding "yutding", sog‘ qolding - "yutqizding".

Tibbiy sug‘urta aholini ijtimoiy himoya shaklida sog‘liqni saqlash byudjet tizimiga qo‘shimcha sifatida rivojlanadi. Sog‘liqni saqlash byudjet tizimi ham bir vaqt ichida o‘z vazifalarini bajaradi. Dunyoni hamma rivojlangan mamlakatlarida davlat sog‘liqni saqlash tizimiga katta ahamiyat beriladi. Davlat aholi sog‘ligini saqlash tizimidi asosiy vazifalarni o‘z zimmasiga oladi. Birinchi navbatda bu epidemiyaga qarshi ishlar va yuqumli emas epidemiologiya usullari bilan tashqi muhit ta‘siridan kelib chiqqan kasalliklarni bevaqt paydo bo‘lishi va tarqalishi sabablarini aniqlaydi. Keskin va favqulotda vaziyatlarda davlat tibbiy yordam

---

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning sog‘ligini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun Hujjatlari to‘plami. – T., 2000. 5-son.



ko'rsatish moliyalashtirishni o'z zimmasiga oladi. Rejalashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatilishda davlat ko'p holatlarda tashabbusni xususiy biznesga, mustaqil xo'jalik tashkilotlarga yoki sug'urtaga to'liq uzatadi. Ushbu holatda davlat tibbiy xizmatlarni sifati standartlarini, kadrlar tayyorlik darajasini va tibbiyotda prinsipial yangi yo'nalishlarni nazorat qiladi<sup>31</sup>. Tibbiy sug'urta davlat va nodavlat sug'urta tashkilotlar tomonidan ixtiyoriy va majburiy ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin.

Shu tarzda tibbiy sug'urtani iqtisodiy mazmuni sug'urtalangan shaxsning hayotiga yoki sog'ligiga baxtsiz hodisa yoki kasallik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdir. Tibbiy sug'urtaning asosiy xususiyatlardan biri – bu sug'urta shartnomasida aniq aytib o'tilgan hodisa sodir bo'lganda mulkiy sug'urtaga o'xshab moddiy zarar qoplanmaydi, faqat sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchining kasalligi va tibbiy muassasaga murojaat qilishi bilan bog'langan xarajatlari qoplanadi, sug'urta puli esa tomonlar kelishuvi asosida belgilanadi.

Kasallik holatida fuqarolarga ijtimoiy yordam taqdim etish yetarli darajadagi qadimgi ananaga ega. Qadimiy Gretsiya va Rim imperiyasida kasbiy kollegiyalar doirasida o'zaro yordam ko'rsatadigan tashkilotlar bo'lgan, qaysiki baxtsiz hodisa sodir bo'lishida, jarohat olishida, uzoq muddatli kasal bo'lishida yoki shikastlanishida mablag'larni yig'ib taksimlashgan. O'rta asrlarda kasallik yoki nogironlik holatida aholining himoyasi bilan sex yoki hunarmandchilik gildiyalari (uyushmalari) va cherkov shug'ullangan. Birinchi holatda yordam a'zolik badallaridan shakllangan sex kassalar mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan. Ikkinchi holatda esa moddiy va tibbiy yordam muhtoj bo'lganlarga xayr-ehson hisobiga tekin taqdim etilgan.

Lekin tibbiy, yoki o'sha davrda atalganiday, kasalxona sug'urtasi shaklini kasalligida ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam faqat XIX asrning ikkinchi yarmida qabul qilindi. Aynan shu vaqtda kasaba uyushmasiga oid ishchilar harakati o'zini faol namoyon qildi, uning muhim natijalaridan biri ko'pchilik Evropa

---

<sup>31</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.

mamlakatlarida kasalxona kassalarining shakllanishi bo'ldi. Ushbu kassalar ish beruvchilar va ishchilar badallaridan shakllanar edi va muvofiq ravishda tashkilot ma'muriyati va kasaba uyushmasi vakillari tomonidan boshqarilar edi. Kassalar o'z a'zolariga kasallik davomida yo'qolgan mehnat daromadini qisman qoplaydigan, ishchi vafot etganda oilasiga birvaqtda va nafaqa ko'rinishda to'lanadigan, tug'gan ayollarga kompensatsiya ko'rinishda to'lanadigan pullik yordamni taqdim etishgan. Bundan tashqari, tibbiy va dorilik yordam ko'rsatilishi ko'zda tutilgan. Kasalxona sug'urtasida Angliya va Germaniya peshqadamlik qilishgan. Aynan Germaniyada 1883 yilda ishchilarni majburiy kasalxona sug'urtasi to'g'risida davlat qonuni qabul qilingan.

Majburiy tibbiy sug'urta boshqa ijtimoiy sug'urta tarmoqlaridan ma'lum tashkiliy va moliyaviy tafovutlarga ega.

Birinchidan, majburiy tibbiy sug'urta doirasida aholiga hech qanday pullik to'lovlar amalga oshirilmaydi. Moliya mablag'lari faqat aholiga bepul ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar to'loviga ishlatiladi va davlat litsenziyasi va akkreditatsiyasiga ega bo'lgan tibbiy muassasalarga yo'naltiriladi.

Ikkinchidan, majburiy tibbiy sug'urtani tashkil etishda tijorat kompaniyalar – tibbiy sug'urta tashkilotlari – ishtirok etadi, ularga qonunchilik bo'yicha bevosita sug'urtachilar vazifasi yuklatilgan.

Uchinchidan, majburiy tibbiy sug'urtani moliyalashtirishda davlat byudjet mablag'lari ham qatnashadi, chunki ijroiya hokimiyat muassasalari ishlamaydigan aholini sug'urta qildiruvchi sifatida sug'urtalashadi va sug'urta badallarini majburiy tibbiy sug'urta fondlariga to'lashlari majbur.

Boshqa sug'urta tarmoqlariga ko'ra majburiy tibbiy sug'urta jiddiy tashkiliy va moliyaviy xususiyatlarga ega. Avvalam bor, bu majburiy tibbiy sug'urtani tashkil etishda tijorat kompaniyalar – tibbiy sug'urta tashkilotlari – ishtirok etadi, ularga qonunchilik bo'yicha bevosita sug'urtachilar vazifasi yuklatilgan.

Majburiy tibbiy sug'urta davlat ijtimoiy sug'urta tizimiga kiradi. Lekin, ushbu sug'urta turi bo'yicha moliyaviy oqimlar harakatida sug'urta tashkilotlar

bevosita qatnashishadi, shuning uchun tegishli mablag'lar sug'urta mukofotlar va sug'urta qoplamalar tarkibida sug'urta sohasida hisobga olinadi.

Majburiy tibbiy sug'urta bo'yicha ushbu sug'urta turini amalga oshirishga huquq beradigan litsenziyaga ega bo'lgan tibbiy sug'urta tashkilotlari sug'urtalovchilar sifatida o'z faoliyatini amalga oshirishadi. Majburiy tibbiy sug'urta turi bilan bir vaqtda ular ixtiyoriy tibbiy sug'urta bilan shugullanishi mumkin. Sug'urta qildiruvchi sifatida ishchilar uchun ish beruvchi, ishsiz aholiga esa ijroiya hokimiyat muassasalari majburiy tibbiy sug'urta shartnomasini tuzishadi.

Sug'urtalangan shaxslarga yordam majburiy tibbiy sug'urta dasturi doirasida amalga oshiriladi. Majburiy tibbiy sug'urta dasturi quyidagilarni ko'zda tutadi:

- tibbiy va dorilik yordamni turlari va amalga oshirish shartlari;
- ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxati;
- dastur doirasida yordam ko'rsatadigan tibbiy tashkilotlarni ro'yxati;
- tibbiy yordamning sifatiga talablar;
- tibbiy xizmatlarga o'rnatilgan tartibda qabul qilingan eng yuksak tariflar.

Majburiy tibbiy sug'urta faqat notijorat asosida amalga oshiriladi, va sug'urta zahiralar vaqtincha bo'sh mablag'larni ishlatishdan olingan daromad quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- tibbiy yordamga to'lovlar zahirasi to'ldirishga;
- tibbiy muassasalarni moddiy-texnik bazasini yaxshilashga;
- sug'urta kompaniya o'zini rivojlanishiga.

Majburiy tibbiy sug'urta dasturlari fuqarolarga ma'lum ko'lamda va shartlarda tibbiy va dorilik yordamni ko'rsatilishini kafolatlaydi. Majburiy tibbiy sug'urta dasturlaridan tashqari tibbiy va boshqa xizmatlar ixtiyoriy sug'urta doirasida yoki pullik ko'rsatilishi mumkin. Majburiy tibbiy sug'urta dasturini davlat tasdiqlaydi.

Majburiy tibbiy sug'urta tizimida hech kimga o'tmishdagi kasalliklar mavjudligi, daromadlarning pastligi, ishlamaydigan oila a'zolarining ko'pchiligi, shartnoma tuzilish paytida kasalliklar, shu qatorda surunkali kasalliklar mavjudligi

va hokazo sabablar bo'yicha sug'urta qilishga rad javob berilmaydi. SHu vaqtning o'zida ayrim sug'urtalangan ko'rsatiladigan tibbiy yordam hajmida hech qanday chek qo'yishi yo'q, agarki yordamning shu turlari majburiy tibbiy sug'urta dasturlariga kiritilgan bo'lsa.

Majburiy tibbiy sug'urta tizimida munosabatlarni tartibga solish maqsadida fuqarolarga tibbiy sug'urta tashkilotni tanlash huquqi yilda bir marta shartnoma tuzilishda beriladi. Majburiy tibbiy sug'urta shartlari bo'yicha sug'urtalangan shaxsda davolanishni sifatida yoki natijasida shubha tug'ilsa, u sug'urta kompaniya orqali ekspertni chaqirishi mumkin. Sug'urtachilar o'z mijozlarining davolanishini faol tekshirishadi. Tibbiy yordamda va sog'liqni saqlashda tenglikni ta'minlash majburiy tibbiy sug'urta fondlariga yuklatilgan. Sug'urta kompaniyalar o'z faoliyatini majburiy tibbiy sug'urta fondlardan olinadigan odam boshiga to'g'ri keladigan badallar asosida amalga oshiradi.

Majburiy tibbiy sug'urta mijozlarni kerak bo'lmagan davolanishlardan va tekshirishlardan, tibbiy tashkilotlarga ortiqcha borishdan, sifatsiz va natija bermaydigan davolanishdan himoya qiladi.

Tibbiy xizmatlar odatda hamma sug'urtalangan shaxslarga bir xil darajada ko'rsatiladi. Sug'urtalangan shaxslarga ko'rsatiladigan faqat davlat tomonidan kafolatlangan, qat'iy va aniq cheklangan tibbiy xizmatlarning to'plami sug'urtalovchi tomonidan moliyalashtiriladi.

Taqdim etiladigan tibbiy xizmatlarni haqiqatan mavjud hajmi va tizimi sug'urta kompaniyasining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi, o'z navbatida, ular majburiy tibbiy sug'urta fondi yig'adigan sug'urta badallariga va to'lovlariga bog'liq.

Bu sug'urtalovchilar sug'urtalangan shaxslarga ko'rsatilgan tibbiy xizmatga haqini to'lash uchun moliyaviy mablag'larni majburiy tibbiy sug'urta fondidan ular orasida tuzilgan shartnoma asosida olishi bilan bog'liq. Shartnoma majburiy tibbiy sug'urta fondi oyida sug'urtalangan shaxslarni soni va tuzilishiga ko'ra va hududda tasdiqlangan odam boshiga to'g'ri keladigan normativlar asosida moliyalashtirish hajmini ko'zda tutadi. Qay yo'sinda, hamma sug'urtalangan

shaxslar uchun tibbiy yordamni olish imkoniyati daromadlar darajasiga (to‘langan badallarga ko‘ra), ijtimoiy holatiga va sog‘lig‘ining ahvoriga qaramasdan baravarlashadi. Bu holatda sug‘urtalovchilar qaltisliklarni saralashdan manfaatdor emas, hamma sug‘urtalanganlar ularni teng darajada qiziqtiradi va ma‘lum darajada daromad keltiradi.

## **15.2. Tibbiy sug‘urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati**

Sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy sug‘urta aholini ijtimoiy himoya sifatida sog‘liqni har qaysisi sabab bo‘yicha, shu qatorda kasallik yoki baxtsiz hodisa oqibatida yo‘qotilishida tibbiy yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi. Tibbiy sug‘urta sug‘urta dasturlar doirasida tibbiy yordamini moliyalashtirish uchun o‘ziga xos sug‘urta fondlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan ta‘minlanadi.

Insonlarni hayotida muhim jihatlaridan biri – bu sog‘liqdir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti sog‘liq deganda to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy osoyishtalikni tushunadi. Qanday holatda bo‘lmasin, sog‘liqni yo‘qotish ta‘sirida shaxs o‘zini va butun jamiyatni xilma-xil ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib borishi mumkin. Shuning uchun sog‘liq ham shaxsiy, ham ijtimoiy qimmatga ega.

Sog‘liqni saqlash tizimining murakkabligi ushbu tizim oldiga respublika fuqarolari salomatligini muhofaza qilishni ta‘minlashga qaratilgan qanday vazifalar qo‘yilganidan kelib chiqadi. Shunisi ravshanki, sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan uni moliyalashtirish tartibiga bog‘liq. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘liqni saqlash tizimini yuz foiz davlat tomonidan moliyalashtirish maqsadga muvofiq kelmaydi. Shu bois respublikada 1998 yilda boshlangan islohotlar sog‘liqni saqlash tizimining byudjet, xususiy va moliyalashtirishning aralash shakli qo‘llaniladigan tibbiyot muassasalaridan bir yo‘la foydalaniladigan modelini yaratishni ko‘zda tutadi.

Mushkul ahvolga tushgan turli aholi guruhlarini moddiy ta‘minlash uchun ijtimoiy munosabatlar yordamida shakllanadigan va ishlatiladigan pullik fondlar, bozor iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy sug‘urtaga asoslangan aholini ijtimoiy himoya tizimidir. Aholini ijtimoiy himoyasi fuqarolarni qariganda, kasal bo‘lganda, to‘liq

yoki qisman mehnatga layoqatligini yo‘qotganda yoki tug‘ilishidan mehnatga layoqat bo‘lmaganda, boquvchini yo‘qotganda, ishsiz qolganda moddiy ta‘minotga konstitutsion huquqini amalga oshirish imkoniyatini beradi<sup>32</sup>.

Ijtimoiy sug‘urtaning tashkil etilishi quyidagi qonun-qoidalarga asoslangan:

- ko‘proq tashkilotlar, muassasalar va davlat mablag‘lari hisobiga fuqarolarni ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha ta‘minlanishining umumiyligi;

- ijtimoiy sug‘urta mablag‘larini ishlatishda va ularni ishchilar tashkilotlari orqali boshqarishda shaxsni, mehnat jamoasini va butun jamiyatning manfaatlarini optimal birikmaligi<sup>33</sup>.

Ijtimoiy sug‘urtaning asosiy vazifalarini aniqlab, tahlil qilish uchun, uni asosiy vazifalarini va turlarini belgilab chiqishimiz kerak. Ijtimoiy siyosatning bir qismi sifatida ko‘rib chiqiladigan ijtimoiy sug‘urtaning eng muhim vazifalariga quyidagilar kiradi:

- sug‘urtalangan shaxsning amaldagi moddiy darajasini saqlab qolish vazifasi;

- zararni qoplash vazifasi;

- tiklash vazifasi;

- qayta taqsimlash vazifasi;

- barqarorlikni ta‘minlash funksiyasi<sup>34</sup>.

Ijtimoiy sug‘urta – bu davlat tomonidan kafolatlangan ishchilarni va ular oila a‘zolarini ijtimoiy qaltisliklardan himoya qiladigan chora-tadbirlar tizimi. Ijtimoiy qaltisliklarga quyidagilar kiradi:

- kasallik;

- baxtsiz hodisa;

- mehnatga layoqatni yo‘qotish;

- bola ko‘rish;

- qarilik;

---

<sup>32</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., Adolat. 2014. 76 b.

<sup>33</sup> Миронов А.А., Таранов А.М., Чейда А.А. Медицинское страхование. – М.: Наука, 2014. – С. 312.

<sup>34</sup> Ахвелидиани Ю.Т. Страхование: учебник для студентов вузов. – 2-е изд., перераб и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014. – С. 567.

- ishsizlik;
- qarindoshlarning vafot etishi.

Ijtimoiy sug'urta mablag'lari hamma mulkchilik shakldagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar ajratmalari, shaxsiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan fuqarolarning badallari hisobidan shakllanadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta tizimi ko'pincha o'z ichiga majburiy tibbiy sug'urtani ham qamrab oladi.

Majburiy tibbiy sug'urtaning farq qiluvchi alomati – bu joriy sug'urta badallarini joriy sug'urta qoplamalariga ishlatishdir. Majburiy tibbiy sug'urtada sug'urtaning yig'ma vazifasi minimal darajada amalga oshiriladi. Bundan tashqari, majburiy tibbiy sug'urta tizimida moddiy zarar qoplanmaydi va fuqarolarga pullik yordam ko'rsatilmaydi. Majburiy tibbiy sug'urta tizimida fuqarolarga majburiy tibbiy sug'urta dasturlari doirasida ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar moliyalashtiriladi, ushbu majburiy tibbiy sug'urtaga xos xususiyatidir.

Majburiy tibbiy sug'urta tizimida hech kimga o'tmishdagi kasalliklar mavjudligi, daromadlarni pastligi, ishlamaydigan oila a'zolarini ko'pchiligi, shartnoma tuzilish paytida kasalliklar, shu qatorda surunkali kasalliklar mavjudligi, va hokazo sabablar bo'yicha sug'urta qilishga rad javob berilmaydi. SHu vaqtning o'zida ayrim sug'urtalangan ko'rsatiladigan tibbiy yordam hajmida hech qanday cheklov yo'q, agarki yordamning ushbu turlari majburiy tibbiy sug'urta dasturlariga kiritilgan bo'lsa.

Ta'kidlash kerakki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda, respublika hukumati olib borgan kuchli ijtimoiy siyosat natijasida davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy-sanitariya xizmatlari hajmi doirasida bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi byudjet moliyalashtirilishi hisobiga ta'minlanadi. Bu o'z navbatida mamlakatda ma'lum darajada majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish zaruriyatini kamaytiradi.

Tibbiy sug'urta sub'ektlari orasida tuziladigan shartnoma asosida tibbiy sug'urta amalga oshiriladi. Majburiy tibbiy sug'urta sub'ektlariga quyidagilar kiradi: sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs, tibbiy sug'urta tashkiloti,

majburiy tibbiy sug'urta fondlari va tibbiy muassasa. Tibbiy sug'urta ob'ekti – bu sug'urtalangan shaxsni sug'urta hodisasi sodir bo'lganda tibbiy yordam ko'rsatilishi bilan bog'langan xarajatlarni qoplash zaruriyati kelib chiqqan moddiy manfaatlar.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta sub'ektlariga quyidagilar kiradi: sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs, tibbiy sug'urta tashkiloti va tibbiy muassasa<sup>35</sup>. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta sub'ektlarni orasidagi munosabatlari ikkita shartnoma asosida amlaga oshiriladi: sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi orasida tuziladigan ixtiyoriy tibbiy sug'urta shartnomasi va sug'urtalovchi va tibbiy tashkiloti orasida tuziladigan tibbiy-oldini olish yordam ko'rsatishi bo'yicha shartnoma.

Majburiy tibbiy sug'urtada sug'urta qildiruvchilar:

- ishsiz aholiga – davlat boshqarish organlari;
- ishchilarga – korxonalar, tashkilotlar, muassasalar ajratmalari, shaxsiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan fuqarolar.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urtada sug'urta qildiruvchilar: to'liq layoqatga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Davlat tomonidan tegishli ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lgan va tibbiy sug'urtani amalga oshiradigan yuridik shaxslar tibbiy sug'urta tashkilotlari hisoblanadi<sup>36</sup>.

Tegishli litsenziyalarga ega bo'lgan tibbiy-profilaktik muassasalar, ilmiy-profilaktik muassasalar, ilmiy-tekshirish va tibbiy institutlar va boshqa muassasalar va tibbiy faoliyatni amalga oshiradigan shaxslar tibbiy sug'urta tizimidagi kiradigan tibbiy muassasalar hisoblanadi.

Shartnoma quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- tomonlarning nomlanishi, shartnomaning amal qilish muddati;
- sug'urtalangan shaxslarning soni, sug'urta badallarni to'lash muddatlari va tartibi;

---

<sup>35</sup> Рубин Ю.Б. Страховой портфель. – М.: Соминтек, 2014.

<sup>36</sup> Сплетухов Ю.А. Страхование: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2015.



- ixtiyoriy yoki majburiy tibbiy sugʻurta dasturlariga toʻgʻri keladigan tibbiy xizmatlarning roʻyxati, tomonlarning huquq va majburiyatlari;

- boshqa qonunchilikka zid boʻlmagan shartlar.

Har qaysi sugʻurtalangan shaxsga yoki sugʻurta qildiruvchiga sugʻurta polisi beriladi. Tibbiy sugʻurta polisi sugʻurtalangan shaxsning qoʻlida boʻlishi lozim.

Tibbiy sugʻurta tizimida fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

- sugʻurta koʻrinishini (ixtiyoriy yoki majburiy tibbiy sugʻurtasi) tanlash;

- sugʻurta shartnomasiga binoan tibbiy sugʻurta tashkiloti va shifokorni tanlash;

- yashash joyidan qatʻiy nazar mamlakat hududida tibbiy yordam bilan foydalanish;

- toʻlangan badal hajmidan qatʻiy nazar munosib hajmda va sifatda tibbiy yordam bilan foydalanish;

- tibbiy sugʻurta tashkilotiga, tibbiy muassasasiga daʼvo bilan chiqish.

### **15.3. Chet mamlakatlarda sogʻliqni saqlash sohasida tibbiy sugʻurtaning tutgan oʻrni**

Jahon tajribasi majburiy tibbiy sugʻurtalashning turli tuman tashkiliy-huquqiy shakllari toʻgʻrisida guvohlik beradi. Ayrim mamlakatlarning majburiy tibbiy sugʻurtalash tizimlarini koʻrib chiqamiz.

Jahonda sogʻliqni saqlash tizimini moliyalashtirish boʻyicha bir necha modellar barpo etilgan. Bugungi kunda AQSH hukumati sogʻliqni saqlash tizimidagi xarajatlarni 40% dan oshiq qismini moliyalashtiradi. AQSH hukumati sogʻliqni saqlash tizimidagi xarajatlarni asosan ikkita dastur orqali moliyalashtiradi: "Medikeyd" va "Mediker".

"Mediker" dasturi boʻyicha 65 yoshdan oshgan barcha amerikaliklar sugʻurtalanadi. "Mediker" dasturini bir qismi barcha ishchilarga qoʻllanadigan oʻziga xos soliq orqali moliyalashtiriladi. Ushbu soliqning bir qismini ishchilar, kolgan qismini – ish beruvchilar toʻlaydi. Umuman olganda, ushbu soliq

ishlaydigan amerikaliklarning daromadidan 15% tashkil etadi. "Mediker" dasturining qolgan qismi daromad solig'idan moliyalashtiriladi.

"Medikeyd" dasturi bo'yicha kam ta'minlangan oilalardagi ayollar va bolalar sug'urtalanadi. Bundan tashqari, ushbu dastur bo'yicha keksalar uyidagi davolanish ham moliyalashtiriladi. "Medikeyd" dasturi federal va shtatlar hukumati orqali moliyalashtiriladi.

Bugungi kunda AQSHda aholining 20% gacha qismi hech qanday tibbiy sug'urtasidan foydalanmaydi<sup>37</sup>. Yollanma mehnat asosida ishlaydigan mehnatga layoqatli fuqarolar va ularning oilalari ish joylaridan (taxminan 60% ishlaydiganlar) yoki sog'liqni xususiy sug'urtalash tizimi orqali tibbiy sug'urta bilan qamrab olinganlar. Amerikacha ixtiyoriy tibbiy sug'urta faqatgina aholining yuqori daromadlar darajasi mavjud bo'lganda amal qilishi mumkin.

Germaniya sog'liqni saqlash tizimini ham davlat tomonidan, ham sug'urta tomonidan moliyalashtiradi. Tibbiy sug'urta sohasida katta tajriba Germaniyada to'plangan. 100 yil oldin bu yerda birinchi majburiy ijtimoiy sug'urta amalga kiritildi. Xozirgi kunda Germaniya sug'urta tizimi Evropada eng rivojlangan tizimlaridan biridir.

Fransiyada sog'liqni saqlash tizimi moliyalashtirishni tibbiy majburiy sug'urtasi 75-80% ta'minlaydi, qolgan qismi ixtiyoriy tibbiy sug'urtasi va fuqarolar o'zini mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, majburiy tibbiy sug'urtaga faqat ishchilar tortiladi<sup>38</sup>.

Shveysariyaning butun axolisi majburiy tibbiy sug'urtasiga tortilishi lozim, shu qatorda uch oydan kamroq ishlaydigan mavsumiy ishchilar ham sug'urtalanishi lozim. Shveysariyaga yangi kelgan va yangi tug'ilgan uch oy ichida majburiy tibbiy sug'urtaga tortilishi lozim<sup>39</sup>.

Shveysariyada har qaysi inson o'zi tanlagan kasalxona kassasiga sug'urta badallarini (sug'urta mukofotini) to'laydi. Sug'urta badallarni miqdori shaxsning

---

<sup>37</sup> Гришин В.В. Обязательное медицинское страхование: состояние, анализ, пути развития. Экономика и жизнь. – Т., 2016. - № 3. – С. 15.

<sup>38</sup> Литовка П.И., Литовка А.Б., Чебоненко Н.В. Добровольное медицинское страхование: правовой режим и перспективы развития. – М.: БЕК, 2015. – С. 125.

<sup>39</sup> Медицинское страхование за рубежом. – М.: Москва. 2013. – С. 256.

daromadiga bog'liq emas. Kam ta'minlangan aholining sug'urta badallari to'liq yoki qisman davlat tomonidan to'lanadi.

Gollandiya aholisining asosiy qismi majburiy tibbiy sug'urtaga umumiy milliy fond orqali tortiladi. Majburiy tibbiy sug'urtaning xarajatlarini 85%ni umumiy milliy fond qoplab beradi. Qolgan qismini shaxslar to'g'ridan-to'g'ri tibbiy sug'urta qildiruvchilarga to'laydi<sup>40</sup>.

Avstraliyaning butun aholisiga tegishli Medicare davlat tibbiy tizimi 1984 yildan boshlab o'z faoliyatini amalga oshiradi. Medicare davlat tibbiy tizimini asosiy maqsadi – butun avstraliyaliklarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlash. Avstraliyaning har qaysi layoqatga ega bo'lgan fuqarosi Medicare Card shaxsiy kartochkasiga ega. Medicare davlat tibbiy tizimi ishchilar oyligidan avtomatik chegirmalar va qisman byudjet hisobidan moliyalashtiriladi. Kam ta'minlanganlar, talabalar va pensionerlar badal to'lashdan ozod qilingan, harbiylar daromadidan 0,2% miqdorida, kolganlar esa - 1,5% miqdorida Medicare davlat tibbiy tizimiga badallar to'laydi. Medicare davlat tibbiy tizimi sog'liqni saqlash xarajatlarini 8%ni ta'minlaydi<sup>41</sup>.

Kanada sog'liqni saqlash ishlariga YAIM hajmining 9,5 foizini sarf qiladi. Bu kishi boshiga o'rtacha 2500 AQSH dollarni tashkil qiladi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, Kanadaning ko'pchilik aholisi sug'urtaning mazkur turini ratsional (72%), ehtiyojga qarab xizmatlar tanlashga imkon beruvchi (67%) va tibbiyot xizmatchilarining javobgardigini oshiruvchi chora (55%) sifatida baholagan<sup>42</sup>.

Chet elda majburiy tibbiy sug'urtani joriy etishda sug'urta bo'yicha to'lovlar manbaining belgilanishi eng muhim masala hisoblanadi. Bu holda fuqarolar va korxonalar daromadlari va byudjet mablag'lari to'lov manbalari bo'lishi mumkin.

Majburiy tibbiy sug'urta bilan qamrab olinadigan alohida toifadagi fuqarolar yuqorida keltirilgan manbalar biri yoki u yoxud bu turdagi to'lov manbalari birgalikda to'lov manbasi vazifasini o'tashi mumkin.

---

<sup>40</sup> David Bland Insurance: Principles and Practice. The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 2003.

<sup>41</sup> Ветрова Н. Финансирование здравоохранения в Австралии. – М.: Бизнес. – 2013. №5-6.

<sup>42</sup> Абдуллаев Ф. Мажбурий суғурта афзалликлари // Халқ сўзи, 2009 йил 25 апрель. №43.

Rivojlangan mamlakatlarda majburiy tibbiy sug'urta ishchilardan, ish beruvchilardan va qisman davlatdan yig'ilgan badallardan shakllantirilgan nodavlat sug'urta fondlarga asoslangan. Ushbu fond mablag'lari hisobiga tibbiy xizmatlar qoplanadi.

Chet el davlatlarida majburiy tibbiy sug'urta bo'yicha badallar to'lashining taqsimlanishi 11-jadvalda keltirilgan.

11-jadval

**Majburiy tibbiy sug'urta badallarini taqsimlanishi  
(ish haqidan %da)<sup>43</sup>**

Mamlakat	Ishchilar	Ish beruvchilar	Mustaqil ravishda qoplanadigan xarajatlar
Xizmat ko'rsatish asosida amalga oshiriladigan majburiy tibbiy sug'urta			
Germaniya	6,70	6,70	Kasalxonada davolanish va dorilar
Niderlandiya	9,95	10,20	Ko'zda tutilmagan
Xarajatlarni qoplash asosida amalga oshiriladigan majburiy tibbiy sug'urta			
Belgiya	4,70	6,20	Kasalxonada davolanish va dorilar
Fransiya	6,80	12,80	
Lyuksemburg	4,50	4,50	

12-jadval

**G'arbiy Evropada tibbiy sug'urta<sup>44</sup>**

Mamlakat	Aholi ichida sug'urtalanganlar ulushi, %	Sug'urtalanganlar soni, mln. kishi	Badallar hajmi, mln.evro	Bitta sug'urtalangan a to'g'ri keladigan badal, evro
Avstriya	37,5	2,8	1337	483
Angliya	25,5	14,5	2751	190
Germaniya	16,9	10,3	15080	1464
Gollandiya	39,4	5,7	4244	738
Daniya	20,0	1,0	169	169
Ispaniya	15,0	5,6	1210	214
Fransiya	18,0	10,0	5820	582

<sup>43</sup> Гришин В. В., Бутова В.Г., Резников А.А. Модели системы обязательного медицинского страхования. – М.: Финансы. 2015.- №3.

<sup>44</sup> www.swissre.com sayt ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xorijiy mamlakatlar sugʻurta bozorida majburiy tibbiy sugʻurtasining oʻziga xos oʻrni bor. Ushbu sugʻurta turi boʻyicha yigʻib olinadigan sugʻurta mukofotlari jami sugʻurta mukofotlari tarkibida salmoqli ulushga ega.

Gʻarbiy Evropada aholini ichida tibbiy sugʻurta tortilgan shaxslarni ulushi va bitta sugʻurtalangan toʻgʻri keladigan badali mamlakatlar boʻyicha turlidir.

Buyuk Britaniyada sogʻliqni saqlash tizimini toʻgʻridan-toʻgʻri davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Aholining 11% ixtiyoriy tibbiy sugʻurta polislariga ega. Buyuk Britaniyada sotsial sugʻurtalash va taʻminlash tizimining asosida uch turdagi toʻlovlar bor: davlat sugʻurtasi boʻyicha nafaqa va yordam, universal yordam, tanlanma yordam. Ushbu tizimning falsafasi fuqarolarning faol hayotiy pozitsiyasi shakllanishiga (masalan ishsizlik boʻyicha nafaqa faol ravishda ish izlayotgan shaxslarga beriladi), sotsial barqarorlikni bartaraf etishga jamiyat hayotining barcha sohalarida tanlash imkoniyatini koʻpaytirishga yoʻnaltirilgan<sup>45</sup>.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, majburiy tibbiy sugʻurtaning universal modeli amaliyotda yoʻq. Har bir mamlakat uzining sogʻliqni saqlash va sugʻurta tizimidan kelib chiqqan holda majburiy tibbiy sugʻurta tizimini yaratadi. Xorijiy mamlakatlarda sogʻliqni saqlash tizimini moliyalashtirishning turli koʻrinishlari mavjud boʻlib, unda davlatning aholi salomatligini muxofaza qilishdagi ishtiroki darajasi xar xil. Koʻpchilik xorijiy mamlakatlarda qoʻllanadigan tibbiy sugʻurtalash asosiy tamoyillari tahlili shuni koʻrsatadiki, deyarli hamma joyda sugʻurta qilingan shaxslarning ayrim tibbiy xizmatlar uchun qisman pul toʻlashi keng qoʻllanadi.

Mamlakatda tibbiy sugʻurta rivojlanishiga bir qator omillar mamlakatning umumiy iqtisodiy holati, inflyasiya darajasi, aholi daromadlari, moliya-bank tizimining rivojlanganlik darajasi, din va eʼtikod, xamda institutsional omillar sezilarli taʻsir koʻrsatadi.

Sugʻurta oʻziga xos xususiyatlarga ega barqarorlashtiruvchi mexanizm boʻlib, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beradi va turli xildagi omillarning salbiy taʻsiri darajasini pasaytirish orqali mamlakatdagi

---

<sup>45</sup> Плешков А.П. Очерки зарубежного страхования. – М.: Анкил, 2007, 56 с.

makrooqtisodiy vaziyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi<sup>46</sup>. Shunday ekan, turli xorijiy davlatlarda tibbiy sug'urta mexanizmidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish chora tadbirlari amalga oshirib boriladi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, O'zbekiston ham bundan mustasno emas, fuqarolarning tibbiy yordam olish bilan bog'liq xarajatlari majburiy yoki/va ixtiyoriy sug'urtalash mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Majburiy sug'urtalashda aholining ayrim qatlamlari (ishlamaydigan aholi: pensiya oluvchilar, bolalar va shu kabilar) uchun davlat tomonidan moliyalashtirilishning byudjet manbai soliqlar hisobidan to'ldiriladi. Byudjet xarajatlarining mazkur modda bo'yicha mablag'lari maxsus davlat fondida to'planadi va bu fond mablag'larni majburiy tibbiy sug'urtani amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan sug'urta kompaniyadari o'rtasida taqsimlaydi. Sug'urta kompaniyalari, o'z navbatida, davlat va tibbiyot muassasasi o'rtasidagi vositachi sifatida, bu muassasalarning tibbiy xizmatlarini iqtisodiy ekspertiza qilish bilan va ajratilgan mablag'lardan foydalanishning samaradorligi muammosini hal etish bilan shug'ullanadilar<sup>47</sup>.

Xususan, Germaniyada ijtimoiy sug'urtaga daromadlarni taqsimlashning muhim mexanizmi sifatida yondashiladi. Bunda majburiy tibbiy sug'urta bilan aholining taxminan 90% qamrab olingan. Aholining taxminan 10% yuqori va juda yuqori daromadga ega qatlami faqat ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlaridan foydalanadi, majburiy tibbiy sug'urta tizimiga kiruvchi taxminan yana 5% aholi qo'shimcha ravishda ixtiyoriy tibbiy sug'urtadan ham foydalanadi, bu esa boshqa shifokorni tanlash, gospitallashning qulayroq usullarini tanlab olish yoki kasallanganda qo'shimcha tovon puli olishi mkonini yaratadi<sup>48</sup>. Germaniyada har bir tizim faoliyat ko'rsatish manbalarining shakllanishiga ko'ra quyidagicha moliyalashtiriladi, sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning 60% majburiy tibbiy sug'urta fondlariga to'lanadigan badallar orqali, 10% tijorat asosidagi sug'urtalash

---

<sup>46</sup> Лаврова Ю.А. Медицинское страхование в ФРГ и возможности использования этого опыта в условиях современной России. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. М., 2003.

<sup>47</sup> Четыркин Е.М. Медицинское страхование за Западе и в России // Мировая экономика и международные отношения, 2015. - №12.

<sup>48</sup> Хорсткотте Х. Система страхования в Германии // Проблемы теории и практика управления. 2015.- № 5.

mablagʻlari hisobiga, taxminan 15% davlat byudjeti resurslari hisobiga va taxminan 15% fuqarolarning shaxsiy mablagʻlaridan tashkil topadi<sup>49</sup>.

Shu tariqa, har bir davlat tibbiy yordamni moliyalashtirilishini tashkil etish boʻyicha javobgarlikni ijtimoiy sugʻurtalash tizimini barpo etish orqali oʻz zimmasiga olgan boʻlib, u mamlakatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatga moslashgan boʻladi. Ayni chogʻda, majburiy sugʻurtaning rivoji qanchalik kuchli boʻlmasin, ixtiyoriy tibbiy sugʻurtaning vujudga kelishiga toʻsqinlik qila olmadi. Aksincha, sugʻurtalashning bu sohasining rivojlanishidagi keyingi yigirma – oʻttiz yil ichida ijtimoiy taʼminot va fuqarolarning himoyalaniishi tizimida u mustahkam oʻrin oldi. Aynan ixtiyoriy tibbiy sugʻurta sharofati bilan majburiy (davlat) sogʻliqni saqlash tizimi doirasida sugʻurta tamoyillarini qoʻllash imkoniyati tugʻildi. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlar, xususan, AQSH, Germaniya, Fransiya va Shveysariya kabi davlatlarda tibbiy sugʻurta nisbatan rivojlangan.

Koʻplab xorijiy mamlakatlarda tibbiy xizmatlar boʻyicha toʻlovlar tizimi va tibbiy yordam preyskuranti davlat nazorat idoralarining alohida eʼtibor beradigan narsasi va alohida tartibga solish obʼekti hisoblanadi. Bunday muzokaralarda tomonlarning manfaatlari qarama-qarshi boʻlgani, sugʻurtalovchi esa aholining talaygina qismining manfaatlari yuzasidan ish koʻrishi sababli, bu munosabatlar muzokaralarni olib borish jihatidan ham, baholarni muvofiqlashtirish jihatidan ham, bir yil davomida qiymatning oʻsishi jihatidan ham qatʼiy chegaralangan. Bitta tibbiyot muassasasi tomonidan turli sugʻurta kompaniyalariga taqdim etilayotgan tibbiy xizmatlar tariflarining mutanosibliigi koʻpincha alohida sinchiklab nazorat qilish obʼekti boʻlib yuz koʻrsatadi.

Koʻp mamlakatlarda ixtiyoriy tibbiy sugʻurta majburiy tibbiy sugʻurtaga muqobil soha sifatida emas, balki qoʻshimcha toʻldiruvchi sifatida xizmat qiladi. Bunda ixtiyoriy sugʻurta tibbiy xizmatlarni bir muncha qulay va maqbul sharoitlarda va bir muncha yuqori narxlarda taqdim etadi. Mana shu omil ixtiyoriy tibbiy sugʻurta doirasida koʻrsatiladigan, jumladan statsionar klinikalarda

---

<sup>49</sup> [www.biznes.dir.bg](http://www.biznes.dir.bg) elektron manba.

ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmini (hissasini) kvotalashni davlat tomonidan tartibga solinishining maqsadga muvofiqligini taqazo etadi<sup>50</sup>.

Tibbiy sug‘urtaning xorijdagi zamonaviy tizimlarida moliyalashtirishning uchta manbasi etakchilik qiladi. Ular: davlat subsidiyalari, ish beruvchilarning maqsadli badallari va ishchilarning o‘zlari to‘laydigan badallar. Ushbu manbalarning nisbati turli mamlakatlarda turlicha bo‘lib, bir biridan katta farq qiladi. Germaniyada majburiy tibbiy sug‘urta tizimi bir necha o‘n yillardan beri barqaror ravishda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, sug‘urtalanuvchilarning huquqlarini ximoya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Germaniya qonunchiligiga binoan, har bir amaliyotchi vrach o‘zining kasb javobgarligini sug‘urtalashi shart. Aynan mana shu tartib mamlakatda tibbiy yordam sifatini va bemorlar huquqlari muxofazasini taminlashning muhim omili hisoblanadi. Jabrlangan tomon ko‘proq tovon olish imkoniyatiga ega.

Barcha mamlakatlarga xos bo‘lgan xorijiy ilg‘or tajribaning bosh xususiyati shuki, tibbiy sug‘urtaning ikkala – majburiy va ixtiyoriy tizimi ham bir-birini to‘ldirib turadigan modelni tashkil etadi va bu barcha yoki deyarli barcha kasalliklar va uning oqibatlarini qoplama bilan ta‘minlash imkoniyatini beradi. Ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urtalar o‘rtasida “javobgarlikni” taqsimlash har bir mamlakatda bir-birovidan farq qiladi.

Ayrim mamlakatlarda ixtiyoriy tibbiy sug‘urta ikkinchi darjali ahamiyatga ega (masalan, Buyuk Britaniyada) va tibbiy xizmatlar xarjatlarini qoplashning qo‘shimcha manbai bo‘lib hisoblanadi. Boshqa mamlakatlarda esa, masalan, Germaniya va Niderlandiyada ancha muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, zero u majburiy (davlat) sug‘urtasining o‘rnini bosishi ham mumkin. Umumiy qoidaga ko‘ra, xorij tajribasida tibbiy sug‘urtaning uyg‘unlashgan (ham majburiy, ham ixtiyoriy) tizimidan foydalanilganda, aholining qanchalik ko‘p qismi majburiy (davlat) tibbiy sug‘urtasiga jalb etilgan bo‘lsa, shuncha kamroq qismi ixtiyoriy sug‘urtadan foydalanadi.

---

<sup>50</sup> Шишкин С.В. Пути реформирования систем социального и обязательного медицинского страхования. – М.: Институт экономики переходного периода, 2015.



Rivojlanayotgan mamlakatlarda sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish va uni moliyalashtirishning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, unda davlatning aholi salomatligini muxofaza qilishdagi ishtiroki darajasi har xil. Rivojlanayotgan davlatlarning tajribasini o‘rganar ekanmiz, majburiy meditsina sug‘urtasi sug‘urta madaniyatini oshiradi va tibbiy sug‘urta maxsulotlariga bo‘lgan ishonch darajasini ko‘taradi. Bu esa o‘z navbatida tibbiy xiyoriy sug‘urta turlarini rivojlanishiga olib keladi.

#### **15.4. O‘zbekistonda ixtiyoriy tibbiy sug‘urta bozorining mavjud tizimi xususiyatlari**

Mustaqillik yillarida milliy sug‘urta bozorida tubdan o‘zgarish yuz berdi. Bugungi kunga kelib, ishonch bilan aytish mumkinki, sug‘urtalash mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. Sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish va islohotlashtirish bilan bog‘liq ravishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar majmuasi, ayniqsa, uning sug‘urta qonunchiligini takomillashtirishdek muhim tarkibiy qismi birinchi navbatda aholini sug‘urta bilan maksimal darajada qamrab olishga qaratilgandir. Shu tariqa uning ijtimoiy himoyalanganligi ta‘minlanadi, aholining sug‘urta tashkilotlariga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi, bu esa oxir-oqibatda sug‘urta xizmatlari iste‘molchilarining manfaatlarini birinchi darajaga ko‘taradi.

Davlatimiz rahbarining sug‘urta bozorini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan asosiy qarorlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 aprelda qabul qilingan «Sug‘urta bozorlarini yanada islohotlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori bo‘ldi. Mazkur qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorini islohotlashtirish va rivojlantirishning 2007-2010 yillarga mo‘ljallangan Dasturi tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra boshqa qonuniy hujjatlar bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasining «Tibbiy sug‘urtalash to‘g‘risida»gi Qonunining qabul qilinishi ko‘zda tutilgan edi.

Buning sababi shuki, bugungi kunga kelib tibbiy sug‘urtalash masalalari alohida me‘yoriy hujjat bilan tartibga solinmaydi. Shu munosabat bilan, mazkur

alohida qonun qabul qilingach, ko'ngilli va majburiy tibbiy sug'urtani amalga oshirish uchun qonuniy asosni barpo etish ko'zda tutilgan. Bugungi kunda mustaqillikning dastlabki yillariga qaraganda ixtiyoriy tibbiy sug'urta ko'proq rivojlangan – ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlari ko'rsatuvchi sug'urta kompaniyalarining soni ko'paygan, shunga mos ravishda tibbiy sug'urtalash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar ham asta-sekin yuksalib bormoqda, sug'urtalashning ushbu turi bo'yicha ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining sifati ortib bormoqda.

Endi esa respublikada ixtiyoriy tibbiy sug'urtalashning mavjud tizimi haqida to'xtalib o'tamiz. Sug'urta xizmatlari bozorida ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash bilan bir nechagina kompaniya shug'ullanayotganligiga qaramay, bunday xizmatlar ko'rsatish sharoitlari va mexanizmi amalda bir-biridan farq qilmaydi. Tibbiy sug'urta xizmatlari ko'rsatishda sug'urta kompaniyalari assistans kompaniyalarining xizmatlaridan foydalanadilar. Assistans kompaniyalarining asosiy vazifai sug'urtalangan shaxslarga tibbiyot muassasalar orqali tibbiy xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilishdan iboratdir. Buning uchun assistans kompaniyalari Sug'urtalovchilardan (Sug'urtalangan shaxslardan) sug'urta hodisalari to'g'risida kecha-kunduz uzluksiz xabarlarini qabul qilib turishni, shuningdek, Sug'urtalovchilarga (Sug'urtalangan shaxslarga) sug'urta shartnomasi doirasida taqdim qilingan sug'urta polisi asosida kerakli yordam ko'rsatishni tashkil qilishlari lozim. Assistans kompaniyalarga qo'yilgan bunday talab O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 9-9-moddasi bilan belgilab qo'yilgan.

*Sug'urta ob'ektlari (sug'urta manfaati).* Ba'zan tibbiy sug'urtalashni shaxsiy masala deb, sug'urtalashda mol-mulk bilan emas, balki Sug'urtalangan shaxsning shaxsiyati bilan bog'liq manfaat sug'urtalanadi, deb hisoblanadi. Biroq, bu xatodir.

Tibbiy sug'urtalashda Sug'urtalangan shaxsning unga kasallik tufayli etkazilgan, qo'shimcha xarajatlarni taqozo qilgan zarar bilan bog'liq manfaatlari

sug'urtalanadi<sup>51</sup>. Agar kishi kasallikka chalinmasa, bu xarajatlar ham bo'lmas edi. Shuning uchun tibbiy sug'urta sug'urtaning mulkiy turiga kiradi. Ammo, tibbiy sug'urtaning mulkiy sug'urtaning boshqa turlariga nisbatan alohida xususiyati shundaki, sug'urta to'lovlari etkazib bo'lingan zararning xarakteriga ega bo'lmaydi, balki ular ushbu zararning oldini oladi, chunki davolash xarajatlarini Sug'urtalangan shaxsning o'rniga sug'urtalovchi to'laydi.

*Tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urta hodisasi:* Sug'urtaning ushbu turi bo'icha sug'urta hodisasi deb Sug'urtalangan shaxsning sug'urta muddati davomida tibbiy xizmat ko'rsatilishini talab qilib tibbiyot muassasasiga murojaat qilishiga aytiladi. Bunda ushbu murojaatga mijozning salomatligiga baxtsiz hodisa, o'tkir kasallik yoki surunkali kasallikning kuchayishi kabi sabablar orqali zarar etgan bo'lishi lozim (ko'zda tutilgan istisnolardan tashqari). Natijada Sug'urtalovchining Sug'urtalangan shaxsga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun sug'urta summasi va limiti doirasidagi sug'urta to'lovini amalga oshirishi majburiyati vujudga keladi.

*Risklarni baholash usullari, qanday risklar qanday miqdorda sug'urtalanadi?*

Avval aytib o'tilganidek, O'zbekistonda risklarni baholash uchun salomatlikning ahvoli to'g'risidagi deklaratsiya qo'llaniladi. Agar Sug'urtalangan shaxs ushbu deklaratsiyada ma'lum bir surunkali kasallik borligini ko'rsatsa, asosiy sug'urta mukofotiga oshiruvchi koeffitsient qo'llaniladi. Sug'urta mukofotining miqdorini aniqlashda Sug'urtalangan shaxsning yoshi, sug'urtalash dasturi, sug'urta summasi va albatta, sug'urtalash davri kabi muhim omillar asosiy rol o'ynaydi. Biroq, agar juda ko'p sonli Sug'urtalangan shaxslarni sug'urtalash lozim bo'lsa, yosh mezonini odatda hisobga olinmaydi.

Sug'urtalash dasturi Sug'urtalangan shaxslarning quyidagi xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq ma'lum xarajatlarni qoplashni ko'zda tutishi mumkin:

- Ambulatoriya-poliklinika xizmati ko'rsatish;
- Shifokorni uyga chaqirish;

---

<sup>51</sup> Ю.Фогельсон Введение в страховое право. Просто о сложном. 2-ое издание, М., БИК, 2014. с-207.

- Tez va shoshilinch tibbiy yordam;
- Statsionar xizmat ko'rsatish;
- Ambulatoriya-poliklinika xizmati ko'rsatish davrida dori-darmon bilan ta'minlash;
- Favqulodda shoshilinch stomatologik yordam;
- Emlash;
- Tibbiy tekshiruv;
- Tibbiy evakuatsiya va boshqalar.

Homiladorlik va farzand tug'ilishi bilan bog'liq xarajatlar standart sug'urta shartnomalarida ko'zda tutilmaydi va istisnolar toifasiga kiritiladi. Bu yerda shuni aytib o'tish o'rinliki, bunday istisnolarga sog'liqni saqlash tizimi ta'sir qiladi, masalan, O'zbekistonda farzand tug'ilishi yoki yuqumli kasalliklarni davolash bepul bo'lib, bu mazkur hodisalarni istisno qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, sug'urta mukofoti ham O'zbekiston Respubliki fuqarolari uchun fuqaro bo'lmaganlardan ko'ra ko'proq miqdorda belgilanadi. Buning sababi shuki, tibbiyot muassasalaridagi narxlar fuqarolar va yurtimiz mehmonlari uchun alohida tayinlangan.

U yoki bu shaxsni sug'urtaga qabul qilish mexanizmi, ya'ni ko'ngilli tibbiy sug'urta polisini sotish va sug'urta polisi bo'yicha xizmat ko'rsatish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Shartnoma tuzishda sug'urtalangan shaxs salomatlik holati to'g'risida deklaratsiya to'ldiradi. Bu hujjat ma'lum savollardan (masalan, «Surunkali kasallikka chalinganmisiz?») iborat bir varaqli anketa bo'lib, unga ko'ra sug'urtalovchi sug'urtalangan shaxsning salomatlik holatini va sug'urta uchun qabul qilinadigan risklarni aniqlaydi. Agar bir necha shaxs (o'n kishidan ortiq) sug'urtalanayotgan bo'lsa, muayyan vaziyatga bog'liq ravishda sug'urtalovchi salomatlik holati to'g'risida deklaratsiya to'ldirishni talab qilmasligi mumkin. Sug'urta shartnomasi imzolanib, sug'urta mukofoti kelib tushgach, sug'urtalovchi

assistans xizmatiga bordero<sup>52</sup> yuboradi. Borderoda ko'rsatilishi shart bo'lgan ma'lumotlarga Sug'urtalangan shaxsning to'liq ismi-sharifi, sug'urta polisining tartib raqami, sug'urtalash dasturi, sug'urtalash muddati va shartnoma shartlari kiradi.

Sug'urtalangan shaxs kasallikka chalingan taqdirda assistans xizmatiga murojaat qiladi. Xizmat sug'urtalangan shaxsning murojaati sug'urta hodisasi bo'lish-bo'lmasligini aniqlaydi. Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, koordinatorlar sug'urtalangan shaxsga sug'urtalovchi bilan tibbiy xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan u yoki bu tibbiyot muassasasiga yo'llanma beradilar. Ushbu tibbiyot muassasasida sug'urtalangan shaxsga ma'lum miqdorda tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi. Sug'urtalangan shaxs tibbiyot muassasasiga kelganda sug'urta polisini va shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko'rsatishi lozim. Sug'urtalangan shaxsga kerakli xizmatlar ko'rsatilgach, u o'ziga belgilangan miqdordagi xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lmish maxsus blankka imzo chekadi. Tibbiyot muassasasi sug'urtalangan shaxsga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun hisoblarni assistans xizmatiga taqdim qiladi. Xizmat o'z navbatida (masalan, to'lovni mustaqil ravishda amalga oshirgach) uni Sug'urtalovchiga etkazib beradi. Sug'urtalovchi ko'rsatilgan xizmatlarning ko'ngilli tibbiy sug'urta shartnomasi shartlariga mosligini tekshirib ko'rgach, belgilangan tartibda hisoblar bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

*Asosan birlamchi yordamni sug'urtalash.* Ko'pchilik hollarda surunkali kasalliklarni davolash emas, balki faqat shoshilinch tibbiy yordam sug'urtalanadi. Masalan, bunday sug'urtalash dasturlarida yuqumli, onkologik, tanosil, ruhiy kasalliklar, qand diabeti, sil va shu kabi kasalliklar tufayli tibbiy yordam so'rab murojaat qilish sug'urta hodisalari deb tan olinmaydi. Buning sabablaridan biri shuki, sug'urta hodisalaridan istisno qilingan kasalliklarning ko'pchiligi mamlakatimiz qonunchiligiga ko'ra bepul davolanishi kerak. Yana bir sabab – bir qator kasalliklarning sug'urta doirasiga kiritilishi (masalan, qand diabeti) sug'urta

---

<sup>52</sup> Бордеро (фр. *Bordereau*) - перечень принятых на страхование и подлежащих перестрахованию рисков. А.А.Гвозденко Страхование. Учебник., Проспект, М. 2006г.

kompaniyalarining riskini jiddiy oshirib yuboradi va ularni sug'urta mukofoti miqdorini oshirishga majbur qiladi.

Sug'urta shartnomalarining atigi 40 foizigina (ekspert baholarga ko'ra) sug'urta hodisalarining minimal standart to'plami doirasidan tashqaridir. Sug'urtalashning bunday kengaytirilgan dasturlari turli kasalliklarning davolanishi va profilaktikasini o'z ichiga oladi. Biroq, tabiiyki, ular Sug'urtalovchiga qimmatga tushadi.

*Korporativ sug'urtalashning ustuvorligi.* O'zbekistonda ko'ngilli tibbiy sug'urta bo'yicha shartnomalarning asosiy qismi (ekspert baholarga ko'ra 80-90% qismi) hozircha o'z xodimlarini va ayrim holarda – o'z oila a'zolarini sug'urtalovchi korxonalar bilan tuzilmoqda.

Odatda, sug'urta kompaniyalar uchun jismoniy shaxslardan ko'ra korporativ mijozlar bilan ishlash manfaatliroqdir. Birinchidan, bunda ko'lamdan tejaladi: mijozlarni jalb qilish va ularga xizmat ko'rsatishning o'rtacha xarajatlari qisqaradi. Ikkinchidan, bunda ommaviylik ta'minlanadi va bu sug'urta biznesining daromad keltiruvchanligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Uchinchidan, o'z-o'zini mustaqil ravishda sug'urtalovchi jismoniy shaxslardan farqli ravishda kompaniyalarning xodimlari sug'urta summasini faol sarflashga unchalik intilmaydilar. Gap shundaki, korporativ sug'urtalashda xodim uchun sug'urta mukofotini korxonaga to'laydi, jismoniy shaxs esa uni o'zi to'laydi, shuning uchun ham sarflagan pullari evaziga maksimal foyda olishga, ya'ni sug'urta summasining hammasini sarflashga intiladi.

*Ixtiyoriy tibbiy sug'urta rivojlanishining imidj xarakteri.* O'zbekistonda Ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatish asosan foyda keltirmaydi. Biroq sug'urta kompaniyalari sug'urtalashning ushbu turini o'z xizmatlari assortimentini kengaytirish maqsadida joriy qilib, rivojlantiradilar, chunki bu korporativ mijozlarni jalb qiladi. Sug'urtalashning bir turi bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning sifatlaridan qoniqqan mijoz ushbu kompaniyaning boshqa xizmat turlarini ham bajonidil sotib oladi. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari ko'ngilli tibbiy

sug'urtadan keladigan zararlarni sug'urtalashning boshqa turlari va boshqa faoliyat turlari hisobiga moliyalashiradilar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urta xizmatlari ko'rsatish tartibi va shartlari respublika bo'yicha amalda bir xildir. Ya'ni, ishonch bilan aytish mumkinki, aynan ko'ngilli tibbiy sug'urta xizmatlari ko'rsatib kelinayotgan 8-10 yil davomida ular bozorda ma'lum darajada unifikatsiyalanganidir. Shu munosabat bilan, ushuning ila O'zbekistonda ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi bo'yicha tibbiy xizmatlarni ko'rsatishning taxminiy tartibi tavsif qilinadi.

Og'ir kasallikka uchraganda yoki surunkali kasallik kuchayganda Tibbiy sug'urta dasturida ko'zda tutilgan tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun Sug'urtalovchining Assistans Xizmatining kechayu kunduz faoliyat ko'rsatuvchi dispetcherlik markaziga murojaat qilish lozim.

Assistans Xizmati Operatori sug'urtalangan shaxsni Sug'urtalovchining mijozlar haqidagi axborotlar kiritilgan ma'lumotlar bazasidan aniqlaydi, so'ng sug'urtalangan shaxsning holati, uning istaklari va talab qilinayotgan yordamning xarakteridan kelib chiqqan holda uni tibbiyot muassasalaridan biriga yuboradi yoki zarur hollarda sug'urtalangan shaxs uchun tez yordam guruhini chaqiradi.

Sug'urtalangan shaxsga tibbiyot muassasalaridagi xizmatlar ushbu muassasaning mas'ul xodimiga u taqdim etgan Sug'urta polisi (servis kartochkasi) va Sug'urtalangan mijozning shaxsini aniqlovchi hujjat asosida ko'rsatiladi.

Sug'urtalangan shaxs tibbiyot muassasasiga har safar murojaat qilganda belgilangan muolajalarni o'tab bo'lgach, tibbiyot xizmatlaridan foydalanganligini tasdiqlash uchun hisob kartasiga imzo chekishi hamda xizmatlar narxining tibbiyot muassasasining amaldagi preyskurantlariga mosligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Sug'urtalovchi har kalendar oyining so'nggida hisob kartasidagi ma'lumot asosida (hisoblar bo'yicha to'lovlar davriyligi turli Sug'urtalovchilarda turlicha bo'lishi mumkin) tibbiyot muassasasining hisoblari bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

## **15.5. O‘zbekiston Respublikasida majburiy tibbiy sug‘urtani tatbiq etishdagi muammolar**

Aholi salomatligi holati nafaqat mamlakatning ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va gigienik sog‘-salomatligi aks ettirilishining asosiy ko‘rsatkichi, balki jamiyatning kuchli iqtisodiy, mehnat, mudofaa va madaniyat potentsiali hamda farovonlik omili va tarkibiy qismidir.

An‘anaviy aholi salomatligi holati, quyidagi aniqlovchi ko‘rsatkichlar tizimida tavsiflanadi:

- aholining takror ishlab chiqarish xususiyatlari (demografik tavsinoa);
- jismoniy kuchlar yoki ishga layoqatlilar zahirasi (aholining fiziologik rivojlanishi ko‘rsatkichlari);
- aholining atrof-muhit sharoitlariga moslashishi xususiyatlari holati, uning faoliyati;
- tibbiy yordam ko‘rsatuvchi davolash muassasalari tarmog‘ining holati va faoliyati.

Shuningdek, ijtimoiy sog‘liq holatini tavsiflash uchun iqtisodiy tavsifga ega mezonlardan ham foydalaniladi:

- yalpi ichki mahsulot (YAIM)da sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan xarajatlar hissasi;
- ushbu xarajatlar tarkibi (statsionar yordamga va ambulatoriyaga, profilaktik va boshqa sog‘liqni saqlash tadbirlariga).

Sog‘liqni saqlash sohasida o‘tkazilgan islohotlar natijasida qator demografik ko‘rsatkichlarning yaxshilanganligi qayd etildi. Mustaqilik yillari davomida mamlakatimiz uchun qulay tendensiya, ya‘ni tug‘ilish sur‘atining pasayishi yuz berdi. Umr ko‘rish ko‘rsatkichi pasayishi davri tugab, aksincha uning oshishi davom etmoqda. Umumiy o‘lim darajasi kamaydi, go‘daklik va onalik o‘limi pasaydi. Umumiy kasallikning kamayishi qayd etilmoqda. Ayrim yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda ma‘lum muvaffaqiyatlarga erishildi.



Sogʻliqni saqlash tizimining ayrim hal etilmagan muammolariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy-texnik bazaning zaifligi, boshlangʻich boʻgʻinning yuqori malakali kadrlar bilan yetarli taʼminlanmaganligi; uning moliyaviy tizimining takomillashmaganligi; aholiga toʻliq zaruriy bepul va sifatli tibbiy xizmat koʻrsatishni taʼminlashga imkon bermaydi;

- shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatish xizmati yetarlicha asbob-anjom bilan taʼminlanmaganligi, jumladan yetarli darajada boʻlmaganligi bilan bogʻliq aholiga shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatish darajasining pastligi;

- davlat davolash muassasalarida ishlovchilar ish haqining yetarlicha tabaqalanmaganligi uyda oʻtiradiganlarning tibbiy xizmat toʻloviga qoʻshimcha xarajatlar qilishiga sabab boʻladi.

Oʻrta muddatdagi, yaqin kelajakdagi sogʻliqni saqlashni rivojlantirishning birlamchi yoʻnalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- sogʻliqni saqlash tizimi birlamchi boʻgʻinini zamonaviy asbob-uskuna, transport va aloqa vositalari, sogʻliqni saqlash muassasalari tayyorlash va qayta tayyorlash sifatini oshirishni taʼminlash yoʻllari orqali ular salohiyatini rivojlantirish;

- kasallikning oldini olish, sogʻliqni saqlash va mustahkamlash tadbirlarini oʻtkazish, jumladan aholini immunizatsiyalash, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishni kuchaytirish;

- sanitar-epidemiologik sharoitlarni yaxshilash uchun maqsadli tadbirlar majmuasini amalga oshirish;

- bolalar oʻlimini qisqartirish va onalikni himoya qilishni kuchaytirish;

- VICH, OITS (SPID), tuberkulez singari yuqumli kasalliklarga qarshi kurash.

Bu maqsadlarni investitsiya loyihalari doirasida amalga oshirishda jismoniy infratuzilma va ikkinchi hamda uchinchi boʻgʻin muassasalari dasturlarini yaxshilashga alohida oʻrin ajratiladi.

Sogʻliqni saqlash tizimini “smetali moliyalashtirishdan davlat xarajatlari ratsionalizatsiyasini taʼminlaydigan, koʻrsatilgan xizmatlar hajmiga qarab moliyalashga bosqichma-bosqich oʻtishni davom ettirish lozim. Uzoq va borish qiyin boʻlgan nohiyalarda oʻz vaqtida tibbiy yordamni taʼminlash uchun birinchi boʻgʻin muassasalarini ixtisoslashgan transport va asbob-uskunalar bilan jihozlanishini taʼminlash, alohida diqqat-eʼtiborni talab etadi; sogʻliqni saqlash sektorini byudjet manbalari, byudjetdan tashqari fondlar tashkil etish va donor yordami hisobidan moliyalashtirish hajmini asta-sekin oshirish.

Shuning uchun sotsial yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida sogʻliqni saqlashni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri uning moliyalashtirish tizimini takomillashtirish boʻlishi kerak. Sotsial iqtisodiyotda sogʻliqni saqlash byudjeti uchta asosiy manbalardan – davlat byudjeti, tibbiy sugʻurtaning majburiy mablagʻlaridan va fuqarolarning mablagʻlaridan yigʻishtirilishi kerak.

Davlat byudjeti mablagʻlari majburiy tibbiy sugʻurtalanganlar dasturiga, yaʼni bu tizimga mablagʻ oʻtkazmaydigan (nafaqaxoʻrlar va ishlamaydigan nogironlar) kishilar uchun tibbiy xizmat toʻlovlariga foydalanilishi kerak.

Majburiy tibbiy sugʻurta tizimi mablagʻlari shu tizimda sugʻurtalanganlar uchun majburiy va tibbiy sugʻurta dasturini moliyalashtirish uchun sarflanishi kerak.

Jismoniy shaxslar mablagʻlari tibbiy sugʻurta mablagʻlaridan moliyalashtirilgan dasturdan tashqari tibbiy xizmat toʻlovlari uchun foydalaniladi. Bu mablagʻlar koʻngilli tibbiy sugʻurta tizimida (sugʻurta kompaniyasi hujjatlari) toʻplanishi mumkin yoki majburiy tibbiy sugʻurta dasturi tarkibiga kirmaydigan keyingi tibbiy xizmat toʻlovlariga foydalanilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyot sharoitida byudjet yuklamasini kamaytirish maqsadida sogʻliqni saqlash sohasining keyingi rivojlanishi bu sohada sogʻliqni saqlash sohasida xususiy sektorni kengaytirishga bogʻliq boʻladi.

Odatda, sugʻurta kompaniyalar uchun jismoniy shaxslardan koʻra korporativ mijozlar bilan ishlash manfaatliroqdir. Birinchidan, bunda koʻlamdan tejaladi:

mijozlarni jalb qilish va ularga xizmat ko'rsatishning o'rtacha xarajatlari qisqaradi. Ikkinchidan, bunda ommaviylik ta'minlanadi va bu sug'urta biznesining daromad keltiruvchanligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Uchinchidan, o'z-o'zini mustaqil ravishda sug'urtalovchi jismoniy shaxslardan farqli ravishda kompaniyalarning xodimlari sug'urta summasini faol sarflashga unchalik intilmaydilar. Gap shundaki, korporativ sug'urtalashda xodim uchun sug'urta mukofotini korxonaga to'laydi, jismoniy shaxs esa uni o'zi to'laydi, shuning uchun ham sarflagan pullari evaziga maksimal foyda olishga, ya'ni sug'urta summasining hammasini sarflashga intiladi.

O'zbekistonda majburiy tibbiy sug'urtalash samarali modeliga o'tish – murakkab va uzoq jarayon bo'lib, bir qator shart-sharoitlar mavjud bo'lishini nazardatutadi, va quyidagilar O'zbekistonda majburiy meditsina sug'urtasini tatbiq etishdagi muammolar va kamchiliklar deb hisoblanishi mumkin:

- tibbiy sug'urtalashni tartibga soladigan me'yoiiy-huquqiy asoslar yo'qligi;
- tibbiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotining soliqqa tortiladigan bazaga (daromad solig'i, ijtimoiy ajratmalar) kiritilishi, bu sug'urtalashga rag'batlantirishni kamaytiradi;

- sog'liqni saqlashga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarning yetarli emasligi va ulardan samarasiz foydalanilishi. Byudjet mablag'larini ajratish ko'pincha xizmat ko'rsatilayotgan aholi soni, ko'rsatlayotgan xizmatlar sifati va hajmiga qarab emas, balki oldingi davrlarda ajratilgan mablag'lar boshlang'ich darajasidan kelib chiqib belgilanadi;

- rasman bepul xizmatlar olish uchun byudjet muassasalari tibbiyot xodimlariga norasmiy to'lovlarning juda keng tarqalganligi. Mos ravishda, ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash qo'llash sohasi rasman tijorat asosida taqdim etiladigan xizmatlar bilangina chegaralanadi;

- aholi tomonidan ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash bo'yicha xizmatlarga talabning pastligiva natijada ixtiyoriy tibbiy sug'urtalashning, ayniqsa, jismoniy shaxs tomonidan to'lanadigan polislar bo'yicha ziyon ko'rishi;

- kasalliklar turlari, o'lim holatlarining sabablari bo'yicha batafsil keltirilgan tibbiyot statistikasi ma'lumotlariga ega bo'lishning qiyinligi. Keng hajmli statistika yo'qligi sababli sug'urta qiluvchilar qabul qilinayotgan sug'urta risklarini real baholash imkoniyatidan mahrumlar.

So'ngi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, sug'urta sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, sug'urta, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirishni nazarda tutishi buning yaqqol misolidir. Yuqorida qayd etib o'tilgan qaror asosida qabul qilingan qonunlarning kiritilishi, mamlakat sug'urta bozorida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan majburiy sug'urta tizimining shakllanishiga katta hissasini qo'shdi.

O'zbekiston sug'urta bozori Markaziy Osiyoda eng tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan bozorlardan biri hisoblanadi. Bozor bir necha yildan beri barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib kelmoqda, bu esa, o'z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. Ma'lumki, mamlakat moliya sektorining, shu jumladan, sug'urta sohasining rivoji mamlakatning umumiqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'langan. Sug'urta sohasi mamlakat iqtisodiyotining rivoji bilan uzviy bog'liqligi sababli, ushbu soha mamlakatdagi umumiqtisodiy o'zgarishlarga juda tez ta'sirchan hisoblanadi.

Mamlakatda majburiy sug'urtalarni rivojlantirish ular sonini ko'paytirish bilan emas balki ko'rsatiladigan xizmat turining bugungi kunda qanday darajada iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishi bilan baholanadi. Ko'rsatiladigan xizmatlarning ommabopligi, mijozlarni bu sug'urta xizmatiga qiziqishlarini oshirish ularga xizmat ko'rsatish sifatini xorijiy davlatlar darajasida tashkil etish, ko'rsatilayotgan sug'urta davrida shartnomani to'liq bajarilishi kelajakda uzoq vaqt davomida bu sug'urta turining davomiyligini kafolatlaydi.

Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta xizmatlariga aholi tomonidan talabning pastligi maʼlum darajada tibbiy sugʻurtaning afzallik va qulayliklarini tushunmaslik bilan bogʻliq. Shunga mos ravishda talabni maʼrifat va targʻibot orqali oshirish mumkin. Shu munosabat bilan, sugʻurta kompaniyalari tibbiy sugʻurta masalalariga bagʻishlangan seminarlar, davra suhbatlari, telekoʻrsatuvlar oʻtkazish bilan bogʻliq faoliyatlarni jonlantirish lozim. Shuningdek, bu maqsadlarga milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda mahalla qoʻmitalarini jalb qilish keng targʻibotni tezlashtirishga hamda aholi tomonidan sugʻurtaning ushbu turini ijobiy qabul qilinishiga imkon berishi mumkin. Shuni taʼkidlash lozimki, agar sugʻurtalangan shaxs tibbiy xizmatlardan ushbu sugʻurtaning qulay va manfaatli ekanligini bilib turib sugʻurta polisi orqali foydalangan boʻlsa (bunda sugʻurta mukofotining kichik bir qismini toʻlagan mijoz bir necha baravar katta miqdordagi tibbiy xizmatlardan foydalanadi), odatda ixtiyoriy tibbiy sugʻurta polisining amal qilish muddatini keyingi davrga ham uzaytiradi. Ixtiyoriy tibbiy sugʻurtasidan tushadigan daromadlarning pastligi, baʼzan esa (ayniqsa jismoniy shaxslar tomonidan toʻlanadigan polislar boʻyicha) zararkorligi. Ushbu zararkorlikni faqat ixtiyoriy tibbiy sugʻurta koʻlamini kengaytirish yoʻli bilan bartaraf qilish mumkin.

Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi meʼyoriy-huquqiy baza yoʻq. Faqat ixtiyoriy tibbiy sugʻurta bilan shugʻullanuvchi sugʻurtalovchilar uchun moʻljallangan qoʻshimcha maxsus imtiyozlar yoʻq (Izoh: bugungi kunda davlat rahbari va mamlakat hukumatining turli qarorlariga binoan sugʻurtalovchilar faoliyatini jonlantirishga qaratilgan qator imtiyozlar joriy qilingan). Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta tizimiga qoʻyilgan asosiy talablarni, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda ixtiyoriy tibbiy sugʻurtani amalga oshirishning asosiy shartlarini, yagona taʼriflarni (masalan, ambulator-poliklinika xizmatlariga nimalar kiradi yoki tibbiy koʻrik deganda nima tushuniladi kabi) belgilab beruvchi meʼyoriy-huquqiy baza yoʻq. Faoliyat koʻrsatib turgan assistans kompaniyalari xalqaro standartlarga mutlaqo javob bermaydi, ularda xizmat koʻrsatish tezkorligi yoʻq, xizmat koʻrsatuvchi operatorlarning malakasi past. Bunday operatorlar yuqori malakali tibbiyot xodimlari boʻlishlari kerak, ular murojaat qilgan

sugʻurtalangan shaxslarning holatini tushunibgina qolmay, balki taxminiy tashxis qoʻya olishlari va mijozni kerakli ixtisosdagi klinikaga yuborishlari lozim. Darhaqiqat, bunday operator lavozimlarida asosan oʻqishdan boʻsh paytda qoʻshimcha daromad ishlab olmoqchi boʻlgan, tibbiyot oliy oʻquv yurtlarida oʻqiyotgan talabalar ishlaydilar. Albatta, assistans xizmatiga qoʻngʻiroq qilish ham tibbiyot muassasasiga qoʻngʻiroq qilish yoki tez yordam chaqirishdek gap. Biroq, assistans xizmati orqali uyga tez yordam yoki shifokor qanchalik tezkorlik bilan chaqirilishi nomaʼlumdir.

Ixtiyoriy tibbiy sugʻurtani amalga oshirish texnologiyasini shunday tashkil etish kerakki, tibbiyot muassasasiga kirish erkin boʻlsin, yaʼni buning uchun sugʻurtalangan shaxs sugʻurta polisi va shaxsni tasdiqlovchi hujjat koʻrsatib oʻtirishga majbur boʻlmasin. Ehtimol, standart A4 oʻlchamdagi sugʻurta polislari oʻrniga istalgan tibbiyot muassasasida foydalanish mumkin boʻlgan, terminalga ulanganda sugʻurta shartlari (dasturi) koʻrsatib turiladigan plastik kartochkalar tizimiga oʻtish davri kelgandir.

Sugʻurta bozorining rivojlanishida va taraqqiy etishining asosiy garovi bu aholining sugʻurta madaniyatining rivojlanganlik darajasi hisoblanadi. Sugʻurta tashkilotlari oʻz mijozlarini koʻpaytirish va sugʻurtaga jalb qilish maqsadida, targʻibot, tashviqot va reklama kabi sugʻurta madaniyatini oshirishga xizmat qiladigan turli tadbirlarni amalga oshirib boradilar. Sugʻurtaning mohiyatini tushungan va undan manfaatdor boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslar sugʻurta tashkilotlarining xizmatlaridan foydalanib kelmoqdalar.

Oʻzbekistonda tibbiy sugʻurta bozorini rivojlantirishning muammolari:

- mamlakat tibbiy sugʻurta bilan shugʻullanadigan sugʻurtachilari sezilarli qismi yetarli darajada kapitalizatsiyalashtirilmagan. Oʻzbekiston sugʻurta kompaniyalari koʻpchiligi oʻzida nisbatan katta boʻlmagan qaltisliklarni ushlab qolishi mumkin. Shuning uchun koʻpchilik sugʻurtalovchilar koʻprok qayta sugʻurtalovchi brokerlar vazifasini bajarishadi. Mamlakat sugʻurtachilari va qayta sugʻurtachilari ilgaridek kapitalningoshirish talabini sezishmoqda. Buni avvalo mamlakat va chet el investorlari uchun Oʻzbekiston sugʻurta industriyasi

jozibadorligini oshirilganda, amalga oshirish mumkin va Assotsiatsiya bu jarayonda aktiv ishtirok etadi;

- ikkinchi muammo – bu mamlakat tadbirkorlari va bizning aholidagi sugʻurta madaniyatini yetarli darajada emasligi. Bu yoʻnalishda nafaqat sugʻurta xizmatlarining aniq turlari yoki alohida sugʻurta kompaniyalari reklamasi, bundan tashqari, sugʻurtani tadbirkorlarni, fuqarolarni va davlatning mulkiy qiziqishlarini himoya qilishning samarali shakli sifatida tashviqot ishlarini amalga oshirish kerak va bu faoliyatni bolalar bogʻchasi va maktablardan boshlash kerak deb oʻylaymiz;

- uchinchi va oldingilaridan ahamiyati kam boʻlmagan muammo – bu tibbiy sugʻurtada ishlaydigan hodimlarning tayyorlash va qayta tayyorlash. Zamonaviy sugʻurta tizimini muvaffaqiyatli va joʻshqin rivojlanishi respublikada bilimlarga ega boʻlgan va zamonaviy talablarga muvofiq sugʻurta ishlarini olib borish tajribasiga ega boʻlgan malakali hodimlarning tanqisligi tufayli toʻxtab turibti. Har hil baholashlarga qaraganda sugʻurta tuzimida 7 dan 10 mingga odam mashgʻul. Sugʻurtalovchilar hodimlarini malaka darajasini oshirish maqsadida, oʻz ichiga nafaqat asosiy bilimlar va amaliy koʻnikmalarni olgan shuningdek sugʻurta tizimi xodimlarini malakasini doimo oshirishni nazarda tutgan, yagona taʼlim tizimini yaratish nazarda tutilgan.

Oʻzbekistonda tibbiy sugʻurtaning oʻziga xos jihatlari toʻgʻrisida gazetamizning avvalgi sonlarida batafsil hikoya qilganmiz. Sugʻurtaning mazkur turini amalga oshirish mexanizmi maʼlum bir xududda istiqomat qilayotgan aholining turmush darajasi, qolaversa, u yoki b u mamlakatdagi sogʻliqni saqlash tizimining oʻziga xos xususiyatlari bilan bogʻliq. Sugʻurtaning jahon bozorida har bir mamlakat tibbiy sugʻurta borasida oʻz tajribasi va uni amalga oshirish sxemasiga ega.

Tibbiy sugʻurtaning xorijdagi zamonaviy tizimlarida moliyalashtirishning uchta manbasi etakchilik qiladi. Ular: davlat subsidiyalari, ish beruvchilarning maqsadli badallari va ishchilarning oʻzlari toʻlaydigan badallar. Ushbu manbalarning nisbati turli hil mamlakatlarda turlicha bulib, bir-biridan katta fark, qiladi.

Ayniqsa, sug'urtalanuvchilarning huquqlarini himoya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Germaniya qonunchiligiga binoan, har bir amaliyotchi vrach o'zining kasb javobgarligini sug'urtalashi shart. Aynan mana shu tartib mamlakatda tibbiy yordam sifatini va bemorlar huquqlari muxofazasini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Jabrlangan tomon ko'proq tovon olish imkoniyatiga ega.

### **Nazorat savollari:**

1. Tibbiy sug'urta deganda nimani tushunasiz?
2. Tibbiy sug'urtaning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Majburiy tibbiy sug'urta boshqa ijtimoiy sug'urta tarmoqlaridan qanday tafovutlarga ega?
4. Tibbiy sug'urta qanday sug'urta fondlarini shakllantirishga qaratiladi?
5. Ijtimoiy sug'urtaning tashkil etilishi qanday qonun-qoidalarga asoslanadi?
6. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta sub'ektlariga kimlar kiradi?
7. Tibbiy sug'urtaning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
8. Tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urta hodisasi tarkibiga nimalar kiradi?



## **16-BOB. YUQUMLI KASALLIKLARDAN SUG‘URTALASH**

### **16.1. Yuqumli kasalliklardan sug‘urtalashning mohiyati, zarurligi va ijtimoiy ahamiyati**

O‘zbekistonda sug‘urta bozorining tobora shakllanib borishi hamda xizmatlar ko‘lamining ortishi mamlakat aholisining ijtimoiy jihatdan himoyalash imkoniyatini oshiradi. Fuqarolarni kasalliklardan sug‘urta qilish amaliyoti bugungi kunda umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi kompaniyalar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

Shaxsiy sug‘urta–bu inson hayotiga, uning mehnat qobiliyati va salomatligiga tahdid soladigan turli xavf-xatarlardan himoyalashning muhim shakli.

Sug‘urtaning insoniyat hayotidagi va iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishini ta’minlashdagi ahamiyati beqiyos. Buni e’tiborga olib, mamlakatimizda bozor infratuzilmasining ushbu bo‘g‘inini rivojlantirishga katta e’tibor berilyapti.

Birgina 2002 yilda sug‘urta sohasini rivojlantirish yuzasidan davlat miqyosida bir qator chora-tadbirlarning belgilanganligi fikrimizning tasdig‘idir. Xususan, 2002 yilning 31 yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining e’lon qilinishi sug‘urta tizimini taraqqiy ettirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

O‘zbekistonning mustaqil rivojlanishi davrida sug‘urtalashning huquqiy bazasiga va sug‘urta sohasida bozor infratuzilmasini rivojlantirishga poydevor qo‘yildi, misol uchun sug‘urtalashda tomonlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi va respublikada sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning tamoyillarini belgilovchi xalqaro andozalarga mos keluvchi hamda talablarga javob beruvchi O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 2002 yil 5 aprelda qabul qilindi. Aytish kerakki, yangi qonun yurtimizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy sohalarda o‘tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizda olib borilayotgan

erkinlashtirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu qonunning qabul qilinishi sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va manfaatlarini himoyalashga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urta qilish xizmatlarini ko'rsatish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

- ixtiyoriy;
- majburiy.

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urta qilish ixtiyoriy turlariga quyidagilar kiradi:

- fuqarolarning sog'lig'ini va kasalliklardan sug'urtalash;
- tibbiy sug'urta;

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urta qilishning majburiy tarzda amalga oshiriladigan turlariga quyidagilar kiradi:

- chet elga ketuvchilarni kasalliklardan sug'urtalash.

Umuman olganda, sug'urta turlarining majburiy yoki ixtiyoriy shaklda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, u bo'yicha litsenziya olgan sug'urta tashkilotlarigina ushbu sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga haqli hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar sifat jihatidan yangilanishi jarayonida sug'urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq topib bormoqda. Milliy sug'urta bozori so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqdaki, buning isbotini sug'urta kompaniyalarining reyting ko'rsatkichlaridan ham kuzatish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda sug'urta xizmatlari bozorini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, jismoniy va yuridik shaxslarning sug'urta bozorida faol ishtirok etishini rag'batlantirish maqsadida sug'urta kompaniyalari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, bozordagi sog'lom raqobat muhitining ham shakllanishiga olib kelmoqda.

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash mamlakat sug'urtalash tajribasida shaxsiy sug'urtaning eng ana'anaviy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Biroq bozor islohotlari amalga oshirilayotgan yillar ichida jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Ushbu jarayon aholining muayyan guruhlari va toifalari uchun kasalliklardan ehtiyot shart

sug'urtalashning turli shakllari joriy etilganligi, korxonalar va tashkilotlar xodimlarini kasallikdan jamoa shaklida sug'urtalashning rivoj topishi, mamlakatimiz uchun yangi hisoblangan xorijga chiquvchi fuqarolarni kasallikdan sug'urtalash kabi sug'urta turining keng tarqalishi bilan bog'liqdir.

Sug'urta faoliyatini litsenziyalash shartlarida keltirilgan sug'urta faoliyati turlari tasnifida an'anaviy kasalliklardan sug'urtalash bilan almashtirilgan bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: "Sug'urtalovchining sug'urta to'lovlari bo'yicha qayd etilgan summada yoki sug'urta hodisasi sodir bo'lishi munosabati bilan sug'urtalanuvchining qo'shimcha xarajatlarini qisman yoki to'liq qoplanishini ko'zda tutuvchi shaxsiy sug'urta turlarining majmuidir (bunda har ikki to'lov turini uyg'unlashtirilishi ham mumkin)". Biroq mazkur sug'urta nomining o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgarib qolmadi. Bunda sug'urtalovchilar muayyan kasalliklar ro'yxati bilan to'ldirish orqali baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning zararlar qoplanadigan xatarlar turini kengaytirish ko'zda tutilgan. Kasalliklar, an'anaviy tushunchaga ko'ra, baxtsiz hodisa hisoblanmaydi, ammo ko'p hollarda insonga to'satdan salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tajribaning ko'rsatishicha, ko'p hollarda sug'urtalovchilar o'z javobgarliklarini faqat baxtsiz hodisalar bilan chegaralaydilar, kasalliklar xatarini esa tibbiy sug'urta yoki hayotni sug'urtalash vakolatiga qoldiradilar. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning asosiy maqsadi baxtsiz hodisa tufayli sug'urtalanuvchi salomatligi va hayotiga yetkazilgan zararni qoplashdir.

Shaxsiy sug'urta turlari tarkibida fuqarolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash alohida o'ringa ega. Shu bois, biz ushbu sug'urta turi bilan yaqindan tanishamiz. Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha shartnoma qonunga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarni yozma arizasi asosida tuziladi. Shartnoma tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti o'z mijozlariga sug'urta xizmatini taklif etadi. Yuridik va jismoniy shaxslar sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin albatta sug'urtalovchining moliyaviy holati, litsenziyasi mavjudligi bilan qiziqishi lozim.

Sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti vakili sug'urtalayotgan shaxslarni fuqarolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash

qoidalar bilan tanishtirishi lozim. Mazkur sug'urta turi bo'yicha fuqarolarni ro'y berish natijasida sog'lig'i va hayotini saqlash bilan bog'liq manfaat sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalovchi, odatda, asab va ruhiy kasallikka duchor bo'lgan, falaj, ko'zi ojiz shaxslar, eshitish qobiliyati zaif bo'lgan va nogiron shaxslar bilan sug'urta shartnomasini tuzmaydi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan holatlar natijasida o'lim holati yuz berganda ham sug'urta summasi to'lanadi.

Quyidagi hodisalarning ro'y berishi oqibatida sug'urtalangan shaxsning hayoti va sog'lig'iga shikast yetkazilsa yoxud o'limga olib kelsa sug'urta summasi to'lanmaydi:

- yadro portlashi;
- radiatsiya va nurlanish;
- sug'urtalangan shaxsning atayin hatti-harakati natijasida baxtsiz hodisalar yuz berganda, o'z joniga qasd qilganda va jinoiy harakatlar natijasida ro'y berishi.

Fuqarolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalashda sug'urta summasi tomonlar kelishuviga asosan ixtiyoriy tarzda belgilanadi. Bunda sug'urta summasini belgilashning ikki xil usulini ko'rish mumkin. Biri – individual, ikkinchisi jamoa sug'urtasi. Agar sug'urtalanuvchi bir necha kishilarga nisbatan sug'urta shartnomasi tuzadigan bo'lsa, umumiy sug'urta summasi bitta sug'urtalangan shaxsning sug'urtalanishi kerak bo'lgan kishilar soniga ko'paytirilishi yo'li bilan aniqlanadi.

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalashga oid sug'urta mukofotini belgilashda sug'urta davri, sug'urtalanuvchining yoshi, faoliyat sohasi, kasbi, ishlab chiqarish xarakteri va mehnat sharoiti, shuningdek, sug'urta hodisasiga olib kelishi mumkin bo'lgan qator boshqa omillar hisobga olinadi.

Ta'kidlash kerakki, sug'urtaning mazkur turida individual yondoshuv talab etiladi. Albatta, salomatlik muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun baxstalab vaziyatlar yuzaga kelganda, avvaldan tibbiy ko'rikdan o'tiladi. Mijozning kasbi ham katta ahamiyatga ega. Har bir sug'urta kompaniyasida kasallikka uchrash ehtimoli ko'p bo'lgan kasblar ro'yxati mavjud. Shuning uchun

mijoz anketa to'ldirayotgan paytda o'zining faoliyat turini, uning o'ziga xos tomonlarini batafsil ko'rsatishi lozim bo'ladi. Bundan tashqari, shuni nazarda tutish kerakki, bir xilda nomlanadigan kasblar turli xil darajadagi xatarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, neft qazib oluvchi korxonada ishlayotgan kon ishchisi bilan shu korxonada direktori yoki buxgalteri uchun xos bo'lgan xatarlar o'rtasida farq bor.

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash uchun tuziladigan sug'urta shartnomasida jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham, shu jumladan, sportchilar ham sug'urta sub'ekti bo'lishi mumkin. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda yuqorida sanab o'tilgan omillar hisobga olinadi. Bundan tashqari, sug'urtalovchi sportning mazkur turiga oid xatarlarni aniqlash uchun alohida qoida va tartiblarni qabul qiladi. Sug'urtalovchi alohida shartlar, masalan, sportchining musobaqalardagi yoki mashg'ulotlardagi ishtiroki bo'yicha majburiyatlarni zimmasiga olishi mumkin.

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha sug'urta tariflari xatarlarni sug'urtalash turlari bo'yicha tariflarni tuzish usulida aniqlanadi. Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash zararni sug'urtalash toifasiga mansub, shu sababli tariflashtirishda sug'urta xatarini barcha sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlash tamoyili asos qilib olinadi. Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalashning netto-stavkasi uchun sug'urta summasining mazkur sug'urta turi bo'yicha o'rtacha zarar ko'rsatkichi hisobidan amalga oshiriladi.

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha sug'urta tariflari odatda sug'urtalanuvchilarning jinsi va yoshiga bog'liq bo'ladi. Ammo sug'urta mukofotlarini maksimal darajada differentsiyalash sug'urta summasining miqdoriga va sug'urtalanuvchi amalga oshirayotgan faoliyatning, birinchi galda kasb-korining xatarlilik darajasi bilan belgilanadi. Sug'urta summasi oshib borgani sari, shuningdek sug'urtalanuvchilarning kasb-kori va ijtimoiy vazifalarining xatarlilik darajasiga bog'liq holda sug'urta tariflari ham o'sadi.

Fuqarolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalashning namunaviy qoidalarida sug'urta summasini va sug'urta mukofotini aniqlash va ularni to'lash

bo'yicha quyidagi tavsiyalar beriladi. Sug'urta summasi sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida har bir sug'urta holati bo'yicha alohida aniqlashtiriladi va tanlab olingan sug'urta hodisalari uchun bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Agar sug'urtalovchi bir necha shaxslarga nisbatan shartnoma tuzayotgan bo'lsa, shartnomada hamma sug'urtalanuvchilar uchun umumiy sug'urta summasi har bir sug'urta turi bo'yicha alohida ko'rsatiladi. Xususiy sug'urta summalari teng bo'lgan holatda umumiy sug'urta summasi bitta sug'urtalanuvchi shaxs uchun belgilangan sug'urta summasini shartnomada sanab o'tilgan barcha sug'urtalanuvchilarning soniga ko'paytirish orqali topiladi. Agar xususiy sug'urta summalari turlicha bo'lsa, shartnoma bo'yicha umumiy sug'urta summasini har bir sug'urtalanuvchi shaxsga oid sug'urta summasini qo'shish orqali aniqlanadi.

Bazaviy sug'urta tariflari sug'urtalovchi tomonidan mustaqil ishlab chiqiladi. Alohida holatlarda sug'urta mukofotining miqdorini aniqlashda sug'urtalovchi bazaviy sug'urta tariflariga nisbatan xatarning xususiy xossalaridan kelib chiqqan holda ko'tariluvchi va pasayuvchi koeffitsientlardan foydalanishga haqli. Bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuzilgan sug'urta shartnomari bo'yicha sug'urta mukofoti bir vaqtda to'lab beriladi. Shartnomani bir muncha uzoqroq muddatlarga tuzitilganda esa, mukofotni to'lab berish muddati uzaytirilishi va ikki bo'lib to'lanishi mumkin, bunda birinchi sug'urta badali butun sug'urta mukofoti miqdorining 50 foizidan kam bo'lmasligi shart. Sug'urta mukofotining ikkinchi qismi sug'urta shartnomasi muddatining yarmi o'tmasdan avval to'lanishi shart. Sug'urta tarifi yillik stavka tarzida o'rnatiladi. Bir oydan kam muddatga sug'urtalashda sug'urta mukofoti yillik stavkaning 0,7 foizi miqdorida shartnoma amal qiladigan har bir kun uchun to'lanadi.

Namunaviy qoidalarda bir oydan ortiq, ammo bir yildan kam bo'lmagan muddatga sug'urtalashda sug'urta mukofotlarining quyidagi miqdorlari tavsiya etilgan.

Sug'urta mukofotlari<sup>53</sup>

Shartnomaning amal qilish muddati oylar hisobida										
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Sug'urta mukofotining umumiy yillik miqdoridan foizlar										
20	30	40	50	60	70	75	80	85	90	95

Sug'urta mukofoti turli usullarda to'lanishi mumkin:

- sug'urtalovchining hisob raqamiga. Agar sug'urta shartnomasida boshqacha shart ko'zda tutilgan bo'lmasa, naqd pulsiz shaklda sug'urta shartnomasi imzolanganidan keyin besh bank kuni ichida;

- naqd pul bilan sug'urtalovchining kassasiga sug'urta shartnomasi tuzilgan va imzolangan kuni to'lash orqali.

Agar sug'urta shartnomasida sug'urta mukofotini uzaytirilgan muddatda kiritilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, ko'pincha bunday holatlarda navbatdagi sug'urta badalini belgilangan vaqtida to'lamaganlik uchun qo'llanadigan jazo choralari ham ko'rsatib qo'yiladi. Navbatdagi sug'urta badalini to'laguncha sug'urta hodisasi sodir bo'lgan holatda, sug'urtalovchi sug'urta tovonini hisoblash chog'ida to'lanmay qolgan sug'urta badalini chegirib olib qolishga haqlidir. Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda shartnomaga asosan sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida quyidagi huquq va majburiyatlar yuzaga keladi:

Sug'urta xizmatlari bozorida ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash bilan kam sonli kompaniyalar shug'ullanayotganligiga qaramay, bunday xizmatlar ko'rsatish sharoitlari va mexanizmi amalda bir-biridan farq qilmaydi. Tibbiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda sug'urta kompaniyalari assistans kompaniyalarning xizmatlaridan foydalanadilar. Assistans kompaniyalarining asosiy vazifasi sug'urtalangan shaxslarga tibbiyot muassasalari orqali tibbiy xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilishdan iboratdir. Buning uchun assistans kompaniyalari sug'urtalovchilardan (sug'urtalangan shaxslardan) sug'urta hodisalari to'g'risida

<sup>53</sup> Jadval sug'urta kompaniyalarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

kecha-kunduz uzluksiz xabarlarni qabul qilib turishni, shuningdek, sug'urtalovchilarga (sug'urtalangan shaxslarga) sug'urta shartnomasi doirasida taqdim qilingan sug'urta polisi asosida kerakli yordam ko'rsatishni tashkil qilishlari lozim. Assistans kompaniyalariga qo'yilgan bunday talab O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 9-9-moddasi bilan belgilab qo'yilgan.

Ba'zan tibbiy sug'urtalashni shaxsiy masala deb, sug'urtalashda mol-mulk bilan emas, balki sug'urtalangan shaxsning shaxsiyati bilan bog'liq manfaat sug'urtalanadi, deb hisoblanadi. Biroq, bu xatodir. Tibbiy sug'urtalashda sug'urtalangan shaxsning unga kasallik tufayli yetkazilgan, qo'shimcha xarajatlarni taqozo qilgan zarar bilan bog'liq manfaatlari sug'urtalanadi<sup>54</sup>. Agar kishi kasallikka chalinmasa, bu xarajatlar ham bo'lmas edi. Shuning uchun tibbiy sug'urta sug'urtaning mulkiy turiga kiradi. Ammo tibbiy sug'urtaning mulkiy sug'urtaning boshqa turlariga nisbatan alohida xususiyati shundaki, sug'urta to'lovlari yetkazib bo'lingan zararining xarakteriga ega bo'lmaydi, balki ular ushbu zararining oldini oladi, chunki davolash xarajatlarini sug'urtalangan shaxsning o'rniga sug'urtalovchi to'laydi. Sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta hodisasi deb sug'urtalangan shaxsning sug'urta muddati davomida tibbiy xizmat ko'rsatilishini talab qilib tibbiyot muassasasiga murojaat qilishiga aytiladi. Bunda ushbu murojaatga mijozning salomatligiga baxtsiz hodisa, o'tkir kasallik yoki surunkali kasallikning kuchayishi kabi sabablar orqali zarar yetgan bo'lishi lozim (ko'zda tutilgan istisnolardan tashqari). Natijada sug'urtalovchining sug'urtalangan shaxsga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun sug'urta summasi va limiti doirasidagi sug'urta to'lovini amalga oshirishi majburiyati vujudga keladi.

Avval aytib o'tilganidek, O'zbekistonda risklarni baholash uchun salomatlikning ahvoli to'g'risidagi deklaratsiya qo'llaniladi. Agar sug'urtalangan shaxs ushbu deklaratsiyada ma'lum bir surunkali kasallik borligini ko'rsatsa, asosiy sug'urta mukofotiga oshiruvchi koeffitsient qo'llaniladi. Sug'urta

---

<sup>54</sup> Ю. Фогельсон. Введение в страховое право. Просто о сложном. 2-ое издание, М., БИК, 2011.



mukofotining miqdorini aniqlashda sugʻurtalangan shaxsning yoshi, sugʻurtalash dasturi, sugʻurta summasi va albatta, sugʻurtalash davri kabi muhim omillar asosiy rol oʻynaydi. Biroq agar juda koʻp sonli sugʻurtalangan shaxslarni sugʻurtalash lozim boʻlsa, yosh mezoni odatda hisobga olinmaydi.

Sugʻurtalash dasturi sugʻurtalangan shaxslarning quyidagi xizmatlarni koʻrsatish bilan bogʻliq maʼlum xarajatlarni qoplashni koʻzda tutishi mumkin:

- ambulatoriya-poliklinika xizmati koʻrsatish;
- shifokorni uyga chaqirish;
- tez va shoshilinch tibbiy yordam;
- statsionar xizmat koʻrsatish;
- ambulatoriya-poliklinika xizmati koʻrsatish davrida dori-darmon bilan taʼminlash;
- favqulodda shoshilinch stomatologik yordam;
- emlash;
- tibbiy tekshiruv;
- tibbiy evakuatsiya va boshqalar.

Homiladorlik va farzand tugʻilishi bilan bogʻliq xarajatlar standart sugʻurta shartnomalarida koʻzda tutilmaydi va istisnolar toifasiga kiritiladi. Bu yerda shuni aytib oʻtish oʻrinliki, bunday istisnolarga sogʻliqni saqlash tizimi taʼsir qiladi, masalan, Oʻzbekistonda farzand tugʻilishi yoki yuqumli kasalliklarni davolash bepul boʻlib, bu mazkur hodisalarni istisno qilish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Shuningdek, sugʻurta mukofoti ham Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari uchun fuqaro boʻlmaganlardan koʻra kamroq miqdorda belgilanadi. Buning sababi shuki, tibbiyot muassasalaridagi narxlar fuqarolar va yurtimiz mehmonlari uchun alohida tayinlangan. U yoki bu shaxsni sugʻurtaga qabul qilish mexanizmi, yaʼni ixtiyoriy tibbiy sugʻurta polisini sotish va sugʻurta polisi boʻyicha xizmat koʻrsatish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Shartnoma tuzishda sugʻurtalangan shaxs salomatlik holati toʻgʻrisida deklaratsiya toʻldiradi. Bu hujjat maʼlum savollardan (masalan, «surunkali kasallikka chalinganmisiz?») iborat bir varaqli anketa boʻlib, unga koʻra

sug'urtalovchi sug'urtalangan shaxsning salomatlik holatini va sug'urta uchun qabul qilinadigan risklarni aniqlaydi. Agar bir necha shaxs (o'n kishidan ortiq) sug'urtalanayotgan bo'lsa, muayyan vaziyatga bog'liq ravishda sug'urtalovchi salomatlik holati to'g'risida deklaratsiya to'ldirishni talab qilmasligi mumkin. Sug'urta shartnomasi imzolanib, sug'urta mukofoti kelib tushgach, sug'urtalovchi Assistans xizmatiga Bordero<sup>55</sup> yuboradi. Borderoda ko'rsatilishi shart bo'lgan ma'lumotlarga sug'urtalangan shaxsning to'liq ismi-sharifi, sug'urta polisining tartib raqami, sug'urtalash dasturi, sug'urtalash muddati va shartnoma shartlari kiradi.

Sug'urtalangan shaxs kasallikka chalingan taqdirda assistans xizmatiga murojaat qiladi. Assistans xizmati sug'urtalangan shaxsning murojaati sug'urta hodisasi bo'lish-bo'lmasligini aniqlaydi. Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, koordinatorlar sug'urtalangan shaxsga sug'urtalovchi bilan tibbiy xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan u yoki bu tibbiyot muassasasiga yo'llanma beradilar. Ushbu tibbiyot muassasasida sug'urtalangan shaxsga ma'lum miqdorda tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi. Sug'urtalangan shaxs tibbiyot muassasasiga kelganda sug'urta polisini va shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko'rsatishi lozim. Sug'urtalangan shaxsga kerakli xizmatlar ko'rsatilgach, u o'ziga belgilangan miqdordagi xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lmish maxsus blankaga imzo chekadi. Tibbiyot muassasasi sug'urtalangan shaxsga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun hisoblarni assistans xizmatiga taqdim qiladi. Assistans xizmati o'z navbatida (masalan, to'lovni mustaqil ravishda amalga oshirgach) uni sug'urtalovchiga yetkazib beradi. Sug'urtalovchi ko'rsatilgan xizmatlarning ixtiyoriy tibbiy sug'urta shartnomasi shartlariga mosligini tekshirib ko'rgach, belgilangan tartibda hisoblar bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi.

Odatda ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urtalangan shaxsga sug'urtalovchi tomonidan bevosita to'lov va qoplashlar amalga oshirilmaydi,

---

<sup>55</sup> Бордеро (фр. *Bordereau*) - перечень принятых на страхование и подлежащих перестрахованию рисков. А.А.Гвозденко Страхование. Учебник., Проспект, М. 2006 г.

shuning uchun to'lov yoki qoplashlarning kechikishi bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmaydi.

Buning ijobiy jihati shuki, sug'urtalangan shaxslar tibbiyot muassasalariga bevosita murojaat qilib, tibbiy xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Bu juda qulay imkoniyat, chunki sug'urtalangan shaxsning qanday kasallikka chalinib qolishi va o'sha paytda uning assistans xizmatiga murojaat qiladigan ahvolda bo'lish-bo'lmasligi ma'lum emas (masalan, baxtsiz hodisa ro'y bersa, hodisa guvohlari uni shoshilinch tibbiyot muassasasiga yetkazib qo'yishlari va bunda uning sug'urtalanganligini mutlaqo bilmasliklari mumkin). Bu tizimning salbiy jihati shundan iboratki, sug'urtalovchi mazkur hodisaning sug'urta hodisasi bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlashi qiyin bo'ladi, bu esa o'z navbatida unga mayda va mashaqqatli ish hajmini oshirib yuboradi.

Bunday amaliyot har kuni sodir bo'lavermaydi, shuning uchun bugungi kunda faqat sug'urtalangan shaxsni assistans xizmati ma'lumotlar omboridan topib, aniqlashgagina vaqt ketishi mumkin (masalan, sug'urtalovchining assistans xizmatiga borderoni o'z vaqtida yetkazib bermaganligi sababli, assistans xizmatining ma'lumotlar omboriga ma'lumotlar kiritishdagi texnik xatolar tufayli), yoki assistans xizmati koordinatorlari sug'urtalangan shaxsni shifokorning qabuliga avvaldan yozdirib, klinikaga yuborishlari mumkin. Sug'urtalangan shaxs esa o'z vaqtini rejalashtirib, belgilangan vaqtda tibbiyot muassasasiga borishi va shifokor boshqa bemorni qabul qilayotganligi uchun kutib qolishi mumkin. Bu yerda ayb sug'urtalangan shaxsni unutib qo'ygan shifokorda yoki assistans xizmati koordinatorida bo'lishi mumkin, lekin har qanday holatda ham asosiy ayb jarayonni o'z nazorati ostiga olmagan assistans xizmatida bo'ladi.

## **16.2. Fuqarolarni yuqumli kasalliklardan sug'urta qilishning tashkil etilishi va uning aholi salomatligini saqlashdagi o'rni**

Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urta qilish - sug'urta ta'minotining belgilab qo'ygan pul summasi to'lanishini yoki kasallik va/yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxsning) pul

kompensatsiyasini (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi) ta'minlovchi, Umumiy sug'urta tarmog'ining 2 klassga oid sug'urta turlari jami hisoblanadi.

Bunda O'zbekiston Respublikasida tug'ilgandan boshlab to vafot etgunga qadar doimiy yashaydigan fuqorolar, chet el fuqorolari va fuqoroligi bo'lmagan shaxslar sug'urtalangan shaxslar bo'lishlari mumkin hamda sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalangan shaxsga yoki Manfaatdor shaxsga Sug'urta pulini (ta'minotini) Davlat ijtimoiy sug'urta ta'minotidan qa'tiy nazar to'la yoki qisman to'lashga majburdir.

Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomani tuzgan muomila layoqatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasini fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan hamda O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar, Sug'urta qildiruvchilar hisoblanadilar.

Sug'urta qildiruvchilar yoki sug'urtalangan shaxslarning hayoti va sog'lig'iga bog'liq Qonunlarga zid kelmaydigan mulkiy qiziqishlari va ishga layoqatligini tiklash Sug'urta ob'ekti hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchining yozma ravishdagi arizasiga asosan yoki sug'urta mukofotini to'lanishi bilan sug'urta shartnoma tuziladi.

Sug'urta qildiruvchi: yuridik shaxs bo'lganda sug'urta shartnoma tuziladi, jismoniy shaxs bo'lganda sug'urta polisi rasmiylashtiriladi.

Sug'urta qildiruvchi arizada ko'rsatilgan quyidagi ma'lumotlarni to'ldirishi shart;

- sug'urta qildiruvchining, tashkilotning nomi (sug'urtalangan shaxslarning) to'liq ismi sharifi, tug'ilgan sanasi, turar manzilgohi, jinsi, pasport ma'lumoti;

- ishlash joyi, kasbi;

- kasallik nomi va/yoki tibbiy sug'urtalash dasturi;

- sug'urtalangan shaxsning sog'lig'i haqidagi to'liq ma'lumot (ilgari qanday kasalliklarga chalinganligi va davolanganligi);

- sug'urta pulini miqdori;

- sug'urta muddati;
- sug'urta qildiruvchining imzosi (muhri).

Sug'urtalovchi arizada keltirilgan ma'lumotlarni tekshirishi mumkin. Tekshirish natijasida sug'urta qildiruvchi noto'g'ri ma'lumotlar bergan bo'lsa. Sug'urtalovchi sug'urta shartnoma (sug'urta polisi) ni tuzmaslik huquqiga ega.

Bu holat sug'urta shartnoma amal qilish davrida ma'lum bo'lsa, u holda sug'urtalovchi sug'urta shartnomani bir taraflama muddatidan oldin bekor qilishi va to'langan sug'urta tovon pulini qaytarib olish hamda sug'urta mukofotini to'liq yoki bir qismini qaytarmaslik huquqiga ega.

Sug'urta mukofoti sug'urta shartnomada ko'rsatilgan muddatda va miqdorda to'langandan keyin sug'urta qildiruvchiga sug'urta polisi beriladi. Sug'urta shartnoma (sug'urta polis)si 6 oydan kam va 1 yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuziladi.

Sug'urta shartnomani tuzish istagini bildirgan shaxs asab va ruhiy, sil yoki ankologik kasalligi tufayli davolash dispanser hisobida turuvchilar, hamda kasalligi bo'yicha I-guruh nogironlari (olgan tan jarohati tufayli biror bir a'zosi amputatsiya qilinganlar II-III- guruh nogironlari bundan mustasno) bilan Sug'urta shartnoma tuzilmaydi.

Sug'urtalovchi bilan sug'urta qildiruvchi o'rtasida huquq va majburiyatlari to'g'risidagi bir xil kuchga ega bo'lgan 2 nushada yoki tibbiy muassasani jalb qilgan holda (kelishilgan holda) 3 nushada shartnoma tuziladi. Sug'urta qildiruvchisi jismoniy shaxs bo'lsa, unga sug'urta polisi va sug'urtalash qoidasidan ko'chirma taqdim etiladi.

Sug'urta muddatida, sug'urta shartnoma (sug'urta polisi)da ko'rsatilgan kasallikka chalinishi yoki sog'lig'i izdan chiqishi tufayli sug'urtalangan shaxs tibbiy muassasaga murojaat qilishi va unga tibbiy xizmat ko'rsatilishi, sug'urta hodisasi hisoblanadi.

Sug'urtalangan shaxsning sug'urta shartnomada ko'rsatilgan kasallikka chalinganda yoki shu kasallik natijasida sog'lig'i ishdan chiqqanda zudlik bilan

sug'urtalovchiga murojaat etadi (murojaat qilishning barcha turlaridan foydalangan holda).

Sug'urtalangan shaxs murojaatida quyidagi ma'lumotlar bo'yicha sug'urtalovchiga xabar berishi shart:

- sug'urta polisini raqami va sanasi;
- sug'urtalangan shaxsning ismi sharifi;
- murojaat qilayotgan vaqtdagi manzilgohi;
- sug'urtalangan shaxsni sog'lig'i haqida qisqa ma'lumot va boshqalar.

Sug'urtalovchiga murojaat qilish imkoniyati bo'lmagan holatlarda sug'urtalangan shaxs sug'urta shartnoma (tibbiy sug'urtalash dasturi)da ko'rsatilgan tibbiy muassasaga murojaat qiladi. Sug'urtalovchi, sug'urtalangan shaxsni tibbiy muassasada tibbiy xizmat ko'rsatilishini tashkil etadi, sug'urtalangan shaxs tibbiy muassasaga, sug'urta polisini va shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko'rsatishi shart.

Quyidagi hodisalar sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- sug'urta shartnoma (tibbiy sug'urtalash dasturi)da ko'rsatilmagan kasalliklar yoki shu kasalliklar oqibatida sog'lig'i ishdan chiqishi bo'yicha sug'urtalangan shaxslarning tibbiy muassasaga murojaat qilishi va tibbiy xizmat ko'rsatilishi;

- spirtlik ichimliklar, narkotik moddalar va boshqa kuchli moddalarni isti'mol qilish natijasida sug'urtalangan shaxs kasalliklarga chalinishi yoki jarohat olishi;

- noqonuniy harakatlar, shu jumladan o'zini joniga qasd qilish natijasida sug'urtalangan shaxslarning sog'lig'iga zarar etilishi (uchunchi shaxslarning noqonuniy harakati va taziqi ostida qilingan holatlar bundan mustasno);

- sug'urta shartnoma (tibbiy sug'urtalash dasturi)da ko'rsatilmagan tibbiy muassasada tibbiy xizmat olinishi.

Sug'urta puli miqdori, kasallik turi yoki kasallik natijasida sog'liq izdan chiqishi (tibbiy sug'urtalash dasturi) bo'yicha sug'urtalanayotgan shaxslarini yoshini, kasbini, ish sharoitini inobatga olgan holda sug'urtalovchi tomonida ishlab

chiqilgan jadval asosida va sug'urta qildiruvchi hohishi bilan sug'urta shartnoma (sug'urta polisi) da belgilanadi.

Sug'urta mukofoti sug'urtalovchi tomonidan jadval asosida sug'urta puliga nisbatan foiz yoki aniq pul miqdorida belgilanadi. Sug'urta mukofoti sug'urta shartnoma (sug'urta polisi) da ko'rsatilgan miqdorda quyidagicha to'lash mumkin:

- yuridik shaxslar pul o'tkazish yo'li bilan;
- jismoniy shaxslar xizmat ko'rsatadigan bank muassasasiga naqd pul to'lash, bankdagi omonat hisobidan, plastik kartochkalaridagi mablag'lardan pul o'tkazish yo'li bilan.

Sug'urta mukofoti shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lanmasa (sug'urtalovchining hisob raqamiga kelib tushmasa), imzolangan sug'urta shartnomasi tuzilmagan deb hisoblanadi va bekor qilinadi. Sug'urta qildiruvchi bilan yangi sug'urta shartnomasi tuziladi. Eski sug'urta shartnomani davom ettirish qat'iyan man etiladi. Yangi tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofot miqdori 5 foizga oshirilib o'rnatilishi mumkin.

Sug'urta shartnoma (sug'urta poli)si quyidagi hollarda amal qilishi to'xtatiladi va sug'urtalangan shaxslarga sug'urta to'voni to'lanmaydi:

- sug'urta muddati tugaganda;
- sug'urta puli to'liq to'langanda;
- sug'urtalangan shaxsning vafot etganida;
- sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofotini o'rnatilgan muddatda va miqdorda to'lamaganda;
- tomonlarning hohishi yoki talabi bilan (30 kun oldin ogohlantirilgan holda);
- sug'urta qildiruvchi yoki sug'urtalovchini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida yopilishi natijasida;
- sug'urta shartnoma (sug'urta polis)da sug'urtalanmagan shaxslar foydalanganligi aniqlanganda.

Sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs)ning majburiyati:

- sug'urta shartnoma (sug'urta poli)si tuzilayotganda yoki amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan, Sug'urta hodisasi bo'lishi ehtimolini va uni yuz berishi tufayli kutilayotgan zarar miqdori haqidagi ma'lumotlarni habar qilish;

- sug'urta mukofotini o'rnatilgan muddatda va miqdorda to'lash;

- kasallikka yoki sog'lig'i izdan chiqqan holatlarda, darhol sug'urtalovchiga xabar berish;

- sug'urtalangan va manfaatdor shaxslarga sug'urtalash qoidalarini tanishtirish;

- tibbiy xizmatlar olishda, tibbiyot xodimlarining maslahat va ko'rsatmalariga amal qilish;

- sug'urtalovchiga Sug'urta hodisaga taalluqli bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etish.

Sug'urta qildiruvchi (sug'urtalangan shaxs) ning huquqlari:

- sug'urtalovchidan Sug'urta shartnoma shartlari bo'yicha maslahat olish;

- sug'urta tovonini olish;

- manfaatdor shaxsni tayinlash.

Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- sug'urta qildiruvchini sug'urtalash qoidalari bilan tanishtirish;

- sug'urta mukofoti o'rnatilgan muddatda va miqdorda to'langandan keyin sug'urta polisi berish;

- sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urtalangan shaxsga (manfaatdor shaxsga) sug'urta tovonini to'lash;

- sug'urtalanayotgan shaxs kasallik yoki kasallik natijasida sog'lig'i ishdan chiqqanda tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish.

Sug'urtalovchining huquqlari:

- sug'urta qildiruvchi bergan ma'lumotlarni va sug'urta shartnoma shartlarini bajarilishini tekshirish;

- sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urta tovonini miqdorini aniqlash bo'yicha tibbiy komissiya tarkibida ishtirok etish va kerakli hujjatlarni talab qilish;



- xolis ekspertiza o'tkazish;
- sug'urta qildiruvchining (sug'urtalangan shaxsning) harakatlari shubha tug'dirgan holatlarda sug'urta tovonini to'lashni kechiktirish;
- amaldagi qoida va qonunchilikda belgilangan tartibda sug'urta tovonini to'lashni rad etish.

Sug'urtalangan shaxs (manfaatdor shaxs) sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta tovonini olish uchun (sug'urta hodisasi ro'y bergan kundan uch oy muddat ichida) sug'urtalovchiga ariza va quyidagi hujjatlar bilan murojaat qilinadi:

- sug'urta hodisasini tasdiqlovchi tibbiy muassasaning ma'lumotnomasi (195/4 shakl va boshqalar);
- TMEK sidan berilgan nogironlik to'g'risidagi guvohnomasining nushasi;
- FXDYO idorasi bergan o'lim to'g'risidagi guvohnomasining nushasi;
- manfaatdor shaxsning pasport nushasi;
- vorislik huquqi to'g'risidagi guvohnoma va boshqalar.

Taqdim etilgan barcha hujjatlar muhrlangan, imzolangan va berilgan sanasi raqamlari bo'lishi shart.

Berilgan hujjatlar asosida sug'urtalovchi, sug'urta hodisani ro'y berganligi yoki bermaganligi haqida qaror qabul qiladi. Sug'urta hodisasi tasdiqlanganda sug'urta tovonini miqdorini belgilaydi.

Sug'urta hodisasi tasdiqlanmagan holatlarda sug'urtalangan shaxsga e'tiroz xati yozilib, unda sug'urta hodisasi tasdiqlanmagan sabablari to'liq bayon etiladi.

Sug'urta tovonini, dalolatnoma imzolangan kundan 5 bank kuni ichida sug'urtalangan shaxsning (manfaatdor shaxsning) bankdagi omonat daftarchasiga, plastik kartochka hisob raqamiga yoki tibbiy muassasa hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini sug'urtalovchi tomonidan tibbiy muassasaga, sug'urtalangan shaxsning olgan tibbiy xizmatlarini qoplash uchun ham o'tkazilishi mumkin.

Sug'urta puli, to'langan sug'urta tovonini miqdoriga kamayadi.

Sugʻurta qildiruvchi (sugʻurtalangan shaxs) qoʻshimcha sugʻurta mukofoti toʻlash bilan, sugʻurta puli miqdorini toʻldirish huquqiga ega. Bunda sugʻurta muddatini oʻzgartirish (choʻzish) qatʼiyan man etiladi.

Sugʻurta shartnomaning shartlarini bajarmaganlik yoki kerakli darajada bajarmaganlik uchun tomonlar Oʻzbekiston Respublikasi “Xoʻjalik yurituvchi subʼektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi toʻgʻrisidagi” Qonunida belgilangan javobgarlikni teng darajada olib boradilar.

Sugʻurta shartnomadan, sugʻurtalovchi va sugʻurta qildiruvchi oʻrtasida kelib chiqadigan barcha nizolar oʻzaro kelishuvga asosan, kelishish imkoni boʻlmasa, Oʻzbekiston Respublikasida amaldagi Qonunlarda belgilangan tartibda koʻrib chiqiladi.

Sugʻurta shartnoma boʻyicha kelib chiqadigan nizolar boʻyicha tomonlar Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlarida koʻzda tutilgan tartibda daʼvo qoʻzgʻatishlari mumkin.

Fuqarolik kodeksining 921-moddasiga koʻra shaxsiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha bir taraf (sugʻurtalovchi) boshqa taraf (sugʻurta qildiruvchi) toʻlaydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sugʻurta mukofoti) evaziga sugʻurta qildiruvchining oʻzining yoxud shartnomada koʻrsatilgan boshqa fuqaro (sugʻurtalangan shaxs)ning hayoti eki sogʻligʻiga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga toʻlgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sugʻurta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sugʻurta pulini) bir yoʻla yoki vaqti-vaqti bilan toʻlab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sugʻurta shartnomasi kimning foydasini koʻzlab tuzilgan boʻlsa, oʻsha shaxs sugʻurta pulini olish huquqiga ega boʻladi. Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs koʻrsatilmagan boʻlsa, shaxsiy sugʻurta shartnomasi sugʻurtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi koʻrsatilmagan shartnoma boʻyicha sugʻurtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sugʻurtalangan shaxsning merosxoʻrlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

14-jadval

**“O‘zbekinvest hayot” sho‘ba sug‘urta kompaniyasi tomonidan taklif etilayotgan yuqumli kasalliklardan ehtiyot shart sug‘urtalashning tarif stavkalari<sup>56</sup>**

Yosh kategoriyasi	Sug‘urta summasi(ming so‘mda)							
	40	50	60	70	80	90	100	200
	Yillik sug‘urta mukofoti(so‘mda)							
2-14	1200	1500	1800	2100	2400	2700	3000	6000
14-70	600	750	900	1050	1200	1350	1500	3000

davomi

Yosh kategoriyasi	Sug‘urta summasi(ming so‘mda)							
	300	400	500	600	700	800	900	1000
	Yillik sug‘urta mukofoti(so‘mda)							
2-14	9000	12000	15000	18000	21000	24000	27000	30000
14-70	4500	6000	7500	9000	10500	12000	13500	15000

15-jadval

**Yuqumli kasalliklar bo‘yicha sug‘urtalanganlar uchun sug‘urta summalariga nisbatan belgilagan foizlardagi pul ta‘minotini<sup>57</sup>**

Kasallik turi	Pul ta‘minoti	Kasallik turi	Pul ta‘minoti
Salmonellyoz	60%	Virusli gepatit A	30%
Stafilokokka	30%	Virusli gepatit V	50%
Botulizm	100%	Boshqa gepatit turlari	60%
Brutsellyoz	80%	Epidemik parotit	50%
Difteriya	70%	Qizamiq	70%
Meningi infeksiyasi	80%	Ko‘kyo‘tal	80%
Quturish	100%	O‘tkir poliometit	100%

Sug‘urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug‘urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug‘urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy

<sup>56</sup> Jadval sug‘urta kompaniyasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>57</sup> Jadval sug‘urta kompaniyalarining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

sugʻurta shartnomasi faqat sugʻurtalangan shaxsning ezma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik boʻlmagan taqdirda, shartnoma sugʻurtalangan shaxsning daʼvosi boʻyicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxoʻrlari daʼvosi boʻyicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Ushbu sugʻurta turida sugʻurta obʻekti boʻlib, sugʻurta shartnomasida koʻzda tutilgan yuqumli kasalliklarga chalinish natijasida sugʻurtalangan shaxsning moddiy taʼminotining pasayishi bilan bogʻliq mulkiy manfaatlar hisoblanadi.

Sugʻurtalangan shaxs vafot etgan holatda uning uchun sugʻurta qoplamasini olish huquqiga sugʻurtalanuvchi tomonidan koʻrsatilgan har qanday shaxs ega boʻlishi mumkin. Agar shartnomada bunday shaxs belgilanmagan boʻlsa, sugʻurta qoplamasini oluvchi qonun asosidagi merosxoʻr hisoblanadi.

### **16.3. Yuqumli kasalliklardan va vafot etishdan sugʻurtalashning chet el tajribalari**

Ushbu boʻlimni tayyorlashda Human Mortality Database<sup>58</sup> ning statistik maʼlumotlaridan foydalanildi. Bu maʼlumotlardan qoʻshimcha havolalarsiz foydalanilgan.

Vafot etishning asosiy koʻrsatkichi – bir yil davomida insonning vafot etish koʻrsatkichidir. Insonning yoshiga nisbatan vafot etishning bir yillik ehtimollik koʻrsatkichini  $qx$  deb belgilanadi. 50 yoshli odamning bir yillik vafot etish ehtimolligi  $q_{50} = 0,02155$  ga teng. Bu shu yoshdagi 100 ming kishidan 2155 tasi ( $q_{50} = 0,02155 \times 100000 = 2155$ ) 51 yoshga kirguncha vafot etishini bildiradi.

Sogʻligʻining holatini hisobga olmaganda, insonning vafot etishida muhim faktor boʻlib uning yoshi hisoblanadi.

Inson hayotining birinchi yilida vafot etish darajasi tez oʻzgaradi, hayotining birinchi sutkasida ayniqsa vafot etish darajasi yuqori boʻladi. Hayotining birinchi ikki haftasi yoki birinchi oyida ham vafot etish darajasi yuqori boʻladi. Vafot etishining asosiy sababi tugʻma yurak nuqsoni hisoblanadi.

---

<sup>58</sup> The Human Mortality Database, [www.mortality.org](http://www.mortality.org)

Buyuk britaniyada vafot etishning asosiy xususiyatlari<sup>59</sup>

Yoshi	Vafot etish darajasi	Sharh	Vafot etishning asosiy sabablari
1-yoshgacha	Yuqori, ayniqsa hayotining birinchi haftasida	Tug‘ma yurak nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘limi yuqori	Tug‘ma yurak nuqsoni
1- yoshdan 4-yoshgacha	Past darajada	Doimiy e‘tiborda bo‘ladi	Ktilmagan baxtsiz hodisa, uyquda kutilmaganda vafot etish
5 yoshdan 12 yoshgacha	Past darajada	Xavfsiz muhit	Baxtsiz hodisa
13 yoshdan 16 yoshgacha	Biroz ko‘tariladi	Faol hayot tarzi	Baxtsiz hodisa, narkotiklar, suitsid
17 yoshdan 20 yoshgacha	Vaqtincha ko‘tarilish	Faol hayot tarzi	Avto va motohalokatlar, narkotiklar, suitsid
21 yoshdan 40 yoshgacha	Past darajada	Ish, nikoh, bolalar	Turli sabablar, OITS
41 yoshdan 70 yoshgacha	O‘sovchi darajada	Kasalliklar	Infarkt, rak
70 yoshdan yuqori	Yuqori, o‘sovchi daraja	Organizm himoya kuchlarining pasayishi	Kasalliklarning turli ko‘rinishlari

Maktabgacha yoshda bolalar uyda yoki bog‘chada doimiy qarovda bo‘ladi. Bu yoshda bolalar organizmi tug‘ma nuqsonlarni engib o‘tgan va shuning uchun vafot etish ehtimoli juda past bo‘ladi. Vafot etishning asosiy sababi baxtsiz hodisalar bo‘lishi mumkin.

Maktabning birinchi sinfida bolalar ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan doimiy e‘tiborda bo‘lishi davom etadi. Bu yoshda ham vafot etishning asosiy

<sup>59</sup> www.swissre.com

sababi baxtsiz hodisa bo'lishi mumkin. Vafot etishning eng minimal darajasi 9-11 yosh bo'ladi.

Katta bo'lib borgan sari, 12-14 yoshdan boshlab o'smirlar faol hayot tarzini boshlaydi va doimiy e'tibordan chiqadi. Shu sababli ushbu yoshdan boshlab vafot etish darajasi ortib boradi.

17-20 yosh guruhlar uchun 4-jadvalda vafot etish darajasining vaqtinchalik ortishi avto va moto avariylar bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

20 yoshdan keyin odamlarning ko'pchiligi ishlaydi, oila quradi. Vafot etish darajasi ham ortib boradi, "avtomoto" maksimum holatidan keyin pasayish davri bo'ladi. 20-40 yoshlar o'rtasida vafot etish darajasi nisbatan past (boshqa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan Rossiyada yuqori bo'ladi). 40 yoshdan keyin o'limga olib keluvchi turli kasalliklar ko'payadi. 60-70 yosh oralig'ida vafot etishning asosiy sababi qon aylanish organlarining kasallanishi va rak hisoblanadi.

Keksa yoshda organizmning himoya funksiyalari ancha pasayadi va vafot etishning asosiy sabablari qon aylanish tizimining kasallanishi, rak va nafas olish yo'llari kasalliklari hisoblanadi.

Keltirilgan rasmlardan ham ko'rish mumkinki, vafot etish darajasi insonlarning qaysi mamlakatda yashashiga ko'proq bog'liq. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda nisbatan past bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan yuqori bo'ladi. Rossiyada vafot etish darajasi mehnatga layoqatlilik yoshida (20-60 yosh) boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori. Bu ko'rsatkichni Yaponiya bilan solishtiradigan bo'lsak, Rossiyada vafot etish darajasi bu yosh oralig'ida erkaklar o'rtasida Yaponiyaga nisbatan o'rtacha etti marta ko'p. Ayollar o'rtasida esa to'rt marta ko'p.

Vafot etish darajasi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Yuqorida biz vafot etish darajasining Yaponiya va Rossiya o'rtasida keskin farq bo'lganini aytgan edik, ammo bu farq 1950 yillarda, aniqrog'i ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda unchalik katta emas edi.

Hayot sug'urtasi shartnomalari uzoq muddatga tuziladi. Shuning uchun sug'urtalovchilar uchun hozirgi zamon vafot etish darajasini bilishdan tashqari uning kelajakdagi o'zgarishlarini xam bilish zarur.

Vafot etish darajasining umumjahon tendensiyasini 200 yillik ma'lumotlarga ega bo'lgan Shvetsiya misolida ko'rib chiqamiz. 200 yillik davr davomida Shvetsiyada vafot etish darajasi bir necha barobar kamaygan. Ayniqsa bolalar o'limiga qarshi kurash o'zining yaxshi samarasini bergan. Hayotning birinchi yilidagi vafot etish darajasi 70 barobar kamaygan.

XIX asr oxirlarida vafot etish darajalari Rossiya va Shvetsiyada bir biriga juda yaqin bo'lgan XX asr davomida katta yoshdagi erkaklar o'limi darajasi o'zgarimasdan qolgan, ayollar o'limi kamaygan bo'lsada rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori darajani tashkil etgan.

Yoshga nisbatan vafot etish darajasining o'zgarishi turlicha bo'lgan. Rossiyada 1959-2006 yillar oralig'ida hayotning birinchi yilidagi o'lim ko'rsatkichi 4 marta kamaygan. Katta yoshdagilar o'rtasidagi o'lim darajasi o'zgarishsiz qolgan va xatto bir muncha ortgan.

Rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, Rossiyada vafot etish darajasining doimiy pasayish xolati kirib kelganicha yo'q.

Vafot etish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarga yosh, turli zararli odatlar, jinsi va avloddan avlodga o'tuvchi kasalliklar va etishmovchiliklarni kiritish mumkin. Turli zararli odatlarning vafot etish darajasiga ta'siri katta emas. Avloddan avlodga o'tuvchi kasalliklarning ushbu ko'rsatkichga ta'siri o'rtacha bo'lib, bunday kasalliklar sifatida yurak kasalligi va qandli diabet kasalliklarini aytish mumkin.

Mazkur ko'rsatkichga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy faktorlar sifatida kasb-kor, ovqatlanish, yashash sharoitlari, yashash joyi, ta'lim darajasi va hayot tarzini aytish mumkin. Ushbu faktorlar o'rtasida aloqadorlik mavjud bo'lib, shu tufayli ularning aloxida ta'sir darajasini belgilash qiyin. Jumladan, insonning kasb-kori vafot etish darajasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, masalan yuqori risk

darajasiga ega bo'lgan ish, zararlilik darajasi yuqori bo'lgan ishlar, kuchli asabiylashish kabilar vafot etish darajasi ko'rsatkichining ortishiga olib keladi.

Xodim yoki ishchining kasb-kori uning oylik maoshini belgilaydi, bu o'z o'rnida uning Hayot darajasiga, ovqatlanishi, tibbiy xizmatlardan foydalanish va boshqalarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada klass seleksiyasi xosil bo'ladi. Hayot sug'urtasida klass seleksiyasining roli juda yuqori bo'lib, jami axoliga nisbatan sug'urtalangan shaxslarning klass tarkibi yuqori darajadagi daromad va ta'lim darajasiga ega bo'lgan axoli qatlamlariga tomon aralashadi.

Aholining turli qatlamlari uchun vafot etish darajasi xam turlicha. Misol uchun 17-jadvalda Buyuk Britaniya jami axolisining vafot etish darajasiga turli ijtimoiy sinflar vafot etish darajasining foizdagi nisbati keltirilgan<sup>60</sup>.

### 17-jadval

#### Ijtimoiy sinflarga nisbatan vafot etish darajasi<sup>61</sup>

Ijtimoiy sinflar	O'rtacha darajaga nisbatan foizda
I. Professionallar (vrachlar, aktuariylar, advokatlar va boshqalar)	77
II. Tadbirkorlar va menejerlar	81
III.1. Xizmatchilar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar	99
III.2. Qo'l mehnati bo'yicha malakali xodimlar	106
IV. Qo'l mehnatining o'rtacha malakali xodimlari	114
V. Qo'l mehnatining malakasiz xodimlari	137

Qo'l mehnatining malakasiz xodimlarining o'rtacha vafot etish darajasi professionallarga nisbatan sal kam 80 % ortiq.

To'g'ri va sifatli ovqatlanish muhim o'rin tutadi. Noto'g'ri ovqatlanishning sabablari mablag'ning etishmasligi yoki odat yoki past darajadagi ma'lumot bo'lishi mumkin. Ortiqcha ovqatlanish boy oilalarda ham, kambag'al oilalarda ham bo'lishi mumkin. Kambag'al oilalarda arzon va sifatsiz mahsulotlarni tanovul

<sup>60</sup> Acted Study Materials: 2006 Examinations. Subject D2. (Buyuk Britaniya aktuariylar institutining o'quv qo'llanmasi)

<sup>61</sup> Jadval sug'urta kompaniyalarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



qilish natijasida organizmni yog‘ bosishi yoki boshqa kasalliklarning kelib chiqish darajasi yuqori.

Yashash sharoitining talab darajasida bo‘lmasligi infeksiyon va respiratorli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Yashash sharoiti uchun eng muhim talablar tozalik, qishda issiqlik, suvning sifati va gigiena hisoblanadi. Yashash sharoitining yomonligiga odatda kambag‘allik sabab bo‘ladi. Shunday qilib, yashash sharoiti klass seleksiyasining faktorlaridan biri xisoblanadi.

Geografik faktorlarga turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi joyning tabiiy iqlim sharoiti, yo‘l harakatida avariylarning sodir bo‘lish darajasi, tabiiy katastrofalar, siyosiy notinchliklar, tibbiy xizmatning yetarli emasligi kabilarni kiritish mumkin. Statistik ma‘lumotlarning ko‘rsatishicha hayot davomiyligining darajasi bir shaharning turli qismlarida turlicha bo‘lishi mumkin.

Ma‘lumot darajasi daromat darajasiga va kasb-koriga ta‘sir ko‘rsatadi. Odatda ma‘lumotli kishilar uzoq yashaydilar. Ma‘lumotli bo‘lish hayot tarziga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi, ovqatlanish jismoniy badan tarbiya yetarli darajada bo‘lib, chekish va alkogol iste‘mol qilish nisbatan kam bo‘ladi.

Alkogolning ta‘siri doim bir xilda emas. Alkogolni doimiy kam miqdorda istemol qilish inson salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Vafot etish darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi boshqa faktorlar sifatida jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish, sportning xavfli turlari, sayoxat va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Jami aholiga birday ta‘sir ko‘rsatuvchi faktorlar sifatida tibbiy xizmatining takomillashuvi, yangi kasalliklarni paydo bo‘lishi, epidemiyalar urushlar va boshqalarni aytish mumkin.

Nikoxda bo‘lgan kishilarning vafot etish darajasi axolining boshqa qatlamlariga nisbatan past bo‘ladi. Buning sababi, turmush qurayotganlar odatda sog‘lom kishilar bo‘lib, nogironlar va boshqa nosog‘lom kishilar kam turmush qurishadi, yani nikohga kirishish selektiv faktor hisoblanadi. Shu bilan birga nikohi buzilganlar o‘rtasida o‘lim darajasi yuqori bo‘ladi.

Fuqorolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalashni rivojlantirish va uni takomillashtirishning asosiy shartlaridan biri sug'urta bozorida raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi aksariyat ekspertlar va taxlilchilarning fikriga ko'ra, mamlakatimiz mintaqalarida raqobat muhiti sust ko'rinishga ega. Eng achinarlisi, aksariyat qishloq tumanlarida fuqorolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hamon yagona sug'urtalovchi - "O'zagrosug'urta" aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining tuman bo'limlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Haqiqatda, unga raqobatda bo'ladigan tuman bo'limlari aksariyat sug'urta tashkilotlari tomonidan joylarda tashkil etilmagan. Ayni chog'da bu vaziyat to'liq barcha viloyatlarga tegishlidir.

Demak, bayon etilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarida fuqorolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari bozori biroz rivojlangan bo'lib, chekka qishloq tumanlarida sug'urtalovchilarning sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'linmalari yetarli darajada tashkil etilmagan. Bu o'z navbatida fuqorolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari bozorini bir tekisda rivojlanishiga halaqit bermoqda.

Fuqorolarni kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishdagi asosiy omillar qatoriga sug'urta polislarini sotish kanallarini kengaytirishni hamda sug'urta polislarini sotishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llashni kiritish mumkin.

Sug'urta agenti mijoz bilan o'zaro foydali muloqot o'rnatish uchun quyidagi oltita muhim omilni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim:

- o'zaro hayrixohlik. Bu sifat yaxshi ish munosabatlarini o'rnatish uchun muhim shart hisoblanadi. Muruvvatlilik, manfaatlarning umumiyligi hayrixohlikni oshiradi.

- tomonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati. Savdo munosabatlari mustahkam bo'lishining yana bir muhim sharti bu hamkorlarning bir-biriga bo'lgan hurmatidir.

- tomonlarning bir-biriga o‘zaro ishonchi. Sotish texnologiyasining muvaffaqiyati hamkorlarning bir-biriga ishonchi o‘zaro ochiqchilik, vijdonda, hulqining «tiniq»ligida, tartiblilikida va ishonchlilikida bilinadi.

- o‘zaro tirishqoqlik. Sug‘urta mahsulotlarini sotuvchi sifatida agent hamma kuch-g‘ayratini mijoz bilan yaxshi muomalada bo‘lishga qaratishi lozim. Darhaqiqat, mijozni qiziqitmay turib, agent umumiy qo‘yilgan maqsad yo‘lida hech qanday o‘zgarish qilolmaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, sug‘urta agenti mijozga do‘st bo‘lishi, buning ustiga uning muammolarini echishga yordam berishi, uning har qanday istaklarini bajarishga harakat qilishi kerak. Vazmin va bosiq bo‘lish hamda kamgaplik savdo munosabatlari muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi. SHuningdek, sug‘urta agentining mijoz bilan suhbat olib borish mahoratini, bir-birlarining ish faoliyatiga o‘zaro qiziqishlarini moslashuvchanlik, oliyjanoblilik va mustaqil bo‘lish kabi fazilatlarni sotuv jarayonida ijobiy natijaga erishishning zarur shartlaridan biri sifatida ta’kidlash joiz.

- sotuvchi va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarning jadalligi. SHuni yoddan chiqarmaslik kerakki, o‘zaro munosabatlar ikkala tomon bir-biri bilan doimiy muloqotda bo‘lib turgandagina yaxshilanadi. Agar sug‘urta mahsulotlarini sotuvchi agent mijozlar bilan muntazam yaxshi va mustahkam aloqada bo‘lib turish imkoniyatini topa olmasa, u holda hamma e’tiborni va harakatlarni katta daromad keltiruvchi mijozlarga qaratishi kerak. Mutaxassislarning ma’lum qilishicha, sug‘urta agenti bir paytning o‘zida beshtadan ortiq bo‘lmagan mijozlar bilan haqiqatda yaxshi va mustahkam aloqada bo‘la oladi.

- puxta bilimli bo‘lish. Sug‘urta agenti o‘z kompaniyasini mijozga tanishtirish jarayonida unga kompaniyaning erishgan yutuqlari va ijobiy tomonlari haqida xaqida so‘z ochadi. Agarda agent o‘zini puxta bilim egasi qilib ko‘rsata olmasa, mijoz bilan bo‘ladigan hamma yaxshi munosabatlari izdan chiqadi.

Shunday qilib, sotuvchi va mijoz o‘rtasida qaror topgan o‘zaro ishonch, mijoz haqidagi muammolar to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lish, bu muammolarning to‘g‘ri echimini ko‘rsatish, oxir-oqibatda sug‘urta mahsuloti sotilishiga sharoit yaratadi.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi davlat olib borayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Sug‘urta ana shu tizimda o‘ziga xos o‘rinni egallashi uchun bir qator muammolarni hal etish lozim.

Birinchidan, respublika aholisining yarmidan ko‘pi qishloq xududlarda istiqomat qilishi sir emas. Qolaversa, mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘p bolali va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining salmoqli qismi ham aynan shu xududlarga to‘g‘ri keladi. Qishloqda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining asosiy daromad manbalari, faqat, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan nafaqa va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan beriladigan pensiyalarga qaratilgan. Bu holat, o‘z-o‘zidan qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida sug‘urta mexanizmidan samarali foydalanish yo‘llarini izlab topishni taqozo qiladi. Bu muammoni hal etish oson ish emas. Chunki, sug‘urta har qanday shaklda va usulda amalga oshirilmasin, pulli xizmat bo‘lib qolaveradi. Shunday ekan, to‘lov qobiliyati past darajada va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini sug‘urta himoyasiga qamrab olish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

To‘lov qobiliyati past va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qiladigan fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish uchun ushbu yo‘nalishda sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan sug‘urta tashkilotlariga soliqdan imtiyozlar berishni taklif etamiz. Albatta, bu taklif vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lib, turmush darajasining oshishi barobarida, keyinchalik bu imtiyoz bekor etilishi mumkin.

Ikkinchidan, biz bilamizki, sug‘urtaning barcha turi u yoki bu darajada ijtimoiy himoya bilan uzviy bog‘langan. Gap aholini sug‘urta qilish bilan bog‘liq sug‘urta xizmatlari haqida ketayotir. Aholining ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq sug‘urta xizmat turlariga fuqorolarni kollektiv yoki yakka tartibda baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish, tibbiy sug‘urta, fuqorolarni kasalliklardan sug‘urta qilishni kiritish mumkin. Albatta, respublikamizdagi mavjud sug‘urta kompaniyalarining aytarli barchasi fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilish bilan shug‘ullanadi. Bu chakana sug‘urta xizmati hisoblanadi va har bir shaxsga

individual yondashuvni talab etadi. Bir tomondan, sugʻurta xizmatini koʻrsatishda shaxsning istak-xoxishlarini eʼtiborga olish muhim ahamiyatga ega, ikkinchi tomondan, bunday tartibda ishlash sugʻurta tashkiloti tasarrufida anchagina sugʻurta agentlari tarmogʻi faoliyat koʻrsatishini talab etadi. Afsuski, Oʻzbekiston sugʻurta bozorida agentlik tarmoqlari sonining oʻsishi kuzatilayotgan boʻlsada, hali-beri bu aholining keng qatlamlarini sugʻurta himoyasiga qamrab olish uchun yetarli darajada emas. Xanuzgacha, respublikamizning markazdan ancha uzoq boʻlgan joylarida faqat “Oʻzagrosugʻurta” aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasining boʻlinmalarini uchratish mumkin. Aksariyat sugʻurta tashkilotlari shahar joylarda tegishli filiallarga ega boʻlib, ularning qishloq tumanlarida shaxobchalari mavjud emas. Holbuki, qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholining sugʻurta xizmat turlarini raqobatga asoslangan holda koʻrsatish yuqorida nomi keltirilgan sugʻurta kompaniyasi bilan bir qatorda boshqa sugʻurta tashkilotlarining ham boʻlinmasi tashkil etilishini taqozo etadi. Shundan kelib chiqqan holda sugʻurta mexanizmidan samarali foydalanishni tashkil etish uchun respublika hudularida agentlik shaxobchalarini koʻpaytirish lozim. Fuqorolarni kasalliklardan ehtiyot shart sugʻurtalash boʻyicha sugʻurta xizmatlari bozorini rivojlantirishda ushbu xizmat bilan bogʻliq axborotlarning ochiqligini taʼminlash, qolaversa, sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy holati, tarif stavkalari, sugʻurta qilish qoidalari kabi maʼlumotlarni olishda muammolarning boʻlmasligi muhim rol uynaydi. Toʻgʻri keyingi yillarda sugʻurta bozorining ochiq-oydinligini taʼminlash, sugʻurta tashkilotlari va ularning operatsiyalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni keng xalq ommasi eʼtiboriga etkazish borasida jiddiy ijobiy qadamlar tashlandi.

### **Nazorat savollari:**

1. Kasalliklardan ehtiyot shart sugʻurtalashning ijtimoiy ahamiyati nimadan iborat?
2. Kasalliklardan ehtiyot shart sugʻurta qilishning qanday turlari mavjud?
3. Fuqorolarni kasalliklardan ehtiyot shart sugʻurtalashda sugʻurta summasi qanday belgilanadi?

4. Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalashga oid sug'urta shartnomasini tuzishda qanday omillar hisobga olinadi?

5. Tibbiy sug'urtalash dasturiga asosan sug'urtalangan shaxslarga qanday xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash ko'zda tutiladi?

6. Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalashda qanday hodisalar sug'urta hodisasi hisoblanmaydi?

7. Kasalliklardan ehtiyot shart sug'urtalashda qaysi hollarda sug'urta shartnomasining amal qilishi to'xtatiladi va sug'urtalangan shaxslarga sug'urta tovonini to'lanmaydi?

8. Sug'urtalangan shaxs (manfaatdor shaxs) sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta tovonini olish uchun qanday hujjatlarni taqdim etishi shart?

## **17-BOB. BAXTSIZ HODISALARDAN EHTIYOT SHART SUG'URTA QILISH**

### **17.1. Baxtsiz xodisalardan sug'urtalash turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari**

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha shartnoma qonunga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarni yozma arizasi asosida tuziladi. Shartnoma tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti o'z mijozlariga sug'urta xizmatini taklif etadi. Yuridik va jismoniy shaxslar sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin albatta sug'urtalovchining moliyaviy holati, litsenziyasi mavjudligi bilan qiziqishi lozim.

Sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin sug'urta tashkiloti vakili sug'urtalayotgan shaxslarni fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash qoidalar bilan tanishtirishi lozim. Mazkur sug'urta turi bo'yicha fuqarolarni baxtsiz hodisa ro'y berish natijasida sog'lig'i va hayotini saqlash bilan bog'liq manfaat sug'urta ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalovchi, odatda, asab va ruxiy kasallikka duchor bo'lgan, falaj, ko'zi ojiz shaxslar, eshitish qobiliyati zaif bo'lgan va nogiron shaxslar bilan sug'urta shartnomasini tuzmaydi.

Sug'urtalangan shaxsning hayotiga va sog'lig'iga quyidagi baxtsiz hodisalarni ro'y berishi natijasida shikast etganda va tasdiqlanganda sug'urta summalari berilishi mumkin:

- jarohat olganda;
- suyaklarni sinishi, chiqishi;
- ichki organlarni zararlanishi;
- kuyishi;
- teri qatlamlarini sovuq urishi;
- elekt toki ta'sirida jarohatlanishi;
- kimyoviy moddalar va zararli o'simlik ta'sirida zararlanishi;
- tish sinishi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan holatlar natijasida o‘lim xolati yuz berganda xam sug‘urta summasi to‘lanadi.

Quyidagi hodisalarni ro‘y berishi oqibatida sug‘urtalangan shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga shikast etkazilsa yoxud o‘limga olib kelsa sug‘urta summasi to‘lanmaydi:

- yadro portlashi;
- radiatsiya va nurlanish;
- sug‘urtalangan shaxsning atayin hatti-harakati natijasida baxtsiz hodisalar yuz berganda, o‘z joniga qasd qilganda va jinoiy harakatlar natijasida ro‘y berishi.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashda sug‘urta summasi tomonlar kelishuviga asosan ixtiyoriy tarzda belgilanadi. Bunda sug‘urta summasini belgilashning ikki xil usulini ko‘rish mumkin. Biri – individual, ikkinchisi jamoa sug‘urtasi. Agar sug‘urtalanuvchi bir necha kishilarga nisbatan sug‘urta shartnomasi tuzadigan bo‘lsa, umumiy sug‘urta summasi bitta sug‘urtalangan shaxsning sug‘urtalanishi kerak bo‘lgan kishilar soniga ko‘paytirilishi yo‘li bilan aniqlanadi.

Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashga oid sug‘urta mukofotini belgilashda sug‘urta davri, sug‘urtalanuvchining yoshi, faoliyat sohasi, kasbi, ishlab chiqarish xarakteri va mehnat sharoiti, shuningdek, sug‘urta hodisasiga olib kelishi mumkin bo‘lgan qator boshqa omillar hisobga olinadi.

Ta’kidlash kerakki, sug‘urtaning mazkur turida individual yondoshuv talab etiladi. Albatta, salomatlik muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun baxstalar vaziyatlar yuzaga kelganda, avvaldan tibbiy ko‘rikdan o‘tiladi. Mijozning kasbi ham katta ahamiyatga ega. Har bir sug‘urta kompaniyasida baxtsiz xodisaga uchrash ehtimoli ko‘p bo‘lgan kasblar ro‘yxati mavjud. Shuning uchun mijoz anketa to‘ldirayotgan paytda o‘zining faoliyat turini, uning o‘ziga xos tomonlarini batafsil ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, shuni nazarda tutish kerakki, bir xilda nomlanadigan kasblar turli xil darajadagi xatarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, neft qazib oluvchi korxonada ishlayotgan kon ishchisi



bilan shu korxonada direktori yoki buxgalteri uchun xos bo'lgan xatarlar o'rtasida farq bor.

Baxtsiz hodisalardan sug'urtalanish uchun tuziladigan sug'urta shartnomasida jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham, shu jumladan, sportchilar ham sug'urta sub'ekti bo'lishi mumkin. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda yuqorida sanab o'tilgan omillar hisobga olinadi. Bundan tashqari, sug'urtalovchi sportning mazkur turiga oid xatarlarni aniqlash uchun alohida qoida va tartiblarni qabul qiladi. Sug'urtalovchi alohida shartlar, masalan, sportchining musobaqalardagi yoki mashg'ulotlardagi ishtiroki bo'yicha majburiyatlarni zimmasiga olishi mumkin.

Baxtsiz hodislardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta tariflari xatarlarni sug'urtalash turlari bo'yicha tariflarni tuzish usulida aniqlanadi. Baxtsiz hodislardan sug'urtalash zararni sug'urtalash toifasiga mansub, shu sababli tariflashtirishda sug'urta xatarini barcha sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlash tamoyili asos qilib olinadi. Baxtsiz hodislardan sug'urtalashning netto-stavkasi uchun sug'urta summasining mazkur sug'urta turi bo'yicha o'rtacha zarar ko'rsatkichi hisobidan amalga oshiriladi.

Baxtsiz hodislardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta tariflari odatda sug'urtalanuvchilarning jinsi va yoshiga bog'liq bo'ladi. Ammo sug'urta mukofotlarini maksimal darajada differentsiyalash sug'urta summasining miqdoriga va sug'urtalanuvchi amalga oshirayotgan faoliyatning, birinchi galda kasb-korining xatarlilik darajasi bilan belgilanadi. Sug'urta summasi oshib borgani sari, shuningdek sug'urtalanuvchilarning kasb-kor va ijtimoiy vazifalarining xatarlilik darajasiga bog'liq holda sug'urta tariflari ham o'sadi. Sug'urtalovchilar tariflarning va sug'urta summasining mutanosibligiga, shuningdek kasblarni xatarlilik ehtimoliga ko'ra gurulashtirishga oid o'z o'lcham yondashuvlaridan foydalanadilar. An'anaga ko'ra baxtsiz hodisa bo'yicha yuqori darajadagi xatarlilikka qo'l mehnati va mexanizmlarni ishlatish bilan bog'liq kasblar, tarnsport, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi xodimlari, quruvchilar kiritiladi. Aqliy mehnat vakillari, xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchilar, boshqaruv xodimlari

baxtsiz hodisa xatariga kamroq doxil hisoblanadi. Sportchilar, akterlar, qutqaruvchilar va ayrim turdagi boshqa kasb vakillari uchun sug'urta mukofotlarining xususiy hisob-kitoblari qo'llanadi.

Fuqarolarni baxtsiz hodislardan sug'urtalashning namunaviy qoidalarida sug'urta summasini va sug'urta mukofotini aniqlash va ularni to'lash bo'yicha quyidagi tavsiyalar beriladi. Sug'urta summasi sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida har bir sug'urta holati bo'yicha alohida aniqlashtiriladi va tanlab olingan sug'urta hodisalari uchun bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Agar sug'urtalovchi bir necha shaxslarga nisbatan shartnoma tuzayotgan bo'lsa, shartnomada xamma sug'urtalanuvchilar uchun umumiy sug'urta summasi har bir sug'urta turi bo'yicha alohida ko'rsatiladi. Xususiy sug'urta summalari teng bo'lgan holatda umumiy sug'urta summasi bitta sug'urtalanuvchi shaxs uchun belgilangan sug'urta summasini shartnomada sanab o'tilgan barcha sug'urtalanuvchilarning soniga ko'paytirish orqali topiladi. Agar xususiy sug'urta summalari turlicha bo'lsa, shartnoma bo'yicha umumiy sug'urta summasini har bir sug'urtalanuvchi shaxsiga oid sug'urta summasini qo'shish orqali aniqlanadi.

Bazaviy sug'urta tariflari sug'urtalovchi tomonidan mustaqil ishlab chiqiladi. Alohida holatlarda sug'urta mukofotining miqdorini aniqlashda sug'urtalovchi bazaviy sug'urta tariflariga nisbatan xatarning xususiy xorsslaridan kelib chiqqan holda ko'tariluvchi va pasayuvchi koeffitsientlardan foydalanishga haqli. Bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti bir vaqtda to'lab beriladi. Shartnomani b bir muncha uzoqroq muddatlarga tuzitilganda esa, mukofotni to'lab berish muddati uzaytirilishi va ikki bo'lib to'lanishi mumkin, bunda birinchi sug'urta badali butun sug'urta mukofoti miqdorining 50 foizidan kam bo'lmasligi shart. Sug'urta mukofotining ikkinchi qismi sug'urta shartnomasi muddatining yarmi o'tmasdan avval to'lanishi shart. Sug'urta tarifi yillik stavka tarzida o'rnatiladi. Bir oydan kam muddatga sug'urtalashda sug'urta mukofoti yillik stavkaning 0,7 foizi miqdorida shartnoma amal qiladigan har bir kun uchun to'lanadi.

Sug'urta mukofoti turli usullarda to'lanishi mumkin:

- sugʻurtalovchining hisob raqamiga. Agar sugʻurta shartnomasida boshqacha shart koʻzda tutilgan boʻlmasa, naqd pulsiz shaklda sugʻurta shartnomasi imzolanganidan keyin besh bank kuni ichida

- naqd pul bilan sugʻurtalovchining kassasiga sugʻurta shartnomasi tuzilgan va imzolangan kuni toʻlash orqali.

Agar sugʻurta shartnomasida sugʻurta mukofotini uzaytirilgan muddatda kiritilishi koʻzda tutilgan boʻlsa, koʻpincha bunday holatlarda navbatdagi sugʻurta badalini belgilangan vaqtida toʻlamaganlik uchun qoʻllanadigan jazo choralari ham koʻrsatib qoʻyiladi. Navbatdagi sugʻurta badalini toʻlaguncha sugʻurta hodsasi sodir boʻlgan holatda, sugʻurtalovchi sugʻurta tovonini hisoblash chogʻida toʻlanmay qolgan sugʻurta badalini chegirib olib qolishga haqlidir.

Sugʻurta hodisasi roʻy berganda bu haqida sugʻurtalangan shaxslar qisqa muddatda sugʻurtalovchiga xabar berishi lozim. Baxtsiz hodisa roʻy berganda sugʻurtalangan shaxslar sugʻurtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- sugʻurta polisi;
- davolash profilaktika muassasidan baxtsiz hodisa natijasida sugʻurtalangan shaxsning davolanganligini tasdiqlovchi maʼlumotnoma.

Zaruriyat boʻlganda sugʻurtalovchi sugʻurta summasini toʻlash masalasini hal etish uchun zarur boʻlgan boshqa hujjatlarni soʻrashga ham haqli.

Baxtsiz hodisalar roʻy berish natijasida oʻlim hodisasi roʻy berganda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- sugʻurta polisi;
- FXDYO boʻlimidan oʻlim holati roʻy bergani toʻgʻrisida maʼlumotnoma;
- merosxurlik huquqini tasdiqlovchi hujjat;

agar oʻlim hodisasi yoʻl-transporti natijasida roʻy bergan boʻlsa, yoʻl harakati xavfsizligi organidan olingan maʼlumotnoma

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat.

Sugʻurtalovchi zaruriyat boʻlganda yuqoridagi hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlarni soʻrashga ham haqli.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasini to'lash to'g'risida qaror qabul qilinganda sug'urta summasi shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida to'lab beriladi.

Fuqarolarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalashda sug'urta to'lovi sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi bo'lganini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilinishi yo'li bilan amalga oshiriladi. Masalan, to'lov to'g'risidagi arizaga sud tibbiy ekspertizasi ma'lumotnomasi, VKK xulosasi, mehnat qobiliyati yo'qotilganda tibbiy kartadagi yozuv nusxasi, VTEK ma'lumotnomasi nusxasi, fuqaro vafot etganda FHDYO tomonidan berilgan vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi va boshqalar.

Sug'urta to'lovi hajmi sug'urta summasiga proporsional tarzda jabrlanuvchining salomatligi va mehnat qobiliyatiga etgan zarardan kelib chiqqan holda sug'urta kompaniyalarining odatdagi qoidalarida belgilangan sug'urta to'lovlari jadvalida tana jarohatlari xarakteri ko'rsatilgan bo'ladi. O'lim hodisasi sodir bo'lganda yoki 1-guruh nogironligi yuzaga kelganda sug'urta summasi hajmi 100 foizlik nisbatda belgilanadi.


Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash to'rtta *bazaviy kafolatni* taqdim etadi (5-rasm). Biroq amalda sug'urtalovchilar mazkur standart qoplamalarning har turli kombinatsiyalaridan foydalanishlari yoki ularning ayrimlarini sug'urtalash shartlaridan istisno etishlari mumkin. Masalan, mamlakat sug'urtalovchilari zarar ko'rgan shaxsni davolashda tibbiy xarajatlar qoplamasini kamdan-kam hollarda taqdim etadilar.

1. Baxtsiz hodisa oqibatidagi *o'lim holati uchun kafolat* sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan benefitsiarga yoki sug'urtalanuvchining merosxurlariga sug'urtalashning alohida shartlari asosida pul summasining (kapitalning) to'lanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalovchining ixtiyoriga ko'ra kapital renta (pensiya) shaklida to'lanishi ham mumkin.

2. *Nogironlik holati bo'yicha kafolat* sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasida qayd etilgan sug'urta summasini ishga layoqatsizlik darajasiga

ko‘paytirish orqali aniqlanadigan tovon puli to‘lanishini ta‘minlaydi. Ishga layoqatsizlik darajasi quyidagi formula orqali baholanadi:

$$\text{Sug'urta to'lovining summasi} = \text{Sug'urta summasi} \times \text{Ishga layoqatsizlik koeffitsienti}$$



### 5-rasm. Baxtsiz hodisadan sug‘urtalash bo‘yicha kafolatlar tizimi<sup>62</sup>

Ishga layoqatsizlik koeffitsientini aniqlashning ikki usuli mavjud. Birinchi holda sug‘urta kompaniyalari o‘z statistik kuzatuvlari asosida mehnatga layoqatni yo‘qotish darajasini ushbu layoqatni to‘liq yo‘qotish holatidan yoki turli a‘zolarining ish qobiliyati yo‘qotilishi holatidan kelib chiqib aniqlash jadvalini tuzadilar, yoki ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodislardan ko‘rilgan zararni qoplash uchun davlat tomonidan qo‘llaniladigan jadvallardan foydalanishlari mumkin.

To‘liq va doimiy 100 foizli mehnatga layoqatsizlik to‘liq ko‘rlik holatida, umumiy falaj holatida, ikkala qo‘lni (ikki qo‘l barmoqlari), ikki oyoq (to‘piqdan pasti), va bir qo‘l (barmoqlari) va bir oyoq (to‘piqdan pasti) amputatsiya

<sup>62</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

qilinganda yoki ulardan foydalanish imkoniyati to'la yo'qotilgan taqdirda, davolanmas darajada es-hushini yo'qotish holatlarida qo'llanadi.

Tan a'zolarining qisman yo'qotilishi yoki ishga yaroqsizlik holati maksimal koeffitsientlarga keltirilganda, tibbiyot muassasi yoki tibbiyot-ekspertiza komissiyai tomonidan belgilangan yaroqsizlik darajasiga mutanosib ravishda qisqartiriladi. Agar a'zo avvaldan yaroqsizlik xususiyatiga ega bo'lgan va baxtsiz hodisa tufayli kishi uni ko'proq darajada yo'qotgan yoki nogironlik darajasini olgan bo'lsa, sug'urta to'voni faqat baxtsiz hodisa tufayli olingan shikastlanishlar uchun to'lanadi.

Nogironlik ko'rsatkichlari ko'p bo'lgan holatlarda mehnatga umumiy layoqatsizlik har bir tan a'zosining mehnatga layoqatsizlik koeffitsientlarini qo'shish orqali olinadi. Biroq bu holda uning umumiy miqdori yo'qotilgan a'zolar tarkibiga kiruvchi tan qismlarining 100 foizlik mehnatga layoqatsizlik holatidan ortib ketishiga yo'l qo'yilmaydi (masalan, qo'l barmoqlari koeffitsientining yig'indisi qo'l barsoqlarining butkul yo'qotilishi koeffitsientidan ortib ketishi mumkin emas).

Ana shunday jadvallarda keltirilgan koeffitsientlar insonning anatomik va fiziologik jihatdan bus-butunligiga shikast etkazilishi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, uning kasb-koriga yoki ijtimoiy faoliyatini hisobga olmagan holda hisoblab chiqilgan. Sug'urta kompaniyalari ayrim kasblar uchun maxsus qoplamalarni taklif eitishi mumkin, masalan, ashulachilar uchun ovozni yo'qotishi, aktyorlarning tashqi qiyofasining o'zgarishga uchrashi, jarrohlar uchun qo'l barmoqlarining shikastlanishi va h.k. holatlari uchun tovon puli to'lanshini taklif etadi. Tabiiyki, bunday bunday tovon to'lovlari standart kafolatlarga nisbatan ancha yuqori sug'urta tariflari qo'yilishini taqazo etadi.

Sug'urtalovchilar tomonidan foydalaniladigan mehnatga layoqatsizlik koeffitsientini aniqlashga oid ikkinchi usul umumiy nogironlik bo'yicha foiz ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, ular tibbiy muassasalar yoki tibbiyot-ijtimoiy ekspertiza komissiyalari (VTEK) tomonidan hisoblab chiqiladi. VTEK tomonidan belgilangan nogironlikning u yoki bu toifasiga qarab sug'urta kompaniyasi

tomonidan sug'urta tovonini to'lash uchun mehnatga layoqatsizlik darajasi aniqlanadi. Amalda bu koeffitsientlar quyidagi oraliqda tebranib turadi: 1-toifa nogironlik uchun sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta ummasining - 75 – 80%; 2-toifa nogironlik uchun – 50 – 65%; 3-toifa nogironlik uchun – 25 – 50% miqdorini tashkil etadi.

3. *Mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik holati bo'yicha kafolat* sug'urtalanuvchiga davolinish va salomatlikni tiklash davri uchun kundalik tovon puli to'lanishini ta'minlaydi.

Bu kafolatni taqdim etish o'ziga xos xususiyatlariga ega. Birinchidan, tovon pulining miqdori mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik bo'yicha sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta summasiga proporsional ravishda belgilanadi, masalan har kun uchun sug'urta summasining 0,3 yoki 0,5 % miqdorida. Nafaqaning eeng ko'p miqdorini belgilash chegarasi sifatida sug'urtalanuvchining o'rtachcha bir kunlik daromadi miqdori olinadi. Ikkinchidan, mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik holati kafolati odatda franshizaga ega bo'lib, u nafaqa to'lanmaydigan mehnatga layoqatsizlikning birinchi kunlarida ifodalanadi. Eng ko'p tarqalgan franshiza odatda 7 kundan ortiq bo'lmaydi. Uchinchidan, mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik holati kafolati tovon puli to'lashning oxirgi muddati chegaralanishi bilan ajralib turadi. Bu muddat xususiy holda aniqlanadi va an'anaga ko'ra 365 kunni tashkil etadi.

4. *Tibbiy xarajatlarni to'lash kafolati*, baxtsiz hodisa oqibatidagi shikastlanishlarni davolash uchun zarur to'lov bo'lib, shifoxonaga yotqizish, ambulatoriyada davolash, dori-darmon, parvarish uchun xarajatlarning qoplanishini nazarda tutadi. Opsion tarzida protezlash, kosmetik jarrohlik harajatlarini, sanatoriyada davolanishni to'lab berishni ham taklif etish mumkin. Asosiy kafolatlar bo'yicha to'lovlar tibbiy xarajatlarning 100% miqdorida. Qo'shimcha kafolatlar bo'yicha esa 20 – 50% dan yuqori bo'lmagan holda belgilanishi mumkin. Odatda bunday kafolatning miqdori ijtimoiy sug'urta yoki ijtimoiy ta'minot hisobidan davolanish xarajatlari uchun beriladigan to'lovlarning miqdoriga bog'liq bo'ladi.

## **17.2. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalashni amalga oshirish tartibi va tahlili**

Baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning asosiy maqsadi baxtsiz hodisa tufayli sug'urtalanuvchi salomatligi va hayotiga etkazilgan zararni qoplashdir, ayni damda sug'urtaning mazkur turi bo'yicha asosiy mijozlar sifatida maktab o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari va korporativ mijozlar namoyonn bo'lmoqda. Korporativ mijozlar o'z xodimlarining salomatligidan manfaatdor bo'lgan ish beruvchilardir, maktab o'quvchilarini esa odatda farzandi haqida qayg'urgan ota-onalar sug'urta qildiradilar. Shunday ekan ushbu mavzuni yoritishda sug'urta bozorida aynan shu sug'urta turi bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyasining faoliyatini hamda unda mazkur sug'urta turi bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlarini taxlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Baxtsiz hodisalardan sug'urtalashga oid qoplamalar to'g'risida gap ketar ekan, sug'urta qoplamalarining muayyan hajmini aniqlashga nisbatan ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish lozim. Sug'urta kompaniyasi yo barcha kafolatlarni o'lim holati uchun ko'zda tutilgan bitta sug'urta summasidan kelib chiqib foiz nisbatida belgilaydi, yoki har bir kafolatni aniqlash uchun alohida turlicha sug'urta summalarini qo'llaydi. Mamlakat sug'urtalovchilari hisob-kitoblarni o'lim holati uchun ko'zda tutilgan bitta sug'urta summasidan kelib chiqib, turli foiz meyorlaridan foydalangan holda olib borishni ma'qul ko'radilar. Biroq har qanday holatda ham sug'urta to'lovni to'lovlarining umumiy summasi sug'urta shartnomasi amal qilib turgan davrda sodir bo'lgan bitta yoki bir necha sug'urta hodisasi uchun sug'urta shartnomasida belgilab qo'yilgan sug'urta summasi miqdoridan, yoki agar shartnomada bir necha sug'urta summalari ko'rsatilgan bo'lsa, har bir kafolat uchun belgilangan summadan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning Namunaviy Qoidalarida sug'urta to'lovi miqdorini sug'urta to'lovining muayyan turi bo'yicha sug'urta summasiga foiz hisobida belgilash tavsiya etiladi. Bunda sug'urta to'lovlariga oid Jadvalga muvofiq, sug'urtalanuvchi tomonidan baxtsiz hodisa oqibatida mehnatga umumiy layoqatning yo'qotilishi



holatida, to'lov davolash-profilaktika muassasining ma'lumotnomasiga asoslanib, odatda sug'urtalanuvchi shaxsdan qo'shimcha shahodatnomalarni talab etmasdan amalga oshiriladi. Agar sug'urtalanuvchi shaxsning yumshoq to'qimalariga, ko'rish, eshitish qobiliyatiga, jinsiy-siydik tizimiga zara etgan bo'lsa, sug'urtalovchi tomonidan ana shu shikastlarning oqibaini aniqlash maqsadida uni mutaxassis shifokordan shahodlantirish uchun yuborilishi mumkin.

Mazkur Qoidalarga ko'ra mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik yuzaga kelganligi munosabati bilan sug'urta to'lovlari sug'urtaningt ana shu turi bo'yicha mehnatga layoqatsizlikning har bir kuni uchun sug'urta summasining 0,2 foizi miqdorida to'lovlarni mehnatga layoqatsizlikningn 6-kalendar kunidan boshlab to'lanadi, lekin to'lovlar bir yilda 90 kundan ortiq bo'lshiga yo'l qo'yilmaydi.

Baxtsiz xodisalardan sug'urtalangan fuqarolar baxtsiz xodisa natijasida zarar ko'rganlarida sug'urta kompaniyalari ularga sug'urta qoplamalarini to'lashda maxsus jadvaldan ya'ni to'lov jadvalidan foydalanadilar. Sug'urta kompaniyalarning to'lov jadvalini taxlil qilar ekanmiz, ushbu to'lov jadvalida baxtsiz xodisa natijasida inson tanasi va ichki organlarga etkazilgan zararlar uchun to'lanadigan sug'urta qompalamalari umumiy sug'urta summasiga nisbatan aloxida foizlarda belgilangan. Ushbu jadvalda jaroxat yoki shikastning engil, o'rtacha va og'ir darajalariga qarab foizlar belgilangan. Masalan, jadvalga asosan insonning birgina bosh miya suyaklari va asab tizimini taxlil qiladigan bo'lsak, baxtsiz xodisa natijasida sug'urtalangan shaxsda bosh miya suyaklarining sinish xolatlari kuzatilsa zarar darajasiga qarab unga nisbatan sug'urta summasi xajmi 5 fozdan 25 foizgacha belgilanishi mumkin. Agar baxtsiz xodisa natijasida zarar ko'rgan insonning ichki miyasida travmatik gemotomalar aniqlansa, unga nisbatan sug'urta summasi xajmi 15 fozdan 25 foizgacha belgilanishi mumkin. Ushbu jadvalni aniqroq qilib taxlil qilish maqsadida to'lov jadvaliga asosan quyidagi jadvalni ishlab chiqdik:

**Baxtsiz hodisalarda sug'urtalash turi bo'yicha sug'urta hodisasini yuz berishi bilan bog'liq bo'lgan, to'lanadigan sug'urta summalarini miqdorining jadvali<sup>63</sup>**

<b>Shikastlanish xarakteri va sug'urta summasi hajmi % da</b>			
<b>t/r</b>	<b>0 – 50 % gacha bo'lgan hajmni tashkil qiluvchi shikastlanish xarakteri</b>	<b>50 – 80 % gacha bo'lgan hajmni tashkil qiluvchi shikastlanish xarakteri</b>	<b>80 – 100 % gacha bo'lgan hajmni tashkil qiluvchi shikastlanish xarakteri</b>
<b>Bosh miya suyaklari va asab tizimi</b>			
1	Miya suyaklarining sinishi	-	-
2	Ichki miyaning travmatik gemotomalari	-	-
3	Bosh miyasining shikastlanishi	-	-
4	Asab tizimining shikastlanishi (engil darajada)	Asab tizimining shikastlanishi (o'rta darajada)	Asab tizimining shikastlanishi (og'ir darajada)
5	Bir yoki bir nechta ichui miya nervlarining periferik shikastlanishi	-	-
6	Har qanday darajada orqa miyaning shikastlanishi	-	-
7	Travmatik nevrillar	-	-
8	Bo'yin, elka va bel soxalarining engil darajada shikastlanishi	Bo'yin, elka va bel soxalarining o'rta darajada shikastlanishi	-
<b>Ko'rish organlari</b>			
9	Bir ko'zning paralich xolatga kelishi	-	-
10	Ko'z olmasi mushaklarining shikastlanishi	-	-
11	Bir ko'zda ko'rish qobiliyatining pasayishi	-	-
12	Bir ko'zning ekzoftalm xolatida pulslanishi	-	-
13	Bir ko'zda yosh chiqaruvchi yo'llarning shikastlanishi	-	-
14	Ko'zning jaroxatlanish oqibatlari	-	-
15	-	-	Ko'zning shikastlanishi natijisida bir yoki ikkala ko'zda ko'rish qobiliyatining to'liq yo'qolishi, 0,01 past

<sup>63</sup> "O'zagrosug'urta" AJ ning ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

			bo'lmagan ko'rish qobiliyatiga ega bo'lganlar
16	Ko'z qobig'ining jaroxatlanishi	-	-
17	Krish qobiliyatining pasayishi	-	-
<b>Eshlash organlari</b>			
18	Quloq suprasining shikastlanishi	-	-
19	Bir quloqning shikastlanishi natijasida eshlash qobiliyatining pasayishi	-	-
20	Quloqning shikastlanishi natijasida quloq pardasining yirtilishi	-	-
21	Bir quloqning otit natijasida jarohatlanishi	-	-
<b>Nafas tizimi</b>			
22	Ko'krak qafasidagi organlarning shikastlanishi (engil jarohat)	Ko'krak qafasidagi organlarning shikastlanishi (o'rtacha jarohat)	-
23	Ko'krak qafasining sinishi	-	-
24	Har bitta qovurg'aning sinishi	-	-
<b>Yurak-tomir tizimi</b>			
25	Yurak, undagi qobiq va yirik tomirlarning shikastlanishi	-	-
26	Yurakdagi yirik periferik tomirlarning shikastlanishi	-	-
<b>Ovqat xazm qilish organlari</b>			
27	Yuqori jag' sinishi	-	-
28	Jag' qismining shikastlanishi (qisman)	Jag' qismining shikastlanishi (to'liq)	-
29	Og'iz bo'shlig'i va tilning shikastlanishi	-	-
30	Tilning engil darajada shikastlanishi	-	Tilning og'ir darajada shikastlanishi
31	Tishlarning shikastlanishi (1ta tishdan 10 ta tishgacha)	-	-
32	Ovqat xazm qilish organlarining (engil darajada) shikastlanishi	-	Ovqat xazm qilish organlarining (og'ir darajada) shikastlanishi
33	O't pufagi va jigarning shikastlanishi	-	-
34	Oshqozon osti bezining		

	shikastlanishi	-	-
35	Oshqozon va izaklarning shikastlanishi	Oshqozon va izaklarning shikastlanishi	-
36	Qorin organlarining shikastlanishi	-	-
<b>Umurtqa</b>			
37	Umurtqa qismining sinishi	-	-
38	Umurtqalararo bo'g'inlarning yirtilishi	-	-
<b>Elka bo'g'inlari</b>			
39	Elka bo'g'in qisimlarining shikastlanishi	-	-
40	Elka qismining shikastlanishi	-	-
<b>Elka</b>			
41	Elka suyaklarining sinishi	-	Elka suyaklarining og'ir darajada shikastlanishi

To'lov jadvalni yuqoridagi xolatga keltirishdan asosiy maqsad sug'urta summalarini zarar darajasiga qarab kam, o'rta va yuqori foizlarga ajratib ko'rsatishdan hamda ushbu jadvalni chuqurroq o'rganib chiqishdan iborat edi.

### **17.3. Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtalashda xorij tajribasi**

Rossiyada baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning taraqqiy topishida ishchilar qonunyati muhim ahamiyat kasb etdi. Ishchilar harakati bosimi ostida va evropa mamlakatlaridan ibratlangan holda 1903 yil 2 iyundagi qonun bilan baxtsiz hodisalar oqibatida fabrika-zavod, tog' va tog'-zavod sanoati korxonalarida zarar ko'rgan ishchi-xizmatchilarni, shuning barobarinda ularning oila a'zolarini mukofotlash qoidalari ishlab chiqildi. Mazkur hujjat ish beruvchi zimmasiga xodimga ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli etkazilgan zararni vaqtinchalik ishga yaroqsizlik nafaqalari (ish haqining 50%) tarzida to'lash, tibbiy xarajatlarni to'lab berish va nogironlik pensiyasini (mehnat layoqat to'liq yo'qotilgan holda ish haqining 2/3 qismi) tayinlash, va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini (bevalar uchun to'liq pensiyaning 1/3 qismi, etimlar uchun 1/6 qismdan) to'lash,

shuningdek dafn xarajatlari uchun fayd etilgan nafaqa (30 rub) to'lash majburiyatini yukladi.

1912 yilda yollangan xodimlarni majburiy sug'urtalashni yo'lga qo'ygan bir to'plam hujjatlar doirasida bir muncha mukammal hujjat - ishchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash Qonuni va Nizomi qabul qilindi. Baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalash xususiy fabrika-zavod, tog' sanoatining barcha korxonalarida ishlovchi, suv kema transportida, temir yo'l transportida ishlovchi barcha ishchilarga nisbatan joriy etildi. Xodimlar soni 20 dan kamroq bo'lgan korxonalarining, Sibir va O'rta Osiyodagi davlatga tegishli zavodlarga nisbatan qo'llanmas edi. Umumiy soni 12 mln. bo'lgan yollanma ishchilardan faqat 3 mln. kishi qonun ta'siri ostiga tushar edi. 14 ta hududiy va bitta tarmoq sug'urta shikatlari tashkil etildi va ular o'z hududlaridagi va tarmoqlaridagi korxonalardan sug'urta badallarini to'plash hamda ishchilarni sug'urtalash ishlari bilan ug'ullanar edi.

Badallarni beistisno tarzda faqat ish beruvchilar to'lardi, tariflar esa shirkatning umumiy majlisi qarori asosida ish haqiga nisbatan o'rnatilardi, shuningdek bunda muayyan korxonadagi mehnat sharoitining xavflilik darajasi hisobga olinardi, ya'ni to'qimachilik korxonalarini uchun 1%, tog'-kon korxonalarini uchun 10% gacha qilib belgilangan edi. Nafaqalar tizimi esa 1903 yildagi shartlar asosida saqlanib qoldi.

Majburiy sug'urtalashdan tashqari inqilobgacha Rossiyada baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning ixtiyoriy shakllari ham taraqqiy topa boshladi. Bu ish bilan yirik aksiyadorlik kompaniyalari ("Slamandra", "Rossiya"), shuningdek o'zaro sug'urtalash jamiyatlari shug'ullanar edi.

“O‘zagrosug‘urta” AJ ning 2017 yildagi baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari<sup>64</sup>

Sug‘urta turlari	Reja	Sug‘urta mukofoti	Sug‘urta shartnomasi soni	Sug‘urta javobgarligi summasi	Sug‘urta tovonni	
					Soni	Summasi
<b>Baxtsiz hodisa, jami:</b>	2 615 500,0	270 856,4	23749	80 430 547,2	134	107 844,7
- Yakka tartibda	1 625 480,0	230 268,2	9618	53 337 830,2	33	53 459,7
- Oilaviy	0,0	770,0	24	80 500,0	0	0,0
- Maktab o‘quvchilari	0,0	411,0	224	205 500,0	21	1 990,0
- Xaydovchi	0,0	290,0	145	58 000,0	0	0,0
- 7 yoshgacha bolalar	0,0	0,0	0	0,0	0	0,0
- lagerdagi bolalar	0,0	9 000,0	1	2 249 997,0	0	0,0
- sportchi bolalar	0,0	0,0	0	0,0	0	0,0
- boshqa turlari	0,0	0,0	0	0,0	0	0,0
Aksiya: baxtsiz hodisa	990 020,0	30 117,2	13737	24 498 720,0	80	52 395,0
- Yakka tartibda(2,0-1 mln.so‘m)	0,0	0,0	0	0,0	0	0,0
- Yakka tartibda(3,0; 3,0 mln.so‘m)	0,0	8 700,0	2900	8 700 000,0	13	4 950,0
- Yakka tartibda(3,0; 1,5 mln.so‘m)	0,0	0,0	0	0,0	0	0,0
- Yakka tartibda(3,0; 1,0 mln.so‘m)	306 160,0	3 276,0	1092	1 092 000,0	3	1 150,0
- Yakka tartibda(5,0; 2,0 mln.so‘m)	0,0	50,0	10	20 000,0	0	0,0
- Yakka tartibda(10,0; 4,0 mln.so‘m)	0,0	40,0	4	16 000,0	0	0,0
- oilaviy sug‘urtalash (6,0-4,0 mln.	117 400,0	1 224,0	204	816 000,0	22	30 180,0

<sup>64</sup> “O‘zagrosug‘urta” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

so‘m)						
- oilaviy sug‘urtalash (10,0; 2,0 mln.so‘m)	0,0	0,0	0	0,0	0	0,0
- oilaviy sug‘urtalash (10,0; 1,0 mln.so‘m)	0,0	720,0	72	72 000,0	0	0,0
- oilaviy sugurtalash (50,0-25 mln.so‘m)	0,0	0,0	0	0,0	4	8 000,0
- fermer oilaviy(20,0-10,0mln.so‘m)	0,0	0,0	0	0,0	0	0,0
- tadbirkor oilaviy (15,0-6,0mln.so‘m)	0,0	0,0	0	0,0	0	0,0
- kichik biznes. (10,0-5,0mln.so‘m)	183 360,0	10,0	1	5 000,0	0	0,0
- maktab o‘quvchilari (1,0-1,0 mln.so‘m)	0,0	4 430,0	4430	4 430 000,0	12	2 790,0
- maktab o‘quvchilari (2,0; 1,0 mln.so‘m)	0,0	4 232,0	2116	2 116 000,0	6	500,0
- maktab o‘quvchilari (2,0; 2,0 mln.so‘m)	0,0	1 126,0	563	1 126 000,0	1	100,0
- maktab uquvchilari (3,0; 1,5 mln.so‘m)	286 700,0	4 401,0	1467	2 200 500,0	8	1 185,0
- Sog‘lom bola (5,0; 2,5 mln.so‘m)	57 600,0	960,0	192	480 000,0	10	2 840,0
- Xomilador ayollar (20,0; 5,0 mln.sum)	38 800,0	120,0	6	30 000,0	0	0,0
- haydovchi (1,0-5 mln.so‘m)	0,0	676,0	676	3 380 000,0	0	0,0
- boshqa aksiya (baxtsiz hodisa)	0,0	152,2	4	15 220,0	1	700,0

Sovet davrida ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalash ijtimoiy sug'urtalash tizimi tarkibiga kiritib qo'yildi, bu ishni bajarish esa maxsus tashkil etilgan Ijtimoiy sug'urta fondi zimmasiga yuklatildi. Mazkur fond 1990 yillarning boshlariga qadar kasaba uyushmasi tomonidan boshqarib turildi. Aytish joizki, Sovet Ittifoqida baxtsiz hodislardan zarar ko'rganlarga barcha to'lovlar (shu jumladan davlat ijtimoiy ta'minot tizimi orqali tayinlanadigan to'lovlar ham) yo nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalar to'lashning umumiy tizimi orqali, yoki vaqtinchalik ish qobilyaitini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalar tizimi orqali amalga oshirilardi. Keyinchalik, 1980 va 1990 yillarning boshida davlat ta'minotidan tashqari, ish beruvchining o'zi ham xodimlarga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha xususiy javobgarlikka ega bo'la boshladi.

Baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash ishi Davlat sug'uta idoralari bajarar edi. Sug'urtaning bu turi shaxsiy sug'urtalash sohasida ancha keng tarqalgandi. Shartnoma asosan 1 yil muddatga tuzilar edi va etkazilgan tan jarohatlarining xususiyatiga qarab, qayd etilgan summani to'lanishini ko'zda tutar edi. Muomalaga layoqatli fuqarolar bilan bir qatorda bolalarni ham sug'utalash mumkin bo'ladi.

Halqaro amaliyotda baxtsiz xodisalardan sug'urtalashning keng tarqalgan turlaridan biri bu yo'lovchilarni baxtsiz xodisalardan majburiy sug'urtalashdir.

1929 yildagi Varshava konvensiyasidan so'ng dunyoning sug'urta amaliyotida halqaro avatsiya transporti orqalish yo'lovchi tashuvchilarning fuqarolalik javobgarligini majburiy sug'urtalash qo'llanila boshlandi. So'ngra AQSHdagi Monreal konvensiyasida xalqaro aviatashish tizimi amaliyotga tatbiq etila boshladi. Bunda birinchi darajada sug'urta hodisasi yuz berganda aviatashkilot yoki uning sug'urtalovchisi har bir jabrlanuvchiga 135 000 dollarga yaqin qoplama to'lab berishi lozim – agar tashuvchining aybdorligi isbotlanmasa ham. Agarda aviatashkilot ushbu hodisada aybdor deb topilsa, javobgarlikning ikkinchi darajasi qo'llaniladi. Bunda sug'urta qoplamasi umuman cheklanilmaydi. Nazariy jihatdan olib qaralganda, Monreal konvensiyasining kuchga kirishi bilan



jabrlanuvchilar sug'urta qoplamalarini sud organlarining aralashuvisiz olish imkoniga ega bo'ladilar. Taxminan olib qaraydigan bo'lsak, avivtashish chog'ida 20 kilogrammlik yukning yo'qolishiga 1000 dollar qoplama, reysning asossiz kechikishi uchun yo'lovchilarga 5000 dollargacha sug'urta qoplamalari to'lab beriladi. Rossiya amaliyotida Monreal konvensiyasi hali tatbiq qilinmadi. Shu sababi Rossiyalik aviatashuvchilarda ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Belarusiyada 2005 yil 1 yanvardan boshlab yo'lovchilarning majburiy sug'urtasi amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu sug'urta turi Belorusiya hududida harakatlanayotgan barcha turdagi tashish bilan shug'ullanuvchi transportlarni qamrab oldi. bunday me'yor 2002 yil 22 dekabrda Belorusiya Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolangan 610-sonli Farmonga asosan belgilangan.

Baxtsiz hodislardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta tariflari xatarlarni sug'urtalash turlari bo'yicha tariflarni tuzish usulida aniqlanadi. Baxtsiz hodislardan sug'urtalash zararni sug'urtalash toifasiga mansub, shu sababli tariflashtirishda sug'urta xatarini barcha sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlash tamoyili asos qilib olinadi. Baxtsiz hodislardan sug'urtalashning netto-stavkasi uchun sug'urta summasining mazkur sug'urta turi bo'yicha o'rtacha zarar ko'rsatkichi hisobidan amalga oshiriladi.

Baxtsiz hodislardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta tariflari odatda sug'urtalanuvchilarning jinsi va yoshiga bog'liq bo'ladi. Ammo sug'urta mukofotlarini maksimal darajada differentsiyalash sug'urta summasining miqdoriga va sug'urtalanuvchi amalga oshirayotgan faoliyatning, birinchi galda kasb-korining xatarlilik darajasi bilan belgilanadi. Sug'urta summasi oshib borgani sari, shuningdek sug'urtalanuvchilarning kasb-kor va ijtimoiy vazifalarining xatarlilik darajasiga bog'liq holda sug'urta tariflari ham o'sadi. Sug'urtalovchilar tariflarning va sug'urta summasining mutanosibligiga, shuningdek kasblarni xatarlilik ehtimoliga ko'ra gurulashtirishga oid o'z o'lcham yondashuvlaridan foydalanadilar.

Fuqarolarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalashda sug'urta to'lovi sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi bo'lganini tasdiqlovchi hujjatlarni talab

qilinishi yo'li bilan amalga oshiriladi. Masalan, to'lov to'g'risidagi arizaga sud tibbiy ekspertizasi ma'lumotnomasi, VKK xulosasi, mehnat qobiliyati yo'qotilganda tibbiy kartadagi yozuv nusxasi, VTEK ma'lumotnomasi nusxasi, fuqaro vafot etganda FHDYO tomonidan berilgan vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi va boshqalar. Sug'urta to'lovi hajmi sug'urta summasiga proporsional tarzda jabrlanuvchining salomatligi va mehnat qobiliyatiga etgan zarardan kelib chiqqan holda sug'urta kompaniyalarining odatdagi qoidalarida belgilangan sug'urta to'lovlari jadvalida tana jarohatlari xarakteri ko'rsatilgan bo'ladi. O'lim hodisasi sodir bo'lganda yoki 1-guruh nogironligi yuzaga kelganda sug'urta summasi hajmi 100 foizlik nisbatda belgilanadi.

Baxtsiz hodisa oqibatidagi o'lim holati uchun sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan benefitsiarga yoki sug'urtalanuvchining merosxurlariga sug'urtalashning alohida shartlari asosida pul summasining (kapitalning) to'lanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalovchining ixtiyoriga ko'ra kapital renta (pensiya) shaklida to'lanishi ham mumkin.

Nogironlik holati bo'yicha esa sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasida qayd etilgan sug'urta summasini ishga layoqatsizlik darajasiga ko'paytirish orqali aniqlanadigan tovon puli to'lanishini ta'minlaydi.

3. Mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik holati bo'yicha sug'urtalanuvchiga davolinish va salomatlikni tiklash davri uchun kundalik tovon puli to'lanishini ta'minlaydi.

Bu to'lovni taqdim etish o'ziga xos xususiyatlariga ega. Birinchidan, tovon pulining miqdori mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik bo'yicha sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta summasiga proporsional ravishda belgilanadi, masalan har kun uchun sug'urta summasining 0,3 yoki 0,5 % miqdorida. Nafaqaning eeng ko'p miqdorini belgilash chegarasi sifatida sug'urtalanuvchining o'rtachcha bir kunlik daromadi miqdori olinadi. Ikkinchidan, mehnatga vaqtinchalik layoqatsizlik holati kafolati odatda franshizaga ega bo'lib, u nafaqa to'lanmaydigan mehnatga layoqatsizlikning birinchi kunlarida ifodalanadi. Eng ko'p tarqalgan franshiza odatda 7 kundan ortiq bo'lmaydi. Uchinchidan, mehnatga

vaqtinchalik layoqatsizlik holati kafolati tovon puli to'lashning oxirgi muddati chegaralanishi bilan ajralib turadi. Bu muddat xususiy holda aniqlanadi va an'anaga ko'ra 365 kunni tashkil etadi.

Tibbiy xarajatlarni to'lash, baxtsiz hodisa oqibatidagi shikastlanishlarni davolash uchun zarur to'lov bo'lib, shifoxonaga yotqizish, ambulatoriyada davolash, dori-darmon, parvarish uchun xarajatlarning qoplanishini nazarda tutadi. Opsion tarzida protezlash, kosmetik jarrohlik harajatlarini, sanatoriyada davolanishni to'lab berishni ham taklif etish mumkin.

Rossiya sug'urtalovchilari hisob-kitoblarni o'lim holati uchun ko'zda tutilgan bitta sug'urta summasidan kelib chiqib, turli foiz me'yorlaridan foydalangan holda olib borishni ma'qul ko'radilar. Biroq har qanday holatda ham sug'urta tovonni to'lovlarining umumiy summasi sug'urta shartnomasi amal qilib turgan davrda sodir bo'lgan bitta yoki bir necha sug'urta hodisasi uchun sug'urta shartnomasida belgilab qo'yilgan sug'urta summasi miqdoridan, yoki agar shartnomada bir necha sug'urta summalari ko'rsatilgan bo'lsa, har bir kafolat uchun belgilangan summadan ortiq bo'lishi mumkin emas.

### **Nazorat savollari:**

1. Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning qanday majburiy turlari mavjud?
2. Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtalashda sug'urta summasi kim tomonidan belgilanadi?
3. Sug'urtalangan shaxsning hayotiga va sog'lig'iga qanday baxtsiz hodisalarni ro'y berishi natijasida shikast etganda sug'urta tovonni beriladi?
4. Baxtsiz hodisa ro'y berganda sug'urtalangan shaxslar sug'urtalovchiga qanday hujjatlarni taqdim etishi shart?
5. Halqaro sug'urta amaliyotida baxtsiz xodisalardan sug'urtalashning eng keng tarqalgan turlari qaysilar?
6. Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishni rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillar nimalardan iborat?

## **18-BOB. IJTIMOIIY SUG'URTA**

### **18.1. Iqtisodiyotni modenizatsiyalash sharoitida ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va huquqiy asoslari**

Ijtimoiy himoya – keng ma'noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarini ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tavofutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari:

- erkin ijtimoiy iqtisodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish;
- daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo'lishi; iste'molchilar himoyasi,
- iste'molchilar jamiyatlari;
- tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatini ta'minlash;
- aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish; ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Rivojlangan demokratik jamiyatda ijtimoiy himoya vazifalarini bajarishni davlat o'z zimmasiga oladi. «Ijtimoiy himoya» tushunchasi birinchi marta 1935 yilda AQSh ning «Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha qonun»da qo'llanilgan, keyinchalik Xalqaro mehnat tashkiloti konventsiyalarida bu tushuncha mazmuni mukammallashtirilgan. AQSh, Kanada, Shenveytsariya kabi mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning ko'pgina muammolari hal etilgan, lekin echimini topmagan

muammolari ham juda ko'p. Shunga qaramay, bu mamlakatlar tajribalaridan foydalanish ahamiyatlidir.

Turli mamlakatlarda aholining ijtimoiy himoya tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, demokratik taraqqiyot va uning aholi manfaatiga muvofiqligi, ijtimoiy siyosat darajasi, ijtimoiy ta'minot tizimi kabi omillarga bog'liq holda amal qiladi.

O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi XX asrning 20-yillaridan boshlab shakllana boshlandi. 90-yillarga kelib, bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliylik, o'zlikni anglash, e'tiqod va an'analarning tiklanishi ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo'lib qo'shildi.

O'zbekiston aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo'nalishlardan biriga ya'ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotni barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy islohot siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lining etakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy – iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini yalpi ijtimoiy himoya qilish tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini, ayniqsa, uning nochor guruhlarining manzilli va maqsadli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi barpo etildi. Bu tizimda mahalla markaziy o'rinda turadi. 1999 yilda Ushbu tizim orqali kam ta'minlangan oilalar- jami 3 mln kishi (mamlakat aholisining 12,2 %) va bolali oilalar- 6,5 mlndan ortiq kishi (27% ) moddiy yordam oldi. Bir oila uchun yordam puli bolalar nafaqasi bilan birga oyiga 3,4 eng kam ish haqini tashkil qiladi. Bu sohada ijtimoiy himoya asosan, kam ta'minlangan oilalar uchun turli nafaqalar berish, aholining ba'zi guruhlar uchun imtiyozlar yaratish, yolg'iz qariya va nogironlarni davlat hisobidan boqish va boshqalar asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy ximoyalash xisoblanada, ya'ni ishdan ketish, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo'qotish

kabi xavf-xatarlar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtaning muxim jihati shundaki, u ish beruvchi va ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus nobyudjet fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta tengsizlik qoidasi asosida tuzilgan: sug'urta to'lovi mehnat ulushi hamda sug'urta muddati bilan bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim xarakteri hamda ish beruvchi va ishchilarning birdamlik qoidasi ularni boshqarishning o'z xos xususiyatini belgilab beradi. Bu fondlar o'zini-o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi.

Mehnatga layoqatliligni va daromadni yo'qotishga olib keladigan ijtimoiy xavf-xatarlariga quyidagilar kiradi: kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohat, kasbiy kasallik, baxtsiz xodisa, onallik va bolalik, ishsizlik, qarilik, boquvchisini yo'qotish.

Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy sug'urtaning o'rni va roli sezilari oshib boradi, bunga aholining majburiy ijtimoiy sug'urtalaganlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug'urta dasturlarining kengayishi, to'lanadigan pensiya, nafaqalar xajmining hamda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining o'sishi, ularning qiymati va aholi real daromadlarining oshishi sabab bo'ladi.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtaiy-nazardan qaraganda, ijtimoiy sug'urta fuqarolarning qarilik, kasallik xolatlari, onalik, mehnat qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qotishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishga konstitutsion huquqi borligini ko'rsatadi. To'lanadigan mablag' miqdori mehnat staji, oylik ish haqi, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi va amaldagi qonunchilikka asoslanadi.

Ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy funktsiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarini yaratadi, shu bilan birga ijtimoiy sohada davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy sug'urta tizimi jamiyatda ijtimoiy haqqoniylikni ta'minlash, siyosiy birdamlikni yaratish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urtaning yordami bilan jamiyat quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishga layoqatsiz va mehnat jarayonida ishtirok etmaydigan shaxslarning xarajatlarini qoplashga qaratilgan pullik fondlarni shakllantirish;
- mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning tuzilma va zarur miqdorini ta'minlash;
- jamiyatning ishlovchi va ishsiz a'zolarini moddiy ta'minlashdagi uzilishlarni kamaytirish;
- aholining mehnat jarayoniga jalb etilmagan guruxlarining yashash darajasini ko'tarishga erishish.

Ijtimoiy sug'urta tizimi ikki qismdan iborat:

- birinchisi, ishchilarning sog'lomlashtirish va qayta tayyorlash tadbirlarini o'tkazgan holda mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uni saqlashni ta'minlash;
- ikkinchisi, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga yoki unga umuman ega bo'lmaganlarga moddiy ta'minotni kafolatlash.

Ijtimoiy sug'urta tizimini moddiy asosini unga muvofiq keluvchi fondlar tashkil etadi.

Ijtimoiy sug'urta fondlari 3ta manba hisobidan yuzaga keladi:

- ishchilarning sug'urta badali;
- ish beruvchining badallari;
- davlat subsidiyalari.

Sug'urtalangan ishchilarning badallari ularning daromadidan olib qolinadi. Aslida bu maqsadli daromad solig'i. Sug'urta badali stavkasi yalpi ish haqida nisbatan foizlarda aniqlanadi va ko'p holda daromadning kattaligiga bog'liq bo'lmaydi.

Davlat subsidiyalari o'z ichiga ishlamaydigan fuqarolar harbiy xizmatchilar davlat xizmatchilari uchun majburiy ijtimoiy sug'urta fondlariga badallarni (datatsiya) kamomadni qoblovchi datatsiyalar va soliq imtiyozlarni oladi.

Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari pul to'lovlari ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish imtiyozli yordam ko'rinishida ishlatiladi.

Ijtimoiy iqtisodiy ma'noda resurslar hajmi jihatidan birinchi o'rinda pul to'lovlari turadi. Ularning pensiya, nafaqalar ko'rishida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy sug'urta tizimida soliqni saqlash va ijtimoiy ta'minot muassasalari xizmatlari, sanatoriya va kurort tashkilotining mehnat qobiliyatini tiklash bo'yicha xizmatlari sog'lomlashtirish-profilaktika tadbirlarining o'tkazilishi o'quv muassasalari va boshqa moliyalashtiriladi.

Imtiyozli yordamni o'ziga xos xususiyatlari shundaki uning maqsad va vazifalari ma'lum bir moddiy boylik xizmatlari ega bo'lishi bilan bog'liq.

Pensiyalar yoshiga, nogironlikka, boquvchisini yo'qotganlikka, belgili xizmat muddatini o'taganlikka qarab belgilangan, shuningdek, ijtimoiy pensiyalar ham mavjud.

Nafaqalari vaqtinchalik ishga qobilyatsizlik, homiladaorlik va tug'ruq bo'yicha, bolalarga ishsizlarga, shuningdek, malaka oshirish va qayta tayyorlash uchun tayinlanadi.

To'lovlar va xizmatlar maqsad va vazifalariga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- birinchisi kishilarning ishchanlik faoliyatini ushlab turish maqsadidagi to'lovlar va ko'rsatiladigan xizmatlarni birlashtiradi;

- ikkinchi guruh bola tug'ilishi va tarbiyalanishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni o'z ichiga oluvchi to'lovlar va xizmatlarni anglatadi. Bunga quyidagilar kiradi: bola tug'ilgandagi nafaqa, bola ma'lum bir yoshga to'lgunga qadar ketgan ta'til uchun to'lov hamda bolalar nafaqasi;

- uchinchi guruhga mehnatga layoqatligini tiklash, tibbiy rehabilitatsiya, nogironlar, ishsizlar, ayollar, dekret ta'tilidan keyin ish faoliyatiga qaytganlarni o'qitish va qayta o'qitish maqsadidagi to'lov va xizmatlar kiradi.

## **18.2. Ijtimoiy sug'urta tushunchasi, uning mazmun mohiyati va nazariy asoslari**

Majburiy ijtimoiy sug'urta fuqarolarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi, daromadidan qa'tiy nazar ijtimoiy sug'urta kafolatlarini ma'lum miqdorini olinni ta'minlashga qaratilgan (pensiya, nafaqa va xizmat).



Majburiy ijtimoiy sug'urtaga mehnat qiluvchi va uning oilalarini qarilikda, kasallik hollari ish qobiliyatini yo'qotganda, onalik va bolalikni muhafaza qilishda moddiy ta'minlovchi davlat kafolat tizimi sifatida qaraladi. Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'alri korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yollanma ishchining maqsadli soliqqlri yakka tadbirkorlarning badallari hamda davlat subsidiyalari hisobidan shakllantiradi.

Majburiy ijtimoiy sug'urtadan farqli o'laroq ijtiyoriy ijtimoiy sug'urta notijorat sug'urta faoliyatini mug'im bir ko'rinishi sanaladi va u sug'urta to'g'risidagi, notijorat tashkilot to'g'risidagi qonunchilik bilan boshqariladi va notijorat sug'urta instituti tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta fuqarolarning yanada ko'proq ijtiyoriy himoyalashni ta'minlashga qaratilgan. U fuqarolarning shaxsiy daromadidan ish beruvchilarning ishchilarini sug'urtalashning firma daromadidan badal ko'rinishidagi mablag' hisobidan yuzaga keladi.

Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta badallari miqdori sug'urta institutlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va u sug'urta xavf-xatariga sug'urtalovchi tomonidan o'rnatilgan qoidaga ijtimoiy xizmat narxiga sug'urtalanganlar soniga va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Insoniyat va tabiatning ajralmas birlik ekanligi bilan bir qatorda, ular o'rtasida shunday qarama-qarshilik majudki, u inson bilan tabiat o'rtasidagi tinimsiz kurashlarda namoyon bo'ladi. Favquloddalik va xavf-xatar-insoniyat mavjudligining me'yori xisoblanadi. Har yili yerda juda ko'p tabiat xodisalarini kuzatiladi: 100 ming atrofida bo'ronli xodisalar, 10 mingta suv toshqini, minglab zilzila, o'pirilish va tropik tsiklonlar. Bu hodisalar bilan bog'liq avariya va xalokatlar anchagina moddiy zarar etkazadi.

G'arb davlatlari iqtisodiy nazariyasida aytilishicha sug'urta ishtirokisisiz iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari zamonoviy taraqqiyot darajasiga etmagan bo'lash edi. Xususan, xusuiy qurilishlar ko'pincha bank kreditlarini olishga majbur bo'ladi. Mol-mulk sug'urtasi hamda qarzdorlarning hayotini sug'urtalashsiz kredit olish imkoni bo'lmas edi. Bunday sug'urtalash bankka yuqorida ko'rsatilgan xavf-xatar

kuzatilgan holatda ham kredit qaytarilishini kafolatlaydi. Masalan yong'undan sug'urtalashni olib qaraydigan bo'lsak bu, sug'urta to'lovsiz katta qiymatga ega bo'lgan ob'ektlarning to'xtovsiz ishlab chiqish jarayonini ta'minlash mumkin bo'lmas edi. Sug'urtaga bo'lgan talabni shakllantiruvchi mulkiy munosabatlar, albatta sug'urtaga, risklarniboshqarishning mug'im metodi sifatida qiziqish uyg'otadi. Ko'pincha sug'urta bozorining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun uning YaIM hajmidagi hissasidan foydalaniladi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda (AQSh, Yaponiya, Shveysariya) taxminan 8-10% ni, Rossiyada esa -3% ni tashkil etadi. Chet el iqtisodchilarining fikriga ko'ra mamlakat iqtisodiyoti qanchalik rivojlangan bo'lsa shuncha ko'p mablag'lar sug'urtaga sarflanadi.

Agar dastlabki sug'urta moddiy ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, XIX asrning oxiriga kelib ijtimoiy risklarni boshqarish davlat tamoyilining tarkibi qismiga aylanadi. Ishlab chiqarishda baxtsiz xodisalardan davlat majburiy sug'urtasi shaxsiy sug'urtaning birinchi ommilashgan turiga aylanadi (Rossiyada 1907 yilda). Asta-sekin davlat ijtimoiy sug'urta tizimida pensiya va tibbiy sug'urta shuningdek, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik holatida ijtimoiy sug'urtalash paydo bo'la boshladi. Sug'urtaning bu turlariga davlat aralashuvi hamda davlat boshqaruvi turli mamlakatlarda turlicha bo'lishiga qaramasdan jamiyatning ijtimoiy risklarini sug'urta yordamisiz boshqaruvchi iqtisodiy rivojlangan davlatni tasavvur qilish qiyin. Evropa davlatining so'nggi rivojlanish yo'nalishlari ko'rsatishga XX asr boshida ijtimoiy sug'urtaning davlat tizimi ustunlik qilgan bo'lsa zamonaviy iqtisodiy ijtimoiy risklarni sug'urtalashning xususiy tizimini rivojlantirishga mo'ljallanmaqda. Germaniya, Buyuk Britaniya, Franitsiya, Ispaniya va boshqa davlatlarda o'tkaziladigan davlat pensiya va tibbiy sug'urta islohatlari ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida xususiy sug'urtaning rolini kuchaytirishni taqazo qiladi.

Sug'urta iqtisodiyotining noyob tarmog'i sifatida ishlab chiqarish hamda inson faoliyatining xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar va xo'jaliklarda ko'ngilsiz hodisalarni keltirib chiqaruvchi xavf-xatarlarni kamaytirish va oldini olish chora-tadbirlariga qanchalik kam e'tibor qaratilsa sug'urtaning narxi

shunchalik yuqori bo‘ladi. Chora-tadbirlar ishlab chiqarish o‘ziga xos xususiyatlar hamda ishlab chiqarishning turli tarmoqlari va xizmatlar sohasining kasbiy faoliyatiga bog‘liq. Yong‘inga, toshqinga qarshi chora-tadbirlar aholini ommaviy ravishda yuqumli kasalliklaridan emlash va xakazo tadbirlar iqtisodiy yo‘qatishlarning ehtimolligini jiddiy ravishda kamaytirishning bu kabi usullari va ularning nazorati sug‘urta tufayli vujudga keladi.

Rivojlangan davlatlarda xususiy sug‘urta tarmog‘i aholining ko‘p qismini ish bilan ta‘minlaydi, faqatgini AQShda sug‘urtada band bo‘lganlar soni sug‘urta vositachilari bilan hisoblanganda 2,2 mln.dan ortiqroq kishini tashkil etadi, evropa davlatlarida esa ya‘ni Frantsiyada-220 ming, Germaniyada 250 ming Buyuk Britaniyada 350 ming shundan iborat. Dunyo miqyosida jami sug‘urtada band bo‘lgan soni 3,5mln kishini tashkil etadi.

Ammo sug‘urtaning keng miqyosida rivojlanishiga qaramay jamiyat sug‘urtalovchining riskni sug‘urtaga qabul qilish imkoniyatlarini baholay olmaydi. Risklarni sug‘urtaga qabul qilish imkoniyati sug‘urta kompaniyalarining kapitallaitirilishi risklarning xususiyati va ular keltiradigan salbiy oqibatlar bilan aniqlanadi.

Har qanday faoliyatning o‘ziga xos vazifasi bo‘lgani singari, ijtimoiy ta‘minot bo‘limining asosiy vazifalari mavjud. Bular:

- iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitlarida tegishli hududda fuqarolarning moddiy farovonligi barqaror sur‘atda muttasil o‘sib borishini ta‘minlashga va aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish;

- hududdagi aholining muhtoj qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash, bu masalalarda mahalliy davlat hokimiyati boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, xo‘jalik sub‘ektlari, xayriya va boshqa jamoat tashkilotlari Bilan hamkorlik qilish;

- pensiya ta‘minoti, nogironlarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risidagi qonunlar hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalariga taalluqli boshqa qonun hujjatlarining bajarilishini va to‘g‘ri qo‘llanilishini ta‘minlash;

- tegishli hududda aholini pensiya bilan ta'minlash, keksa yolg'iz fuqarolar pensionerlar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish;

- pensiya ta'minoti, pensioner va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha o'z hududida joylashgan davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxonalar va tashkilotlarga tashkiliy uslubiy rahbarlik qilish hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'larini to'g'ri va maqsadli ishlatilishini ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy ta'minot bo'limini o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

- mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xayriya jamg'armalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yolg'iz keksalar, pensionerlar, nogironlar hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilliyligi va samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat mexanizmini amalga oshiradi:

- o'z hududidagi davlat boshqaruvi organlari, tuman va shahar hokimiyatlarining ijro etuvchi organlari ishtirokida keksa fuqarolar, nogironlar va davlatning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lgan aholining boshqa guruhlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etadi:

- aholiga ijtimoiy yordam berish dasturlarini moliyalashtirish uchun mablag'lar jalb etish ishida davlat, jamoat, diniy va xayriya tashkilotlari, muassasalar va korxonalarining o'zaro hamkorligini ta'minlaydi:

- pensionerlar, nogironlar va yolg'iz keksa fuqarolar uchun uy-joydan foydalanish xarajatlari, maishiy xizmat va qattiq yoqilg'i, dori-darmon bilan ta'minlash, har xil turdagi yo'lovchi transportiga yo'lkira uchun imtiyozlar, sanatoriy – kurortda davolanishga yo'llanmalar va maxsus harakat qilish vositalari va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa imtiyozlarning olishda amaliy yordam ko'rsatadi:

- yolg'iz keksa fuqarolarni va nogironlarni o'rnatilgan tartibda ijtimoiy ta'minot muassasalariga («Muruvvat», «Saxovat» uylari, pansionatlar,

sanatoriylarga) joylashtirish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi, ushbu muassasalarga amaliy yordam ko'rsatadi:

- tegishli hududda pensiya va nafaqalarni hamda qonun hujjatlari bilan belgilangan ayrim toifadagi fuqarolarga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash ishlarini amalga oshiradi:

- pensiya va nafaqalar qonunchiligining to'g'ri qo'llanilishini, fuqarolarning pensiyaga bo'lgan huquqining buzilishiga yo'l qo'ymaslikni, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida tayinlash va to'lashni ta'minlaydi:

- pensiya va nafaqalar tayinlashga taqdim etish uchun hujjatlarni tayyorlash ishlarida korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga, tadbirkorlar va fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatadi:

- pensionerlarning hamda nafaqa oluvchi shaxslarning pensiya va nafaqa hujjatlarini rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomasini beradi:

- yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar hamda dehqon xo'jaligi a'zolari tomonidan sug'urta badallari to'lanishining hisobini olib borishni, ularning mehnat daftarchalarini yurtishni va ularga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lashni belgilangan tartibda amalga oshiradi:

- pensiya va nafaqalar miqdorini hisoblab chiqish ishlarini amalga oshiradi, rasmiylashtiradi va ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash bo'yicha aloqa korxonalar va Xalq banki bo'linmalari orqali, ishlayotgan pensionerlarga esa korxonalar, tashkilotlar va muassasalar orqali pensiyalar to'lash yuzasidan topshiriqnama beradi, aloqa korxonalar, Xalq banki bo'linmalari tomonidan pensiya va nafaqalarning o'z vaqtida to'g'ri etkazib berilishi va to'lanishi ustidan domiy nazoratni amalga oshiradi:

- pensiya va nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan rioya etilishini nazorat qiladi;

- imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, ishlar kasblar lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarini qo'llash masalalari bo'yicha

korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan o‘zaro ish olib boradi va tushuntirishlar beradi:

- imtiyozli pensiya ta’minoti huquqini beruvchi ishlab chiqishlar, ishlar va kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlariga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflarni tayyorlashda qatnashadi:

- byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha majburiy badallar va ajratmalar to‘liq tushishini ta’minlash, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy to‘lovlar o‘z vaqtida mablag‘ bilan ta’minlanishi, «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonunning 12-moddasi «b»-«j» bandlari va 14-moddasiga asosan tayinlangan pensiyalarni to‘lash uchun qilingan xarajatlarni qoplash masalalari bo‘yicha soliq inspeksiyasi bilan o‘zaro hamkorlik qiladi:

- soliq inspeksiyasi xodimlari bilan birgalikda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va xo‘jaliklarda ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi mablag‘larining maqsadli sarflanishi, o‘rnatilgan tartibda, nazorat qiladi:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan pensiyalar va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalarni to‘lash xarajatlarini moliyalashtirishni ta’minlaydi:

- ish beruvchining aybi bilan olingan mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida nogironlik pensiyalari to‘lovi bilan bog‘liq bo‘lgan mablag‘larni korxonalar va tashkilotlardan regress talabi va da’vosi bo‘yicha undiradi.

### **18.3. Ijtimoiy ta’minot tizimi**

Davlatga tegishli bo‘lgan har qanday muassasa va tashkilot bo‘limlarining o‘ziga xos huquqiy asoslar yaratiladi hamda belgilanadi. Shu singari Ijtimoiy ta’minot bo‘limining ham o‘ziga xos quyidagi huquqlar belgilab berilgan bo‘lib, bular;

Birinchi - aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi boshqaruvini takomillashtirish va rivojlantirish, ijtimoiy ta’minot organlarining moddiy-texnika

bazasini mustahkamlash va ular uchun malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha Bosh boshqarmaga takliflar kiritish:

- bo'limgap oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan axborotni mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

- o'z majlislarida hududdagi mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'sul xodimlarining bo'lim vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha hisobotlarini eshitish;

- tegishli hududdagi davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, korxonalar va muassasalarning pensiya ta'minoti, nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlarini buzgan holda qabul qilgan buyruqlari va boshqa me'yoriy hujjatlarini harakatdan to'xtatish yoki bekor qilish yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritish:

- korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda pensiya va nafaqalar olish uchun hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish hamda bu borada aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish.

Ijtimoiy ta'minot bo'limi faoliyatini tashkil etishda tuman, shahar, hokimining taqdimnomasiga binoan hamda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining roziligi bilan Bosh boshqarma tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshqaradi.

Boshliq bo'limga yuklatilgan vazifalar va funktsiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

Boshliqning tuman, shahar hokimi bilan kelishilgan holda Bosh boshqarma tomonidan lavozimga tayinlanadigan va ozod qilinadigan o'rinbosarlari bo'ladi.

Oliy yuridik yoki iqtisodiy bilimga hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida kamida uch yil mehnat stajiga ega bo'lgan shaxslar bo'lim boshlig'i va boshliq o'rinbosari lavozimida ishlashlari mumkin.

Boshliq:

Bo'lim faoliyatiga rahbarlik qiladi:

- ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam masalalari bo'yicha qarorlar hamda farmoyishlar loyihalarini tuman, shahar xalq deputatlari Kengashiga, tuman, shahar hokimiyatiga ko'rib chiqish uchun kiritadi:

- o'z vakolatlari doirasida bo'lim xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi, ko'rsatmalar va topshiriqlar beradi;

- bo'lim xodimlarini mehnat qonunchiligiga muvofiq ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi, kadrlar bilan yakka tartibda tarbiyaviy ishlar olib boradi;

- boshliq o'rinbosarlari va xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- xodimlarning malakasini oshirishga doir tadbirlarni amalga oshiradi;

- boshliq o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun ularning ma'suliyati darajasini belgilaydi:

- tasdiqlangan smetalar va ajratilgan mablag'lar doirasida kreditlar va mablag'larni boshqaradi, moliya-shtat intizomiga rioya qilishni, pul mablag'lari va moddiy boyliklarning saqlanishini ta'minlaydi;

- o'rnak ko'rsatgan xodimlarni mukofot va faxriy unvonlarga tavsiya qiladi;

-qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minot bo'limining namunaviy tuzilishi quyidagi sho'ba va xizmatlardan iborat bo'ladi:

- pensiya va nafaqalar tayinlash sho'basini;

- pensiya va nafaqalar to'lash sho'basini;

- byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari sho'basini;

- ijtimoiy yordam ko'rsatish sho'basini;

- tashkiliy-huquqiy sho'basini;

- buxgalteriya.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda beriladi:

a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda (shikastlanishda);

b) sanatoriy-kurortlarda davolanganda;



- v) kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- g) karantinda;
- d) sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- e) mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a'zo (protez) qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun faqat belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) asos bo'ladi.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yo'qolgan hollarda, nafaqa uning o'rniga takroriy berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mehnat qobiliyati yo'qolgan birinchi kundan to u tiklangunga qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan nogironlik belgilangunga qadar, hatto bu davrda xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham beriladi.

Uzoq vaqt kasal bo'lganlarni TMEK ko'rigiga yuborish muddatlari Mehnatga layoqatsizlik varaqalari va ma'lumotnomalar berish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga (ro'yxat raqami 873, 2000 yil 19 yanvar) binoan belgilanadi.

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan shaxslarga nafaqa ular ishga chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Ish haqi, sutkali va ko'chish bo'yicha xarajatlarni olish huquqiga ega bo'lgan xodimga ish joyiga borayotgan davrda boshlangan mehnatga qobiliyatsizlik kunlari uchun nafaqa to'lanadi.

Xodimning mehnatga qobiliyatsizlik kunlari yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'til davriga to'g'ri kelgan hollarda, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlar uchun nafaqa to'lanadi.

Sanatoriy-kurortda davolanishda, agar asosiy va qo'shimcha ta'til xodimning sanatoriyda davolanish uchun yetarli bo'lmasa, nafaqa beriladi.

Bunday holda sanatoriy-kurortda davolanishning barcha davri uchun (yo'llanma, davolanish muddati) sanatoriyga borish-kelish vaqtini qo'shib, ammo xodimning yillik ta'tilini chiqarib tashlagan holda nafaqa beriladi.

Asosiy va qo'shimcha ta'tildan sanatoriyga borishdan oldin foydalangan bo'lsa ham nafaqa uni chiqarib tashlagan holda beriladi. Bunda ish beruvchi ta'til beradi.

Ikkinchi jahon urushi nogironlariga, baynalminal jangchilarga, Chernobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, shuningdek, sanatoriyga davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o'tkir miokard infarkti bilan kasallangan, jarrohlik uslubi bilan yurakning aortakoronar shuntrovkasi va anevrizmlari, oshqozonning yaralik kasalligi, o'n ikki barmoq ichak kasalligidan davolangan va o't pufagini olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek sil kasalligi bilan og'riganlarga nafaqa sanatoriyda bo'lgan barcha vaqt uchun beriladi.

O'n olti yoshgacha bo'lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga (homiya yoki vasiya), nogiron bolaning sanatoriyda davolangan barcha davri uchun (sanatoriyga borib-kelish vaqtini hisobga olib) unga yakka tartibda parvarish zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa mavjud bo'lganda nafaqa beriladi.

Uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurbi etmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga qarash bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muhtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

O'n to'rt yoshga etmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davri uchun beriladi.

Agarda xodim karantin vaqtida sanitariya –epidemiologiya xizmati organlari tomonidan atrofidagi shaxslar orqali yuqumli kasallikka chalinish xavfini oldini olish maqsadida ishdan chetlatilgan bo‘lsa nafaqa beriladi.

Sil kasalligi yoki kasb kasalligiga chalingan xodim davolanish qoidasini buzmaganda boshqa ishni bajarish imkoniga ega bo‘lib, u tibbiy-maslahat komissiyasi (TMK) xulosasi (bunday komissiyalar bo‘lmagan joylarda esa davolovchi shifokorning, davolash muassasasining bosh shifokori tomonidan tasdiqlangan xulosasi) asosida vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilishi mumkin.

Xodimga, vaqtinchalik kamroq haq to‘lanadigan ishga o‘tgan vaqt uchun, lekin ikki oydan ortiq bo‘lmagan muddat davomida kasallik varaqasi bo‘yicha yangi ishda beriladigan ish haqiga qo‘shilganda avvalgi ishidagi to‘liq ish haqidan oshib ketmaydigan miqdorda nafaqa to‘lanadi.

Bunda kasb kasalligi oqibatida boshqa ishga o‘tkazilgan shaxslarga nafaqa, agar u amaldagi qonun hujjatlariga binoan avvalgi ish haqi bilan yangi ish haqi o‘rtasidagi farqni korxonadan olish huquqiga ega bo‘lmasa beriladi.

Basharti, kasallik varaqasida ko‘rsatilgan muddatda ish beruvchi xodimga boshqa ish topib berolmagan bo‘lsa, u holda shuning oqibatida bekor o‘tgan ish kunlari uchun nafaqa umumiy asoslarda to‘lanadi.

Reabilitatsiya muassasalarida bo‘lgan barcha vaqt uchun va unga kelib-ketish vaqti uchun nafaqa to‘lanadi.

Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo‘lgan xodimlarga mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa umumiy asoslarda, boshqa sabablar oqibatidagi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa mavsumiy yoki vaqtinchalik ish to‘g‘risida tuzilgan mehnat shartnomasida ko‘rsatilgan ish kunlari doirasida to‘lanadi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari, ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi.

Ishlayotgan Ikkinchi jahon urushining nogironlarga va imtiyozlari jihatdan ularga tenglashtirilgan boshqa nogironlarga, Chernobil AESdagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'iliq sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi (mehnatdan mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari) ketma-ket to'rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi.

#### **18.4. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi**

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va tug'ish bo'yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa ayol ishga kelishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Ishni vaqtinchalik to'xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til davrida homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilgan holda, nafaqa ko'rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Xodim yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'tilda va bolani parvarishlash uchun ta'tilda bo'lgan vaqtda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavoziim maoshidan) va ta'til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o'rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo'lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsienti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Ish haqi to'lash to'xtatilib, ishdan (lavoziimdan) chetlashtirish oqibatida ayol ishlamagan davrda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilgan holda nafaqa to'lanmaydi. Agar homiladorlik va

tug‘ish bo‘yicha ta’til ishga qo‘yilgandan keyin ham davom etadigan bo‘lsa, nafaqa u ishga chiqishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi.

Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa, shu jumladan, mazkur Nizomning 4-bandiga muvofiq nafaqa tayinlanganda ham, ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

Bola tug‘ilganda nafaqalar quyidagi belgilangan miqdorlarda berib boriladi: bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi.

Ish haqiga koefitsient qo‘llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koefitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Ishlayotgan ayollarga, hamda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturada tahsil olayotgan ayollarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o‘qish joyidan to‘lanadi.

Bolaning onasi ishlamaydigan va o‘qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiydigan otasi yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarga to‘lanadi.

Ishlamaydigan va o‘qimaydigan ota-onalarga bola to‘g‘ilganda nafaqa ijtimoiy ta’minot bo‘limlari tomonidan tayinlanadi va to‘lanadi.

Farzandlikka olingan bolalarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Agar ayol homiladorlik bo‘yicha ta’til davrida ishdan bo‘shab, shu davr mobaynida homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa olgan bo‘lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Bola o‘lik tug‘ilgan hollarda nafaqa to‘lanmaydi.

Dafn - etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaromog‘ida bo‘lgan quyidagi oila a‘zolari vafot etganda beriladi:

a) turmush o‘rtog‘i;

b) 18 yoshga to‘lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat’i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;

v) ota-onasi;

g) bobosi yoki buvisi.

Yashash uchun mustaqil mablag‘ manbaiga ega bo‘lgan (ish haqi, pensiya, stipendiya oluvchi, shirkat xo‘jaligining mehnatga qobiliyatli a‘zolari hisoblanuvchi va hokazo) oila a‘zolari qaramog‘ida turgan deb hisblanmaydi.

Xodim vafot etganda Dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oila a‘zolariga yoki Dafn o‘tkazishni o‘z zimmasiga olgan shaxslarga beriladi.

Oilaning vafot etgan a‘zosini Dafn etish marosimi uchun nafaqa ishlovchi xodimga beriladi.

Ayolning homilasi tushgan hollarda Dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi.

Dafn etish marosimi uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi.

Ishlamaydigan pensioner vafot etgan taqdirda Dafn etish marosimi uchun oilasiga yoki pensionerning Dafn marosimini o‘tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan kam bo‘lmagan miqdorda, ijtimoiy ta‘minot bo‘limi tomonidan to‘lanadi.

Ish haqiga tuman koeffitsienti belgilangan joylarda Dafn etish marosimi uchun nafaqa miqdori ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan tarmoqlar uchun beriladigan tuman koeffitsientini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Muddatli harbiy xizmatga chiqarilgan xodim yoki uning oila a‘zosi vafot etgan taqdirda Dafn etish marosimi uchun nafaqa, agar unga so‘nggi ish haqi to‘langan kundan bir oydan ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa beriladi.

Oliy, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘lim muassasalarida, magistraturada, aspiranturada, klinik ordinaturada, doktoranturada tahsil olyotgan shaxslar, shuningdek, ularning oila a‘zolari vafot etgan taqdirda, Dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda to‘lanadi.

Maktablar, kurslarning (kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash va tayyorlash bo‘yicha), shuningdek, malaka oshirish institutlari o‘quvchilari va tinglovchilari yoki ularning oila a‘zolari vafot etganda, agar ular kurslarga,

maktablarga, institutlarga korxonadan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa, Dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Nafaqalar xodimning asosiy ish joyidan korxonaning Ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi yoki shu ish uchun vakil qilingan komissiya a'zosi tomonidan tayinlanadi. Komissiya tarkibi, a'zolari soni va raisi korxonada rahbarining buyrug'i yoki boshqaruvining qarori bilan tsadiqlanadi.

Komissiya mehnatda mayiblaganlarga, kasb kasalligiga chalinganlarga nafaqa tayinlash, nafaqa to'lashni rad etish, nafaqada (to'liq yoki qisman) mahrum etish va nafaqa olish huquqi yuzasidan kelib chiqqan nizolarni, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi va boshqa hujjatlarning asosli ravishda va to'g'ri berilganligini ko'rib chiqish huquqiga ega. Qolgan barcha hollarda nafaqalarni komissiyaning shu ishga vakil qilingan a'zosi tayinlaydi.

Komissiyalar bo'lmagan korxonalarda nafaqalar, ish beruvchi tomonidan shu ishga buyruq bilan vakil qilingan shaxs tomonidan tayinlanadi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, dehqon xo'jaligi a'zolariga, shuningdek ayrim fuqarolarnikida shartnoma asosida ishlayotganlarga nafaqalar ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanib byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi.

O'quvchi, talaba va aspirantlarga nafaqalar mazkur Nizomning 80 va 91-bandlariga binoan o'qish joylarida tayinlanadi va to'lanadi.

Qurolli kuchlar safidan ozod etilgandan keyin vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan sobiq harbiy xizmatchilarga nafaqa mazkur Nizomning 5-bandiga tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadi.

Xodimlar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik muddati tugaganidan so'ng chiqishining birinchi kunidayoq korxonaga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi taqdim etadilar. Mehnatga qobiliyatsizlik davom etayotgan hollarda, navbatdagi ish haqi berilishi vaqti kelganda topshirilishi mumkin.

Korxonada vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasining «Tabelchi tomonidan va kadrlar bo'limi tomonidan to'ldiriladi» degan bo'limlariga zarur ma'lumotlar yoziladi va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (bemor haqidagi ma'lumotlar yozib, imzo qo'yiladi) ijtimoiy sug'urta komissiyasiga topshiriladi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanganda nafaqa ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa sodir bo'lganlik haqidagi (N-1-shaklda) dalolatnoma asosida tayinlanadi.

Agar baxtsiz hodisa boshqa sharoitlarda ro'y bersa (uyda, ishga borish yoki ishdan qaytishda, davlat yoki jamoatchilik burchini bajarayotgan paytda) nafaqa ro'y bergan baxtsizlik sabablari ish beruvchi tomonidan o'rganib chiqilgandan keyingina tayinlanadi.

Quyidagi sharoitlarda yuz bergan (jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanish hollaridan tashqari) jarohatlanish mehnatda mayiblanish deb hisoblanadi:

- mehnat burchini bajarayotgan paytda (shu jumladan, xizmat safari vaqtida), shuningdek, maxsus topshiriq bo'lmagan hollarda ham korxonada manfaatini ko'zlab qilingan xatti-harakatlar paytida;

- ish beruvchining transportida ishga borayotgan yoki ishdan qaytayotganda;

- ish vaqti davomida (shu jumladan belgilangan tanaffus vaqtida) korxonada hududida yoki biron-bir boshqa ish joyida, ish boshlashdan oldin yoki ishdan keyin ish qurollarini, kiyim-kechaklarini va hakazolarni tartibga keltirish paytlarida;

- ichki mehnat tartib-qoidalariga zid bo'lmagan taqdirda, ish vaqti davomida korxonaga yaqin bo'lgan joyda yoki boshqa ish joyida (belgilangan tanaffuslarda) hozir bo'lganda;

- asosiy ish bilan bog'liq bo'lmasa ham, davlat va jamoatchilik oldidagi burchlarini bajarayotgan chog'ida;

- inson hayotini qutqarish, huquq-tartibotni, davlat va jamoat mulkini, shuningdek, fuqarolar mulklarini muhofaza qilish bo'yicha fuqarolik burchini bajarayotgan paytida;

- donorlik vazifalarini bajarish natijasida mehnat qobiliyatining yo'qotilishi.



Kasb kasalliklari bo'yicha vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi tayinlashda Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi 249-son qarori bilan tasdiqlangan Kasb kasalliklari ro'yxatida ko'rsatilgan kasalliklar hisobiga olinadi.

Mazkur Nizomga binoan nafaqa olish huquqi ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiya yoki vakil qilingan komissiya a'zosi har bir vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo'yicha to'lov amalga oshirilishi lozim bo'lgan kunlar sonini va ish haqiga nisbatan belgilanadigan nafaqa foizi miqdorini belgilaydi. Nafaqa foizi miqdori nafaqa belgilash bayonnomasida va komissiya raisi yoki vakil qilingan komissiya a'zosining imzosi qo'yilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida qayd qilinadi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa komissiya tomonidan (jarohatlangan xodimning ahvoli komissiya majlisiga kelishga imkon bergan taqdirda uning ishtirokida) tayinlanadi. Nafqadan mahrum etish, nafaqadan to'liq yoki qisman rad etish masalasi nafaqa oluvchining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Xodim vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega bo'lmagan taqdirda, komissiya nafaqa bermaslik to'g'risida qaror chiqaradi va rad etish sabablarini vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasiga qayd etadi.

Nafaqa tayinlangandan so'ng komissiya yoki vakil qilingan komissiya a'zosi korxonaning hisob-kitob bo'limiga nafaqa chiqarish va to'lash uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini topshiradi.

To'lanadigan va to'lanmaydigan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqlari, shuningdek, nafaqa olish uchun taqdim etilgan barcha boshqa hujjatlar korxonada buxgalteriyasida pullik hujjatlarga teng holda, barcha xarajat hujjatlaridan alohida holda saqlanadi.

Ish vaqtini, umumiy ish stajini hisobga olib borish, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar to'lash uchun hisob-kitoblarni bajarishda elektron-hisoblash mashinalari (EHM) qo'llaniladigan korxonalarda, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqlari ma'muriyat tomonidan hisoblash markaziga topshiriladi. U

yerda ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa tayinlash va hisoblab chiqarish to'g'risida belgilangan shaklda ikki nusxada ro'yxat tuziladi.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari EHMda hisob-kitoblarni chiqarish uchun ma'sul shaxsning imzosi qo'yilgan ikki nusxadagi to'lov ro'yxati bilan birga aniq muddatlarda (maoshlar bo'yicha hisob-kitob qilishga 5-6 kun qolganda) ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyaga topshiriladi.

Komissiya hisob-kitobning, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasining davolash muassasasi tomonidan to'ldirilishining to'g'riligini, zarur hollarda boshqa hujjatlarni ham (baxtsiz hodisalar to'g'risidagi dalolatnomalar va boshqalar) tekshiradi va nafaqa tayinlash, belgilangan hollarda esa nafaqadan mahrum qilish bo'yicha qaror chiqaradi. Ikki nusxadagi to'lov ro'yxatlar ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi raisi tomonidan imzolanadi.

### **18.5. Tadbirkorlarning davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar ajratish tartibi**

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs, dehqon xo'jaligi a'zosiga, shuningdek ayrim fuqarolarnikida shartnoma asosida ishlayotganlar nafaqa olish uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalarini, bola tug'ilganlik haqida ma'lumotnomani va vafot etganlik to'g'risidagi ma'lumotnomani ijtimoiy ta'minot bo'limiga topshiradilar. Topshirilgan hujjatlar asosida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari shu'balari tomonidan nafaqa tayinlash (tayinlanmaslik) va uning miqdorlari masalasi ko'rib chiqilib, ijtimoiy ta'minot bo'limi boshlig'ining qarori chiqariladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Nafaqalar, fuqarolarning foizsiz shaxsiy hisobraqamiga nafaqa summasini o'tkazish yo'li bilan bank orqali to'lanadi.

Nafaqa tayinlashda mazkur Nizomning 98-106 bandlarida belgilangan qoidalar qo'llaniladi.

Ortiqcha to'lab yuborilgan nafaqa summasi, agar ortiqcha to'lash sanashda (arifmetik) adashish yoki nafaqa oluvchining qalbaki ma'lumotnoma taqdim qilishi

(hujjatlarga o'zgartirish kiritish va hokazolar) tufayli sodir bo'lgan bo'lsa, nafaqa oluvchidan undirib olinadi.

Chegirish keyingi safar to'lanadigan nafaqa yoki ish haqidan amalga oshiriladi. Har safar xodim olishi kerak bo'lgan summadan 20 foizdan ortiq bo'lmagan summa chegirib qolinadi. Chegirib qolish korxonaning hisob-kitob bo'limi orqali komissiyaning qarori asosida amalga oshiriladi.

Bu qaror sanash jarayonida yo'l qo'yilgan xato tufayli ortiqcha to'lash sodir bo'lganda nafaqa tayinlangan kundan 3 oydan kechiktirmay, o'z huquqini suiste'mollikka yo'l qo'yilsa (qalbaki hujjat taqdim etish, firibgarlik va hokazolar), hujjatlar qonunda belgilangan choralarni qo'llash uchun huquqni muhofaza qilish organlariga yuboriladi.

Sudlarning qaroriga asosan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqalaridan aliment, mayib bo'lganlik va salomatlikka etkazilgan va boshqa zararlarni qoplash bo'yicha xarajatlar chegirilishi mumkin. Nafaqalarda boshqa hech qanday chegirma amalga oshirilmaydi.

Xodimning vafoti kunigacha olinmay qolgan vaqtincha mehnatga qobliyatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish nafaqasi u bilan birga yashagan oila a'zolariga, shuningdek, uning qaramog'ida bo'lganlarga beriladi.

Xodimning vafot etgan kuniga qadar olinmagan nafaqa vafot etgan xodim bilan qarindosh va birga istiqomat qilganlik yoki vafot etganning qaramog'ida bo'lganlikni tasdiqlovchi dalil bo'lgan hujjat topshirilganidagina berilishi mumkin.

Bola tug'ilganda bir yo'la to'lanadigan nafaqani olish huquqiga ega bo'lgan ona vafot etganda mazkur nafaqa otaga yoki bolani o'z tarbiyasiga olgan boshqa shaxsga beriladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'idan beriladigan nafaqa belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo'yicha to'lanishi, fuqarolarning arizasiga binoan bank muassasalaridagi hisobraqamiga o'tkazilishi hamda aloqa bo'limi orqali jo'natilishi mumkin.

Nafaqani jo'natish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar nafaqa summasidan ushlab qolinadi.

O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari to'lash hisobiga olinadigan pensiya ta'minotiga va davlat ijtimoiy sug'urtasiga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan va majburiy sug'urta badallari to'lanishining shaxsiy hisobini olib borish, mehnat daftarchalarini yuritish, pensiya va nafaqalar tayinlash va to'lash, uchun mehnat staji va daromadni tayinlash va to'lash uchun mehnat staji va daromadni hisoblab chiqish tartibini belgilab beradi.

1. Mazkur tartibga asosan yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini mashg'ulotning istalgan boshqa turi bilan qo'shib olib boruvchi fuqarolarga tadbiriq etiladi.

2. Tadbirkor davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish bilan bir paytda byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga badal to'lovchi sifatida davlat ijtimoiy sug'urtalanadigan shaxsga aylanadi.

3. Tadbirkor byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan taqdirda:

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiya bilan ta'minlanish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi, xomiladorlik va tug'ish nafaqasi, bola tug'ilganda nafaqa olish hamda Dafn marosimi uchun nafaqa olish huquqiga ega bo'ladi.

Tadbirkorning pensiya olishga bo'lgan huquqi u pensiya yoshiga to'lganda yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda boshlanadi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa, agar ushbu nafaqani olish huquqi tadbirkor tomonidan sug'urta badallari to'lash davrida boshlangan bo'lsa, beriladi.

Tadbirkor o'zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya bilan ta'minlanish va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqaning o'zi istaydigan miqdoridan kelib chiqib, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi, biroq u badallarning mazkur tartibida belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmasligi kerak.

Tayinlanadigan pensiya, shuningdek ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa miqdori byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lanadigan sug'urta badallari miqdoriga hamda tadbirkorning mehnat stajiga bog'liq bo'ladi.

Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lanadigan sug'urta badallarining eng kam miqdori har oyda O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorni, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek 1 va 2-guruh nogironlari bo'lgan tadbirkorlar uchun esa eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Tadbirkor belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyatini to'xtatib turgan paytida sug'urta badallari to'lanmaydi va bu davr stajga kiritilmaydi.

Sug'urta badallari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan soliq to'lash uchun belgilangan muddatlarda to'lanadi.

Sug'urta badallari tadbirkor yashab turgan yoki faoliyatini amalga oshirayotgan tuman (shahar) byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi hisob raqamiga naqdsiz hisob-kitob yoki naqd pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi. Sug'urta badallari naqdsiz hisob-kitob bo'yicha to'langan taqdirda sug'urta badali to'langanligi haqidagi to'lov hujjatida ko'rsatilgan sana sug'urta badali to'langan kun hisoblanadi.

To'langan sug'urta badal qaytarilmaydi.

Tadbirkorlar soliq haqidagi qonunlarga muvofiq sug'urta badallarining o'z vaqtida to'lanishi uchun javob beradilar.

Sug'urta badallari to'lanishining hisobi umumiy belgilangan tartibda tadbirkorning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlarida yuritiladi.

Sug'urta badallari tadbirkorlar o'z faoliyatini amalga oshirayotgan joyda to'langan taqdirda soliq organlari har chorakda tadbirkorning yashash joyidagi soliq organiga ma'lumotlar taqdim etadi.

Soliq organlari tomonidan yilning har choragida tadbirkordan tushgan sug'urta badallari yakuni chiqariladi va to'lanmagan yoki muddati o'tkazib yuborilgan to'lovlar aniqlangan taqdirda, tadbirkorlarda ularning qarzi miqdori haqida, ushbu qarz hosil bo'lgan davr, shuningdek to'lov muddati o'tkazib

yuborilganligi uchun qo‘shilgan penya miqdori ko‘rsatilgan holda bildirishnoma yuboriladi.

Joylarda soliq organlari tadbirkorlardan sug‘urta badallari tushishi ustidan doimiy nazorat olib boradilar va har chorakda hisobot choragidan keyingi oying 20-kunigacha tadbirkorning yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limlariga:

1-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha hisobot choragida hisobga qo‘yilgan (hisobdan chiqarilgan) tadbirkorlar to‘g‘risidagi axborotni;

2-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha ular tomonidan Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga to‘langan badallar miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari:

- tadbirkorning hisobga qo‘yilganligi (hisobdan chiqarilganligi) to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlarining axborot asosida 3-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha sug‘urta badallari to‘lanishini hisobga olishning shaxsiy kartochkasi (keyingi o‘rinlarda «hisobga olishning shaxsiy kartochkasi» deb yuritiladi) ochadilar (yopadilar), ushbu hisobga olish kartochasi doimiy ravishda ijtimoiy ta‘minot bo‘limida saqlanadi;

- davlat soliq xizmati organlarining sug‘urta badallari to‘langanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlari asosida hisobga olish kartochkasiga badallar summasi (sug‘urta badallari o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun qo‘shiladigan penya hisobga olmagan holda) va ular to‘langan davrlar to‘g‘risidagi yozuvlarni qayd etadi.

Tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari, shuningdek davlat soliq xizmati organlarining axboroti va ma‘lumotlari asosida mazkur tartibning 20-22-bandlariga muvofiq tadbirkorning mehnat daftarchasiga tegishli yozuvlarni qayd etadi.

Tadbirkorda saqlanadigan 4-ilovaga muvofiq sug‘urta badallari to‘lanishini hisobga olish daftarchasi sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Hisobga olish daftarchasi ijtimoiy ta‘minot bo‘limi tomonidan ushbu faoliyatga birinchi marta kirishgan tadbirkorga ochiladi.

Tadbirkorning hohishiga ko'ra tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tadbirkor tomonidan Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'langan to'lov hujjatlari bilan tasdiqlangan badallarni hisobga olish kartochkasi va hisobga olish daftariga kiritiladi hamda tadbirkorning va ijtimoiy ta'minot bo'limi ma'sul xodimining imzosi, shuningdek bo'lim muhri bilan tasdiqlanadi.

Sug'urta badallari to'langanligi to'g'risidagi to'lov hujjatlari tadbirkor tomonidan to'lanadigan badallar hisobiga olish kartochkasi va hisobga olish daftaridagi yozuvlar bilan solishtirilgunga qadar tadbirkorda saqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyati to'xtatilganda yoki ro'yxatdan o'tkazish joyi o'zgargan taqdirda ijtimoiy ta'minot bo'limi hisobga olish kartochkasi va hisobga olish daftariga hisobdan chiqarganlik to'g'risida tegishli belgilar qo'yadi.

Tadbirkor mehnat daftarchasining:

- «Sana» ustunida byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lash boshlangan, to'xtatib qo'yilgan va tiklangan sana, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati to'xtatilgan sana to'g'risidagi yozuv yoziladi.

- tadbirkor tomonidan byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga badal belgilangan muddatdan keyin bir oy mobaynida to'lanmagan taqdirda, mehnat daftarchasiga «Sug'urta badallari to'lashni to'xtatib qo'ydi» degan yozuv yoziladi. Agar tadbirkor mazkur yozuv yozilgandan keyin byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga badal to'lashni tiklasa, mehnat daftarchasiga «Sug'urta badallari to'lashni tikladi» deb yoziladi.

- tadbirkorlik faoliyati to'xtatilgan taqdirda mehnat daftarchasiga «Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyatini to'xtatdi» deb yoziladi.

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni to'xtatgan yoki ro'yxatdan o'tkazish joyini o'zgartirgan shaxsning talabi bo'yicha ijtimoiy ta'minot bo'limi mehnat daftarchasini uning qo'liga beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy sug'urtaning muhim xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy funktsiyalarini ayting?
4. Ijtimoiy sug'urta fondlari qanday manbalar hisobidan yuzaga keladi?
5. Kasb kasalliklari bo'yicha vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini kimlar, qaysi holatlarda oladi?



## **19-BOB. NAFAQA SUG'URASI**

### **19.1. Nafaqa sug'urtasining mohiyati va ijtimoiy ahamiyati**

Sug'urtaning 2 ta turini ya'ni davlat pensiya sug'urtasi va qo'shimcha pensiya sug'urtasini o'zida birlashtiruvchi pensiya sug'urtasi ijtimoiy funksiyalarni bajaradi hamda fuqarolarning mehnatga qobilyatsiz davrida hayotiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Bu sug'urta turlari shaxsiy sug'urtaning boshqa turlaridan boshqacha maqsadli xarakterga ega ekanligi bilan farqlanadi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasining asosiy maqsadi foyda oluvchi ya'ni sug'urtalovchi vorisning mulkiy manfaatlarini ta'minlash hisoblanadi. Pensiya sug'urtasi ham sug'urtalanuvchilarning pensiyaga chiqqunga qadar daromadlarini ushlab turishni va pensiya davrida uning manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

Qo'shimcha pensiya sug'urtasi bo'yicha shartnoma imzolagan sug'urtalovchilar o'zining faol mehnat davrida daromadlarning bir qismini (sug'urta badali shaklida) sug'urta kompaniyasi ixtiyoriga o'tkazadi. Sug'urtalovchi esa sug'urtalovchiga qo'shimcha pensiyani vaqti-vaqti bilan berib borish majburiyatini oladi. Sug'urtalovchi bo'lib quyidagi hisoblandi:

- korxonalar tashkilot muassasa ishchilarining shartnoma imzolagan yuridik shaxslar.

- o'z foydasiga shartnoma imzolagan jimsmoniy shaxslar.

Sug'urtalanuvchining yoshi amaldagi qonunchilikda belgilangan pensiyaga chiqish yoshidan oshmasligi lozim: ayollar uchun 55 yosh erkaklar uchun 60 yosh.

Nafaqa – mehant faoliyati tugaganidan so'ng daromad kafolatini ta'minlovchi omildir. Nafaqa shartnomasini imzolash uchun nafaqa jadvallari yoki rejalari ishlatiladi.

Nafaqa rejasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- nafaqa rejasiga muvofiq, sug'urta mablag'larini muddatli to'lovlar asosida mehnat faoliyati davomida yig'ib borish yoki hayotni qo'shma sug'urtalash asosida;

- sug'urta qildiruvchi shaxs nafaqa sug'urtasida bo'lgan mablag' evaziga annuitetlarni xarid qilishi mumkin;

- nafaqaga chiqishda qayd etilgan mablag'dan sug'urtachi tomonidan (yig'ilgan sug'urta mablag'idan 25%) bir martalik yordam berish;

- nafaqa to'lovlarini har oylik renta ko'rinishidagi to'lov shaklida amalga oshirish.

Sug'urta hodisasi deb, sug'urtalovchining nafaqa yoshiga yetishi, shartnomada qayd qilingan yosh yoki nogironlik holatiga aytiladi.

Nafaqa sug'urtasining maqsadi – shaxsning mehnatga layoqatsizligi yoki nogironlik holatidagi pul mablag'lari bilan ta'minlashni kafalatlashdan iborat.

Nafaqa sug'urtasi – sug'urtalanuvchi shaxs tomonidan sotib olingishi mumkin emas.

Sug'urtalangan shaxsning mehnat jarayonida vafot etish holatida, jamg'arilgan nafaqa mablag'larining ma'lum bir qismi merosxo'rlarga to'lanishi mumkin. Nafaqa annuiteti odatda, umrbod renta to'lovini nazarda tutadi. Agarda shaxsiy nafaqa sug'urtasi bo'lsa, u holda annuitetlarning boshqa shakllari ko'rsatilishi mumkin.

Nafaqa sug'urtasi ish beruvchi yoki jamoaviy sug'urta shartnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu holat ba'zi bir mamlakatlarda (Shveytsariya, Yaponiya) qonun tarkibiga kiritilgan. RFda ham nafaqa reformasida qo'shimcha nafaqa sug'urtasini kiritish rejalashtirilgan.

Qo'shimcha nafaqa sug'urtasi ma'lum tarmoq ish beruvchilarining mablag'i hisobidan yuqori darajali nafaqani ta'minlashni ko'zda tutadi. Chunki bu tarmoqda mehnat qiluvchilar yuqori havf ostida yoki noqulay sharoitlarda mehnat qilishi inobatga olingan.

Jamoa nafaqa rejasida fuqaroning davlat tomonidan belgilangan nafaqani olish haq-huquqiga ega bo'lgan holatiga – sug'urta hodisasi deyiladi.

Nafaqa o'lchovlari quyidagi holatlar bilan aniqlanadi:

- shaxsiy kirimlar dinamikasi bilan

- ushlab turuvchi kirimlar hisobi bilan

- kirimlarning to‘lanishi davomiyligi bilan
- o‘rtacha hayot davomiyligi bilan
- nafaqaga chiqish yoshi bilan
- hisob quyilmalari orqali investitsion daromadlarni aniqlash (bankdagi foiz miqdori, davlatdan qarzdorlik hisobi va boshqalar)

## **19.2. Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minotiga tegishli huquqlari**

O‘zbekiston Respublikasida Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minotiga taalluqli huquqlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta‘minlanish huquqiga egadirlar;

- Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta‘minlash davlatlararo bitimlar asosida amalga oshiriladi;

- O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, basharti, davlatlararo bitimlarda o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar.

Ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar va ularning oilalari Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta‘minlanish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo‘yadi.

Ish beruvchilarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga badal to‘lamasligi davlat pensiya jamg‘armasi mablag‘i hisobidan ta‘minlanishga bo‘lgan kafolatlangan huquqdan mahrum qilmaydi (O‘zRMQ 28-modda).

U yoki bu xodimning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga mansub shaxslar doirasiga kirishligini aniqlan uchun dastlab uning mehnat huquqiy munosabatida bo‘lish-bo‘lmasligini aniqlash zarur.

Ko‘pincha bu holatni aniqlash qiyinchilik to‘g‘dirmaydi. Kasb yoki lavozimning nomi, odatda, mazkur xodimning mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotganligidan dalolat beradi.

Biroq mehnat shartnomasi ko'pchilik hollarda fuqarolik huquqining ba'zi shartnomalari pudrat, topshiriq va boshqalarga o'xshab ketadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 385-moddasi).

Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi 249-sonli qarorining 9-ilovasi bilan tasdiqlangan «Sug'urta badallari olinmaydigan va pensiya hisoblab chiqarishda hisobga kirmaydigan ish haqlari va boshqa to'lov turlarining ro'yxati»ga pudrat shartnomasi bo'yicha to'lash kiritilmagan.

Biroq tajriba shundan dalolat beradiki, ko'pincha mehnat shartnomasi sug'urta badali to'lamaslik uchun pudrat shartnomasi deb ataladi. Shuning uchun pudrat shartnomasi deb nomlanadigan shartnomadan ham sug'urta badallari olish va bu shartnoma bilan ishlangan ish vaqtini pensiya tayinlash uchun ish stajiga hisoblash ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashayotgan fuqarolarning pensiya ta'minoti yashab turgan davlatining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Shu maqsadda davlatlar o'rtasida shartnomalarga doir alohida qoidalar joriy qilish mumkin. Mustaqil Davlatlarning hamdo'stligi qatnashchilari bo'lgan davlat fuqarolarining pensiya ta'minotiga kelsak, u 1992 yil 13 martda ushbu davlatlarning hukumat boshliqlari tomonidan qabul qilingan pensiya ta'minoti sohasidagi bitim bilan tartibga solib turiladi.

Mazkur bitim MDH davlatlarining fuqarolariga pensiya ular yashab turgan hududdagi davlatning qonun hujjatlari bo'yicha tayinlanishini ko'zda tutadi. Pensiya yashab turgan joydan tayinlanadi. Pensiya, shu jumladan imtiyozli shartlar asosidagi va ko'p yillik xizmati pensiya huquqini belgilash uchun shu davlatlarning istalgan hududida, shuningdek mazkur Bitim kuchga kirgunga qadar sobiq SSR hududida ishlab o'ttirilgan mehnat staji e'tiborga olinadi.

Milliy pul joriy qilingandan keyin to'langan ish haqi miqdorlari pensiyaga murojaat etgan paytdagi rasmiy belgilangan milliy pul qiymati bo'yicha aniqlanadi.

Keyingi vaqtda MDH tarkibiga kiruvchi davlat qarorlarining pensiya ta'minoti sohasidagi huquqni kafolatlovchi o'zaro ikki tomonlama bitim tuzadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Gruziya va Ozarboyjon Respublikalari bilan anashunday Bitimga ega.

Bu Bitimda boshqa davlat fuqarosiga o'z fuqarolari bilan teng ravishda pensiya ta'minoti huquqi berishni ko'zda tutadi. Pensioner bir respublikadan boshqasiga o'tganda unga pensiya yangi turar joyda oldingi joydan pensiya to'lash to'xtatilgan oydan keyingi boshlab, biroq ro'yxatdan o'tgan yoki yashash uchun bilan guvohnoma olgan oydan oldingi, lekin ko'pi bilan tayinlanadi.

Shartnoma tuzilmagan boshqa davlatlar hududidan ko'chib kelgan fuqarolar uchun, agar ular ko'chib kelgandan keyin ishlagan bo'lsalar, pensiya miqdori ko'chib kelgandan keyingi ish haqidan hisoblanadi.

Bunda talab qilinadigan ish davridan ish haqi hisoblash yashab turgan mamlakatning pensiya Qonuniga muvofiq hal qilinishi shart.

Ko'chib kelgandan keyin ishlamagan yoki yangi tura rjoy talab qilinadigan eng kam ish haqlariga ega bo'lgan fuqarolar uchun pensiya pansiyani tayinlash davlat shunday faoliyatda band bo'lgan tegishli kasbdagi o'rtacha oyilik ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Bitimlarda mehnatda mayiblanish tufayli nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari mehnatda mayiblanishga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa qaysi hududda ro'y bergan bo'lsa, o'sha davlat tomonidan tayinlanishi va to'lanishi ko'zda tutilgan.

Kasb kasalligi tufayli nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari mehnat faoliyati amalga oshirilgan, bu kasallikni keltirib chiqargan hududdagi davlatning ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi.

Ikkala davlat hududida bajarilgan mehnat faoliyati natijasida kelib chiqqan kasb kasalligi tufayli nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oxirgi ish bajarilgan, kasallikni keltirib chiqargan hududdagi davlat tomonidan tayinlanadi va to'lanadi.

Imtiyozli shartlarda pensiya tayinlash pensiya tayinlanadigan hududdagi davlatning qonunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Bitimlarda pensiya tayinlash va to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro hisob-kitoblar quyidagi ikki holdan tashqari hollarda amalga oshirilmasligi belgilangan:

Birinchi hol: Ko‘chib kelgunga qadar boshqa davlatning qonunida ko‘zda tutilmagan asoslar bo‘yicha pensiya olgan fuqaro ko‘chib kelgan hollarda pensiya to‘lash yashayotgan davlatdagi qonun bo‘yicha pensiya huquqi paydo bo‘lgunga qadar pensiya tayinlangan joydagi ijtimoiy ta‘minot bo‘limlaridan amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchi hol: Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiya tayinlanganda yuqorida bayon etilgan holatlarda amalga oshiriladi.

Bitimlar pensiya ta‘minoti uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni qonunlashtirmay qonuniy jihatdan mustahkamlamay qabul qilishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi xorijiy fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga pensiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga tayinlanadigan umumiy asoslarda tayinlanadi.

Ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar va ularning oilalari nafaqa bilan ta‘minlanadi. 1994 yil 1 iyuldan pensiya to‘g‘risida Qonun joriy qilinishi munosabati bilan ilgari amalda bo‘lgan qonunga muvofiq to‘lab kelingan ijtimoiy pensiya o‘rniga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi 319-sonli qarori bilan bolalikdan nogironlar, qariya va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolar uchun nafaqa joriy qilingan.

Bolalikdan nogironlarga nafaqa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi 319-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Bolalikdan nogironlarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomda bayon etilgan qoidalarga muvofiq tayinlanadi va to‘lanadi.

Shunga muvofiq, bolalikdan 1 va 2-guruh nogironi deb tan olingan, ish stajiga ega bo‘lmagan 16 yoshdan yuqori bo‘lgan shaxslar, shuningdek 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalar nafaqa olish huquqiga ega.

Ish stajiga ega bo'lmagan qariya va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqa tayinlash va to'lash Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi 319-sonli qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom bilan tartibga solinadi.

- yosh bo'yicha:

- nogironlik bo'yicha (bolalikdan nogironlardan tashqari);

- boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalar tayinlanadi.

Yoshga doir va nogironlik nafaqasi ish stajiga ega bo'lmagan va uni boqishga majbur bo'lgan qarindoshlari bo'lmagan shaxslarga tayinlanadi. Nogironlik nafaqalari faqat 1 va 2-guruh nogironlariga belgilanadi.

Pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan shaxs vafot etganda uning qaromog'ida bo'lgan oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'ladilar. Bu nafaqaning miqdori 3 va undan ortiq mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun vafot etgan fuqaro olgan yoki olishi lozim bo'lgan nafaqaning 100 foizi, 2 oila a'zosi uchun nafaqaning 75 foizi, bir mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi uchun nafaqaning 50 foizi bo'ladi.

### **19.3. Nafaqa sug'urtasi bo'yicha sug'urtalanuvchilar va sug'urta xodisalari**

Sug'urtaga qonunchilikda ko'zda tutilgan erta pensiyaga chiquvchi kasb egalari xavfli mehnat sharoitlarida ishlovchilar, transprot ishchilari va h.klar, shuningdek I va II guruh nogironlari qabul qilinmaydi.

Sug'urta davri belgilangan pensiyaga chiqish yoshi bilan sug'urtalangan shaxsning shartnomasi rasmiylashtirilgan paytdagi yoshi orasidagi farq bilan aniqlanadi va u 1 yildan kam bo'lmasligi kerak.

Qo'shimcha pensiya sug'urtasining sug'urtasi hodisalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- sug'urtalanuvchining pensiya yoshigacha qolgan umri;

- sug'urtalanuvchining pensiya yoshiga etmagan vafot etishi;

- sug'urtalanuvchining pensiya yoshiga yetgandan keyingi 5 yil ichida vafot etish.

Quyidagi holatlar sug'urta hodisalari deb tan olinmaydi:

- sug'urtalovchining favqulotdda va urish holatlari paytida, shuningdek shartnomaning amal qilish hududidagi harbiy harakatlar paytida vafot etishi;
- sug'urtalovchining alkogol, narkotik, zaharli maddalar ta'sirida yoki qonunga g'ilof harakatlarni sodir etganda yoki o'z joniga suiqasd qilgandagi o'limi;
- sug'urta summasi tamoillarining kelishuvi asosida belgilangan va u sug'urta shartnomasi tuzilgan paytdagi pensiyaning eng kam miqdoridan ko'p bo'lishi kerak.

Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urtalovchining sug'urta summasining miqdorini oshirish huquqiga ega. Buning uchun sug'urtalovchiga shartnoma muddatiga mos ravishda mos ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'laydi va sug'urta shartnomasi qaytadan rasmiylashtiriladi.

Sug'urta mukofatining hajmi sug'urtalanuvchining jinsi sug'urta muddati va tanlagan pensiyaning miqdoriga ko'ra aniqlanadi. Mukofatni to'lash davri shartnomada ko'rsatiladi, u har oy kvartilda yoki yilda ham to'lash mumkin.

Qo'shimcha pensiya sug'urtasida shartnomani amal qilishi 3ta davrga bo'linadi:

- sug'urta mukofatini to'lash davri (10yoshdan);
- kutish davri (masalan sug'urtalangan shaxsning pensiya yoshiga etgunga qadar agar badal shu yoshgacha to'langan bo'lsa);
- sug'urta summasini muntazam pensiya shaklida to'lash davri. Sug'urta davrida birinchi yili sug'urta mukofati bir yo'la to'lanadi.

Jamoaviy sug'urtada sug'urta mukofati naqt pulsiz hisob kitob yo'li bilan to'lanadi. Yakka holdagi sug'urtada esa naqd pulsiz yoki naqd pul bilan to'lash mumkin.

Jamoaviy sug'urtada sug'urtalanuvchi arizaga sug'urtalangan shaxslarning ro'yxati ularning shartnoma tuzilgan paytda yoshi, pasport ma'lumotlari, sug'urta summasi miqdori, shuningdek, haq oluvchilarning ro'yxatini ilova qilib



keltiriladi. Sugʻurtalanan ishchi ishdan boʻshagan taqdirda sugʻurtalanuvchi shartnomada uni yangi qabul qilingan ishchi bilan almashtirish huquqiga ega.

Sugʻurta shartnomasi tugagandan keyin sugʻurtalanuvchi sugʻurta summasini bir yoʻla olish huquqiga ega.

#### **19.4. Pensiya sugʻurtasi boʻyicha shartnomani bajarilishi**

Qoʻshimcha pensiya sugʻurtasida quyidagi shartnoma sharti mavjud:

- muhlati uzaytirilgan annuitet bunda sugʻurtalanuvchi sugʻurta mukofotini bir yoʻla bilan yoki belgilangan fursat ichida boʻlib-boʻlib toʻlashi mumkin. Sugʻurta annuitet uchun toʻlovlar amalga oshirgunga qadar boʻlgan davr fursat kutadigan davr hisoblanadi. Sugʻurta shartnomasida belgilangan kundan boshlab, sugʻurtalangan shaxs umirbod vaqti-vaqti bilan tshlanadigan va shartnomada koʻrsatilgan miqdorda annuitetni olish huquqiga ega boʻladi. Sugʻurtalanuvchi vafot etgan taqdirda uning vorisi sugʻurta summasidan olish huquqiga ega. Sugʻurtalanuvchi pensiya yoshiga etgunga vafot etadigan boʻlsa, haq olovchi sugʻurta taʼminoti sugʻurta badali miqdorida toʻlanadi. Agar sugʻurtalanuvchi pensiya yoshiga etgnaidankeyin birinchi 5 yil ichida vafot etsa, u holda sugʻurtalovchi haq oluvchiga 5 yillik pensiya bilan toʻlab boʻlingan pensiya summasi orasidagi farq miqdorida sugʻurta taʼminoti toʻlaydi:

- davrni annuitet bunda sugʻurtalovchining sugʻurta toʻlovini toʻlash davri chegaralanadi. Sugʻurta mukofoti bir yoʻla yoki boʻlib-boʻlib toʻlash orqali amalga oshiriladi.

Sugʻurtalanuvchining sugʻurta taʼminotini toʻlashni rad etishga quyidagi sabab boʻladi:

- jamoaviy sugʻurtada – sugʻurta hodisasi sugʻurtalangan shaxs boʻshab ketgandan keyin yoki sugʻurta sohasidan chiqib ketgandan keyin sodir boʻlsa:

- sugʻurtalangan shaxs oʻzining merosxuriga yoki haq oluvchining qasddan qilgan harakatlari natijasida vafot etsa.

Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasida yuzaga kelgan bahs munozaralar, muzakara, kelishuv yo'li bilan bartaraf qilinadi, shunda ham kelishilmasa, qonunchilikda ko'rsatilgan sud yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Nazorat savollari:**

1. Nafaqa sug'urtasining maqsadi nimadan iborat?
2. Qo'shimcha pensiya sug'urtasining mazmunini tushuntirib bering?
3. Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga doir qanday huquqlari mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashayotgan fuqarolarning pensiya ta'minoti qanday tartibga solinadi?
5. Qo'shimcha pensiya sug'urtasining sug'urtasi hodisalari bo'lib nimalar hisoblanadi?
6. Qo'shimcha pensiya sug'urtasida shartnomani amal qilishi nechta davrga bo'linadi?
7. Qo'shimcha pensiya sug'urtasida qanday holatlarda sug'urtalanuvchiga sug'urta ta'minotini to'lash rad etiladi?
8. Qo'shimcha pensiya sug'urtasida shartnomaning qanday shartlari mavjud?

## GLOSSARIY

### A

**Abandon** - to'liq miqdordagi sug'urta summasini olish uchun sug'urtalanuvchining sug'urtalangan mol-mulkdan sug'urtalovchining foydasiga voz kechishi (sug'urtalangan kema nobud bo'lganda, u xabarsiz yo'qolganda, kema yoki yuk qaroqchilar tomonidan bosib olinganda). Odatda abandon to'g'risidagi ariza vokea-hodisa ro'y bergandan keyin olti oy mobaynida berilishi kerak. Ayrim chet mamlakatlar qonunchiligida abandon sug'urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat, Angliya qonunchiligida abandon uchun sug'urtalovchining roziligi talab etiladi.

**Avariya komissari** - sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararning tavsifi va miqdorini anikdaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va faks rakamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirigiga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi.

**Avariya sertifikatini** - sug'urta hodisasi tufayli mol-mulk zararlanganda, ko'rilgan zararning miqdori va tavsifini tasdiqlovchi xujjat. Avariya sertifikatini avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaki hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikatini sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamaning to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Agentlik bitimi** - sug'urtalovchi bilan tuzilgan topshirik shartnomasi

**Addendum** - ilgari tuzilgan sug'urta va qayta sug'urtalash shartnomasiga tomonlarning o'zaro bitimi bilan qo'shimchalar kiritish.

**Adjaster** - sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining (sug'urta kildiruvchining) manfaatlarini ximoya etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga xarakat qiladi. Adjaster sug'urta hodisasini ro'y berish sabablarini

o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjuster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

**Aktuariy** - lotin tilidan tarjima kilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zaxiralari shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi paytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.

**Aktuar hisob-kitoblar** - sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi, extimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga tayanadi, tarif stavkasining miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining extimoliyligiga bog'liq. Demografiya ma'lumotlaridan fuqorolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtalash bo'yicha sug'urta summalari sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga etganda to'lanadi. Etarli miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda kancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga etishi extimoliyligini bilishi zarur. Aholi ulimi darajasi xaqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga etishi extimolligini hisoblash hamda fuqorolarning o'limi to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin. Bu jadval asosida nafaqani va hayotni sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalari hisoblanadi.

**Anderrayter** - 1) turli tavakkalchiliklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Sug'urta kompaniyasining sug'urta portfelini shakllanishi uchun javob beradi. U sug'urta shartnomalarini tuzish, tavakkalchiliklarni baxolash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bulishi zarur; 2) Lloyd sug'urta polislarini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasining a'zosi; 3) potensial mijozlarga sug'urta polisini sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yukori darajada maslaxat xizmatlarni ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Anderrayter siyosati** - sug'urtalash bilan bog'lik, yangi takliflarni ko'rib chiqish va mazkur taklifni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida xulosalar chiqarishga karatilgan siyosat.

**Anderayting** - 1) sug'urtalash maqsadida riskni baholash; 2) sug'urta shartnomalarini tuzish va uning shartlarini bajarish; 3) sug'urta.

**Annuitet** - 1) renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniyada, Fransiyada va AQSHda keng rivojlangan.

**Assistans** - sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs

**Audit** - sug'urta kompaniyasining moliyaviy hisoboti to'g'riligini yozma ravishda tasdiqlash va tekshirish. Audit ishini maxsus malakaga ega bo'lgan auditorlar amalga oshiradi. Auditorlik firmasi bilan sug'urta kompaniyasi o'rtasida shartnoma tuziladi. O'zbekiston Respublikasida audit ishini Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lgan shaxslar amalga oshirishi mumkin. Sug'urta kompaniyasining balansi auditorlar tomonidan tekshirilgandan so'ng matbuotda e'lon qilinadi.

## **B**

**Birgalikda sug'urta qilish** - bitta sug'urta shartnomasi doirasida riskni ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi. Ushbu shartnomada har bir sug'urtalovchining xuquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. Birgalikda sug'urta qilishda sug'urtalanuvchiga qo'shma polis yoki har bir sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan risk hissasiga muvofiq alohida polis beriladi.

**Bonus** - sug'urta kompaniyasi o'zi uchun qulay shartlarda sug'urta shartnomasini tuzganligi uchun sug'urtalanuvchiga, u to'laydigan sug'urta mukofoti miqdoridan chegirmalar belgilaydi.

**Bosh polis**- sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha ob'ektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. CHet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonament» deyiladi. Mazkur bosh polis

asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni junatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa etarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.

**Broker** - sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

**Brutto-mukofot** - sug'urta shartnomalarini tuzish, ish yuritish xarajatlarini hisobga olgan xoldagi sug'urta mukofotlari summasi.

**Brutto - stavka** - sug'urta qoplamasini (sug'urta summasini) to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi.

## D

**Denonsatsiya** - shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.

**Depozit** - 1) sug'urta kompaniyasining bank muassasasida saqlanadigan pul mablag'i yoki qimmatli qog'ozlari. Bank, odatda, sug'urta kompaniyasiga o'z pulini bankda saqlagani uchun foiz to'laydi; 2) ayrim mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, chet mamlakat sug'urta kompaniyasi, agar, biror boshqa mamlakatda sug'urta faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lsa, dastlab u o'sha mamlakat bank muassasasiga tegishli pul mablag'ini depozitga qo'yadi. Mazkur depozit, chet davlat sug'urta kompaniyasining boshqa mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Depozitlarni sug'urta qilish** - banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQSHda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQSHda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSH dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi.

**Diversifikatsiya** - yirik sugʻurta kompaniyalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat bilan ham shugʻullanishi. Masalan, sugʻurta vositachiligi, qimmatli qogʻozlarning oldi-sotdisi, koʻchmas mulk bilan shugʻullanish va xakozo.

**Dispasher** - dengiz transportida umumiy avariya sodir boʻlganda koʻrilgan zararni kema, yuk va fraxt oʻrtasida taqsimlash boʻyicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash boʻyicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun xaqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) toʻlaydi.

## **E**

**Evropolis** - evropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sugʻurta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sugʻurta polisi.

**Ekssedent zarari** - noproporsionl qayta sugʻurtalash shakli. Bunda sedentga oʻz zimmasida ushlab qolingan zarardan oshgan qismi qayta sugʻurtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.

**Ekssedent riski** - mazkur toifadagi risk boʻyicha zararni qayta sugʻurtalash toʻgʻrisidagi kelishuv.

**Ehtimollar nazariyasi** - tasodifiy hodisalarning ehtimolligi boʻyicha oʻzaro aloqada boʻlgan boshqa hodisalarning ehtimolligini aniqlash bilan bogʻliq matematika fani. Ehtimollar nazariyasi asosida tasodifiy hodisalarning roʻy berish ehtimolligi katta yoki kichik ekanligi aniqlanadi. Ehtimollar nazariyasi aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

## **F**

**Fakultativ obligator shartnomasi** - sedent qayta sugʻurtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sugʻurta riskini berishi, qayta sugʻurtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sugʻurtalash shartnomasi.

**Fakultativ qayta sugʻurtalash** - proporsional qayta sugʻurtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sugʻurtalashda har bir berilayotgan risk boʻyicha alohida shartnoma tuziladi. Sedent har bir risk boʻyicha qayta sugʻurtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil koʻrib chiqadi. Oʻz navbatida, qayta sugʻurtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.

**Franshiza** - sugʻurta shartnomasi shartlarida koʻzda tutiladigan sugʻurtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sugʻurta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga boʻlinadi. SHartli franshizada sugʻurtalovchi belgilangan franshiza summasidan

o'shmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. SHartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.

**Fraxt** - dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.

**Fronting** - qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'laligicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish.

**Frontlashtiruvchi kompaniya** - boshqa sug'urta kompaniyasining iltimosiga ko'ra, o'z nomidan sug'urta polisi beruvchi sug'urta kompaniyasi. Frontlashtiruvchi sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan riskni yuz foiz miqdorida iltimos qilgan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tkazadi va buning uchun undan komission haq oladi. Hozirgi paytda, O'zbekistonda bir nechta frontlashtiruvchi kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, "Anglo-Tashkent", "UzAIG" sug'urta kompaniyalari.

## H

**Hayotni sug'urta qilish sohasi** - jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi.

## J

**Javobgarlik sug'urtasi** - boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin.

## K

**Kargo** - transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomlanishi.

**Kasko** - transport vositasining borti. Kasko sug'urtasi transport vositasini nobud bo'lishi yoki shikastlanishi o'z ichiga oladi.



**Kaf** - tashqi savdo shartnomasi bo'yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) etkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo'yicha tovarlarni sug'urta qilish tovar etkazib beruvchining (sotuvchi) majburiyatiga kirmaydi.

**Kasbiy javobgarlik**- chet el tajribasida vrachlarning, advokatlarning, auditorlarning, notariuslarning, buxgalter, arxitektor va boshqa kasb egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasini tasdiqlaydigan sug'urta polisining atalishi. Ushbu kasb egalari xususiy amaliyot bilan shug'ullanganlarida, ularda sug'urta polisining bo'lishi majburiydir.

**Kvota** - 1) bir necha sug'urta kompaniyasi tomonidan birgalikda tegishli ob'ekt sug'urtalanayotganda, bitta sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan hissa. Bunday xolatda har bir sug'urta kompaniyasiga tegishli kvota yagona sug'urta polisida o'z aksini topadi; 2) qayta sug'urtalash kompaniyasini qayta sug'urtalashda qatnashish hissasi.

**Kvotali qayta sug'urtalash** - sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarni bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotini tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya proporsional ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtirok etadi.

**Kovernota** - sug'urta vositachisi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan va sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi xujjat. Ushbu xujjatda ko'rsatilgan muddat mobaynida sug'urta brokeri sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berishi shart. Chunki, kovernota sug'urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo'lgan xujjat hisoblanmaydi.

**Kombinatsiyalangan sug'urta** - bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamasi sharti.

**Komissiya haqi** - mijozlarni sug'urtaga tortganligi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq. Komissiya haqining miqdori sug'urtaning turiga va kelib tushgan badalning xajmiga bog'liq holda sug'urta badaliga nisbatan foizlarda to'lanadi.

**Konosament** - dengiz transportida yuklarni tashish shartlarini ifodalovchi xujjat. Konosament shartnoma mavjudligi faktini va yuk tashuvchini yukni qabul qilib olganligini tasdiqlovchi xo'jjat. Konosamentga imzo chekishi bilan yukni saqlash, uni tegishli manzilga etkazish mas'uliyati to'laligiga yuk tashuvchi kema zimmasiga o'tadi. Imzolangan konosamentning asl nusxasi sotib oluvchiga

yuboriladi va ushbu xo'jjat unga tegishi bilan sotib oluvchi yukning huquqiy egasi hisoblanadi.

**Kumulyasiya-** bir qancha yirik sug'urta summali ob'ektlarning bitta sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rishi extimolligini nazarda tutuvchi sug'urta risklarini yig'indisi.

**Keptiv sug'urta kompaniyasi-** ta'sischilarning manfaatlarini sug'urta himoyasiga oladigan yoki yirik konsern, korporatsiyalar, yirik sanoat-moliya guruhlarini tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyasi. Raqobatdagi boshqa sug'urta kompaniyalarini keptiv sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lgan tarmoqqa kirishi murakkabroq hisoblanadi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan keptiv sug'urta kompaniyalariga - «ALSKOM», «Universal sug'urta» sug'urta kompaniyalarini misol keltirish mumkin.

## L

**Lloyd-** 1) Angliyadagi xalqaro sug'urta bozori; Angliyadagi sug'urtalovchilarning korporatsiyasi, taxminan 1734 yilda tashkil etilgan. Hozirgi paytda Lloydga 22000 dan ortiq a'zo bor. Uning faoliyati Angliya parlamenti qabul qilgan maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Lloyd sug'urtani barcha turlarini amalga oshiradi. Lloyd a'zolari 279 sindikatga birlashgan bo'lib, sindikat faoliyati uchun anderrayterlar javob beradi. Anderrayterlar bilan sug'urtalanuvchilarni sug'urta vositachilari birlashtiradi. Sug'urta vositachilari Lloyd bozorida risklarni joylashtiradi. Anderrayterlar sug'urta shartnomasi bo'yicha javob berish uchun yirik miqdordagi pul mablag'larini korporatsiyaga depozit sifatida qo'yadi.

## M

**Majburiy davlat sug'urtasi** - qonunda belgilab eo'yilgan tartibda fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida hayot, sog'liq va mol-mulkning davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladigan majburiy sug'urtasi

**Majburiy sug'urta-** sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu xujjatda sug'urtaga tortiladigan ob'ektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

**Maxsus vakolatli davlat organi** - sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi.

**Mulkiy sug'urta** - turli ko'rinishdagi mol-mulklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar sug'urta munosabatlarining ob'ekti hisoblangan, sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Sug'urtalanuvchining shaxsiy mulki, uning qaramog'ida joylashgan mol-mulklar sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalanuvchi sifatida, nafaqat mol-mulkning sohiblari, balki mol-mulkning saqlanishi uchun mas'uliyatli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

**N**

**Naf oluvchi** - sug'urta shartnomasida sug'urta-langani shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan sug'urta tovonini oluvchi sifatida ko'rsatilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Netto-stavka**- brutto-stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Netto-stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u brutto-stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etadi.

**O**

**Obligatorli qayta sug'urtalash**- 1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyutani chiqib ketishini oldini oladi; 2) sug'urta kompaniyasi (sedent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi.

**Oferta**- asosiy shartlar ko'rsatilgan holda sug'urta shartnomasini tuzish taklifi. Sug'urta kompaniyasi ofertani konkret yuridik yoki jismoniy shaxsga yo'llashi mumkin.

**Offshor sug'urta kompaniyasi**- maxsus maqomga ega bo'lgan sug'urta kompaniyasi. Offshor sug'urta kompaniyalari soliq to'lash stavkalari eng kam bo'lgan offshor zonalarda (Bermud oroli, Gernsi, Men va Keymanov orollari) tashkil etiladi. Offshor zonalarda amalga oshiriladigan sug'urta operatsiyalari sug'urta kompaniyasini tashkil etishda qatnashgan ta'sischiilar joylashgan davlati organlari tomonidan nazorat etilmaydi.

## P

**Proporsional qayta sug'urtalash**- qayta sug'urtalash shartnomasini tuzish shakli. Bu erda qayta sug'urtalash kompaniyasi sug'urta mukofotlarini umumiy tushumidagi va sug'urta koplamlarini to'lashda o'z ulushiga ega. Proporsional qayta sug'urtalash shartnomalari kvotali, eksedentli va kvota-eksedentli shartnomalarini o'z ichiga oladi.

## Q

**Qayta sug'urta brokeri** - o'z nomidan va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug'urtalovchi-ning topshirig'iga binoan qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs.

**Qayta sug'urtalash** - sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish); sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalarini sug'urta kompaniyalar bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishda bo'ladi. Bundan tashqari, qayta sug'urtalash proporsional va noproportional bo'ladi. Proporsional qayta sug'urtalashda, qayta sug'urtalovchining berilgan risk bo'yicha ulushi sedentning o'z javobgarligiga qoladigan qismi aniq bo'lgandan so'ng aniqlanadi. Noproportional qayta sug'urtalashda riskni berish tegishli limit doirasida amalga oshiriladi. Bu holda qayta sug'urtalovchi sedentdan sug'urta mukofotining bir qismini oladi (proporsional qayta sug'urtalashdagidek sug'urta summasiga muvofiq keladigan sug'urta mukofotini emas).

**Qayta sug'urtalovchi** - sug'urta brokeri yordamida qayta sug'urtalash uchun riskni qabul qilib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi yordamida riskni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik qayta sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, SHveysariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari va sh. k. kiradi.

## R

**Raqobat** - sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozoridagi o'z ulushini egallashi uchun o'zaro iqtisodiy musobaqasi. Raqobat sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyalarini tanlab olishlarida ko'mak beradi. Raqobat sug'urta xizmatini kengayishida va ularning sifatini oshishida muhim ahamiyatga ega. Bir sug'urta xizmatini ko'rsatayotgan bir necha sug'urta kompaniyalari raqobat sharoitida mijozlarni jalb etish uchun ularga sug'urta shartnomalarini tuzishda, sug'urta mukofotlarini to'lashda va sug'urta qoplamalarini qisqa muddatlarda to'lashda imkoniyat yaratadi.

**Retrotsedent** - qabul qilib olingan qayta sug'urtalash riskini retrotsessiyaga (ikkinchi qayta sug'urtalash) beruvchi sug'urta yoki qayta sug'urtalovchi kompaniya.

**Retrotsessionariy** -retrotsedentdan riskni qabul qilib oluvchi qayta sug'urtalovchi kompaniya.

**Retrotsessiya** - 1) qayta sug'urtalashga ilgari qabul qilib olingan risklarni yana qayta sug'urtalashga berish; 2) risklarni uchlamchi joylashtirish.

**Risk** - 1) bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi, uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarning og'irligi, riskni ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutloq tugatishni imkoniyati bo'lmaganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratadi. SHunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Risk-riskli holatlarning yagonalik va o'zaro aloqadorlik yig'indisidir. Sug'urta fanida risk tushunchasiga turlicha tariflar berilgan. Jumladan, risk-bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamalar to'laydi. Risk sug'urta ob'ekti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Ob'ektga risk salbiy ta'sir ko'rsatib, uni shikastlashi yoxud nobud qilishi mumkin. SHu tufayli risk - bu yagona tasodifiy hodisa bo'lib, uning ro'y berishi inson ongiga yoki irodasiga bog'liq emas. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi hajmini tashkil etadi. Risk bahosining puldagi ifodasi sug'urta tarif stavkasini tashkil etadi; 2) sug'urta ob'ekti; 3) sug'urta javobgarligining turi.

**Risk menejmenti** - riskni kamaytirish yoki chegaralash bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan harakati. Risk menejmentining tarkibiy elementiga quyidagilar kiradi: riskni aniqlash, riskni baholash, riskni nazorat qilish va riskni moliyalashtirish.

**Risklarni joylashtirish** -1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish, teng ravishda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrotsessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi; 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi.

**Risklarni tanlash** - sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash - bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora - tadbirlarning bir qismidir.

**Riskli holatlar** - risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Sug'urtalanuvchiga ma'lum bo'lgan barcha riskli holatlar sug'urta kompaniyasiga xabar qilinadi. Bu riskni baholashda muhim ahamiyatga ega. Riskli holatlarni tahlil etish syurveyer yoki adjasterning funksiyasiga kiradi. Bu sug'urta kompaniyasini sug'urta shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik masalasi bo'yicha qaror qabul qilishida hamda sug'urta qoplamalari va summalarini to'lashda muhim o'rin tutadi. Riskli holatlar: shaxsiy va ashyoviy; to'g'ri va egri; tasdiqlanadigan va inkor qilinadigan: ob'ektiv va sub'ektiv turlarga bo'linadi.

**Riskni baholash** - risk parametrlarini xarakterlovchi barcha riskli holatlarni natura va qiymat ko'rinishida tahlil etish. Eng ahamiyatli belgisiga qarab tegishli risklar guruhi ajratilgan hamda u riskni baholash mezoni hisoblanadi. Masalan, shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda insonning yoshiga e'tibor beriladi. Sug'urta shartnomasi tuzilgan momentdan, sug'urtalanuvchining o'limiga yoki nogiron bo'lib qolishiga olib keluvchi xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida mijoz qo'shimcha ravishda dastlabki tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarida riskni baholash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. U sug'urta ob'ekti bilan jiddiy tanishadi, har tomonlama tahlil etadi. Tahlil natijalariga muvofiq sug'urtalanuvchi bilan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga

kirishishini maqsadga muvofiqligi to'g'risida sug'urta kompaniyasiga yozma xulosa beradi.

## S

**Siyosiy risk**- davlat organlarining hatti-xarakati yoxud uyushgan shaxslar guruhining siyosiy talab bo'yicha chiqishi natijasida vujudga keladigan xavf. Siyosiy riskga urush xarakatlari, siyosiy hokimiyatning yoki tuzumning o'zgarishi, qonun xujjatlaridagi o'zgarishlar, fuqarolarning ommaviy chiqishlari va ish tashlashlari, milliylashtirish, konfiskatsiya kiradi. Siyosiy risk ro'y bergan vaqtda sug'urta kompaniyasi javobgarlikdan ozod bo'ladi. Chunki siyosiy risklar, faqat, davlatga qarashli maxsus sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanishi mumkin.

**Sug'urta** - yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

Har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.

**Sug'urta agenti** - sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs

**Sug'urta bahosi** - sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan mol-mulkning qiymati. Amaliyotda mol-mulklar haqiqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumot ta'rif stavkasi va sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi mol-mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur.

**Sug'urta bozori** - sug'urta himoya (sug'urta xizmati) oldi-sottisi amalga oshirila-digan va unga talab va taklif shakllanadigan iqtisodiy pullik munosabatlarni ayrim sohasi.

***Sug'urta dalolatnomasi*** - sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.

***Sug'urta zahiralar*** – sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar, ma'lum bir vaqtda sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari etmasa, sug'urta kompaniyasi zahira fondlaridan foydalanishi mumkin. Sug'urta zahiralariga quyidagilar kiradi: hayotni sug'urtasi bo'yicha zahira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilmagan zararlarni qoplash zahiralar va boshqalar. Ushbu zahira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi.

***Sug'urta yig'imi*** - Jismoniy shaxsning yo'lovchilarning majburiy sug'urta bo'yicha bir marta to'lanadigan sug'urta mukofoti. Odatda, sug'urta yig'imi yo'l haqi tarkibida bo'ladi va chiptada sug'urta yig'imi «kiritilgan» degan so'z bo'ladi.

***Sug'urta kompaniyasi***- sug'urta shartnomasini tuzish va unga xizmat qilishni amalga oshiruvchi, sug'urtalanuvchi bilan huquqiy munosabatda bo'luvchi yuridik shaxs. U o'z Nizomi asosida faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik sub'ektidir. Tegishli iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining yig'indisi sug'urta tuzimini tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalari bajaradigan sug'urta operatsiyalariga ko'ra, ular universal va ixtisoslashgan bo'ladi. Ustav kapitali miqdori hamda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hajmiga muvofiq, sug'urta kompaniyalarini yirik, o'rta va kichik guruxlarga bo'lish mumkin.

***Sug'urta maydoni*** - sug'urtaga tortilishi zarur bo'lgan ob'ektlarning eng katta soni. Ayrim ekspertlar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta maydoni hali to'la o'zlashtirilmagan. Faqat mol-mulklarning 20-30 foizigina sug'urtaga tortilgan.

***Sug'urta manfaati*** - sug'urtada moddiy manfaatdorlik chorasi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urtalanuvchiga moddiy zarar keltiruvchi predmetlar - mol-mulk yoki sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsga zarar keltirish xolatlari. Masalan, sug'urtalanuvchining avtomobil transporti yo'l-transport hodisalari tufayli shikastlanganda, sug'urtalanuvchida ushbu mulkka nisbatan



manfaatdorlik yuzaga keladi va sug'urta moddiy manfaatdorlik chorasi sifatida maydonga chiqadi.

**Sug'urta mukofoti** - sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.

**Sug'urta mukofotlari zahirasi** - hayotni va nafaqani uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni oldindan to'lash uchun sug'urta kompaniyasida tashkil etiladigan fond. Bu fond sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda sug'urtalovchi zimmasidagi majburiyatlarni bajarishda muhim o'rin tutadi. Hayot sug'urtasi shartnomalari, odatda, bir necha yilga tuziladi. Sug'urta mukofotlarini kelib tushish va sug'urta summasini to'lash vaqtlari o'zaro to'g'ri kelmaganligi uchun, sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofoti ma'lum vaqt mobaynida uning ixtiyorida bo'sh xolda bo'ladi. Kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi joriy to'lovlar uchun sarflanadi, qolgan qismi esa zahira fondini shakllantirish uchun yunaltiriladi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha zahira fondining mablag'lari kredit resursi sifatida foydalanilishi mumkin.

**Sug'urta ob'ekti** - shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati: mulkiy sug'urtada binolar, qurilmalar, transport vositalari, uy-joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlash bilan bog'liq mulkiy manfaatlar; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z hatti-harakati bilan uning shaxsga zarar keltirish fuqarolik mas'uliyati - mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Riskni baholash maqsadida sug'urta ob'ekti sug'urta kompaniyasining mutaxassislari tomonidan ekspertiza qilinishi mumkin.

**Sug'urta polisi** - sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi xujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta ob'ekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.

**Sug'urta portfeli** - sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining yig'indisi. Sug'urtalangan ob'ektlar soni, sug'urta shartnomalarining miqdori ham sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi. CHet

mamlakatlar sug'urta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sug'urta mukofotining hajmi tushunchasiga to'g'ri keladi.

**Sug'urta puli** - sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik ob'ektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta koplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmalariga oladi. Xorijiy mamlakatlarda aviatsiya, atom, xarbiy risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan.

**Sug'urta summasi** - sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada - fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.

**Sug'urta summasining zararliligi** - sug'urta summasi va sug'urta koplamasini to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimolligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan ob'ektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta hodisalarining soni, zarar ko'rgan ob'ektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-stavka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

**Sug'urta tizimi** - 1) turli xil sug'urta kompaniyalari va ularni sug'urta nazorati bilan aloqadorligini yig'indisi; 2) sug'urta huquqiy munosabatlarni tashkil etishning davlat - huquqiy shakli.

**Sug'urta faoliyati** - sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati.

**Sug'urta faoliyati sub'ektlari** - sug'urta bozorining professional ishtirokchilari

***Sug'urta shartnomasi*** - ikki tomonlama yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.

***Sug'urta ekspertizasi*** - asoslangan xulosa berish maqsadida sug'urta risklarni, sug'urta ob'ektlarni va sug'urta xodisalarni asosiy xususiyatlarini maxsus bilimlar asosida o'rganib chiqish.

***Sug'urta qaltisligi*** - taxmin qilingan voqea bo'lib, ana shu voqea yuz berishdan ehtiyot shart sug'urta qilish amalga oshiriladi.

***Sug'urta qoplamasi*** - mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik xolati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

***Sug'urta qoplamasi limiti*** - sug'urta kompaniyasining filiali, bo'limi, shu'ba korxonasi tomonidan bitta sug'urta hodisasi bo'yicha mustaqil to'lanadigan sug'urta qoplamasining eng yuqori miqdori. Bu miqdorni sug'urta kompaniyasi boshqaruvi joylardagi sug'urta summasining zararlilik darajasidan, kadrlarning malakasidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilaydi.

***Sug'urta huquqi***- sug'urtalovchilar, sug'urtalanuvchilar va ular o'rtasidagi vositachilarning hatti-harakati qoidalari yig'indisi. Sug'urta huquqi qonun va qonun xujjatlarida o'z aksini topadi. Sug'urta huquqi moliyaviy huquqning bir qismi hisoblanadi.

***Sug'urta hodisasi*** - stixiyali, tabiiy yoki oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea-hodisalarning amalda yuz berishi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelgan zarar sug'urta kompaniyasi tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sug'urtada sug'urta hodisasi deyilganda, stixiyali hodisalar, yong'in, avariya, portlash, zilzila, dovul va boshqalar tushuniladi. SHaxsiy sug'urtada esa sug'urta hodisasiga fuqarolarning ma'lum bir muddatgacha yashashi, ularning xayotida baxtsiz hodisalarning ro'y berishi yoki o'limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug'urta hodisasi ba'zan «fors-major» deb yuritiladi.

***Sug'urta hodisalari takrorlanish darajasi*** - inshootlarni yonish darajasini, transport vositalarini avariya bo'lish darajasini, aholi nogironligi darajasi va shunga o'xshash darajalarni ifodalovchi ko'rsatkich. Sug'urta hodisalari sonini sug'urta qoplamalari miqdoriga yoki sug'urtalangan ob'ektlar miqdoriga nisbati sug'urta hodisalari takrorlanish darajasini aniqlaydi.

***Sug'urtada tarif siyosati*** - sug'urta operatsiyalarini zararsiz o'tkazilishini va sug'urtalanuvchilarning manfaati yo'lida sug'urta tariflarini belgilash, aniqlash, tartibga solish va tabaqalashtirish bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan faoliyati.

***Sug'urtaviy tibbiyot*** - turli kasalliklardan majburiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, tadbirkorlarning foydasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xayr-ehson fondlarining majburiy ajratmasi hisobidan shakllanadi. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urtalangan kontingentga tibbiy sug'urta polisi beriladi. Sug'urtalanuvchiga tibbiy sug'urta polisi bo'lgan taqdirda tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda tibbiy sug'urta kompaniyasi, bir tomondan sug'urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomondan tibbiyot muassasalari bilan shartnoma tuzadi.

***Sug'urtaviy foyda***- sug'urta xizmatining bahosi va tannarxi o'rtasidagi farq. Sug'urtaviy foyda sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish natijasida shakllanadi. Sug'urtaviy foyda balans uslubi asosida sug'urta mukofotlari tushumi va sug'urta operatsiyalari tannarxini o'zaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Sug'urta operatsiyalarining tannarxi bu, sug'urta kompaniyasining sug'urta himoyasini ta'minlashga qaratilgan to'g'ri va egri, (shu jumladan zahira fondlariga ajratmalar) xarajatlarning yig'indisidir. Odatda, sug'urta tarifini hisoblashda netto-stavkaga yuklamada foyda ulushi ham ko'rsatiladi. SHakllanish manbaiga ko'ra, haqiqatdagi sug'urtaviy foyda o'z ichiga quyidagi foyda turlarini oladi: sug'urta summasi zararlik ko'rsatkichini kamaytirishdan olingan foyda, boshqaruv xarajatlarini iqtisod qilish natijasida olingan foyda, investitsiyadan olingan foyda va sug'urta tarifida belgilangan foyda.

***Sug'urtalanuvchi*** - qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchinchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga xaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta

ob'ektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart.

**Sug'urtalovchi** - tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs

**Sug'urtalovchilar uyushmasi** - sug'urta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma a'zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sug'urta kompaniyalari va xorijiy sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug'urta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sug'urtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sug'urtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirgi paytda O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat, avtosug'urtalovchilar ittifoqi faoliyat ko'rsatmoqda.

**Sug'urtalovchining javobgarlik limiti** - tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sug'urta kompaniyasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi javobgarligi. Sug'urtalovchining javobgarlik limiti sug'urta polisida o'z aksini topadi.

**Sug'urtani tasniflash (klassifikatsiyalash)** - 1) sug'urta turlarini ierarxiya ko'rinishida tarmoqlarga, tarmoqchalarga va turlarga bo'linishi. Bunda har bir keyingi bo'g'in oldingi bo'g'inning bir qismi shaklida ifodalanadi. Sug'urta ob'ekti sug'urtaning toifasi, sug'urta javobgarligining hajmi va sug'urta qismining shakli sug'urtani turkumlashning asosiy mezoni bo'lib hisoblanadi. 2) xorij amaliyotida sug'urta turlarini tartiblashtirilgan tizimi. Hozirgi vaqtda Evropa Ittifoqi davlatlarida sug'urtaning yagona klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan va hayotga joriy etilgan.

**Slip** - riskni xarakterlovchi xujjat. Slip sug'urta brokeri tomonidan tuziladi va anderrayterga beriladi. Slipda sug'urta kompaniyasining riskni sug'urtalashdagi hissasi ko'rsatiladi. Angliyada slip sug'urta polisiga tenglashtiriladi. Ayrim holatlarda slip sug'urta qoplamasini to'lashda asosiy xujjat hisoblanadi.

**Syurveyer** - sug'urtaga tortiladigan mol-mulkni ko'rikdan o'tkazuvchi sug'urta kompaniyasining xodimi. Sug'urta kompaniyasi syurveyerining xulosasi asosida sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. CHet el amaliyotida yong'in havfsizligini ta'minlovchi ixtisoslashgan firmalar, mehnat muhofazasi bo'yicha tashkilotlar syurveyer funksiyasini bajaradi.

## T

**Tarif stavkasi** - sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. SHaxsiy sug'urta bo'yicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi.

**Tibbiy sug'urta**- aholi sog'lig'ini himoya qilish vositalaridan biri. Sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan, sug'urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi. Tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta kompaniyasi to'laydi. Tibbiy sug'urta majburiy yoki ixtiyoriy bo'ladi.

## U

**Uzaytirish** - o'zaro kelishgan holda sug'urta shartnomasini amal qilish muddatini uzaytirish. Prolongatsiya yozma ko'rinishda tasdiqlanishi mumkin.

**Umumiy sug'urta sohasi** - shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari.

## YA

**YAshil karta** - avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi xalqaro shartnomalar tizimi. Mazkur sug'urta turi bo'yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949 yilda Evropaning 13ta davlati o'rtasida yashil karta to'g'risida shartnoma tuzilgan. Hozirgi paytda yashil kartaga a'zo mamlakatlar 30 dan ziyodni tashkil etadi. YAshil kartaga a'zo bo'lgan mamlakatlarda tegishli milliy byurolar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi. O'z navbatida milliy byurolar yashil karta xalqaro byurosiga birlashgan. Qarorgohi Londonda joylashgan.

## Z

**Zarar etkazganlik uchun javobgarlikni sug'urta qilish** - boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtasi.

**Zahira fondi** - joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan sug'urta qoplamasini to'lash imkoniyati bo'lmaganda, ushbu sug'urta qoplamasini to'lash uchun foydalaniladigan pul mablag'lari fondi. Ma'lumki, sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan yo'qotishlar va zararlar miqdori har yili har-xil bo'ladi. Ayrim yillari sug'urta hodisalari kam, boshqa yili esa ko'proq bo'lishi mumkin. Agar sug'urta hodisalari soni ko'p bo'lib, ko'rilgan zarar miqdori joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan bir necha marta ko'p bo'lsa, ularning farqi zahira fondi hisobidan qoplanadi.

## **SH**

**SHaxsiy sug'urta** - sug'urta ob'ekti sifatida fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnat qobiliyatini saqlash bilan bog'liq manfaatlar majmuasi shaklidagi sug'urta tarmog'i. SHaxsiy sug'urta hayot sug'urtasiga va baxtsiz hodisalardan sug'urtaga va tibbiy sug'urtaga bo'linadi. U riskli va jamg'arma funksiyalariga ega. CHet el tajribasida shaxsiy sug'urta to'rta sug'urta klassidan iborat bo'lib, inson hayotidagi ro'y berish mumkin bo'lgan hodisalar (tug'ilish, o'lim, voyaga etish, nikohdan o'tish, ma'lum bir yoshgacha yashash) ehtimolligi bilan bog'liq barcha sug'urta turlarini o'z ichiga oladi. Keng ma'noda shaxsiy sug'urta-bu uzoq muddatli hayot sug'urtasi, aralash sug'urta va annuitetlardir.

**SHomaj** - sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi bilan bog'liq foyda olmaslik riskini sug'urtasi.

## **O'**

**O'zaro sug'urtalash jamiyati** - foyda olishni ko'zlamaydigan notijorat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSH va YAponiyada asosan, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklidir. Hozirgi paytda YAponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4%ni tashkil etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., Adolat. 2014. 76 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, -T.: “Adolat”, 2002.-496 b.
3. O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami - T.: 2002 y. N358 –II.
4. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami -T.: 2007 yil, 41-son, 405-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 yil, 16-son, 197-modda.
6. O'zbekiston Respublikasining “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi Qonuni. 2015 yil 26 may.
7. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning sog'ligini saqlash to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun Hujjatlari to'plami. – T., 2000. 5-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora tadbirlari tug'risida”gi 286-son qarori. 1998 yil 8 iyun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 1998 yil, 7-son, 24-modda.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda).
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida”gi Nizom.
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.



12. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyati va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

15. Bogdan Caprarua, Norel Moise Insurance market's competition in Romania after 2007 // Procedia Economics and Finance №20 (2015) 112 – 118 p. (manba: [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com))

16. David Bland “Insurance: Principles and Practice”, The Chartered Insurance Institute, UK, 2003.

17. David F. Babbel “Risk Management by Insurers: An Analysis of Process. Financial Institutions Center May 1996

18. Glenn E. Stevick Jr. “Essentials of Business Insurance”, The American College, USA, 2006.

19. Harriett E. Jones “Principles of Insurance Life, Health, and Annuities”, Loma (Life Office Management Association), USA, 2005.

20. Jack Kinder Jr. Garry Kinder “Secrets of Successful Insurance Sales”, Napoleon Hill Foundation, UK, 2012.

21. Jari M. Talvinen. Information systems in marketing: Identifying opportunities for new applications // European Journal of Marketing, Vol. 29 No. 1, 1995. – R. 11

22. Rene Doff “Risk Management for Insurers, Third Edition”, Risk Books, 2015.

23. Robert H., II Jerry, Douglas S. Richmond “Understanding Insurance Law”, LexisNexis; 5 edition, UK, 2012.

24. Saurav Dash, Rudra P.Pradhan, Rana P.Maradana and et.al. Insurance market penetration and economic growth in Eurozone countries: Time series evidence on causality // Future Business Journal №4 (2018) 50–67 p. (manba: [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com))

25. Shennaev X.M. O‘zbekiston sug‘urta bozori, O‘quv qo‘llanma, - Toshkent, “Iqtisod-Moliya”,-2013.
26. Shennaev X.M. Sug‘urta agentlari uchun qo‘llanma. T. infoCOM.UZ MChJ.-2010 y.
27. Shennaev X.M., Kenjaev I.G‘. Chet mamlakatlar sug‘urtasi, O‘quv qo‘llanma, - Toshkent «YAngi nashr»,-2012
28. Shennaev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G‘. Sug‘urta ishi, O‘quv qo‘llanma,-Toshkent «Iqtisod-Moliya»,-2014.
29. Shennaev X.M., Xaliqulova G.T., Abduraxmonov I.X. Tashqi iqtisodiy faoliyat sug‘urtasi,Darslik,-Toshkent-2014.
30. Yo‘ldoshev M, Tursunov Y. O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta huquqi. Darslik - Toshkent, “Moliya”.-2012.
31. Ахвелидиани Ю.Т. Страхование: учебник для студентов вузов. – 2-е изд., перераб и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014. – С. 567.
32. Абдуллаев Ф. Мажбурий суғурта афзалликлари // Халк сўзи, 2009 йил 25 апрель. №43.
33. Бачоров В.В. «Инвестиции» изд. «Питер» 2002 г.
34. Ветрова Н. Финансирование здравоохранения в Австралии. – М.: Бизнес. – 2013. №5-6.
35. Гришин В.В. Обязательное медицинское страхование: состояние, анализ, пути развития. Экономика и жизнь. – Т., 2016. - № 3. – С. 15.
36. Ермасов С.В., Ермасова Н.Б. Страхование: учебное пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014.- 462 с.
37. Кенжаев И. Суғурта компанияларининг инвестицион фаолияти масалалари // Молия илмий журнали, 2013 йил №2-сон, 62 б.
38. Лаврова Ю.А. Медицинское страхование в ФРГ и возможности использования этого опыта в условиях современной России. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. М., 2003.
39. Литовка П.И., Литовка А.Б., Чебоненко Н.В. Добровольное медицинское страхование: правовой режим и перспективы развития. – М.: БЕК, 2015. – С. 125.

40. Миронов А.А., Таранов А.М., Чейда А.А. Медицинское страхование. – М.: Наука, 2014. – С. 312.
41. Никулина Н.Н. Страховой менеджмент. Учебное пособие. ЮНИТИ, 2011.
42. Плешков А.П. Очерки зарубежного страхования. – М.: Анкил, 2007, 56 с.
43. Рубин Ю.Б. Страховой портфель. – М.: Соминтек, 2014.
44. Сплетухов Ю.А. Страхование: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2015.
45. Фогельсон Ю. Введение в страховое право. Просто о сложном. 2-ое издание, М., БИК, 2014. с-207.
46. Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. Ўқув қўлланма. -Т.: Молия нашриёти. 2003 й.
47. Хорсткотте Х. Система страхования в Германии // Проблемы теории и практика управления. 2015.- № 5.
48. Четыркин Е.М. Медицинское страхование за Западе и в России // Мировая экономика и международные отношения, 2015. - №12.
49. **Internet saytlari:**  
[www.lex.uz](http://www.lex.uz)-(Milliy qonunchilik rasmiy bazasi);  
[www.mf.uz](http://www.mf.uz) - (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi);  
[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)- (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati);  
[www.raexpert.ru](http://www.raexpert.ru) –(Ekspert RA Reyting agentligi);  
[www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com) - (Ilmiy elektron ma’lumotlar bazasi);  
[www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)-(Jahon banki rasmiy sayti);  
[www.ifin.ru/insurance](http://www.ifin.ru/insurance)  
[www.uzreport.uz](http://www.uzreport.uz)  
[www.swissre.com](http://www.swissre.com)  
[www.measuringworth.com](http://www.measuringworth.com)  
[www.mortality.org](http://www.mortality.org)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1-BOB. HAYOT SUG‘URTASINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI</b>	
1.1. Hayot sug‘urtasining ilk paydo bo‘lish tarixi.....	5
1.2. Tijoratga asoslangan hayot sug‘urtasining evropa mamlakatlarida paydo bo‘lishi va rivojlanishi.....	8
1.3. Hayot sug‘urtasining O‘zbekistonda paydo bo‘lishi va rivojlanishi.....	12
<b>2-BOB. HAYOT SUG‘URTASI FANINING OB‘EKTI, PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI</b>	
2.1. Hayot sug‘urtasi fanining mohiyati, ob‘ekti va predmeti.....	19
2.2. Hayot sug‘urtasi fanining maqsad va vazifalari.....	22
2.3. Hayot sug‘urtasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va o‘ziga xosligi.....	28
<b>3-BOB. HAYOT SUG‘URTASINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI</b>	
3.1. Hayot sug‘urtasini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	32
3.2. Hayot sug‘urtasi bozorini davlat tomonidan tartibga solinishi.....	36
3.3. Hayotni sug‘urta qilishdagi asosiy normativ-huquqiy xujjatlar.....	40
<b>4-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA YUZAGA KELADIGAN RISKLAR VA SUG‘URTALOVCHI RISKLARI</b>	
4.1. Risk tushunchasi, uning mohiyati va olimlar tomonidan riskka berilgan ta’riflar.....	43
4.2. Risklar klassifikatsiyasi.....	50
4.3. Hayot sug‘urtasiga xos risklar va ularning sug‘urta shartnomalariga kiritilishi.....	54
<b>5-BOB. HAYOT SUG‘URTASINING TURLARI. UZOQ VA QISQA MUDDATLI HAYOT SUG‘URTASI</b>	
5.1. Hayotni ma’lum muddatga sug‘urta qilish.....	59
5.2. Hayotni uzoq muddatga sug‘urta qilish.....	63
5.3. Vafot etish holatlaridan sug‘urta qilish.....	65

<b>6-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA SUG‘URTA SHARTNOMALARINI TUZISH</b>	
6.1. Hayot sug‘urtasida sug‘urta shartnomalarini tuzishning huquqiy jihatlari.....	74
6.2. Hayot sug‘urtasi shartnomalarining tasniflanishi.....	78
6.3. Hayot sug‘urtasi shartnomalarining turlari.....	81
6.4. Sug‘urta shartnomasini qayta sotib olish.....	87
<b>7-BOB. HAYOT SUG‘URTASINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b>	
7.1. Hayot sug‘urtasida umumiy nazorat va iqtisodiy muhit.....	91
7.2. Hayot sug‘urtasida muammoni aniqlash. Qaror qabul qilish. Tajribani monitoring qilish.....	93
7.3. Hayot sug‘urtasini amalga oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	96
<b>8-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA TARIF STAVKALARI</b>	
8.1. Sug‘urta tarifi tushunchasi, sug‘urta mahsulotini tarifkatsiya qilish.....	101
8.2. Sug‘urta tashkilotida tarif siyosati.....	104
8.3. Sug‘urta tarif stavkasining tuzilishi va tarkibi. Brutto va netto-stavkani hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari va umumiy tamoyillari.....	108
<b>9-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI AMALGA OSHIRISH</b>	
9.1. Aktuariylar faoliyatiga umumiy tavsif.....	111
9.2. Hayot sug‘urtasida aktuar hisoblarni amalga oshirish.....	115
<b>10-BOB. HAYOT SUG‘URTASIDA SUG‘URTA ZAHIRALARINI SHAKLLANTIRISH</b>	
10.1. Hayot sug‘urtasida sug‘urta zahiralarini shakllantirishning zarurligi.....	123
10.2. Hayot sug‘urtasida sug‘urta zahiralarini shakllantirish qoidalari.....	127
<b>11-BOB. HAYOT SUG‘URTASI BO‘YICHA ASOSIY SUG‘URTA POLISLARI</b>	
11.1. Muddatli sug‘urta bo‘yicha asosiy sug‘urta polislar.....	140
11.2. Umrbod sug‘urta bo‘yicha asosiy sug‘urta polislar.....	143

11.3.	Qolgan umrni sug'urta qildirish bo'yicha asosiy sug'urta polislari.....	144
11.4.	Hayot sug'urtasi bo'yicha boshqa turdagi sug'urta polislari.....	146
<b>12-BOB.</b>	<b>HAYOT SUG'URTASI BILAN SHUG'ULLANUVCHI SUG'URTA KOMPANIYASINING INVESTITSION FAOLIYATI</b>	
12.1.	Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati. Inflyasiya va uning investitsion faoliyatga ta'siri.....	156
12.2.	O'zbekistonda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari.....	164
12.3.	Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining xorij tajribasi.....	171
<b>13-BOB.</b>	<b>HAYOTNI UZOQ MUDDATLI SUG'URTA QILISH</b>	
13.1.	Hayotni uzoq muddatli sug'urtalashning mohiyati, zarurligi va ahamiyati.....	177
13.2.	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hayotni uzoq muddatli sug'urtalashning rivojlanishi va huquqiy asoslarining yaratilishi.....	185
13.3.	Bonus to'lovli hayotni uzoq muddatga sug'urta qilish.....	192
<b>14-BOB.</b>	<b>HAYOT SUG'URTASINING MAJBURIY TURLARI. ANNUITET SUG'URTASI</b>	
14.1.	Hayot sug'urtasida annuitet tushunchasi va annuitet turlari.....	210
14.2.	Sug'urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	220
<b>15-BOB.</b>	<b>TIBBIY SUG'URTA VA SOG'LIQNI SUG'URTALASH</b>	
15.1.	Tibbiy sug'urtaning umumiy tavsifi va nazariy asoslari.....	223
15.2.	Tibbiy sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.....	228
15.3.	Chet mamlakatlarda sog'liqni saqlash sohasida tibbiy sug'urtaning tutgan o'rni.....	232
15.4.	O'zbekistonda ixtiyoriy tibbiy sug'urta bozorining mavjud tizimi xususiyatlari.....	240
15.5.	O'zbekiston Respublikasida majburiy tibbiy sug'urtani tatbiq etishdagi muammolar.....	247
<b>16-BOB.</b>	<b>YUQUMLI KASALLIKLARDAN SUG'URTALASH</b>	
16.1.	Yuqumli kasalliklardan sug'urtalashning mohiyati, zarurligi va	

	ijtimoiy ahamiyati.....	256
16.2.	Fuqarolarni yuqumli kasalliklardan sug'urta qilishning tashkil etilishi va uning aholi salomatligini saqlashdagi ahamiyati.....	266
16.3.	Yuqumli kasalliklardan va vafot etishdan sug'urtalashning chet el tajribalari .....	275
<b>17-BOB.</b>	<b>BAXTSIZ HODISALARDAN EHTIYOT SHART SUG'URTA QILISH</b>	
17.1.	Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	286
17.2.	Baxtsiz hodisalardan sug'urtalashni amalga oshirish tartibi va tahlili.....	295
17.3.	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtalashda xorij tajribasi.....	299
<b>18-BOB.</b>	<b>IJTIMOY SUG'URTA</b>	
18.1.	Iqtisodiyotni modenzatsiyalash sharoitida ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va huquqiy asoslari .....	307
18.2.	Ijtimoiy sug'urta tushunchasi, uning mazmun mohiyati va nazariy asoslari.....	311
18.3.	Ijtimoiy ta'minot tizimi.....	317
18.4.	Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi.....	323
18.5.	Tadbirkorlarning davlat ijtimoiy sug'urtasiga badallar ajratish tartibi.....	329
<b>19-BOB.</b>	<b>NAFAQA SUG'URASI</b>	
19.1.	Nafaqa sug'urtasining mohiyati va ijtimoiy ahamiyati.....	336
19.2.	Fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga tegishli huquqlari.....	338
19.3.	Nafaqa sug'urtasi bo'yicha sug'urtalanuvchilar va sug'urta xodisalari.....	342
19.4.	Pensiya sug'urtasi bo'yicha shartnomani bajarilishi.....	344
	<b>Glossariy</b> .....	346
	<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	367

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ</b> .....	3
<b>ГЛАВА 1. ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ</b>	
1.1. История возникновения раннего страхования жизни .....	5
1.2. Возникновение и развитие коммерческого основанные страхования жизни в европейских странах .....	8
1.3. Появление и развитие страхования жизни в Узбекистане.....	12
<b>ГЛАВА 2. ОБЪЕКТ, ПРЕДМЕТ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ДИСЦИПЛИНЫ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ</b>	
2.1. Сущность, объект и предмет дисциплины страхования жизни .....	19
2.2. Цели и задачи дисциплины страхования жизни. ....	22
2.3. Связь с другими дисциплинами и особенности дисциплины страхования жизни .....	28
<b>ГЛАВА 3. ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ</b>	
3.1. Особенности правового регулирования страхования жизни.....	32
3.2. Государственное регулирование рынка страхования жизни.....	36
3.3. Основные нормативно-базовые документы осуществления страхования жизни.....	40
<b>ГЛАВА 4. РИСКИ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ СТРАХОВАНИИ ЖИЗНИ И РИСКИ СТРАХОВАТЕЛЯ</b>	
4.1. Понятие риска, его сущность и определение, данное риску учеными.....	43
4.2. Классификация рисков .....	50
4.3. Риски, характеризующие страхованию жизни и включение их в договоры страхования .....	54
<b>ГЛАВА 5. ВИДЫ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ. ДОЛГОСРОЧНОЕ И КРАТКОСРОЧНОЕ СТРАХОВАНИЕ ЖИЗНИ</b>	
5.1. Страхование жизни на определенный срок .....	59
5.2. Долгосрочное страхование жизни .....	63
5.3. Страхование на случай смерти .....	65
<b>ГЛАВА 6. СОСТАВЛЕНИЯ ДОГОВОРОВ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ</b>	
6.1. Правовые аспекты составления договоров страхования в	



страховании жизни .....	74
6.2. Классификация договоров страхования жизни .....	78
6.3. Виды договоров страхования жизни .....	81
6.4. Выкуп договора страхования .....	87
<b>ГЛАВА 7. ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ</b>	
7.1. Общий контроль и экономическая среда в страховании жизни .....	91
7.2. Определение проблем в страховании жизни. Принятие решения. Мониторинг опыта .....	93
7.3. Существующие проблемы при осуществлении страхования жизни и пути их устранения .....	96
<b>ГЛАВА 8. ТАРИФНЫЕ СТАВКИ В СТРАХОВАНИИ ЖИЗНИ</b>	
8.1. Понятие страхового тарифа, тарификация страховых продуктов.....	101
8.2. Тарифная политика в страховой организации .....	104
8.3. Состав и структура страховой тарифной ставки. Особенности и общие принципы расчета брутто и нетто ставок .....	108
<b>ГЛАВА 9. ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ АКТУАРНЫХ РАСЧЕТОВ ПРИ СТРАХОВАНИИ ЖИЗНИ</b>	
9.1. Общая характеристика деятельности актуариев .....	111
9.2. Осуществление актуарных расчетов при страховании жизни .....	115
<b>ГЛАВА 10. ФОРМИРОВАНИЕ СТРАХОВЫХ РЕЗЕРВОВ В СТРАХОВАНИИ ЖИЗНИ</b>	
10.1. Необходимость формирования страховых резервов в страховании жизни .....	123
10.2. Правила формирования страховых резервов в страховании жизни.....	127
<b>ГЛАВА 11. ОСНОВНЫЕ СТРАХОВЫЕ ПОЛИСЫ ПО СТРАХОВАНИЮ ЖИЗНИ</b>	
11.1. Основные страховые полисы по срочному страхованию ....	140
11.2. Основные страховые полисы по пожизненному страхованию .....	143
11.3. Основные страховые полисы по страхованию на дожитие.....	144
11.4. Другие виды страховых полисов по страхованию жизни.....	146

<b>ГЛАВА 12. ИНВЕСТИЦИОННАЯ</b>	<b>ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ</b>	
<b>СТРАХОВОЙ КОМПАНИИ,</b>	<b>ЗАНИМАЮЩЕЙСЯ</b>	
<b>СТРАХОВАНИЕМ ЖИЗНИ</b>		
12.1. Инвестиционная деятельность страховых компаний. Инфляция и ее воздействие на инвестиционную деятельность. ....		156
12.2. Правовые основы осуществления инвестиционной деятельности в Узбекистане .....		164
12.3. Зарубежный опыт инвестиционной деятельности страховых компаний .....		171
<b>ГЛАВА 13. ДОЛГОСРОЧНОЕ СТРАХОВАНИЕ ЖИЗНИ</b>		
13.1. Сущность, необходимость и значение долгосрочного страхования жизни .....		177
13.2. Развитие и создание правовых основ долгосрочного страхования жизни в Узбекистане за годы независимости.....		185
13.3. Долгосрочное страхование жизни с выплатой бонуса .....		192
<b>ГЛАВА 14. ОБЯЗАТЕЛЬНЫЕ ВИДЫ СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ. СТРАХОВЫЕ АННУИТЕТЫ</b>		
14.1. Понятие аннуитета в страховании жизни и виды аннуитета.....		210
14.2. Особенности деятельности страховщика по аннуитетного договора .....		220
<b>ГЛАВА 15. МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ ЗДОРОВЬЯ</b>		
15.1. Общая характеристика и теоретические основы медицинского страхования.....		223
15.2. Социально-экономическая сущность медицинского страхования .....		228
15.3. Место медицинского страхования в области здравоохранения зарубежных стран .....		232
15.4. Особенности существующей системы рынка добровольного медицинского страхования в Узбекистане.....		240
15.5. Проблемы внедрения обязательного медицинского страхования в Республике Узбекистан .....		247
<b>ГЛАВА 16. СТРАХОВАНИЕ ОТ ИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ</b>		
16.1. Сущность, необходимость и социальное значение		

	страхования от инфекционных заболеваний.....	256
16.2.	Организция страхования населения от инфекционных заболеваний и его значение в охране здоровья населения...	266
16.3.	Зарубежный опыт страхования от инфекционных заболеваний и на случай смерти .....	275
<b>ГЛАВА 17. СТРАХОВАНИЕ ОТ НЕСЧАСТНЫХ СЛУЧАЕВ</b>		
17.1.	Виды страхования от несчастных случаев и их особенности .....	286
17.2.	Порядок осуществления и анализ страхования от несчастных случаев .....	295
17.3.	Зарубежных опыт страхования от несчастных случаев.....	299
<b>ГЛАВА 18. СОЦИАЛЬНОЕ СТРАХОВАНИЕ</b>		
18.1.	Создание и правовые основы системы социальной защиты в условиях модернизации экономики .....	307
18.2.	Понятие социального страхования, его сущность и теоретические основы.....	311
18.3.	Система социального обеспечения .....	317
18.4.	Порядок начисления и выплаты пособий по государственному социальному страхованию .....	323
18.5.	Порядок выплаты взносов в государственное социальное страхование предпринимателями .....	329
<b>ГЛАВА 19. ПЕНСИОННОЕ СТРАХОВАНИЕ</b>		
19.1.	Сущность и социальное значение пенсионного страхования .....	336
19.2.	Права граждан относительно государственного пенсионного обеспечения .....	338
19.3.	Страхователи по пенсионному страхованию и страховые случаи.....	342
19.4.	Исполнение договора по пенсионному страхованию.....	344
	<b>Глоссарий.....</b>	<b>346</b>
	<b>Список использованной литературы.....</b>	<b>367</b>

## CONTENTS

	<b>INTRODUCTION.....</b>	<b>3</b>
<b>CHAPTER 1.</b>	<b>EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF LIFE INSURANCE</b>	
1.1.	History of emergence of early life insurance .....	5
1.2.	The emergence and development of commercial based life insurance in European countries.....	8
1.3.	The emergence and development of life insurance in Uzbekistan.....	12
<b>CHAPTER 2.</b>	<b>OBJECT, SUBJECT, PURPOSES AND TASKS OF THE DISCIPLINE OF LIFE INSURANCE</b>	
2.1.	Essence, object and subject of the discipline of life insurance.....	19
2.2.	Purposes and tasks of the discipline of life insurance .....	22
2.3.	Communication with other disciplines and features of the discipline of life insurance .....	28
<b>CHAPTER 3.</b>	<b>LEGAL BASES OF IMPLEMENTATION OF LIFE INSURANCE</b>	
3.1.	Features of the legal regulation of life insurance .....	32
3.2.	State regulation of the market of life insurance .....	36
3.3.	Main standard and basic documents of the implementation of life insurance .....	40
<b>CHAPTER 4.</b>	<b>THE RISKS ARISING AT LIFE INSURANCE AND RISKS OF THE INSURER</b>	
4.1.	Concept of risk, its essence and the definition given to risk by scientists.....	43
4.2.	Classification of risks .....	50
4.3.	The risks characterizing to life insurance and their inclusion in contracts of insurance .....	54
<b>CHAPTER 5.</b>	<b>TYPES OF LIFE INSURANCE. LONG-TERM AND SHORT-TERM LIFE INSURANCE</b>	
5.1.	Life insurance for a fixed term .....	59
5.2.	Long-term life insurance.....	63
5.3.	Death insurance .....	65
<b>CHAPTER 6.</b>	<b>DRAWING UP INSURANCE CONTRACTS IN LIFE INSURANCE</b>	
6.1.	Legal aspects of drafting life insurance contracts.....	74
6.2.	Classification of contracts of life insurance.....	78
6.3.	Types of contracts of life insurance.....	81
6.4.	Repayment of the contract of insurance.....	87
<b>CHAPTER 7.</b>	<b>FEATURES OF THE ORGANIZATION OF LIFE INSURANCE</b>	
7.1.	The general control and the economic environment in life	

	insurance.....	91
7.2.	Definition of problems in life insurance. Decision-making. Experience monitoring.....	93
7.3.	The existing problems at implementation of life insurance and a way of their elimination.....	96
<b>CHAPTER 8.</b>	<b>TARIFF RATES IN LIFE INSURANCE</b>	
8.1.	Concept of an insurance tariff, tariffing of insurance products.....	101
8.2.	Tariff policy in insurance company.....	104
8.3.	The composition and structure of the insurance tariff rate. Features and general principles of calculating gross and net rates.....	108
<b>CHAPTER 9.</b>	<b>IMPLEMENTATION OF ACTUARIAL CALCULATIONS AT LIFE INSURANCE</b>	
9.1.	General characteristic of activity of actuaries.....	111
9.2.	Implementation of actuarial calculations at life insurance....	115
<b>CHAPTER 10.</b>	<b>FORMATION OF INSURANCE RESERVES IN LIFE INSURANCE</b>	
10.1.	Need of formation of insurance reserves for life insurance.....	123
10.2.	Rules of formation of insurance reserves in life insurance.....	127
<b>CHAPTER 11.</b>	<b>THE MAIN INSURANCE POLICIES ON LIFE INSURANCE</b>	
11.1.	The main insurance policies on urgent insurance .....	140
11.2.	The main insurance policies on lifelong insurance .....	143
11.3.	The main insurance policies on insurance on survival.....	144
11.4.	Other types insurance policies on life insurance.....	146
<b>CHAPTER 12.</b>	<b>INVESTMENT ACTIVITY OF THE INSURANCE COMPANY WHICH IS ENGAGED IN LIFE INSURANCE</b>	
12.1.	Investment activities of insurance companies. Inflation and its impact on investment activities.....	156
12.2.	Legal bases of implementation of investment activity in Uzbekistan.....	164
12.3.	Foreign experience of investment activity of insurance companies.....	171
<b>CHAPTER 13.</b>	<b>LONG-TERM LIFE INSURANCE</b>	
13.1.	Essence, need and value of long-term life insurance .....	177
13.2.	Development and creation of legal bases of long-term life insurance in Uzbekistan for years of independence .....	185
13.3.	Long-term life insurance with payment of a bonus .....	192

<b>CHAPTER 14. OBLIGATORY TYPES OF LIFE INSURANCE. INSURANCE ANNUITIES</b>	
14.1. Concept of annuity of life insurance and types of annuity...	210
14.2. Features of activity of the insurer on the annuity contract....	220
<b>CHAPTER 15. MEDICAL INSURANCE AND INSURANCE OF HEALTH</b>	
15.1. General characteristic and theoretical bases of medical insurance .....	223
15.2. Social and economic essence of medical insurance.....	228
15.3. Place of medical insurance in the field of health care of foreign countries .....	232
15.4. Features of the existing system of the market of voluntary medical insurance in Uzbekistan.....	240
15.5. Problems of introduction of compulsory medical insurance in the Republic of Uzbekistan.....	247
<b>CHAPTER 16. INSURANCE UPON INFECTIOUS DISEASES</b>	
16.1. Essence, need and social value of insurance upon infectious diseases.....	256
16.2. Organization of insurance of the population upon infectious diseases and its value in public health care.....	266
16.3. Foreign experience of insurance upon infectious diseases and on a death case .....	275
<b>CHAPTER 17. INSURANCE UPON ACCIDENTS</b>	
17.1. Types of insurance from accidents and their feature.....	286
17.2. Procedure and analysis of insurance upon accidents.....	295
17.3. Foreign experience of insurance upon accidents.....	299
<b>CHAPTER 18. SOCIAL INSURANCE</b>	
18.1. Creation and legal bases of the system of social protection in the conditions of modernization of economy .....	307
18.2. Concept of social insurance, its essence and theoretical bases.....	311
18.3. Social security system .....	317
18.4. Order of charge and payment of grants for the state social insurance .....	323
18.5. Order of payment of contributions to the state social insurance by businessmen .....	329
<b>CHAPTER 19. PENSION INSURANCE</b>	
19.1. Essence and social value of pension insurance.....	336
19.2. Rights of citizens of rather state provision of pensions.....	338
19.3. Insurers on pension insurance and insured events .....	342
19.4. Performance of the contract on pension insurance.....	344
<b>Glossary.....</b>	<b>346</b>
<b>The list of the used literature.....</b>	<b>367</b>

**Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich**  
**Zakirxodjayeva Shirin Akmalovna**

## **HAYOT SUG‘URTASI**

*Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun*  
*darslik*

Muharrir: \_\_\_\_\_

Sahifalovchi: \_\_\_\_\_

Musahhah: \_\_\_\_\_

Litsenziya raqami \_\_\_\_\_. Bosishga \_\_\_ yil \_\_\_\_\_da ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog‘ozi. Tayms garniturasini. Shartli bosma tabog‘i 23,87.  
Nashr tabog‘i 29,88. Adadi 50 nusxa. Shartnoma №\_\_\_\_\_. Buyurtma №\_\_\_\_\_.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“IQTISOD–MOLIYA” nashriyoti, 700084, Toshkent, A.Temur ko‘chasi, 60 A uy.

Toshkent Moliya instituti bosmaxonasida chop etildi. 700084, Toshkent, A.Temur ko‘chasi, 60 A uy.